


# XUDOYBERDI TO‘XTABOYEV



## QAYLARDASAN, BOLALIGIM

  
YANGI ASR AVLODI  
TOSHKENT  
2017

**UO'K: 821.512.133-3**

**KBK: 84(5O)6**

**T – 98**

**To'xtaboyev, Xudoyberdi**

Qaylardasan, bolaligim: qissalar, hikoyalar, ertaklar /  
X.To'xtaboyev. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. – 224 b.

ISBN 978-9943-20-247-4

Xudoyberdi To'xtaboyevning o'quvchilarimizga navbatda havola etilayotgan kitobini biz umumiy nom bilan «Qaylardasan, bolaligim» deya nomladik. Yangi tuhfa yozuvchining siz sevgan, shu vaqtga qadar qo'ldan qo'ymay o'qib kelayotgan qissa va hikoyalari, shu jumladan, ertaklar jamlangan. Taqdim etilayotgan har bir asar Xudoyberdi To'xtaboyevning bolalik yillari, bolalik orzulari, bolalik sevinchlari, bolalik sog'inchlari haqida so'zlaydi. Bir paytlar siz kabi bola qalbi bilan dunyoga sig'magan, orzularini qahramonlari timsolida gavdalantirgan va o'z o'quvchisini hayratlar ummoniga g'arq qilgan adibni bu gal bolaligini, tug'ilgan qishlog'ini sog'ingan, yuraklari gup-gup urib, o'sha manzil tomon talpintirgan tengdoshingiz siymosida ko'rasiz.

Kitobdan o'rin olgan har bir asar qalbingizda shunday iliqlik va yorug'lik paydo qiladi!

**UO'K: 821.512.133-3**

**KBK: 84(5O)6**

**So'zboshi muallifi**

Safo MATJONOV,

pedagogika fanlari doktori, professor

ISBN 978-9943-20-247-4

© X.To'xtaboyev, «Qaylardasan, bolaligim». «Yangi asr avlodi», 2017-yil.

*Ushbu kitobimni taqdir taqozosi bilan murakkab  
sharoitda kamolga yetayotgan aqlli, zukko,  
bir-biridan shirin nabiralarim  
ROBIYAXON va BAXTIYORJONlarga  
bag'ishlayman.*

**Muallif**

**SEHRLI QALAM**  
**yoxud**  
**BOLALIGINI QO'MSAGAN BOBO**

Bundan ko'p yillar oldin oilada kechadigan «tarbiya soati»da aldoqchilikning gunohi azim ekanligini, chin insoniylikka erishish – kelajakda el koriga yaraydigan odam bo'lish uchun halol-poklik va albatta bolalikdan biror kasb-hunar egallash xususida suhbatlashib o'tirganimizda ko'p kitob o'qiydigan Yorqinjon degan nevaram «Sariq devni minib» romanidagi Hoshimjon ba'zan aldoqchilik qilib bo'lsa-da, o'qimasdan turib ham ko'p kasblarni egallaganini gapirib qoldi.

– Hayotda bunday bo'lishi mumkin emas, yozuvchi xayoliga kelgan narsalarni yozaveradi, – e'tiroz bildirdi Fotima ismli nabiram.

Har narsaga qiziquvchan Zuhra darrov gapni ilib oldi:

– Xayoliga kelganini emas, ko'rgan-bilganlarini, hayotda bor narsalarni yozishini Xudoyberdi To'xtaboyevning o'zlari televizorda aytganlarini eshitganman.

To'qsonni qoralagan bo'lsa-da, ko'rpa qavib o'tirgan onam – Enajon momo gapga aralashdi:

– Televizorda oldilariga bolalarni yigʻib, ertak aytib oʻtiradigan kishini aytayapsizlarmi?

Oʻshanda Xudoyberdi Toʻxtaboyev asarlarini oʻqib koʻrmagan, xat-savodi yoʻq onamning yozuvchi hayotni chuqur oʻrganib, qoʻlga qalam olishini toʻgʻri anglaganidan hayratlanganman.

Xudoyberdi Toʻxtaboyev...

Bu nomni eshitganda yoki oʻqiganda katta-kichik – barchaning yuz-koʻziga bir iliqlik yoyilishini kuzatish mumkin. Oʻylab qolaman. Ijodkorning kitobxonlar qalbiga bu qadar chuqur kirib borishining sababini tasmollayman. Oʻzbek bolalar adabiyoti dovrugʻini nafaqat rus, ukrain, ozarbayjon, qozoq, gruzin, qirgʻiz, belorus, turkman kabi hamdoʻstlik mamlakatlari kitobxonlari, balki uzoq xorijlik – ingliz, arab, yapon, nemis, bolgar, fransuz, ispan, chex bolalari orasida ham keng yoyib kelayotgan adibning badiiy mahoratini yuksaltirgan omillar toʻgʻrisidagi kuzatishlarim xayolimdan kechadi.

«Har bir yozuvchining oʻziga xos hayot yoʻli bor, – deb yozgan edi akademik M.Qoʻshjonov «Sariq devni minib» kitobidagi soʻzboshida. – Tabiiyki, u tugʻilib oʻsgan muhit ham, uni oʻrab olgan tabiat olami ham, uning bolalik chogʻlari-yu ilmga intilishlari ham, va nihoyat, adabiyotga kirib kelish yoʻllari ham oʻziga xos boʻladi... Xudoyberdi Toʻxtaboyevning yozuvchilar safiga kirib kelishi sirlari bilan qiziqsangiz, anglaysizki, u adabiyot maydoniga oʻnqir-choʻnqirli yoʻllar bilan, baʼzan qoqilib-suqilib, qanchadan-qancha qiyinchiliklarni yengib kirib kelgan».

Ustozga qoʻshimcha qilib aytish joizki, mahorat choʻqqilarini egallashda «oʻnqir-choʻnqirli yoʻllar» va turli qiyinchiliklar bilan birga, xalq ruhiyati va til boyliklarini oʻzlashtirish bilan bogʻliq xudo bergan talantini ham alohida taʼkidlash zarur.

Darhaqiqat, o'zi qalamga olgan qahramonlar ruhiyati ich-ichiga kirib borish, surati va siyrati tasvirining uyg'unligiga erishish orqali kitobxonning o'zligini anglashga yo'naltirilishini badiiy adabiyotning bosh vazifasi deb bilgan adib jahonga mashhur «Sehrlı qalpoqcha», «Sariq devni minib» asarlarini yaratgunga qadar katta hayot va ijod maktabini o'taydi. Adib asarlari xususida gap ketganda, bolaligida boshdan kechirgan turmush mashaqqatlari, bobosi va buvisi tarbiyasi, o'qituvchilik faoliyati, gazetalar tahririyatidagi felyetonchiligi bo'lajak yozuvchini hayotga jiddiy ko'z bilan qarashga yo'naltirganini sezish qiyin kechmaydi.

«Mening bolalik va o'smirlik davrim, – deb yoza-di X.To'xtaboyev, – urush davriga to'g'ri kelgan. Ota-onasiz yetim qolgan hamqishloqlarimning o'kinch va armonlarini eshitganman. O'g'lidan qora xat kelgan onalarning ko'ksini yulib dodlaganlarini, akasini intizor kutayotgan singillarning, eridan barvaqt judo bo'lgan yosh-yosh juvonlarning pinhoni ko'z yoshlarini ko'rganman. O'gay otam – usta Abduqodir ishchi batalonga ketgach, biz oilada sakkiz bola qoldik. Men ular bilan rosa bolalar uyidan bolalar uyiga o'tib «sayr» qilganman. Hatto Toshkentdan Qo'qongacha piyoda kelgan paytlarim bo'lgan».

Dindor buvisi bilan bobosining ko'ngliga taskin beruvchi hikoya va ertaklari ruhida tarbiya topgan yozuvchi asarlarida dev, sehrgar, afsungar, iblis, jodugar, jin kabi majoziy obrazlarga keng o'rin berilishi, «bulutdek baland», «bilaklari yo'g'on; bittasi chaqaloqning belidek keladi», «na'ra tortganida xonaning shifti ko'tari-layotgandek bo'ladi» singari afsonaviy qahramonlarga xos obrazli iboralarning ishlatilishi tabiiy. Har qanday yozuvchining xarakter yaratish mahorati bilan bog'liq bu xususiyatni X.To'xtaboyev asarlari syujetining qi-

ziqariligi va badiiy tilining o'ziga xosligini ta'minlagan omillardan biri sifatida baholash mumkin.

Yozuvchi ijodining ilk davrida «Jonginam, shartingni ayt», «Maxsus topshiriq», «Xarakteristika» nomli hajviy, «Aka-uka Omonboy bilan Davronboyning qishloqqa gaz olib kelganlari haqida jajji qissa», «Sir ochildi», «Kichkina rais» kabi sof realistik asarlar yaratgan bo'lsa-da, uning nomini «Sariq devni minib», «Besh bolali yigitcha», «Qasoskorning oltin boshi», «Mungli ko'zlar», «Shirin qovunlar mamlakati» singari sarguzasht romanlari ellar aro mashhur qildi.

Mavridi kelganda, X.To'xtaboyev ijodidagina emas, o'zbek bolalar adabiyotida ham muhim sahifani tashkil etadigan «Sariq devni minib» romani tilga olib o'tilsa, yomon bo'lmas. Asardagi sehrli qalpoqcha ramziy timsolini adibning jiddiy ijodiy topilmasi deyish mumkin. Sehrli qalpoqcha muallif badiiy niyatini ifoda etishdagina qulaylik tug'dirib qolmasdan, kitobxonning qiziqishini tutib turuvchi vosita vazifasini ham bajaradi. Asar bosh qahramoni Hoshimjonning sehrli qalpoqcha yordamida turli ko'chalarga kirib chiqishi roman syujeti qurilishida muhum o'rin tutadi. Natijada kitobxon har narsaga qodir sehrli qalpoqcha yordam bergan taqdirda ham, bilim olmasdan, biron kasb-hunarning boshini tutmasdan, hayotda o'z o'rnini topib baxtli bo'lolmasligiga ishonch hosil qiladi. Bu esa «bilim ol», «hunar o'rgan» degan quruq pand-nasihatdan ming chandon ta'sirliroqdir.

X.To'xtaboyev qahramonlarining har biri o'ziga xos qiyofa va gapirish manerasiga ega bo'lsa-da, ularni quvnoq va hayotbaxsh yumor birlashtirib turishini ilg'ash qiyin emas. Asar qahramonlarining o'ta og'ir vaziyatlarda o'zini tutishi, sinovlarni mardona yengib o'tib, nurli manzillarga intilishi, ezgulikka sadoqati

tasviri orqali ma'naviy-axloqiy jihatidan g'oyat muhim xulosalarga kelinadi.

Yozuvchining asarlaridan asarlariga ko'chib yuruvchi qahramonlar ruhiyatidagi quvnoqlik, nutqidagi hozirjavoblik, zukkolik kitobxon qalbida iliqlik uyg'otadi. Bu esa deyarli hamma yozuvchilar orzu qiladigan, ammo ko'pchilikka nasib etavermaydigan badiiy barkamollik nishonasidir.

E'tiborli jihati shundaki, mazkur to'plamga kiritilgan hikoyalar, «Aka-uka Omonboy bilan Davronboyning qishloqqa gaz olib kelganlari haqida jajji qissa» adibning dastlabki ijodiy izlanishlariga xos xususiyatlarni birlashtirgan bo'lib, ularning ko'pchiligi qariyb ellik yillardan buyon boshlang'ich sinflarning «O'qish kitobi» darsliklaridan tushmay keladi. Bolalar adabiyotining qon tomiri bo'lgan hayotbaxsh didaktika va badiyat uyg'unligiga yozuvchining o'ziga xos munosabati mavjud. Jumladan, «Qizg'anchiq», «Shoshqaloq», «Orif cholning o'rikzori» hikoyalarida kichkintoylar hayotidan olingan (buni adibning o'z hayotidan olingan deyish ham mumkin) e'tiborli biron voqea tasviridan kelib chiqadigan tabiiy xulosa ko'proq o'sha voqea tufayli hikoya qahramoni tushgan holat tarzida havola qilinadi.

«Qizg'anchiq» hikoyasi biror narsasini o'rtoqlariga ravo ko'rmaydigan Shavkatjon degan bolaning qilmishlariga bag'ishlanadi. O'zi qiynalib qolganida o'rtoqlarining beminnat yordam ko'rsatishi uning tepsa-tebranmas qalbini larzaga keltiradi, boshqalarga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirib yuboradi. Shavkatjon timsolidagi qizg'anchiq bolaning qayta tarbiyalanishi hali oq bilan qorani ajrata olmaydigan kitobxonlar uchun chinakam ibrat namunasi. «Aka-uka Omon-

boy bilan Davronboy qissasi»da maktabgacha yoshdagi bolalarga xos qiziquvchanlik, arzigan-arzimagan narsasi bilan maqtanish, oʻyinqaroqlik va kattalarga taqlid kabi xislatlar umumlashtiriladi.

Omonboy bilan Davronboyning oʻziga xos soddaligi ham, quvligi ham bor. Ular atrof-muhitga, odamlarga bolalik nigohi bilan qaraydilar. Qissaning tarbiyaviy ahamiyati oʻzbek bolalar adabiyotida maktabgacha taʼlim yoshidagi bolalar hayotidan olib yozilgan dastlabki yirik asarlardan boʻlganligi bilan ham eʼtiborga loyiqdir. Oʻtish davrida hali tegishli hayotiy tajribaning yoʻqligi tufayli koʻpchilik bolalarning turmush mashaqqatlari qarshisida dovdirab qolib, oʻzlarini oʻqqa-choʻqqa urishlari, hatto baʼzilarning toʻgʻri yoʻl qolib, jinoiy ishlarga qoʻl urishlari adibning kattakichik barcha asarlaridan chuqur joy olgan.

Sehrgarlarning sahnalarda qoʻlda tayoqcha bilan oddiy koʻz ilgʻamaydigan moʻjizalar yaratishi koʻpchilikka maʼlum. X.Toʻxtaboyevni ham sehrlil qalami bilan shunday moʻjizalar yaratadigan adib, desak muholaga boʻlmaydi. Farqi shundaki, sahnadagi sehrgarlik faqat namoyish paytidagina koʻz oʻngingizda gavdalanadi. Yozuvchi asarlarini esa qayta-qayta mutolaa qilish orqali u yaratgan badiyat olami ichiga chuqur kirib boriladi.

Oʻzbekiston xalq yozuvchisi X.Toʻxtaboyevni asarlarining tarqalish jugʻrofiyasiga koʻra jahongashta adib deyish mumkin. Yozuvchi qalamiga mansub hikoyalar, qissa va romanlar begʻubor bolalik olami, xalq tarixi va taqdiri bilan bogʻliq muhim muammolarning badiiy ifodasi sifatida necha-necha avlod bolalarining sevimli maslakdoshi va maslahatgoʻyiga aylangan.

*Safo MATJONOV,*  
*pedagogika fanlari doktori, professor*



## QISSALAR



# AKA-UKA OMONBOY BILAN DAVRONBOYNING QISHLOQQA GAZ OLIB KELGANI HAQIDA JAJJI QISSA

## *BIRINCHI BOB*

### SHOFYOR AMAKINING SUV SO'RAB KELGANI VA SHU BAHONADA TANISHIB OLGANLARI

Davronboy oltiga kirgan. Omonboy yana bir oydan so'ng to'rtga to'ladi. Bu ikki aka-uka tog'lar etagidagi «Qo'rg'oncha» deb atalmish olis qishloqchada, dov-daraxtlarga ko'milgan bir hovlida yashashardi. Ilgari bu yerlar sal-pal zerikarli edi, o'ynash uchun o'rtoq topilmasdi. O'rtoq axtarib qishloqning ichkarirog'iga boraylik, deyishsa, Mahmud olako'zning kuchugidan qo'rqishar edi... Endi bo'lsa, unchalik zerikarli emas, sal-pal qiziqarliroq bo'lib qoldi. Nega desangiz, yaqinda qishloqni qoq ikkiga bo'lib, o'rtadan kattakon yo'l o'tdi. Uyda zerikib qolsang, shundoqqina ko'chaga chiqsang, tamom – g'izillab o'tayotgan mashinalarni tomosha qilib, maza qilib o'tiraverasan.

Omonboy bilan Davronboy bugun ham shunday qilishmoqchi edi – to'g'rirog'i, kunbotar tomonga o'tayotgan mashina qancha-yu, kunchiqar tomonga o'tayotgan mashina qancha, shuni bir hisoblab ko'rishmoqchi edi. Ammo...

Oq tovuq bilan qora tovuq tuxum tug'ish uchun xuddi maslahatlashgandek bir vaqtda katakka kirib qolishsa bo'ladimi! Siz, ehtimol, xo'sh, katakka kirgan bo'lsa nima bo'пти, o'zi tug'averadi-da, poylab o'tirish shartmi, deb o'ylarsiz? To'g'ri, shart emas, o'zi tug'sa ham bo'laveradi. Lekin masalaning bir muhim tomoni borki, buni unutmazlik kerak. Gap shundaki, oq tovuq Omonboyniki, uning tuxumi sal kattaroq bo'la-

di. Qora tovuq Davronboyniki, uning tuxumi, odatda, sal kichikroq bo'ladi. Davronboy buni hech tan olmaydi, hamisha tuxumning kattasini o'ziniki qilib oladi. Shuning uchun Omonboy ko'chaga chiqib, g'izillab o'tayotgan mashinani sanashdan voz kechdi:

– Men tovug'im tug'ayotganida tuxumini poylab o'tiraman! – dedi u katakning ro'parasiga kelib.

– Men ham poylab o'tiraman, – uning yonginasiga o'tirdi Davronboy ham, – bugun mening tovug'im sal kattaroq tug'ishi kerak.

– Hecham-da, sening tovug'ing hamisha kichkina tug'adi.

– Bugun katta tug'adi... Boshingga bir tushiraymi! – dedi akasi qo'lini musht qilib.

– Betingni timdalab olaman! – deb ukasi ham sekin o'rnidan tura boshladi.

Aka-uka jo'jaxo'rozdek tikkama-tikka bo'lib olishib ketishdi.

Akasi qora tovuq bugun katta tuxum tug'ishi mumkinligini, ukasi esa qora tovuq hecham katta tuxum tug'a olmasligini isbotlamoqchi edi. Xuddi shu paytda to'satdan, ha-ha, to'satdan, ko'cha eshikni kimdir do'mbira qilib chala boshladi... Aka-uka bir-birlarining yoqasidan qo'lini olib, vahima ichida jim qolishdi.

– O'g'ri! – rangi o'chib shivirladi Omonboy.

– Shpion bo'lsa-ya, – dedi Davronboy ham qo'rquv ichida.

Eshik yana taqilladi.

– Kim bor? – degan ovoz ham eshitildi ketidan.

Aka-uka bitta-bitta bosib, eshik yoniga borishdi. Tirqishidan asta mo'ralab qarashgan edi, xayriyat, o'g'ri ham emas, shpion ham emas, chelak ushlagan novcha bir amaki ekan.

– Amaki, siz kimsiz? – deb so'radi o'zini bosib olgan Davronboy.

- Shofyorman, – degan ovoz eshitildi eshik orqasidan.
- Shofyor bo'lsangiz, nega mashinangizni haydamay, bizning eshik oldida turibsiz?
- Mashina buzilib qoldi.
- Nega buzilib qoladi?
- Yuki og'irlik qilib, baloni yorilib ketdi-da.
- Yukni ozroq bossangiz bo'lmasmidi?
- Menga qara, yaxshi bola, sen ham mening o'g'limga o'xshab savollarni yog'dirib tashlashga usta ekan-san... Ozigina suv bergin.
- Suv o'zingizgami yoki mashinagami?
- Obbo... O'zingayam, mashinamgayam...

To'g'ri, Davronboy deganlari chindan ham sersavol bola edi. Savol bermayman, desa ham bergisi kelaveradi. Hozir ham shunaqa bo'ldi. Hech narsa haqida so'ramayman deb turuvdi, to'satdan:

- Mashinangiz KRAZmi yoki samosvalmi? – deganini o'zi ham bilmay qoldi.
- KRAZ, – degan javob qaytdi eshik orqasidan.
- KRAZ bo'lsa, unga suv bermayman.
- Nega endi bermas ekansan?

Bu amakining o'zi ham qiziq ekan-da, nega deb so'rab o'tiribdi-ya, axir hamma narsa ravshan-ku! Bo'ldi-bo'ldi bo'lganda, yuk tashuvchi mashinalar Omonboyga, yengil mashinalar Davronboyga taqsimlangan. Yo'l yoqasiga chiqib, kimning mashinasi ko'p o'tishga o'ynashganda Omonboy yuk mashinalarini sanashga haqli.

Davronboy bu gaplarni tushuntirib beruvdi, novcha amaki shu oddiygina haqiqatni haligacha bilganiga afsuslanib:

- Shunaqami? – dedi qoshlarini kerib.
- Shunaqa! – deb qo'ydi Davronboy ham ta'kidlab.

Novcha amaki eshikni ochib yuborishini so'rab, endi Omonboyga murojaat qila boshladi. Omonboy

o'ziga qarashli mashinaga va novcha shofyorga suv darkor bo'lib qolganiga negadir xursand bo'lib ketdi.

Davronboy bo'lsa juda hushyor va ehtiyotkor bo'lganligi uchun yuk mashinasi to'xtagan-to'xtamaganligini tekshirib ko'rish maqsadida narvonga tirmashib tomga chiqa boshladi. Narvonning oxirgi pog'onasiga chiqar-chiqmas:

– Voy-bo'y, mashinaning kattaligini qaranglar! – deb gichqirib yubordi.

Bu orada har qanday ishni ham juda tez bajarishga o'rgangan Omonboy allaqachon eshikning tambasini tushirib bo'lgan edi. Qo'liga pachaqlangan bir chelak ushlab olgan, dadalariga o'xshash novcha, yelkalari keng, yalpoq yuzli, «ayvonchasi» ikki qarich keladigan chipor shapkani sal qiyshaytirib olgan shofyor amaki Omonboy eshikni ochishi bilan:

– Barakalla, azamat, sen juda esli bola ekansan, – deb moy hidi kelib turgan kattakon kafti bilan Omonboyning boshini silab qo'ydi. Omonboy haqiqatan ham azamat va haqiqatan ham esli bola edi. Shuning uchun ham shosha-pisha:

– Amaki, men-chi kechasi yotayotganimda kindigimga yog' surtib yotaman! – deb axborot berdi yana.

– Mana buni chinakam qahramonlik desa bo'ladi! – novcha amaki bu gal Omonboyning yelkasiga qoqib qo'ydi, – suvni qayerdan ichasizlar?

– Bog'da hovuz bor, – negadir hovliqib dedi Omonboy, – orqamdan yuravering... Undan keyin-chi, amaki, men ovqat yeyishdan oldin qo'limni yuvaman.

– Voy-bo'y, sen chindan ham ajoyib bola chiqib qolding-ku!

– Undan keyin-chi, amaki men ovqat yeganimda labimni chapillatmayman.

– Ofarin!

– Davron-chi, amaki, juda yomon bola. Har kuni mening katta tuxumimni olib qo‘yadi.

– Shoshmay tursin, uni bir boplaymiz hali.

– Uni mashinaga chiqarmaymiz, bo‘ptimi?

– Bo‘pti.

– Amaki, meni mashinaning kabinasiga o‘tqizib qo‘yasiz, xo‘pmi?

– Xo‘p.

– Signalini chalib ko‘rsam maylimi?

– Mayli.

Amaki bilan Omonboy mana shunga o‘xshash ba’zi bir muhim narsalar haqida o‘zaro bitimga kelishib, bog‘ etagidagi kattakon hovuzdan chelakni to‘ldirib suv olib chiqqunlaricha, hamma narsaga birinchi bo‘lib ulguradigan, oyog‘i chaqqon Davronboy allaqachon mashinaning oldiga yetib borgan edi. Bunday qarasa, mashina haddan tashqari katta, orqasida pritsepi ham bor, ustiga katta odamlarning ham qulochi yetmaydigan quvurdan ikkitasini yuklab qo‘yishgan ekan. Pritsepdagi ballonning dami chiqib ketib, ulkan quvurlar bir tomonga sal og‘ib, hatto yiqilay-yiqilay deb turgan ekan. Davronboy ko‘p mashinalarning ustiga chiqqan. Bir xillarining signallarini ham chalib ko‘rgan edi-yu, lekin bunaqangi bahaybat mashinaga hech chiqmagan edi. Bir chiqib maza qilmoqchi bo‘luvdi, hech ilojini topolmadi. Shuning uchun ham mashinaning atrofida gir aylanib yuraverdi. Bu orada Omonboy bilan novcha amaki kelib qolishdi. Novcha amaki dami chiqib ketgan ballonga qarab uzoq tikilib qoldi, bosh chayqadi, keyin chelakdagi suvni bo‘yi barobar ko‘tarib yana simirib icha boshladi.

– Amaki, bu quvurlarni qayoqqa olib boryapsiz? – deb so‘radi Davronboy.

– Juda uzoqqa, – o‘yga tolib dedi novcha amaki.

– Ko‘prikning ustiga qo‘yasizlarmi?

Mana shu savoldan keyin bir tomonda Davronboy bilan Omonboy, bir tomonda uh tortib ketma-ket sigaret tutatayotgan novcha amaki o'rtalarida ajoyib bir suhbat boshlanib ketdi... Ma'lum bo'lishicha, bu bahaybat quvurlarni ko'prikning tagiga yotqizish uchun emas, balki bir-biriga ulab yer ostiga ko'mib, gaz olib kelish uchun ishlatishar ekan. Gaz degan narsa bamisoli lampa moyiga o'xshab lovillab yonar ekan. Uning olovi shunaqangi o'tkir bo'lar ekanki, ko'z ochib yumguncha qozondagi sho'rvani biqirlatib qaynatib yuborar ekan, pechkalarni ham, tandirlarni ham qizdirib yuboraverar ekan.

Shundan keyin do'stona va samimiy suhbat davomida yana shu narsa ham ma'lum bo'ldiki, bu qishloqning bolalari o'taketgan sho'x bolalar ekan. Ayniqsa, hu ro'paradagi mo'risidan buralib-buralib tutun chiqib turgan hovlida yashaydigan Mahmud olako'z degan bola hammasidan ham qizig'i ekan. O'tgan yili Omonboy bilan Davronboylarning shaftolisini ayni pishganida bitta qo'ymay tagiga to'kib ketibdi, katakdagi tuxumlardan ham hech kimga bildirmay, tez-tez olib turarkan. Xullas, mana shu boladan juda ehtiyot bo'lish kerak ekan...

## *IKKINCHI BOB*

### **AKA-UKALARGA G'OYAT MAS'ULIYATLI TOPSHIRIQ BERILGANLIGI HAQIDA**

Bu bobning voqealari, ochig'ini aytsam, mashinaning signalini chalishdan boshlanib ketdi. Omonboy sekin-sekin chalib, har chalganida signalning yoqimli ovozidan zavqlanib, maza qilganidan boshlarini silkitib kulayotgan edi, uning yonida o'tirgan Davronboy to'satdan shunaqangi qattiq chalib yubordiki, ma-

shinaning soyasida o'tirib, ketma-ket sigareta chekib, o'y surayotgan shofyor amaki ikki qo'li bilan qulog'ini berkitib:

– Hoy, bolakaylar, qulog'imni teshib qo'ydinglaring-ku! – dedi.

– Ajab bo'ldi! – dedi Omon akasiga tanbeh berib.

Davronboy ham ukasiga o'xshab mashinaning kabinasida maza qilayotgandi: oyog'ini likillatib o'tirish, uzoq-uzoqlarga ko'z tashlash, kattakon rulni u yoq-bu yoqqa burib ko'rish, signal chalish – xullas, hammasi gashtli edi-da. Davronboy ana shulardan bir yo'la mahrum bo'lishdan qo'rqib:

– Amaki, tuxum pishirib bersam yeysizmi? – deb so'radi shosha-pisha.

Shofyor amaki kechadan buyon tuz totmagan, qorni haddan tashqari och edi:

– Tuxumni qayerdan topasizlar? – deb so'radi.

– Omborxonada ikki chelak tuxum bor, – akasining o'rniga javob qaytardi Omonboy.

Shofyor amaki, qani ketdik bo'lmasa, degan edi, aka-ukalar mana hozir, mana hozir, deyishib, mashinaning signalini ustma-ust bosishaverdi. Oxiri shofyor amakining toqati toq bo'lib ketdi.

– Qo'yinglar-e, meni aldagan ekansizlar-u!

– Hecham-da, – shoshilib dedi Davronboy, – tuxum achib yotibdi... Oyim kecha dadamga: «Shu zormandalarni tezroq bir yoqli qilmasangiz, ariqqa ag'darib tashlayman», – degan, bildingizmi!.. Faqat bizda gugurt yo'q, oyim berkitib ketgan. Omonboy bir marta og'ilxonaga o't qo'yib yuborgandi. O'shandan keyin har kuni berkitib ketadi.

Shofyor amakida gugurt bor ekan.

Uhovlari uyga qarab yugurishdi. Shofyor amaki, hali aytganimizdek, haddan tashqari och edi. Tuxum-



larni tezroq pishirib, tezroq yeb olish uchun shoshayotgandi. Aka-ukalar bo'lsa, shunaqangi ajoyib va g'aroyib mashinaning shofyoriga xizmat qilish imkoniyati tug'ilgani va undan ham muhimi – tuxum bor deb, yolg'on gapirmayotganliklarini isbotlash uchun shoshishayotgan edi.

Ishning u yog'i juda tez yurishib ketdi. Davronboy omborxonadan bir chelak tuxumni inqillab ko'tarib chiqdi. Omonboy bir quchoq o'tin olib keldi. Novcha amaki o't qalab, qozonga suv soldi, tuxum tashladi.

– Amaki sizning ham o'g'illaringiz bormi? – so'rab qoldi Davronboy.

– Ikkita o'g'lim, uchta qizim bor, – sal-pal o'ygatilib dedi novcha amaki. – Qizlarim katta bo'p qolgan, o'g'illarim bo'lsa sizlar tengi.

– Mashinaga mindirib, kataysa qildirsangiz bo'lmaydimi?

– Bo'ladi.

– Nega bo'lmasa hozir mindirmadingiz?

– Ular juda olisda-da.

– Amaki, bizni o'sha yoqlarga olib borib keling, jon amaki!

– Qayoqlarga deysan?

– O'sha gaz bor joylarga-da.

– U yoqlarda nima qilasan?

– Gaz olib kelardik-da... Chelakni to'ldirib olib kelardik.

– Gazni chelakka solib bo'lmaydi-ku?

– O'zingiz lampa moyiga o'xshab suyuq bo'ladi, dedingiz-ku.

– Suyuq bo'ladi-yu, lekin baribir chelakka quyib bo'lmaydi-da.

– Bo'lmasa shishada olib kelamiz, xo'pmi?

Omonboyning ham shu paytda juda-juda gaplashgisi kelib ketdi. Shuning uchun ham shosha-pisha qo'li bilan akasining og'zini berkitib:

– O'sha yoqda bo'rilar ham ko'pmi? – deb so'radi shofyor amakidan.

– Uchrab turadi, – o'ylig'a tolib dedi amaki.

– Siz qo'rqmaysizmi?

– Qo'rqmayman.

– Qorningiz ochib qolsa nima yeysiz?

– Ba'zan chidashga to'g'ri keladi.

– Suvsab qolsangiz-chi?

– Uniyam bir ilojini topamiz.

Shofyor amaki shu paytda qozon ostiga o't qalab, goh Davronboy bilan, goh Omonboy bilan qiziq-qiziq narsalar haqida gaplashib o'tirgan bo'lsa-da, xayoli boshqa yoqlarda edi. O'g'illarini, qizlarini juda-juda ham sog'ingan edi u. Bunday xomcho't qilib ko'rsa, ularni ko'rmaganiga bir oycha bo'lib qopti-ya! O'g'illari hozir qayerlarda yurishgan ekan. Yoki ko'chaning boshiga chiqib, dadamiz kelib qolarmikan deb, yo'l poylab o'tirishganmikan... Bu yoqda bo'lsa ballon yo'rilib, ishning pachavasi chiqib o'tiribdi...

Omonboyning nazarida shofyor amaki ertaklardagi pahlavonlardek ko'rina boshladi. Bu bo'rilardan qo'rqmaydigan, suvsizligu ochlikka chidab ketaveradigan amaki chindan ham ertaklardagi qahramonlarning o'zginasi edi. Omonboyning bu amakiga yaxshilik qilgisi, nima bilandir xursand qilib, barakalla o'g'lim, degan ovozini eshitgisi kelib qoldi. Amakining orqasidan asta-sekin kelib, yelkasi osha qo'llarini ko'ksiga tashlab, qulog'iga:

– Og'ilxonada echkimiz bor, ko'rsataymi? – deb so'radi.

– Yo'q, keyin, – deb qo'ydi amaki.

– Televizorimiz yap-yangi, qo‘yib beraymi? O‘yinchi qizlar chiqadi.

– O‘yinchi qizlarmi... Ularniyam keyin ko‘rarmiz.

Amakining bunaqangi beparvoligi, Omonboy yaxshi ko‘rgan narsalarning hammasiga befarq qarashi uning alamini oshirib, jahlini chiqarib yubordi:

– Endi sizga hecham she‘r o‘qib bermayman! – dedi to‘satdan.

Omonboyning yig‘lamsirab turishi shofyor amakining xayollarini qochirib, o‘zini hushyor qilib qo‘ydi.

– Voy-bo‘y, hali sen she‘r o‘qishni ham bilasanmi? – dedi u qiziqqanidan o‘rnidan turib.

– Nima desam, yo‘q-yo‘q, deydilar...

– Omonboy, men rostdan ham she‘rni yaxshi ko‘raman, qani, birortasini o‘qib ber-chi!

– Aldayapsiz!

– Aldasam... har narsa bo‘lay, qani-qani!

Omonboy shu zahotiyuq alamini unutib, o‘zidan-o‘zi zavqlanib, ikki qo‘lini yoniga tushirdi-da:

– Davronboy xo‘ja,

Bulturgi jo‘ja.

Bola ochadi,

Tashlab qochadi! –

deb kimdandir eshitgan she‘rini dona-dona qilib, o‘qib berdi.

Shofyor amakiga she‘r yaxshigina ta‘sir qildi, shekilli, qah-qah otib kulib yubordi. Shunaqangi qattiq kuldiki, hovlida donlab yurgan tovuqlar cho‘chib, har tomonga qochib qolishdi.

– Obbo, Omon mirzo-ey, – dedi oxiri. – Beri kel, bir achomlashaylik, barakalla! Menga o‘g‘il bo‘lasanmi?

– Voy, sizga o‘g‘il bo‘lsam, o‘zimning dadam yetimcha bo‘p qoladi-ku! – qoshlarini kerib, taajjubdan ko‘zlarini katta-katta ochib dedi Omonboy.

Shofyor amaki yana kulib yubordi. Kulisha-kulisha, oʻrtaga tuzluqni qoʻyib olib, toʻygunlaricha tuxum yeyishdi, ketidan qora qumgʻonda choy qaynatib, ichishdi, eng oxirida ogʻilxonadagi bitta yoʻgʻon yoʻgʻoch olib chiqib, qiyshayib borayotgan quvurlarning oʻng tomoniga tirab ham qoʻyishdi.

– Ish degan mana bunday boʻlibdi, – dedi shofyor amaki mamnun boʻlib, – Davronboy, sen esli bolasan, shundaymi?

– Men ham esliman, – akasidan oldin javob qaytardi Omonboy.

– Ikkovlaringga bitta muhim topshiriq bor, juda ham muhim... Men hozir yoʻlovchi mashinalardan biriga oʻtirib, bir joyga borib kelaman. Men borib kelguncha mashinani poylab oʻtira olasizlarmi?

– Poylab oʻtira olaman! – baravariga javob qaytarishdi aka-ukalar.

– Hech kim kabinaga yaqin bormasin, xoʻpmi!

– Xoʻp.

– Demak, sizlarga ishonsam boʻladi-a?

– Boʻladi, – dedi Davronboy, – hamma javobgarlikni oʻz zimmamga olaman, faqat qaytayotganingizda bizga bir chelak gaz olib kelib berasiz, boʻptimi?

– Menga ikki chelak olib kelasiz! – deb topshiriq berib yubordi Omonboy ham.

Shofyor amaki yoʻlovchi mashinaga oʻtirayotganda yana bir marta:

– Sizlarga qattiq ishondim, begona odamlarni mashinaga yoʻlatmanglar, – deya iltimos qilib ketdi.

Davronboy bilan Omonboy bir soʻzli, vaʼdasining ustidan chiqa oladigan azamat bolalar edi. Shuning uchun ham ulkan mashina va uning ustidagi mashinadan ham ulkan quvurlarga begona bolalarni yaqin yoʻlatmaslik choralarini koʻra boshlashdi. Aka-ukada

qurol-yarogʻlar juda moʻl edi: plastmassadan yasalgan ikki xanjar, ogʻiga olmaning danagini solib otsa, har qanday yovni qirib tashlay oladigan ikkita miltiq va yana oʻsha plastmassadan yasalgan boʻlsa ham, chinakam tanklardan hech qolishmaydigan «T-34» markali ikkita tanklari bor edi. Dadalarining uvadasi chiqib ketgan eski toʻnini mashinaning soyasi tushib turgan tomonga toʻshab qurol-yarogʻlarni shay qilib, poyloqchilik qilishga kirishishdi.

– Mahmud olakoʻz kelib mashinaga tegsa, oʻldiraman, – deb qoʻydi Davronboy.

– Men-chi, aka, miltigʻim bilan otib tashlayman, xoʻpmi? – dedi Omonboy ham dadillanib. – Aka, shu mashina meniki-a?

– Yoʻq, ikkovimizniki.

– Hecham-da, yuk mashinalar meniki edi-ku?

– Endi ikkovimizniki boʻldi.

– Bekor aytibsan! – Achchigʻi chiqib ketdi Omonboyning.

– Boshingga bir tushiraymi, – dik etib oʻrnidan turdi Davronboy.

– Betingni timdalab olaman! – barmoqlarini burgut panjasidek yozib, akasining ustiga bostirib kela boshladi Omonboy.

### *UCHINCHI BOB*

#### **BU BOBNING MAZMUNINI OʻQIGANDAN KEYIN BILIB OLASIZ**

Oyilari ishdan qaytganda Davronboy bilan Omonboylar koʻchada poyloqchilikda turishgandi.

– Voy, oʻlmasam! – dedi oyilari boshidagi salkam bir qop oʻtni yerga qoʻya turib, – bogʻchaga bormadinglarmi?

– Endi hecham bog‘chaga bormaymiz, – shoshilib dedi Davronboy, – biz endi poyloqchilik qilamiz.

– Oyi, men akam bilan urishmadim, – deb axborot berib yubordi Omonboy.

Bir tomonda daladan horib-charchab qaytgan oyilari, bir tomonda poyloqchilik qilamiz, deb oftobning damida terga pishib ketgan va puxtagina qurollanib olgan yosh soqchilar – Davronboy bilan Omonboylar tikkama-tikka turib, rosa savol-javob qilishdi. Oyilari nima bo‘lganda ham bog‘chadan qolmaslik kerak edi, aftilaringga qarab bo‘lmaydigan bo‘lib ketibdi, o‘sha yerda ozodagina yurgan bo‘lardilaring, degan gaplarni aytdi. Yosh soqchilar bo‘lsa, aftimiz bilan ishingiz bo‘lmasin, mashinani tashlab ketishga haqqimiz yo‘q edi, degan gaplarni aytishdi. Aka-uka bir bo‘lganlari uchun, oyilari yengilib, uncha xafa ham bo‘lmay, uncha xursand ham bo‘lmay, haligi salkam bir qop o‘tni ko‘tarib, ichkariga kirib ketdi.

Xuddi shu payt kun bo‘yi kutilgan eng dahshatli xavf – Mahmud olako‘z paydo bo‘lib qoldi. U eshagini yalang‘och qilib minib, bo‘lar-bo‘lmasga irillayveradigan, tumshug‘igacha jun bosib ketgan kuchukchasini ortidan ergashtirib, qo‘lida tuguncha, jadal yurib kellar edi, mashinaga yaqinlashgach, eshagini to‘xtatib, hayrat ichida uzoq tikilib qoldi:

– Voy-bo‘y, kattaligini qaranglar! – dedi nihoyat ko‘zi chaqnab. – Kimning mashinasi bu?

– Bizniki! – ataylab qovog‘ini solib dedi Davronboy.

– Shofyor amaki bizni qorovul qilib ketgan, – qo‘shimcha qildi Omonboy. – Qaytayotganda bizga chelakda gaz olib keladi.

– Borib-borib senlarni qorovul qildimi, a?

– Qildi, alam qilsin!

– Bir tepsam yetti dumalab ketasan-ku!

Mahmud Davronboydan bor-yo‘g‘i bir yosh katta, xolos. Aka-ukalarni yolg‘iz uchratdi deguncha, albatta yig‘latib qochadi. Lekin hozir Davronboy bilan Omonboy undan zig‘ircha ham qo‘rqishmadi, nega desangiz, qo‘llarida qurollari bor! Mahmud ham mana shu xanjar-u miltiqlardan sal-pal qo‘rqdi shekilli:

– Opamnikiga pomidor olib ketyapman, bo‘lmasa ta‘zirlaringni berib qo‘yardim-a! – deb asta jo‘nab keta boshladi. Bexavotirroq joyga borib olgach, eshaginging boshini tortib: «Hali kelib, mashinalaringni ustiga chiqib, quvurlarini daranglatib chalib, maza qilib o‘ynayman», deb qo‘ydi.

Asta-sekin kech kirib, qorong‘u tusha boshladi. Bu orada oyilari, ovqat pishdi, ichib olinglar, deb ikki marta chaqirib ketdi. Keyingisida televizor qo‘yib beraman, «Olamga sayohat» bo‘lyapti, har xil hayvonlar chiqyapti, deb yolvorib ham ko‘rdi. Aka-ukalar ko‘nishmadi. Biz kirib ketsak, begona bolalar quvurlarni dumalatib ketishadi, deb turib olishdi. Uchinchi gal oyilari to‘ppa-to‘g‘ri keldi-da, hech narsa demay, Davronboyni chap qo‘ltig‘iga, Omonboyni o‘ng qo‘ltig‘iga qisib, chumchuq boladek chirqillatib uyga olib kirib ketdi. Yerga qo‘yib, ikkovining ham orqasiga – yumshoq joylariga bir tarsakidan tushirib:

– Qaysar bo‘lmay ketgurlar! – deb urishdi.

Davronboyga negadir juda alam qilib ketdi, ho‘ng-rab yig‘lab yubordi:

– Ovqatingizni ham ichmayman! – javrab alamini chiqara boshladi. – Uyingizni poylamayman, echkingizga ham qaramayman!

Oyilari chiday olmadi, shekilli, ikki o‘g‘lini tizzasiga olib, ter hidi kelib turgan kir peshonalaridan o‘pib: «Do‘mboqlarim, bilmay qoldim, kechiringlar», – deb uzr so‘radi.

Aka-uka hiqillashib o'tirib, chuchvara yeyishdi, so'ng indamasdan borib, o'rinlariga yotishdi-yu, boshlariga choyshab tortib olishdi.

– Ukajon, o'zimizni uxlaganga solib yotamiz, xo'pmi? – sekin shivirladi Davronboy.

– Nega unday qilamiz, akajon? – undan ham pastroq ovozda so'radi Omonboy.

– Biz uxlasak, oyim dadamga ovqat olib boradilar.

– Uxlamasak-chi?

– Obormaydilar... Unda biz mashina poylashga chiqolmaymiz, xo'p degin, jon uka!

– Keyin ertak aytib berasanmi?

– Aytib beraman.

– Tuxumniyam kattasini berasanmi?

– Beraman.

– Xo'p.

Oyilari shoshilib boshini yuva boshladi, keyin kattakon toshoyna yoniga kelib, sochini uzoq taradi, atir sepdi, quloqlariga sadarayhon shoxchalaridan qistirib oldi. Eng oxirida tashqariga chiqib, kastryulga to'ldirib chuchvara soldi, oyoq uchida bitta-bitta yurib kelib, yolg'ondakam pishillab yotgan Davronboy bilan Omonboyning peshonasidan ohista-ohista o'pib, yana oyoq uchida yurib chiqib ketdi.

Ko'cha eshik g'ichillatib yopilishi bilan aka-ukalar sapchib o'rinlaridan turib, o'choq boshidagi xanjar miltiqlarini olib, chinakam soqchilardek qaytadan qurollana boshlashdi.

– Aka, biz hech kimdan qo'rqmaymiz-a? – so'radi Omonboy poyloqchilik qiladigan o'rinlariga borgach.

– Qo'rqmaymiz! – deb qo'ydi Davronboy.

– Aka, ajinaning bir quloch dumi bo'ladimi?

– Bilmasam.

– Aka, alvastilar kunduzi qayerda yotishadi?..



– Bilmasam, – qo‘rqanidan ukasidan battarroq qaltirab dedi qorovulboshi Davronboy, – ukajon, ke, quvurning ichiga kirib olamiz.

– Voy, men chiqolmayman-ku!

Quvurlarning biri qiyshayib, yerga tegay-tegay deb turgan bo‘lsa-da, baribir, unga ikkovlarining ham bo‘yi yetmas edi. Og‘ilxonada eski yog‘och quti olib chiqib, oyoq ostilariga qo‘yib, oldin Davronboy, ketidan Omonboy ko‘tarilib olishdi. Hech kimga ko‘rsatmasdan chiqib olganlari uchun o‘zlarida yo‘q xursand edilar. O‘rtarog‘iga borib, taglariga dadalarining uvadasi chiqib ketgan eski to‘nini tashlab, joylashibroq o‘tirishdi. Endi hech narsa qo‘rqinchli emas! O‘sha dumi uzun alvasti-yu, hamisha tumshug‘ini jun bosgan kuchugini ergashtirib yuradigan Mahmud olako‘zlar ham kelaversin, paq-paq otib tashlashadi, tamom-vassalom! Oyilariyam topolmaydi, endi shapaloq bilan urib ham bo‘pti.

– Men maza qilyapman, – cho‘zib esnab qo‘ydi kichik qorovul.

– Menam, – hatto esnashga ham holi kelmay qoldi katta qorovulning.

– Akajon, men uxlab qolyapman.

– Menam...

Umuman qorovullarning gapida jon bor edi, negaki, «Qo‘rg‘oncha» qishlog‘ining kichik fuqarolari uyquga ketadigan vaqt allaqachon bo‘lgan edi.

## *TORTINCHI BOB*

### **QUVUR ICHIDA QO‘RQINCHLI SAYOHAT**

Shofyor amaki tuman markazidagi avtobazadan ko‘tarma kran topib kelganda vaqt yetti xufton bo‘lgan edi. Amaki ko‘tarma kran yordamida yorilgan

ballonlarni ko'z yumib ochguncha almashtirib oldi-yu, kunduzi olib chiqqan yog'ochni tashlab, shu bahonada Davronboy Omonboylar bilan xayrlashib chiqish uchun ularning uylariga kirdi. Hovli o'rtasidagi daraxtga bog'lab qo'yilgan yakka-yu yolg'iz echkidan boshqa narsa ko'zga tashlanmadi. Shofyor amaki yosh do'stlarining nomini aytib bir-ikki chaqirib ham ko'rdi. «Uxlab qolishganga o'xshaydi, – yana bir o'tganimda alohida to'xtab, rahmat aytib ketarman», – deb ko'nglidan o'tkazdi-da, shoshilib chiqib, mashinani o't oldirdi. U olis yo'llarga yurganda g'ing'illab so'zsiz kuylab borar, mashinaning tezligi oshgan sari kuy ham o'z-o'zidan avjiga chiqib borar edi. Bugun ham shunday bo'ldi.

Davronboy bilan Omonboylar esa hech narsadan xabarsiz, dunyoning hamma tashvishlarini: dadalarining oldidan qaytib kelib, o'g'illarini o'rnidan topolmay, sochini yulib, bo'zlab yurgan oyijonlarini ham, Mahmud olako'z-u katakdagi tovuqlar, hovlidagi echkilargacha – hamma-hammasini unutib, pishillab uxlab borishardi.

Davronboyning uyquasi qattiq, oyog'idan sudrab, boshidan suv quysangiz ham, to uyquga to'ymaguncha baribir uyg'onmaydi.

Omonboyning bo'lsa, uyquasi sal sergakroq edi. Hozir ham birinchi bo'lib Omonboy uyg'onib ketdi. Uyg'ondi-yu, quvur ichidagi zimiston qorong'ilikdan, har xil vahimali ovozlardan qo'rqib:

– Oyijon! – deya qichqirib yubordi.

Oyijoni uzoq-uzoqlarda qolib ketgandi, shuning uchun ham hech qanday javob qaytmadi. Akasi shundoqqina yonginasida yotganini ko'rib:

– Akajon, men qo'rqib ketyapman, – deya uni turtkilay boshladi.

Akasi ham javob qaytarmadi. Omonboy qorong'ida paypaslanib, bir amallab Davronboyning quloqlarini topib, bor kuchi bilan cho'zg'ilay boshladi. Davronboy xuddi shu paytda tush ko'rib yotgandi, tushida Mahmudning tumshug'igacha jun bosib ketgan kuchugi uni zirillatib quvib yurgandi. Bir tomondan qo'rquv, bir tomondan qulog'ining og'rishi, ikkovi bir bo'lib Davronboyning uyg'otib yubordi.

Uyqusirab:

– Tentak, nega qulog'imdand tortasan! – deb ukasining chakkasiga bir tushirdi. Tushirdi-yu, to'satdan quvur ichida yotganlari, bu quvurga ukasini o'zi aldab olib kelgani esiga tushib: «Kechir, bilmay qoldim», – deb yig'lab turgan Omonboyning bag'riga bosib oldi.

– Yo'qol! – itarib tashladi ukasi. – O'zim qo'rqib ketyapman-u, tag'in uradi-ya!

– Ukajon, ke, senam meni bir urib ola qol. Mana lunjimni shishirib turaman, yumshoqqina, maza qilasan!

– Kerakmas!

– Jon uka, yig'lamagin.

– Yig'lamay desam ham yig'lagim kelyapti... Uymizga kirib ketaman.

– Voy tentak, mashina yurib ketyapti-ku!

– Oyijon!!!

– Yig'lama, men ham yig'lab yuboraman, – shunday deb Davronboy ukasini bag'riga bosib, o'ziga tortdi.

Boshini, yuzlarini do'mboq qo'lchalari bilan yumshoq-yumshoq silab yupata boshladi.

Mashina g'uvillab ketib boryapti.

Quvurning ichidan har xil vahimali ovozlari eshildi. Bir yo'la yuztami, mingtami alvasti kirib olgandek juda vahimali, juda qo'rqinchli bo'lib qoldi. Quvurning ochiq tomonidan shamol hushtak chalyapti, har zamonda bir-birini quvlab o'tgan mashinalarning chi-

roqlari pov etib yonib, quvurni yarmigacha yoritadi, yana hammayoq zimiston bo'lib qoladi.

– Uka, biz botirmiz-a, hech narsadan qo'rqmaymiz-a? – Omonboyga dalda bera boshladi akasi.

– Baribir men qo'rqaveraman, – vahima ichida shivirladi ukasi, – oyimni sog'inib ketyapman... Mashinani to'xtat, tushaman...

Mashinani to'xtatish zarurligini Davronboy ham tushunib turibdi-ya, lekin qanday to'xtatishini bilmay boshi garang. Chaqirgani bilan baribir shofyor amaki eshitmaydi-ku... Bordi-yu, quvurning narigi boshiga, kabinaga tiralib ketayotgan tomonga borib, bor kuchlari bilan taqillatishsa-chi?

– Uka, – sekin shivirladi Davronboy, – yur, emaklab borib amakini chaqiramiz.

– Baribir eshitmaydi.

– Eshitadi, yur, jon uka, polvon ukam...

Aka-uka ketma-ket emaklashib, quvurning kabinaga qadalgan tomoniga qarab ketishdi. Quvurning bu tomoni haddan tashqari qorong'i bo'lgani uchun yana ham vahimaliroq tuyula boshladi. Omonboy hecham yurmayman, deb yotib olgan edi, shu paytda negadir ukasiga mehribon bo'lib qolgan Davronboy:

– Ke, meni ot qilib minib, bo'ynimdan mahkam quchoqlab ol, – deb uni mindirib oldi. Keyin ko'zlari-ni chirt yumib, kabina tomonga «to'rt oyoqlab» yurib ketdi. Kabinaga yetishgach, aka-uka baravariga:

– Amaki!!! – deb qichqira boshlashdi.

Javob qaytmadi.

– Amaki!!!

Yana javob qaytmadi.

Bordi-yu, kabinada amaki yo'q bo'lsa-chi? Bitta-yarim-tasi mashinani yurgizib yuborgan bo'lsa-chi? Ul-

kan mashina noma'lum tomonga olib qochib ketayotgan bo'lsa-ya!

– Akajon, meni mahkamroq quchoqlang, – negadir sizlab gapira boshladi Omonboy. – Aka, quvurning ichida bo'rilar bo'lmaydi-a?

– Bu yerda bo'rilar bo'lmaydi.

– Bo'rilar kelsa, otib tashlaymiz, xo'pmi?

– Xo'p.

– Tankimiz bilan bostirib ketamiz, xo'pmi?

– Xo'p.

– Aka, keling, amakini yana chaqiraylik. Tomoqlari qirilib, bo'yin tomirlari tortilib qolguncha chaqirishdi, baribir amakidan javob bo'lmadi. Umidsizlik, vahima yana ham kuchayib ketdi. Ikkovlari bir-birining pinjiga kirib, bir-birlarini achomlab, sovqotgan badanlarini bir-birlarining harorati bilan ilitib borishardi.

– Amakiga endi hecham tuxum bermaymiz, – dedi xo'rliги oshib Omonboy.

– Chelagida suv ham bermaymiz, – qo'shib qo'ydi Davronboy.

Shunday qilib, novcha amakini bir yo'la hamma narsadan mahrum qilishga qaror qilishdi. Omonboy akasini ot qilib minib bo'ynidan achomladi. Davronboy «to'rt oyoqlab» borib, dadalarining eski to'nini quvurning o'rtarog'iga surib keldi. Ikkovlari o'ralib olishdi. Sovuqdanmi, qo'rquvdanmi, tishlari takillardi. Serpaxta to'nga o'ralgach, badanlariga harorat yugurib, aka-ukani birdan uyqu elita boshladi.

– Aka, biz hech narsadan qo'rqayotganimiz yo'g'-a? – uyqusirab so'radi Omonboy.

– Biz hecham qo'rqmaymiz, – javob qaytardi Davronboy.

– Biz katta bo'lib qolganmiz-a?

- Bo‘lmasam-chi!  
– Aka, menga tuxumning kattasini berasiz, xo‘pmi?  
– Senga-chi, uka, rasm qalamimni, shildiroqlarimni, cho‘yan soqqamni beraman, xo‘pmi, ukajon?

Ukajoni javob qaytarmadi, nega desangiz, allaqachon uning ko‘zlari yumilib bo‘lgan edi. Davronboy ham keltirib bir esnadi-yu, boshini bir tomonga qiyshaytirib, asta uyquga keta boshladi.

Ulkan mashina bo‘lsa bepoyon cho‘l bag‘rida chiroqlarining o‘tkir nurlari bilan qorong‘i tun bag‘rini xanjardek tilib, o‘kirib, pishqirib, yeldek uchib borar, aka-ukalarni olis-olis o‘lkalar tomon olib qochar edi...

## *BESHINCHI BOB*

### **MEHMONLARGA QUYUQ ZIYOFAT BERILGANI**

Shunday qilib, ulkan mashina devlardek o‘kirib, qushdek uchib, qanchadan-qancha obod qishloqlarni, sersuv soyu anhonlarni, yam-yashil qir-u past-baland adirlarni ortda qoldirib boraverdi. Bu orada yosh soqchilar vahima ichida ikki-uch bor uyg‘onishib, goho yig‘lashib, goho oz-ozdan qiqirlashib, yana bir-birlarini achomlashib uyquga ketishdi.

Bir mahal Omonboy mundaq ko‘zini ochsa... mashina to‘xtab turganga o‘xshaydi-yu, quvurning ochiq tomonidan yorug‘ tushib, hammayoqni yoritib turibdi.

– Aka, turing, yorug‘ bo‘lib qolibdi, endi qo‘rqmaymiz, – dedi Omonboy.

Davronboy juda sekin uyg‘ondi. Uyg‘ongandan keyin ham uyqusirab: «Bugun bog‘chaga bormayman», deb ancha mahal g‘ingshib o‘tirdi. Keyin to‘satdan hushyor tortib:

– Uka, mashina to‘xtadimi? – deb so‘radi.

– To‘xtagani qachon edi-yu... – xafa bo‘lib dedi ukasi.

Xanjarlarni taqib, avtomatlarini qo‘lga olib, pastga tushmoqchi bo‘luvdi, eh-a, quvur bugun juda baland bo‘lib qolibdi, osilib tushishning hech iloji yo‘q, faqat sakrab tushsa bo‘ladi. Davronboy tepadan pastga sakrashning ustasi edi: tomdan, devordan, taxmondagi ko‘rpalarning ustidan pastga sakrashni yaxshi ko‘rardi. Sakragandan keyin yo oyisidan, yoki dadasidan, albatta, gap eshitib turardi. Bu yerda esa hech kim yo‘q, bemalol sakrasa bo‘laveradi... Dadasining eski to‘nini yerga tashlab, ustiga o‘zini otdi. U yerbu yerim sinib qolmadimi ekan deb, bir oz o‘ziga quloq solib ko‘rdi, og‘riq yo‘q, demak, hammasi joyida. Ukasini ham bir amallab tushirib oldi-da, keyin nima qilishini bilmay o‘ylanib qoldi... Atrofdagi quvur yuklangan mashinalar, poyezdning vagoniga o‘xshash g‘ildirakli uylar, tumshug‘i uzun avtokranlar, buldozerlar, uyum-uyum yog‘och taxtalar, har xil o‘yinchoqlar yasasa bo‘laveradigan temir parchalari, yap-yangi konserva bankalari... e, boringki, shunga o‘xshash narsalarning hech hisobi yo‘q ekan. Aka-ukalar qaysi birini avval tomosha qilishni bilolmay, ancha mahal garang bo‘lib turishgach, nihoyat shofyor amakini uyg‘otishga qaror qilishdi.

Shofyor amaki uxlab qolganga o‘xshaydi, hech javob qaytarmadi. Davronboy bir amallab yuqori ko‘tarilib, kabinaning eshigini ochgan edi, ish chatoq, hech kim yo‘q!

– Omon! – deb baqirib yubordi Davronboy. – Bizni mashina olib qochib kelganga o‘xshaydi, mana chiqib ko‘rgin, shofyor amaki yo‘q, qishloqda qolib ketganga o‘xshaydi... Mana, ishonmasang, o‘zing chiqib ko‘rgin. Ke, qo‘lingdan tortib yuboray!

– Yo‘q, o‘zing tusha qol, – ko‘nmay turib oldi ukasi,  
– mashina tag‘in yurib ketib qolmasin.

– Nariroq tur bo‘lmasa, men yerga sakrayman.  
Aka-uka nima qilishini, qayoqqa borishni bilmas edi.

Asta-sekin quyosh ham chiqqa boshladi, qiziq, bu yerlarning quyoshi qizarib, lovillab chiqarkan... Qishloqdagi uylarning eshigidan uyqusiragan, esnagan, kerishgan odamlar birin-ketin chiqib, o‘zlari chiqqan uyning orqa tomoniga o‘tib keta boshlashdi. Bitta amaki, beligacha yalang‘och, qo‘lida sochiq, cho‘zib-cho‘zib esnab, Davronboylar tomonga qarab kela boshladi. Yaqinlariga kelgach, yurishdan to‘xtab, aka-ukalarning xanjar-u avtomatlarini, qo‘llaridagi tanklarini, Davronboyning qo‘ltig‘idagi uvadasi chiqib ketgan eski to‘nni birma-bir ko‘zdan kechirib chiqib:

– Bolakaylar, sizlar qayoqdan paydo bo‘lib qoldilaring? – deb so‘radi.

– Bizni mashina olib qochib keldi, – shoshilib dedi Davronboy.

– Qanaqa qilib olib qochib keladi? – hayron bo‘ldi beligacha yalang‘och amaki.

– Biz quvurning ichida uxlab qoluvdik, – to‘satdan yig‘lab yubordi Omonboy.

– Men oyijonimni juda sog‘inib ketyapman, amaki, bizni uyimizga olib borib qo‘ying...

Davronboy hamma voqeani amakiga bir boshidan gapirib berdi. Oxirida mashinani Mahmud olako‘z yurgizib yuborgan bo‘lsa kerak, degan taxminni ham aytdi. Amaki: «Poyloqchilikda turib juda yaxshi ish qilibsizlar, lekin bunaqangi paytda uxlamaslik kerak edi, mashina o‘zi yurib kelgani yo‘q, uni novcha amakilaring haydab kelgan, o‘zi hozir dong qotib uxlab yotibdi», – degan gaplarni aytdi.



Ko‘z ochib yumguncha hamma narsadan qo‘rqib, hadiksirab turgan Davronboy bilan Omonboyning atroflarini novcha, pakana, oriq, semiz odamlar qurshab olishdi. Quvur ichida to‘rt yuz chaqirim yo‘l bosib kelganlarini eshitib, bir xillari qo‘rqib ketishdi, bolalarga achinishdi, bir xillari esa yosh soqchilarning burnilarini qisib, peshonasini silab qo‘yishdi...

Xullas, unday bo‘lgandayam, bunday bo‘lgandayam yer bag‘rini yorib, quvur ko‘mib, uzoq ellarga gaz olib borayotgan bu amakilarning biri Omonboy bilan Davronboyga juda-juda o‘xshab ketadigan o‘g‘lini, biri ukasini, yana bittasi jiyanini sog‘inishib yurishgan edi-da, ehtimol shuning uchundir, aka-ukalarni galma-galdan ko‘tarishib, yuz-u ko‘zlaridan o‘pishib, xuddi kosmosni zabt etib qaytgan qahramonlarni kutgandek e‘zozlab kutib olishdi.

Bu orada kimdir dong qotib uxlab yotgan novcha amakini ham uyg‘otib chiqdi. Novcha amaki uyqusirab, katta mushti bilan ko‘zlarini ishqalab, odamlarning orasini yorib o‘tdi. Omonboy bilan Davronboyning birini o‘ng qo‘liga, boshqasini chap qo‘liga ko‘tarib:

– Obbo, azamatlar-ey, obbo, pahlavon soqchilaring-ey! – deb ularni erkalata boshladi.

Shundan keyin o‘zi nonushta vaqti bo‘lib qolgani yoki soqchilar sharafiga ziyofat berib yubormoqchi bo‘lishdimi, ishqilib, sahro-yu biyobonning qoq o‘rtasidagi ko‘rimsizgina bir oshxonada hech ta‘riflab bo‘lmaydigan darajada quyuq ziyofat bo‘lib o‘tdi: qaynatib pishirilgan tuxumlar, qovurilgan kolbasalar, ustiga shakar sepilgan yog‘li kulchalar, bo‘g‘irsog‘-u dimlab pishirilgan makaronlar... Eh, shunday zo‘r bo‘ldiki, shunday zo‘r bo‘ldiki, asti qo‘yaverasiz.

Nonushta davomida Omonboy bilan Davronboyga shu yerda biz bilan butunlay qolinglar, birgalashib

ishlab yuraveramiz, degan mazmunda ham gap qilib ko'rishdi. Aka-ukalar bunga ko'nishmadi:

– Birinchidan, agar biz bu yerda qolsak, oyimiz xafa bo'ladi, ikkinchidan, tovuqlarning tuxumi kattasi kichigiga almashib ketadi, uchinchidan, Mahmud olako'z shaftolimizni bitta qo'ymay tagiga to'kib ketadi, – deb javob qaytarishdi.

– Bizga bir chelak gaz bersangiz bo'ldi, – dedi uzil-kesil qilib Davronboy.

– Obbo, ukaginam-ey, rasmana gazni hali o'zimiz ham ko'rganimiz yo'q, – deb javob qaytardi gazchi amakilardan biri.

– Mayli, ko'rmasangiz ham beraverasizlar, – deb akasining gapini quvvatladi stolda o'tirib, oyoqlarini likillatib kolsaba chaynayotgan Omonboy.

Omonboyning mana shu gapidan so'ng gazchi amakilari, bordi-yu, bitta gaz o'choq bilan gaz to'ldirilgan bitta ballonni ularga sovg'a qilsak-chi, axir atrofda qo'nib o'tadigan joyimiz yo'q, u yoq-bu yoqqa o'tganda shofyorlarimiz choy-poy ichib turadi-ku, deb maslahat qila boshlabdi. Ertalab, yarim yalang'och chiqqan, hozir esa egniga yengi kalta oq ko'ylak, boshiga oq shapka kiyib olgan amaki: «Bolalar to'rt yuz chaqirim yo'ldan bizning quvurlarimizni poylab, ehtiyotlab olib kelishibdi, demak, biz ham ularning iltimosini bajarishimiz kerak. Bitta gaz o'choq bilan uch ballon gaz olib, mashinaga tezdan yuklanglar», – deb buyruq berib yubordi.

Shofyor amaki yo'l tayyorgarligini ko'rib olguncha Omonboy bilan Davronboy quvur yotqizuvchilar shaharchasini maza qilib aylanib chiqishdi: bu yerda bolalar yo'q ekan-u, nuqul katta odamlar yashar ekan. Yo'g'on, ingichka quvurlar, temir yo'lakchalar, hech tushunib bo'lmaydigan g'alati-g'alati mashinalar... Eh-he, bularni Mahmud olako'z ko'rganda bormi! Bit-

ta semiz amaki qoʻlidagi qizil bayroqni silkitib turibdi, boshqa amaki mashinasining tumshugʻiga yoʻgʻon quvurni qistirib, osmon-u falakka koʻtarib ketyapti. Hoʻ narida oʻntacha amaki quvurlarga yiltiroq moy surishyapti, undan ham narida yana oʻntacha amaki moylangan quvurlarga qora qogʻoz oʻrashyapti.

– Qani, soqchi oʻgʻillarim, mashinaga marhamat! – deb qoldi shofyor amaki, – endi tezroq joʻnaylik, bechora onalaring qidirib yurgandir...

Amakilarining hammasi qoʻl silkib, xayrlashib qolishdi, yana tagʻin kelinglar, lekin quvurning ichida emas, kabinada oʻtirib kelinglar, degan gaplarni ham aytishdi.

– Sizga-chi, amaki, tuxum olib kelaman, – deb vaʼda berdi Davronboy oq shlyapali amakiga.

– Men-chi, amaki, uzum olib kelaman, – deb baqirdi Omonboy ham.

## *OLTINCHI BOB*

### **GAZ QOZONDA SHOʻRVA PISHGANI**

Davronboy bilan Omonboy uylariga qorongʻi tushay-tushay degan paytda kirib borishdi. Novcha amaki yoʻlda jindek uxlab oldi, boʻlmasa bundan ham oldinroq yetib kelishgan boʻlardir.

Ulkan mashina koʻcha eshiklari oldida toʻxtashi bilan aka-ukalar choʻzib-choʻzib uch marta signal berishdi. Keyin Davronboy:

– Amaki, oyim meni ursalar ajratib olasiz, xoʻpmi? – deb shivirladi.

– Seni urdirgani qoʻymayman, – deb shivirlab qoʻydi novcha amaki ham. Omonboy ham bir narsa deb shivirlamoqchi boʻluvdi, ulgurolmadi. Nega desangiz,

xuddi shu paytda mashinaga qarab yugurib kelayotgan oyijoniga ko'zi tushib qoldi:

– Oyijon!!!

– Toychog'im! – deb ona-bola bir-birlarini achomlashib ketishdi.

– Voy o'lmasam, Davron qani? – deb so'radi oxirida oyisi.

– Tushsam urasiz, – hiqillab dedi Davronboy.

– Voy, onaginang o'rgilsin, urmayman.

– Bugun urmasangiz, baribir ertaga urasiz.

– Urmayman, endi hech ham urmayman.

Davronboy ishning buyog'ini ham puxtalab olgandan keyin kabinadan turib to'ppa-to'g'ri oyijonining bag'riga otili.

Bir-birlarini o'pishib, ko'z yoshlarini to'kishib hovlilariga kirguncha atroflarini xotinlar-u bolalar qurshab olishdi. Qishloqdagi jamiki katta kishilar to'satdan yo'q bo'lib qolgan Davronboy bilan Omonboyning birinchi bo'lib men topib kelaman, deyishib, har tomonga jo'nab ketishgan edi. Shuning uchun ham qishloq chekkasidagi daraxtlarga burkalgan bu hovlida faqat xotinlar-u bolalar to'planishgandi. Bir xillari oyilarini ko'ngillarini ko'tarib, boshqa birlari har xil vahimali gaplarni aytib, oyilarining ko'ngliga g'ulg'ula solib o'tirishgan edi.

Ko'z yumib-ochguncha hovlilari bamisoli to'yxona-ga o'xshab ketdi, desam ishonavering. Poyloqchilikda turib, nom chiqarib qaytgan Davronboy bilan Omonboyning Mahmud, Salim, Shavkat, Qurbon degan o'rtoqlari bor edi. Ularni ko'rishga o'shalar ham kelishibdi. Aka-ukalarni o'rtaga olib har xil savollarni shunaqangi yog'dirib tashlashdiki, asti qo'yaverasiz.

– Biz gaz olib kelgani boruvdik, bildilaringmi! – deb gapni qisqa qilib qo'yimoqchi bo'ldi Davronboy.

– Hecham-da, – deb gapni yana chuvalashtirmoqchi bo‘ldi Mahmud olako‘z, – gaz senga kuchukmidi, yur desang, orqangdan ergashib kelaveradigan.

Shundan keyin bolalar qiy-chuv to‘polon qilishib, novcha amakining yordamida tashqariga gaz o‘choq bilan gaz to‘ldirilgan ballonlarni olib kirishib, hovlining qoq o‘rtasiga o‘rnatishdi. Shofyor amaki gaz o‘choqning plitasini yoqib yuborgan edi, bolalarni-ku qo‘yavering, xotinlardan tortib, to soy mahalladan kelgan kampir buvilargacha hamma-hammalari hang-mang bo‘lib qolishdi. Bir xillar temir ballonning ichida ming metrcha keladigan piligi bor, o‘sha buralib-buralib yonayapti, dedi. Yana bir xillar mana shu temir ballonning tagidan yerga ingichka quvur ketganga o‘xshaydi, gaz o‘shandan oqib kelayotgan bo‘lsa kerak, degan taxminlarni ham aytishdi. Kampir buvilar bo‘lsa: «Yo tavba, bu Omonboy bilan Davronboy balo ekan-ku, shu olovni o‘shalar olib keldimi-a? – deb, yoqalarini ushlab, orqalariga tisarilgandan-tisarilaverishdi.

Mana shunaqangi gaplar ko‘payotgan paytda amaki gaz o‘choqda sho‘rva pishirayotgan, chinakam oshpazlarga o‘xshab, har zamonda shopirib-shopirib ham qo‘yayotgan edi.

– Amaki, shu gazni biz olib keldik-a? – sheriklarim eshitsin, deb ataylab baland ovozda so‘radi Davronboy.

– To‘g‘ri, – undan ham balandroq ovozda javob qaytardi shofyor amaki. – Bu gazni Omonboy bilan Davronboylar olib kelishdi. Quvurlarni poylab, o‘z joyiga eson-omon yetkazib olishimizda yordamlashganliklari uchun boshlig‘imiz mukofot qilib berdi bularni...

O‘sha kecha «Qo‘rg‘oncha» qishlog‘ining katta-kichik aholisi deyarli uxlamadi hisob, ular Davronboy bilan Omonboy olib kelgan gazning yonishini tomosha qilib chiqishdi.

## TELEBOLA

*(Peshonasiga televizor yopishib qolgan  
bolaning sarguzashtlari)*

### SARGUZASHTNING BIRINCHI BOBI

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim-qadim zamonlarda emas, o‘zimizning shu kunlarda go‘zal Farg‘ona tomonda, undan ham go‘zal Tagob qishlog‘ida Omonboy degan bola yasharkan. O‘zi juda hushyor, aqlli ham ekan. Televizor tomosha qilishni yaxshi ko‘rarkan. Har kuni o‘n soat tomosha ko‘rmasa ham oyog‘i, ham tomog‘i og‘rib qolar ekan. Dars tayyorlayotganda eski televizorlarning ichidagi ashqol-dashqolini olib tashlab, bo‘shagan qutichasining ichiga kirib olib tayyorlarkan. Shunday qilmasa, miyasiga hech narsa kirmas ekan. O‘sha kuni Omonboyning maktabga borgisi kelmabdi. Yo‘q, borgisi ham bor ekan-u, dars tayyorlamagan ekan, shuning uchun borgisi kelmabdi. Dadasi bilan oyijonisi barvaqt ishga jo‘nashibdi. Keta turib oyijonisi: «Jon o‘g‘lim, avval qaymoq bilan nonushta qilgin, keyin echkingga xashak solgin, keyin tovuqlaringni katakka qamab qo‘ygin, keyin maktabga keta turib kalitni Xosiyat xolangga berib ketgin, degan ekan. Omonboy hech qaysisini bajarmabdi, yo‘q-yo‘q, bajarmoqchi ekan-u, ularni bajargani ket-sam, televizordagi qiziq-qiziq tomoshalar o‘tib ketib qoladi, deb qo‘rqibdi. To‘g‘ri-da, qiziq-qiziq tomoshalar o‘tib ketib qolsa, hammaga ham alam qiladi-da.

Katta televizor uyda, dadajonisi dalada suv quyganda ko‘rib yurarman deb olib kelgan kichkina televizorcha ayvonda, xontaxtaning ustida ekan. Omonboy chaqqon bola bo‘lgani uchun goh unisiga, goh bunisiga o‘tib, tomosha ko‘ra boshlabdi. Katta tele-

vizorni tikka turib, kichkina televizorni chalqancha yotib, qornini yerga berib, qiziq-qiziq joylari kelganda xuddi suvda suzib ketayotgandek oyoqlarini gilamga tapillatib urib-urib tomosha qilar ekan. Eh, o'sha kuni juda-judayam zo'r bo'libdi, biri-biridan qiziq tomoshalar emish. Unisiga qarasang, bunisi qolib ketar emish, bunisiga qarasang, unisi. Kun botay-botay deganda Omonboyning boshi aylanib, ko'zi tinib, qulog'idan g'alati-g'alati ovozlar eshitalarmish, xuddi qulog'ining ichidan pakana-pakana odamlar chiqib kelayotganga o'xsharmish. Keyin sehrli voqea yuz beribdi, ha-ha, chinakam sehrli hamda sirli emish. Xontaxta ustida turgan televizorcha pastga tushib, Omonboy tomonga qarab surilib kelayotgan emish. Uning odamga o'xshash boshi, javdirab turgan ko'zi, shalpang quloqlari ham bor emish. Surilib kelib-kelib, Omonboyning peshonasiga chippa yopishib qolibdi.

## SARGUZASHTNING IKKINCHI BOBI

– Voy! – debdi Omonboy peshonasini ikki qo'llab ushlab. Keyin qo'rqib ham ketibdi. O'rnidan turmoqchi bo'lgan ekan, qiziq, boshi zil-zambildek og'ir emish. Peshonasiga yopishib qolgan televizorchanani ajratib olmoqchi bo'lgan ekan, televizorcha miyasining ichiga kirib ketayotgan emish. Boshimning og'irligi shundan bo'lsa kerak, deb o'ylab yana battar qo'rqib:

– Voy-dod! – deb o'rnidan turib ketibdi.

Xayriyat, shu paytda fermadan qaytgan oyijonisi ko'cha eshikni sharaqlatib ochib, kirib kelayotgan ekan, qo'ltig'idagi bir quchoq o'tni yerga tashlab:

– Voy bolam, nega dodlaysan? – deb so'rabdi.

– Peshonamga televizor yopishib qoldi, ko'rmayapsizmi? – deb rasmana yig'lab yuboribdi Omonboy.

– Voy o‘lmasam, chindan ham peshonang shishib ketibdi, – shunday deb mehribon oyijonisi o‘g‘lini tiz-zasiga olib, peshonasini silasa, tavba, peshonasi qo‘lni kuydiradigan darajada issiq emish.

– Voy o‘lmasam, seni qovoqari chaqqanga o‘xshaydi, – debdi yana oyijonisi.

Omonboy yig‘lab:

– Ari chaqqani yo‘q, kichkina televizorcha miyamning ichiga kirib qoldi, mana o‘zingiz paypaslab ko‘ring, mana ekрани, mana buraydigan joylari, ana otliqlar kelyapti, qo‘llarida yalang‘och qilichi bor. Ana, qo‘sh karnaylar chalindi, qoching, hozir jang boshlanadi, – degan gaplarni aytarmish.

Oyijonisi qo‘rqib ketibdi, juda-juda qo‘rqibdi, su-yukli o‘g‘lini ko‘tarib, ichkariga olib kirmoqchi bo‘lgan ekan, voy tavba, zil-zambildek og‘ir emish. Bunday qarasa, xontaxta ustida turgan kichkina televizorcha ham yo‘q bo‘lib qolgan emish.

– Televizorchani biron kishiga berganing yo‘qmi? – deb so‘rabdi o‘g‘lidan.

– Peshonamning ichida deyapman-ku! – endi Omonboy rasmana dodlab yuboribdi. Oyijonisi ham rasmana qo‘rqib ketibdi.

## SARGUZASHTNING UCHINCHI BOBI

Oyijonisi qo‘shnilarini chaqirib chiqibdi. Omonboyning peshonasida televizorchaga o‘xshash bir narsa borligini ular ham ko‘rishibdi. Bitta qo‘shnilari «Bu o‘g‘lingiz o‘zi hazilkash edi, odamlarni kuldiraman deb, televizorchani ataylab peshonasiga yopishtirib olgandir», desa, yana bitta qo‘shnilari «Tavba, bolaning peshonasida hech narsa yo‘q-ku, sal-pal shishinqirab qolibdi, xolos, hadeb vahima qilaverasizlarmi?» – debdi.



Qiziq, televizorcha Omonboyning peshonasida bir paydo bo'larmish, yana bir yo'q bo'lib qolarmish.

– Ajinalar o'yin qilyapti, – debdi bitta qo'shnilari.

– Sehrgarlarning ishiga o'xshaydi bu, – debdi kap-katta bir odam.

– Osmondan uchar likopchalarda noma'lum odamlar tushib, miyasiga televizorchani joylab bir ko'rinadigan, bir ko'rinmaydigan qilib qo'ygan, – degan gapni aytibdi qo'lida gazeta ushlab turgan bitta amaki. – Mana, gazetada o'sha haqda yozishgan, – deb qo'shimcha ham qilibdi.

Vahimali gaplar ko'paygandan-ko'payaveribdi.

Qo'rqqanidan Omonboyning rangi oqarib ketayotganmish. Oxiri, peshonasidagi bir ko'rinib, bir yo'q bo'lib qolayotgan televizorcha sehrli, sehrli emasmi, shuni sinab ko'rmoqchi bo'lishibdi. Bu foydali gapni Omonboyning jonajon o'rtog'i Davronboy aytibdi. Nega desangiz, u Omonboyning chinakam do'sti ekan. Qirq yilga o'rtoq bo'lamiz deb, jimjiloqlarini birlashtirib olishgan ekan. Birga o'qishar ekan, bir partada o'tirishar ekan, narigi mahallaning bolalari bilan koptok o'ynashganda bittasi hujumda, bittasi himoyada turib, o'ntadan to'p urishar ekan. Shuning uchun ham jonajon o'rtog'ining joni qiynalayotganini ko'rib, hammadan ko'ra ko'proq ana shu Davronboy achinibdi, yig'lab yuboray-yig'lab yuboray debdi.

Mahallada Turg'un aka degan televizor ustasi bor ekan. Sinab ko'rish uchun ana shu amakini chaqirib keladigan bo'lishibdi.

## **SARGUZASHTNING TO'RTINCHI BOBI**

Odamlar ikkiga bo'linishibdi. Katta yoshdagilar ichkariga, katta televizor yoniga o'tishibdi. Yosh bolalar Omonboyning yoniga o'tirishibdi. Turg'un amaki katta televizorni ishlatib:

– Xo’sh, Omonboy o’g’lim, sening miyangdagi televizorcha ham ishlab ketdimi? – deb so’rabdi.

– Ha, ishlab ketdi, – debdi Omonboy.

– Nimani ko’ryapsan, o’g’lim? – so’rabdi ichkaridagi amaki.

– Miyamda bitta odam ashula aytyapti, – debdi Omonboy.

Amaki televizor kanalini o’zgartirib:

– Endi-chi? – deb so’rabdi.

– Birov traktor haydayotganga o’xshaydi, – javob qaytaribdi Omonboy.

– To’g’ri, – debdi amaki, – bizning televizorda ham shuni ko’rsatyapti.

– Endi-chi?

– Bitta bola eshak aravada xashak olib kelyapti.

Televizor kanali yana o’zgaribdi.

– Endi-chi? – deb so’rabdi amaki.

– Haligi ashula aytgan odam yana ko’rindi.

– Endi-chi?

– Traktorchi amaki sekin pastga tushyapti...

Mana shunaqangi savollar-u javoblar bo’laveribdi, bo’laveribdi. Ichkaridagi katta televizor nimani ko’rsatsa, Omonboyning peshonasida bir ko’rinib, bir ko’rinmay qolayotgan sehrli televizorcha ham xuddi o’sha tomoshani ko’rsataveribdi, ko’rsataveribdi. Ichkaridagi katta odamlar hayron qolib, goh tashqariga, Omonboyning oldiga yugurib chiqisharmish, goh yana e tavba, deya ichkariga chopib kirisharmish. Omonboyning yonida o’tirgan o’rtoqlari esa nima deyishlarini bilmay dovdirab qolishgan emish. Ayollar bo’lsa o’zlarini bosolmay vahimali gaplar aytisharmish.

– Bas qilinglar, o’rtog’im qiynalib ketdi, – deb baqiribdi Davronboy, – bas qilmasalaring, chelakda suv olib kelib, ustilaringga sochaman, – deb qo’rqitib ham qo’yibdi.

Qo'shnilar suvga pishilib qolishdan qo'rqib, tezgina tarqalishibdi. Bittasi ko'cha eshik yoniga borganda, bu bola sehrgarga o'xshaydi, degan ekan, Davronboy o'rtog'ini himoya qilib, o'zing sehrgarsan, kavushingni poyma-poy kiyib chiqqansan, deb unga ham baqirib beribdi.

Onasi yumshoqqina joy hozirlabdi, Omonboy ni avaylab yotqizishibdi, Davronboy, o'rtog'im tuzalma-guncha yonida o'tiraveraman, hech yoqqa ketmay-man, deb so'z beribdi. O'rtog'ining sal shishinqirab, sal-pal qizib turgan peshonasini yumshoq-yumshoq silay boshlabdi.

## SARGUZASHTNING BESHINCHI BOBI

Kech kiribdi, Omonboyning dadasi ishdan qaytibdi. Yelkasida bir qop o't olib kelgan ekan, o'shandan bir qo'ltig'ini tinmay ma'rayotgan echkinning oxuriga tashlabdi. Omonboy mehribon dadasining beparvoligini ko'rib:

– Dadajon! – deya yig'lab yuboribdi.

– Nima deysan? – deb so'rabdi dadasi.

Uyda supra yoyib, un oshiga ugra to'g'rayotgan onasi yugurib chiqibdi. Bo'lgan voqeani goh onasi, goh Davronboy so'zlab beribdi. Omonboy hiqillab-hiqillab ko'zlarini mo'ltillatganicha jim yotaveribdi. Dadasi bu gaplarga uncha ishonmay:

– Peshonangda hech narsa ko'rinmayapti-ku? – deb so'rabdi.

– Tikilib qarasangiz ko'rinadi, – o'rtog'ining o'rniga javob beribdi Davronboy.

Xuddi shu paytda qiziq voqea yuz beribdi. Kichkina televizorchaning shakli ichidagi tasvirlari bilan Omonboyning peshonasida yaltirab bir ko'rinar-

mish-da, yana yo‘q bo‘lib, o‘rni qorayib qolarmish-u, anchagacha ko‘m-ko‘k tutun chiqarib turganga o‘xsharmish. Dadasi yoqasini ushlagancha hayron bo‘lib qolibdi. Davronboy hushyor, ham aqlli bola emasmi, hali qo‘shnilarga ko‘rsatgan sehrli manzaranani Omonboyning hayratdan yoqasini ushlab turgan dadasiga ham ko‘rsatmoqchi bo‘lib ichkariga yetaklab kiribdi. Endi dadasi katta televizor yonida o‘tirganicha hovlidagi o‘g‘li ko‘zlarini yumib olib, ichkaridagi televizordagi hamma voqealarni so‘zlab berayotganini ko‘rib, eshitib:

– O‘g‘ilginam, pahlavonim, seni ajinalar chalib ketganga o‘xshaydi, – deb yig‘lab yuboribdi, – ertagayoq seni duoxonlarga o‘qitmasam bo‘lmaydi, – degan gaplarni ham aytibdi.

## SARGUZASHTNING OLTINCHI BOBI

Qorong‘i tushibdi. Endi hech kim kirmasin deb, ko‘cha eshikni berkitib olishibdi. Ikki o‘rtoqqa bitta joy solib berishibdi, mayli, achomlashib yotsanglar, yotaqolinglar, degan gapni aytishibdi. Davronboy o‘tirib olib, o‘qtin-o‘qtin o‘rtog‘ining peshonasini silarmish.

– Peshonangda tomosha haliyam ko‘rinyaptimi? – deb so‘rarmish.

– Ha, endi Shimoliy muz okeanidagi semiz-semiz ayiqlarni ko‘rsatayapti, – dermish Omonboy.

– Qo‘rqyapsanmi? – dermish Davronboy.

– Sal-pal qo‘rqyapman, sal-pal maza qilayapman, – dermish Omonboy.

Har qancha ehtiyot qilishmasin, baribir ertalabgacha Omonboylarning uyida bo‘lgan voqea butun qishloqqa tarqalib ketibdi. Bu qishloqda og‘zaki telefon

zo‘r ekan-da. Ertalab o‘rinlaridan turishsa, voy-bo‘y, ko‘cha eshikning narigi tomonida odam degani to‘lib ketganmish. Bolalar ham, chollar ham bor emish. Bit-ta kampirning oyog‘i ishlamas ekan, nabirasi chaqa-loqni ko‘targandek ko‘tarib kelibdi. Bir xili Omonboy-ga achinganidan, bir xili maslahat bergani, yana bir xillari shunchaki tomosha qilgani kelarmish. Qiziq, hammasi ham bu sirli voqeaning poyoniga yeta olma-gani uchun tavba-tavba, deya yoqasini ushlab chiqib ketarmish. Ertasiga kechgacha uch mingta odam yoqasini ushlab, olti mingta tavba aytib ketibdi. Na-birasiga ko‘tartirib kelgan cho‘loq kampir, «Omonboy, uyimda televizorim yo‘q, seni olib ketsam, qulog‘ingni burab tomosha ko‘rsam, burningni bosib, ovozingni balandlatsam», debdi.

O‘sha kuni kechasi Omonboyning ahvoli ancha mushkullashib qolibdi. Boshi yana ham og‘irlashib, ko‘zlaridan olov chiqqanga o‘xshab, qulog‘idan buzuq traktornikiga o‘xshab g‘alati-g‘alati ovozlar chiqayot-gan emish.

– Qo‘rqayapman, – yig‘lamsirab debdi Omonboy.

– Nimadan qo‘rqaysan? – deb so‘rabdi Davronboy ham yig‘lamsirab.

– Qara-chi, burnimdan tutun chiqyaptimi, yo‘qmi? – deb so‘rabdi yana Omonboy.

– Yo‘q, tutun emas, mishig‘ing oqayapti, artib qo‘yaymi? – deb javob qaytaribdi Davronboy.

## SARGUZASHTNING YETTINCHI BOBI

Qaysi ota-ona suyukli farzandi shu ahvolda tur-ganda tinchgina uxlaydi, deysiz. Er-xotin ikkovlari kechasi bilan uxlamay chiqishibdi, o‘ylayverishib-di-o‘ylayverishibdi. Oxiri tuman markazidagi dong‘i

olamga ketgan televizor ustasini olib kelishga qaror qilishibdi.

– Agar pul so‘rasa, menda pul bor, – debdi Omonboyning jonajon o‘rtog‘i Davronboy. Chindan ham cho‘ntagida o‘n olti so‘m puli bor ekan. O‘shani chiqarib beribdi. O‘sha usta, voy-bo‘y, juda ham zo‘r ekan. Televizorlarning buzuq joyini ko‘zini yumib turib ham topa olarkan, topganidan keyin qo‘li bilan bir silasa, televizor o‘z-o‘zidan varanglab ishlab ketaverarkan. Shuning uchun ham puli ko‘p tadbirkorlar televizorlari buzilsa o‘shanga, faqat o‘shanga ko‘rsatishar ekan. Amaki insofli odam ekan, Omonboyning dadasi yig‘lamsirab turib, a‘lochi o‘g‘limiz shundoq-shundoq bo‘lib qoldi, degan ekan, qora sumkasini yelkasiga osib, qani ketdik, debdi. Kelibdi-yu, ayvonda atlas ko‘rpachalar ustida yotib, peshonasida aks etayotgan g‘alati-g‘alati tasvirlarni o‘rtog‘iga so‘zlab berib, xafa bo‘lishini ham, xursand bo‘lishini ham bilmay yotgan Omonboyning yoniga cho‘kkalab:

– Nima bo‘ldi, o‘g‘lim? – deb so‘rabdi.

– Shunaqa bo‘ldi, – debdi Omonboy.

Amaki rezinka qo‘lqopini kiyib, mening qo‘lim emas, pirlarimning qo‘li, degan gaplarni aytibdi-da, Omonboyning qizib turgan peshonasini yumshoq-yumshoq silab:

– Ozgina shish bor, mabodo yiqilib urib olganing yo‘qmi? – deb so‘rabdi.

– Yiqilgani yo‘q, – o‘rtog‘ining o‘rniga javob beribdi Davronboy.

Usta amaki Omonboyning peshonasini yana silabdi, qulog‘iga qulog‘ini qo‘yib ko‘ribdi. Uzoqroqqa borib, bitta ko‘zini qisib ham qarabdi. Yo‘q, endi kecha odamlarga ko‘ringan kichkina televizorcha ko‘rinmasmish.

– O‘g‘lim, ota-onangni bekorga qo‘rqitibsan, – xafa bo‘lib debdi usta amaki.

– Yolqonmi? – deb boshini sekin ko‘taribdi Omonboy.

Keyin Davronboy bilan Omonboy xuddi avvalgi kuni qo‘shnilari ko‘rsatgandek, ham miyasidagi, ham ichkari uydagi televizorlarda g‘alati-g‘alati tomoshalarni ko‘rsatgan ekan, usta amaki bir ko‘rinib, bir ko‘rinmay qolayotgan tasvirlarga qarab:

– E tavba, qirq yil ustachilik qilib, bunaqa sehrli voqeaga duch kelmagan edim. Tuzatish qo‘limdan kelmaydi, – debdi-da uyiga jo‘nab ketibdi.

### SARGUZASHTNING SAKKIZINCHI BOBI

Ertasiga ko‘rgani kelayotganlar yana ham ko‘pa-yibdi, sinfdoshlari ham kelibdi. O‘zi shu 1-«A»dagilar bir-biriga juda mehribon, juda g‘amxo‘r ekanlar-da. Tug‘ilgan kunlarini birga o‘tkazishar, kasal bo‘lganda gul ko‘tarib ko‘rgani borishar, muzqaymoq olganda bir juft olib, bir-birlariga hadya ham qilishar ekan. Bu gal ham ko‘ngil so‘ragani, ham o‘rtoqlarining peshonasiga yopishgan televizorchani tomosha qilgani kelishgan ekan.

– Voy, hech narsa yo‘q-ku, – debdi Gulnora degan qiz.

– Men peshonasida bir narsa ko‘rgandek bo‘lyapman, – debdi a‘lochi Nasiba.

– Mayli o‘rtoq, tuzalguningcha maza qilib yotaver, – debdi eng orqa partada o‘tiradigan Orifjon, – «A» unlisini o‘tganmiz, o‘zim senga tushuntirib qo‘yaman. Og‘zingni katta ochib, ovoz chiqarsang, «A» bo‘larkan.

O‘rtoqlari Omonboyning aytganlariga bir ishonib, bir ishonqiramay turishgan ekan, to‘satdan sehrli voqea yana yuz berib qolibdi-yu, Omonboy miyasidagi tasvirlarni o‘rtoqlariga so‘zlab bera boshlabdi, ana, «Shaxmat darsi» boshlandi, ana qizaloqlar o‘yinga

tushishyapti. Ahvoliga hammalari achinishibdi. Xafa bo'lishib, boshlarini egib chiqib ketishibdi. Gulnora bo'lsa, ko'chaga chiqqach, chinakam yig'lab yuboribdi.

Bora-bora Omonboy ko'chaga ham chiqolmay qolibdi, to'p ham tepa olasmish, xokkey ham o'ynay olasmish, sal narsaga boshi aylanib ketaverarmish. Doktor chaqirtirishibdi, tabibga ko'rsatishibdi, kechasi bitta domla kelib, kuf-suf ham qilib ketibdi. Biri u debdi, biri bu debdi. Oqibat shu bo'libdiki, unga Telebola deb nom berishibdi. Bu nom Omonboyga hech yoqmas emish, g'ashi kelarmish, oxiri, Toshkentdagi eng katta doktorgami, televizor ustasigami uchrashmoqchi bo'lishibdi.

## SARGUZASHTNING TO'QQIZINCHI BOBI

Toshkentdagi nom chiqargan mashhur doktor amaki uyida qabul qilibdi. Avval Omonboyning otanasi bilan rosa suhbatlashibdi. Keyin Omonboy bilan doktor amaki o'rtalarida mana bunday suhbat bo'lib o'tibdi:

– Obbo o'g'lim-ey, sening ham peshonangga televizorcha yopishib qoldimi? – deb so'rabdi amaki.

– Sizga ko'rinyaptimi? – shoshilib so'rabdi Omonboy.

– Ha, ko'rib turibman, o'g'lim.

– Amaki, siz qanday ko'ryapsiz?

– Men hamma narsani ko'raman, o'g'lim. Bu voqea 17-may kuni bo'lganmidi, o'g'lim?

– Ha, o'sha kuni bo'lgan edi, siz qayoqdan bilasiz?

– O'g'lim, men hamma narsani bilaman, o'sha kuni sen ertalabdan kechgacha televizor tomosha qilgansan, shundaymi?

– To'g'ri, kun botay-botay deguncha ko'ruvdim.

– Echkingga xashak solishni unutgansan, to'g'rimi?

– Voy, bunisiyam to'g'ri, amaki, – debdi Omonboy.



- Tovuqlaringni katakka kiritmagansan.
- Kiritmoqchi edim-u, tursam tomosha tugab qoladi, deb qoʻrqqanman.
- Oʻsha kuni, rostini ayt, oʻgʻlim, necha soat televizor tomoshasini koʻrding?
- Esimda yoʻq, amaki.
- Kun boʻyi koʻrgansan, kechga yaqin xontaxta us-tidagi kichkina televizorcha sen tomonga kela bosh-lagan.
- Toʻgʻri, surilib kelayotgandek edi.
- Surilib kelib, peshonanga yopishib qolgan.
- Voy amaki, siz koʻrib turganmidingiz?
- Ha, hammasini koʻrib turgandim.
- Siz sehgarmisiz?
- Ha, sehgarkan.

Savol-javob mana shu yerga yetganda Omonboy yigʻlab yuboribdi. Nega yigʻlayotganini oʻzi ham bil-mas ekan. Lekin doktor amaki yigʻlagan bolalarni yupatishga usta ekan. Kafti bilan Omonboyning qizib turgan peshonasini uch marta silagan ekan, yigʻi toʻx-tab qolibdi. Keyin doktor amaki:

– Tashvishlanma, oʻgʻlim, sendan oldin ham oltita bolaning peshonasiga yopishib qolgan televizorni aj-ratib olganman. Xudo xohlasa, sen yettinchisi boʻla-san, lekin bu oson emas, ogʻir-ogʻir shartlari boʻladi, – debdi.

– Oʻshanda Telebola degan nomim ham yoʻq boʻla-dimi? – shoshilib soʻrabdi Omonboy.

– Albatta, yoʻq boʻladi, – debdi hamma narsani bila-digan sehgarkan amaki.

Keyin ichkarida sehrli sandiqchasi bor ekan, oʻsha-ni ochib, ichidan yettita sehrli, ehtimol sehrli emas-dir-u, Omonboyga sehrlidek tuyulibdi-da, ishqilib yet-tita koʻk konvert olib:

– Har kuni bittadan ochasan, qanday shart yozilgan bo'lsa, so'zsiz bajarasan, bajarib bo'lganingdan keyin mana bu shishadagi sehrli suvdan uch ho'plam ichasan, ichishing bilan darhol uxlab qolasan, – degan gaplarni aytibdi. – Yetti kun deganda peshonangdagi televizorcha o'z-o'zidan yo'q bo'lib qoladi, – deb negadir Omonboyning qulog'iga shivirlab aytibdi.

Omonboy xursand bo'libdi, tashqarida betoqat kutib o'tirgan ota-onasi ham behad sevinishibdi.

## SARGUZASHTNING ENG QUVONCHLI BOBI

Shoshilib uylariga qaytishibdi. Katta Tagob qishlog'idagi barcha odamlar bu sehrli voqea nima bilan tugashini kutishayotgan ekan. Hammalari yopirilib kelishibdi. Qandoq bo'ldi, qandoq bo'ldi, deb rosa so'rashibdi. Hatto bitta kampir «O'sha sizlarni ko'rgan doktorning orqasida ham ko'zi bor emish, shu rostmi?» deb so'rabdi. Lekin hech kimning savoliga javob qaytarishmabdi. Faqat uylarini poylab, echkilari bilan tovuqlariga qarab o'tirgan Davronboyga juda-juda mehribon bo'lgani uchun bo'lgan voqeaning hammasini bitta qoldirmay so'zlab berishibdi. Xullas, ertasiga mashaqqatli sinov boshlanibdi. Birinchi ko'k konvert ochilayotganda Davronboy o'rtog'iga «Qo'rqma, men yoningda turaman, yiqilsang, turg'izib qo'yaman», deya dalda beribdi. Konvert ichidan qo'rqinchli hech narsa chiqmabdi, xat chiqibdi, unda «Omonboy o'g'lim, esingdami, 21-yanvar kuni qo'shning Sora xola pul uzatib, jon o'g'lim, menga magazindan non olib kelib bergin, deganda, pulni olgansan-u, nonga bormagansan. O'shanda kampir xolang och qolgan, hozir kirib kechirim so'ra», degan yozuv bor ekan.

Omonboy, e, bu shart juda oson ekan-ku, deb xursand bo'lib, magazindan non olib, xolasining oldiga kirgan ekan, xola xursand bo'lib ketibdi-da, Omonboyning peshonasidan o'pib, unga sherik bo'lib turgan Davronboyga ham rahmat aytib, ikkovlariga cho'ntaklarini to'ldirib yong'oq beribdi. Omonboy uyiga qaytib, sehrli suvdan uch ho'plam ichgan ekan, shu zahotiy oq uxlab qolibdi. Uyqudan turgach, navbati bilan qolgan yettita shartni ham bajaraveribdi, bajaraveribdi. Uxlash ham davom etaveribdi, etaveribdi. Oxirgi konvertni ochayotganda Omonboyning ota-onasi ham, jonajon o'rtog'i Davronboy ham juda qo'rqishibdi. Bordi-yu, bu shart qiyin bo'lsa, Omonboy uni bajara olmasa, peshonasida bir ko'rinib, bir yo'q bo'lib qolayotgan televizorcha butunlay qolib ketsa, unda nima qilamiz, deb rosa o'ylashibdi.

Nihoyat, oxirgi ko'k konvertni ochishibdi, undan sehrgar doktorning mana bunday so'zlari chiqibdi: «Omonboy o'g'lim, endi senga berib yuborganim, sehrli suvdan uch ho'plam emas, olti ho'plam ichasan-u, darhol uyquga ketasan, demak, bu gal ikki hissa uxlaysan. O'rningdan turganingda miyangdagi har xil tasvirlar, qulog'ingdagi yoqimsiz ovozlari, peshonangning qizishi butunlay yo'q bo'ladi, sen endi soppa-sog'san, papkangni yelkangga osib, maktabga jo'nayverasan. Shartli savollarni tuzib chiquvchi professor Odil Usmonov».

Omonboy ko'zini ochib, atrofiga qarasa, o'sha birinchi kuni uyqusirab, boshi og'irlashib, qulog'i shang'illab, jahl ustida qo'yxonadagi o'tlar orasiga otib yuborgani kichkina televizorcha yonginasida paydo bo'lib qolibdi.

– Voy, mening miyamga kirib ketgan televizor mana shu edi-ku, – deb qichqiribdi Omonboy.

– Ha, o’sha televizorcha miyangdan chiqib keldi, – deyishibdi ota-onasi.

– Ha-ha, o’shaning o’zi, – deb tasdiqlabdi Davronboy ham. – Miyangdan chiqib kelganini men ham ko’rdim, – degan so’zlarni ham aytibdi.

Ertasiga ertalab ikki o’rtoq barvaqt maktabga jo’nashibdi. Undan keyin o’z vaqtida maktabga boradigan, o’z vaqtida tomosha ko’radigan, o’z vaqtida echkiga xashak soladigan ham bo’lishibdi. Lekin ming afsuski, Omonboyning telebola degan laqabi hech o’zgarmay haligacha qolib ketibdi.

## OSMONDAGI HAYVONLAR

*Ertak-qissacha*

### YOVVOYI ECHKILAR

Bir bor ekan, bir yo’q ekan, o’tgan zamonda emas, shu o’zimizni kunlarda Toshkent shahrida eng aqlli odamlarni shoshirib, o’ylantirib qo’yadigan sirli bir voqea yuz beribdiki, butun shahar ahli hayratdan yoqasini ushlab qolibdi. 12 qavatli uylarning qoq o’rtasiga dadalari qurib bergan qizil qum to’kilgan, keng, bahavo maydonchada jamiki bolalar qiyqirishib, yugurishib, o’mbaloq otishib o’ynashayotgan ekan. O’ynayotganlar orasida Farrux degan hushyorgina bir bola ham bor ekan. Tug’ilgan kunida dadasi sovg’a qilgan rostakamidan hech qolishmaydigan samolyotga opasi Soraxonni, akasi Humoyunni, mehmonga kelgan Rasuljon o’rtog’ini chiqarib olib, goh o’ngga, goh chapga haydashib, qiyqirib kulishib, juda-juda maza qilishayotgan ekan. To’satdan, ha-ha, to’satdan sirli voqea yuz beribdiku, samolyot tarillab ovoz berib, orqasidan ko’m-ko’k tutun chiqazib, avval 12 qavatli uylar baro-

bar uchibdi, keyin xuddi lochin qushdek tumshug'ini oldinga cho'zganicha havolab borib-borib, pag'a-pag'a bo'lib suzayotgan oppoq bulutlar orasida ko'zdan g'oyib bo'libdi.

– Xayr, dadajon! – qichqiribdi Farrux osmondan turib.

– Opajon, qozondagi sut toshib ketsa, men aybdor emasman, – deb baqiribdi Soraxon.

– Oyijon, men ertaga bog'chaga bormayman, – debdi Rasuljon.

Humoyun ham bir narsa deb qichqirgan ekan, samolyotning tarillagan ovozi eshittirgani qo'ymabdi. Samolyot bo'lsa uchgandan-uchaveribdi, uchaveribdi. Goh o'rkach-o'rkach bo'lib, bir-birini quvlab borayotgan oppoq bulutlar orasidan sho'ng'ib o'tarmish, goh qop-qora bulutlar samolyotni yutib, yo'q qilib yuborarmish. Bir qarasa, charaqlab oftob chiqarmish, yana bir qarasa, qorong'ilik shunaqa quyuc bo'larmishki, Rasuljon hatto o'zining burnini o'zi ko'rolmay burun o'rniga qulog'ini ushlab-ushlab qo'yarmish.

Yerda qolganlar esa yoqa ushlab anchagacha ang-rayib turishibdi. Bir xillar «Uchar likopchalar o'g'irlab ketdi ularni» deyishsa, boshqalari «Sehrli voqea yuz berdi», dermish. Yana bitta hammadan ham aqlliroq odam bor ekan. O'sha bo'ynini baland cho'zib, baland ovoz bilan «Yapon o'yinchoqlarining ichida to'satdan g'irillab ishlab ketadigan kichkina-kichkina sehrli motorchalar bo'ladi, bolaga samolyotni berishdan oldin zo'r ustaga ko'rsatib olish kerak edi», dermish.

Xullas, u bo'пти, bu bo'пти, samolyot osmonda guvilab uchib ketaveribdi-ketaveribdi.

– Ur-ra, men maza qilyapman, – dermish ikki qo'llab rulni mahkam ushlab olgan Farrux.

– Men sal-pal qo'rquyapman, – dermish Soraxon.

– Men hech ham qo‘rqmayman, botirman, – dermish Rasuljon.

– Meni uyqum kelyapti, – dermish Humoyun.

Samolyotning tumshug‘ini lochin qushning tumshug‘iga o‘xshatib, sal pastga egiladigan qilib yasashgan ekan. Bir mahal ana shu qayrilma tumshuqdan «qo‘rqmasang, o‘zingni yo‘qotmasang, mard bo‘lsang, murod-u maqsadingga yetasan» degan o‘zbekcha ovoz eshitilib qolibdi. Ovoz Farruxning buvisinikiga ham, Rasulning bobosinikiga ham juda-juda o‘xshab ketarmishku, bunday ko‘zlarini kattaroq ochib qarasa, oldilarida qorong‘ilikdan boshqa hech narsa yo‘q emish. Samolyot esa varillab uchgandan-uchaveribdi, uchaveribdi. Osmon shunaqa keng emishki, bolalar oldinga ketishyaptimi, orqaga ketishyaptimi, hech bilishmas ekan. Goh o‘ng tomondan, goh chap tomondan lovillab yonib turgan meteoritlar zuv-zuv etib o‘tib ketarmish. O‘tayotganda osmonning yarmini charog‘on qilib yoritib yuborar emish. Bir payt samolyot shunday balandlab uchibdiki, Soraxonni bo‘yi sal novcharoq emasmi, boshi yulduzlarga tegay-tegay deb qolibdi. Humoyun bitta yulduzni ushlab ko‘rmoqchi ham bo‘libdiku, lekin yulduz menga yetolmaysan degandek, tezgina havolab uchib ketibdi.

Osmondagi gashtli, faqat huzurdan iborat bo‘lgan safar davom etaveribdi-etaveribdi. Yer vaqti bilan qancha bo‘lganini bilisholmabdiku, osmon vaqti bilan bir yilcha uchganlarini hammadan oldin Rasuljon sezib qolibdi. Nega desangiz, Rasuljonning qorni osmon vaqti bilan bir yilda bir marta ochqar ekan. Hozir ham juda-juda ochqab turganidan, demak, bir yilcha uchibmiz-da, deb o‘ylabdi. Bir vaqt bunday qarashsa, samolyotning tarillab turgan ovozi to‘satdan o‘chib, o‘zi xuddi o‘q tekkan qush kabi lapanglab-lapanglab

pastga tushib borayotgan emish. Qoʻrqib ketishibdi. Xursand boʻlishni ham, xafa boʻlishni ham bilisholmay bir-birlarining pinjiga kirib, quchoqlashib jim turishaveribdi. Samolyot ohista pastlab borib, quyuq bir oʻrmonning chekkasiga, barra oʻtlar oʻsib yotgan bir kenglikka qoʻnibdi. Qoʻngan joylari shunday bir goʻzal ekanki, taʼrifga soʻz topolmay, ancha mahal angrayib qolishibdi. Farruxning hayratdan ogʻzi ochilib qolgan emish. Oʻt-oʻlanlar qalin oʻsganmish, ariqlarda jildirab zilol suv oqarmish, zilol suvlar jarangli ovoz bilan yoqimli ashulalar aytarmish, chigirtkalar yoqimli kuylar chalarmish, oʻrmondagi qushchalar chaq-chaqlashib xuddi xush kelibsizlar degandek tabrik aytarmish. Muzdekkina shabboda yengil-yengil esib, yuzlarini yumshoq-yumshoq silab oʻtarmish. Quyosh erkalab mayin-mayin nurlar socharmish.

– Juda maza-ku! – debdi Farrux quvonchini ichiga sigʻdira olmay.

– Voy, lolalar ham ochilib yotibdi, – debdi gullarni yaxshi koʻradigan Soraxon.

– Men endi hech narsadan qoʻrqmayman, – dermish Rasuljon. Aslida bu yerda yirtqich hayvonlar boʻlsa-ya, deb dagʻ-dagʻ qaltirayotgan ekan-u, shunday boʻlsa-da men hech narsadan qoʻrqmayman, deb yuboribdi.

– Qoʻrqmanglar, agar boʻri kelsa, mana bunday tepib yerga yiqitaman, – deb Humoyun sakrab oʻng oyogʻi bilan havoni bir tepib qoʻyibdi.

Xayriyat, oʻzlarini yoʻqotishmabdi. Dadil boʻlishibdi. Adirlardan-adirlarga oʻtib, anvoyi gullardan terib, chiroyli guldastalar yasashibdi. Oʻrmon ichidagi tortor soʻqmoqlardan yurib qoʻziqorinlar terishibdi. Har qoʻziqorinlar emishki, bir xillari Rasuljonlarnikidagi xontaxtaday kelarmish. Dumaloq oʻsganlari esa Farruxning boshicha kelarmish.

Nihoyat o't-o'lanlar bilan qoplangan bir go'zal tepalikda to'xtab, endi nima qildik, deya o'y surib ketishibdi. O'zlari ham behad charchashgan, ochqashgan ekan. Ochlik zo'r kelib, ukalari asta-sekin hiqillay boshlashgan ekan, Soraxon nima qilarini bilmay xuddi echki bolasiga o'xshab ma'rab yuboribdi. Qishloqdagi buvisinikiga borganda echki bolalariga taqlid qilib ulardan ham chiroyliroq ma'rashni o'rganib olgan ekan. Bu yerlarda yovvoyi echkilar ko'p ekan. O'shalardan biri Soraxon tomonga asta-sekin kela boshlabdi. Uning jajji bolalarini bo'ri yeb ketgan ekan. Soraxonning ovozi o'sha bolasinikiga juda-juda ham o'xshab ketgan ekan. Ona echki Soraxonga yaqin kelib oyog'iga suykalarmish, iliqqina tilini chiqarib, tizzalarini yalab-yalab qo'yarmish. Bolalar avvaliga sal-pal qo'rqishibdi. Humoyun bo'ri bilan echkinging farqiga bormas ekan, bu hoynahoy bo'ri bo'lsa kerak, deb o'ylab, boplab tepmoqchi ham bo'libdi. Soraxon echki sog'ishni bilarkan. Qishloqdagi buvisi o'rgatgan ekan. Bunday qarasa, echkinging yelini sutga to'lib, xamir qoradigan tog'oradek shishib ketgan emish. Soraxon achinibdi, juda-juda achinibdi, bechoraginam, deb yunqlaridan mayin-mayin silabdi-yu, silayotib sutini sog'ib tashlasam yelini ancha bo'shab, joni huzur qilarmikin, deb o'ylabdi. Ona echkini yana qayta-qayta silabdi. Osilib turgan yeliniga qo'l uzatib, ohista-ohista sog'a boshlabdi. Iliqqina sutdan bir-ikki marta hovuchlab ichib ham olibdi.

– Menga ham ichir! – debdi qorni ochib turgan Rasuljon.

– Menga ham ikki hovuch berasan, – xarxasha qilibdi Farrux.

– Mening qornim katta, mana ko'ringlar, uch hovuch ichaman, men hammangdan kattaman, – deb



ataylab oyog'ining uchida turib, bo'yini baland ko'rsatibdi Humoyun.

Soraxon ham aqlli, ham tadbirkor qizlardan ekan. Janjal chiqmasin deya uchala ukasini echki bolalariga o'xshatib emaklatib qo'yib, hovuchidagi iliqqina sutni navbati bilan ichira boshlabdi. Qiziq, xuddi buloqdan chiqayotgandek ona echkinging suti hech ado bo'lmas emish.

Kech kira boshlabdi. Tun borliqqa asta-sekin qora pardasini yoyibdi. O'rmon tomondan yirtqich hayvonlarning bir-biridan vahimali ovozlari eshitalarmish, och bo'rining cho'zib-cho'zib uvillagani, chiyabo'rining xuddi bironni masxara qilayotgandek ingichka chiyilashi, ayyor tulkinging chaqaloqdek ingalab yig'lashi, sherxonning o'rmonni boshiga ko'tarib atrofga dahshat-u vahshat solib qattiq o'kirgani eshitalarmish. Qo'rqib ketishibdi, juda-juda qo'rqishibdi. Bir-birlarining pinjiga kirib, dag'-dag' qaltirasharmish. Rasuljonning iyagi-iyagiga tegmay, birdan tishlarini taqillatarmish. Har ehtimolga qarshi 20 tadan tosh terib kelib, oldilariga qo'yib olishibdi. Humoyun bo'ri kelsa shoshib qolmayin deb o'zini boshicha keladigan toshni qo'lida mahkam ushlab olgan emish. Og'ir sharoitda, hayoti xavf ostida qolganda odam bolasining aqli juda tez ishlab ketar ekan. Rasuljonning aqli ham shu paytda juda, judayam tez ishlab ketibdi.

– Olov yoqamiz! – deb sakrab o'rnidan turib ketibdi u. – Toqqa borganda ko'rganman, toshni toshga ursa olov chiqadi, ur-ra, buni men topdim ur-ra-a... Men topdim.

– To'g'ri, – deb Soraxon ham mehmon ukasini ma'qullab, – faqat chaqmoqtosh topish kerak, chaqmoqtoshdan tez olov chiqadi. Qora toshdan olov chiqmaydi... Qishloqqa borganda tosh terganmiz.

Qorong'i bo'lgani uchun oldilaridagidan qaysi biri chaqmoqtosh ekanligini bilisholmabdi. Axir bittasidan olov chiqib qolar deb, hamma toshlarni bir-biriga urishtiraverishibdi-urishtiraverishibdi. Bir mahal Humoyunning ko'ylagi pov etib yonayotganini ko'rib qolishibdi. Tosh urishtirishayotganda uzilib chiqqan uchqunni Humoyun ko'rmay qolgan ekan.

– Ur-ra-a-a... Olovni men yoqdim, – deb Humoyun o'rnidan turib ko'ylagini yecha boshlabdi.

– Tezroq yech, – deb qichqiribdi Soraxon.

Hammalari esli-hushli bolalar ekan. Olov o'chib qolmasligi uchun nimalar qilish kerakligini bilishar ekan. Ko'z yumib-ochguncha cho'p-xaslardan, qurib qolgan o'tlardan terib kelib, olovni gurillatib yuborishibdi. Shunday gurillatishibdiki, olovning balandligi huv naridagi chinorlardan ham yuqoriroq bo'lib ketibdi.

– Ko'ylagim kuyib ketdi, deb xafa bo'lma, – debdi Soraxon Humoyun ukasining ko'nglini ko'tarib, – mana shu yonimizda turgan ona echking junidan qirqib, senga chiroyli ko'ylak tikib beraman.

Kechasi bir-birlarining pinjilariga kirib uxlashibdi. Soraxon tez-tez uyg'onib, olovga cho'p-xasdan tashlab qo'yarkan. Rasuljon bir-ikki uyg'onib «Opa, ertaga bog'chaga bormasam maylimi», deb so'rabdi. Farrux boshini xiyol ko'tarib, ko'zi yumuq emishu, qo'limdagi nonim qani, hozir yeb turuvdim-ku, deb so'rar emish. Humoyun, bo'ri kelsa uraman deya, katta toshni quchoqlaganicha tuni bilan hech uyg'onmabdi. Ertalab qulog'idan cho'zib, oyog'idan tortib zo'rg'a uyg'otishibdi.

Ertalab o'rinlaridan turishsa, voy-bo'y yirtqich hayvonlardan qo'rqib pana-panada pisib, berkinib uxlaydigan boshqa echkilar ham bolasini bo'ri yeb ketgan ona echkiga ergashib, gulxan atrofiga shunaqa ko'p to'planishibdiki, hisobi yo'q emish. Bir xil echkilar

yangi tuqqan ekan, chiroyli-chiroyli uloqchalar dikondikon qilib, sakrashib yurishgan emish. Humoyun men yoqqan katta gulxanga isinishga kelishdimi, gulxan himoyasida yirtqichlardan jonlarini saqlash uchun kelishgandir yoki sutning yarmini sog'dirib tashlab sal yengilroq bo'lay deyishganmi, ishqilib, nega kelishdiykan deb rosa o'ylabdi-yu, lekin shuncha echkinging bir yo'la yig'ilib kelganligiga hech tushunolmabdi. Farrux bitta echki bola bilan bosh urushtiraman deb ushlamoqchi bo'lgan ekan, ushlay olmabdi. Echkilarining erkagi – takalari shunaqa katta, shoxlari ham o'tkir, soqollari ham qurt sotadigan chol bobonikiga o'xshab shunaqa uzun ekanki, odam astoydil tikilsa, qo'rqib ketar ekan. Rasul ana shu bahaybat takalardan bittasini minmoqchi bo'lgan ekan, yaqiniga ham yo'latmabdi. «Ma-a», – deb yuborgan ekan, Rasul qochib borib opasining orqasiga berkinib olibdi. Soraxon ko'p aqli, ham bilimli qiz ekan. Oyijonisi bekorga asal qizim, deb erkalamagan ekan. Ukalari sut ichib, qornim og'riyapti, saqich chaynagim kelyapti, qurt sotadigan chol bobo qayerda qoldi, yerda yotmayman, shamollab qolaman, deb yig'lashganida, hammalarini aldab yupatarkan. Xuddi bog'cha opalariga o'xshab, boshlaridan silab-silab, peshonalaridan o'pib-o'pib qo'yar ekan. Echki sog'arkan, kechasi yoqishga o'tin tayyorlar ekan. O'tgan yil qishloqqa borganida loydan kosa yasab, olovda pishiradigan kulol bobonikiga o'rtog'i bilan mehmonga kirib, kosa qanday yasalishini, qanday pishirilishini ko'rgan ekan. Hatto o'sha bobosi Soraxon yasagan kosani olovda pishirib ham bergan ekan.

«Men ham kosa yasayman. Tosh ustiga qo'yib pishiraman», deb o'ylabdi-yu, darhol ukalarini yordamga chaqirib, ishga kirishib ketibdi. Yetti kun degan-

da 14 ta kosa, 11 ta piyola, sal qiyshiqroq bo'lsa-da 5 ta lagan tayyor bo'libdi. Humoyun sevinganidan kosani osmonga otib o'ynayman, deb sindirib ham qo'yibdi. Odamning hayoti xavf ostida qolganda u juda-juda aqlli bo'lib ketadi, deganlari rost ekan. Hammalarining aqliga aql qo'shilaveribdi-qo'shilaveribdi. Rasul bilan Farrux echkilarning bolasiga o'xshab, mayin-mayin er kalanib ma'rashni o'rganib, sog'in echkilardan to'rttasini qo'lga o'rgatib olishibdi. Sog'ishni ham o'rganishibdi. Rasul sog'ayotganda Humoyun echkinging bo'ynidan quchoqlab boshini silab-silab turarkan. Ko'pincha echki bolaga o'xshab emaklab kelib chalqancha yotarkanda, echkinging yumshoqqina emchagini og'ziga solib lo'qillatib so'rib olar ekan. Bir marta bilmasdan tishlab olgan ekan, ona echki uni boshiga bir tepibdi. O'shandan buyon emishni bilmas ekansan deb, yoniga qo'ymayotgan ekan.

Endi echki sutini pishirib ichishni o'rganishibdi. Tovoqqa o'xshab ketadigan sariq toshlarda qatiq uvitishar ekan. Yovvoyi o'tlardan tag'in zaharlanib qolmaylik, deya oz-oz yeb ko'rishibdi. Qorinlari og'rimagan ekan, endi ko'p yeya boshlashibdi. Anormi, nokmi, olmami, nomini bilishmas ekan, baribir to'yib-to'yib yeyishar ekan. Bu yerlar asli yovvoyi echkilarning makoni ekan. To'p-to'p bo'lib yashashar ekan. Bir to'da ikkinchi to'daga qo'shilmas ekan. Rasuljon bitta yunglari mayin bo'lgan, kattaligi fermada boqiladigan bahaybat takani dori-darmon berib tuzatib, asta-sekin ustiga minib, yaylovlarni aylanadigan bo'libdi.

Avvaliga dadalarimiz kelib olib ketishadi, deb yo'l poylashibdi, tepalikka chiqib goh osmonga, goh o'rmon tomonga rosa tikilishibdi, yig'lab-yig'lab ham olishibdi. Bora-bora o'rganib ketishibdi. Soraxon qo'lbola

xumdonda echkilarning sutidan qaymoq, sariyog'lar yig'ar ekan. Echkilarning junidan kesib, ostilariga qalin-qalin ko'rpalar, ustilariga yumshoq-yumshoq yoping'ichlar tayyorlashar ekan. Yovvoyi mevalardan mo'l-ko'l quritib, qishga tayyorgarlik ko'rishar ekan. Ba'zan haligidek ota-onalarini, o'rtoqlarini sog'inib yig'lay-yig'lay deb turganlarida to'satdan qadrdon samolyotlarning tumshug'idan «Qo'rqmasang, o'zingni yo'qotmasang, murod-u maqsadingga yetasan, dunyo botirlarniki, dunyo mardlarniki» degan tanish o'zbekcha ovoz eshitilib qolar ekan. Shunda Farrux hiqillashdan to'xtab:

– Men botirman, to'g'rimi, opa, – deb so'rarkan Soraxondan.

– To'g'ri, hammamiz botirmiz, – gapga qo'shilar-kan Humoyun.

– Biz bo'rilardan ham qo'rqmaymiz, qo'rqmaymiz, deyishib hammalari o'yinga tushib ketisharkan. Rasuljon barmoqlarini qarsillatib o'ynarkan. Humoyun oldinga egilib-egilib salom berib o'ynarkan, Farrux ikki qo'lini biqiniga qo'yib sakrab-sakrab o'ynarkan. Bir marta oldinga, bir marta orqaga sakrab-sakrab o'ynarkan.

Shundan keyin kunlar ketidan kunlar o'taveribdi-o'taveribdi. Vaqt hisobini, asosan, Rasuljonning qorni ochgan va ochmaganligidan o'lchasharkan. Uch marta och qolsa, bir kuni o'tgan bo'larkan. Hisob 10 mingga yetganda, u yog'iga adashib ketishibdi, nega desangiz, 10 mingdan u yog'ini sanashni hech birlari bilmas ekanlar. Lekin, baribir, bekor o'tirishmas ekan. Humoyun echkilarning semizrog'idan tanlab so'yib, go'shtini nimtalashni o'rganibdi. Yaxshigina qassob bo'lib qolibdi. Rasuljon qizigan toshning us-tiga go'shtni yopib pishirish mashqini olibdi. Farrux

daraxtning novdasidan six yasab, kabob pishirishni o'rganibdi. Soraxon bo'lsa, eh-he, 20 tacha hunar o'rganibdi. Echkining terisidan tikkan kavushni ko'rsangiz, og'zingiz ochilib qoladi. Lekin eng zo'r bir ishni Humoyun bajaribdi. O'rmon chekkasida ona sherning uyasi bor emish. Humoyun ko'pincha emaklab borib, daraxtning panasida berkinib turib, sherni kuzatgani-kuzatgan ekan. Nega bunday qilayotganini bilmas ekan-u, baribir kuzatgani-kuzatgan ekan. Kunlardan bir kun ona sherni katta zaharli ilon chaqib olibdi-yu, o'n ikki kunlik bolasi yetimcha bo'lib qolibdi. Humoyun ana shu yetimcha sherni jun qopga o'rab olib kelib, echki sutidan oz-oz berib boqib, asta-sekin o'ziga o'rgatib olibdi. Avvallari ukasi Farrux bilan sherning bo'yniga jun arqon bog'lab galma-galdan yetaklab yurishar ekan. Keyinchalik minadigan ham bo'lishibdi.

– Sherning bolasini minganimni adajonim bir ko'rsaydi! – deb orzu qilar ekan Humoyun.

– Agar olib ketsak, men uni bog'chamga minib borar edim, – derkan Farrux.

– Bizning ko'chada hech kim sherdan qo'rqmaydi, – derkan Rasuljon.

– Eh, gapni cho'zmasalaring-chi, sho'rva sovib qolayapti, – urishib berarkan Soraxon.

Keyin kattakon toshqozonni o'rtaga qo'yib toshqoshiq bilan qaynoq-qaynoq sho'rvani po'rillatib ichishar ekan. Hammalariga ish teng taqsimlangan ekan. Soraxon 14 ta echkini sog'arkan. Rasuljon sut pishirib, qatiq qilarkan, qaymog'ini qaynatib sariyog' tayyorlar ekan. Tayyor bo'lgan sariyog'larni Soraxon yasagan xumlarga qo'yib, og'zini berkitar ekan. Farrux toshqozon ortiga tun-u kun olov yoqib berarkan. Unga «olovkor» deb nom ham qo'yishgan ekan. Humoyun yalpoq toshning ustiga o'tirib olib, suzmalardan hech charchamasdan qurt yasab ekan. Qurtlar soni

10 mingga yetganda, 10 mingdan u yog'iga sanashni bilmagani uchun, qolganlarini sanamasdan qopga so-laveribdi. Goho boshini ko'tarib:

– U yoqqa borganimda saqichga almashtiraman, – deb qo'yarkan.

– Men sariyog'imdand sotib, tarillatib otadigan av-tomat olaman, – derkan Rasuljon.

Farrux bo'lsa nima deyishini bilmay:

– Men adajonimni achomlab uxlayman, – deya bir xo'rsinib olar ekan.

Turmushlari shu yo'sin kechaveribdi-kechaveribdi. Bir kun tashqarida havo juda sovuq ekan, bir-birla-rining pinjiga kirib uxlashibdi, ustimiz ochilib qolsa, muzlab qolmaylik, deb shunday qilishibdi. Qarangki, hammalari bir xil tush ko'rib, hammalari bir ovozdan:

– Oyijon! – deya uyg'onib ketishibdi. Keyin uyqu-lari qochib rosa gapga tushib ketishibdi. Onalarini, adajonlarini, muzqaymoq sotadigan semiz xotinni qayta-qayta eslashibdi. Farrux ozgina yig'lab ham olibdi. Yig'labdi-yu, lekin ko'ziga yosh kelmadbi.

– Ertaga ketaman, – debdi hiqillab, – tramvay bo'l-masa piyoda ham ketaveraman.

Hammalari kulib yuborishibdi, nega desangiz, bu yerlarda, ya'ni osmondagi mamlakatda tramvay bo'l-masligini Farruxning o'zi ham yaxshi bilarkan. Aytgan gapi g'alati bo'lgani uchun akalariga qo'shilib o'zi ku-laveribdi. Hammalari charchab qolguncha kulishibdi.

Tong otibdi, kun chiqibdi, qaymog'u sariyog'lar bi-lan nonushta qilishibdi. Keyin hammalari har kun-gidek o'z ishlariga mashg'ul bo'lishibdi. Rasuljon dori-darmon berib oyoqqa turg'azib olgan novvosdek takasini minib, uzoq yaylovdagi echkildan xabar ol-gani jo'nabdi. Soraxon o'zi yaxshi ko'rgan yovvoyi gul-larning urug'idan yig'ishga majbur bo'libdi. Farrux

o‘zlarini olib kelgan samolyotning oldida echki bolalari bilan kalla urishtirish o‘ynayotgan ekan. Samolyotning qirg‘iynikiga o‘xshash qayrilma tumshug‘idan «qo‘rqmading, o‘zingni yo‘qotmading, endi murodingga yetasan, tayyorlan, yurtingga qaytasan», degan o‘zbekcha yoqimli ovoz eshitila boshlabdi. Farrux shoshganidan dovdirab qolibdi. Soraxon opasining oldiga yugurib borib, nima deyishni bilmay echki bolaga o‘xshab nuqul sakrarmish. Bir nafasda hammalari yig‘ilib kelishibdi. Yoqimli ovoz takror va takror eshitilarmish. Oh-oh o‘sha paytlardagi ularning quvonch-u sevinchlari! Har birining yuzida bamisoli chiroyli gul ochilgandek bo‘libdi. Sevinchlaridan sayroqi qushlar sayrashibdi. Yaylovdagi maysalar chayqalib, tabrik aytgandek bo‘libdi. Lekin bolalarning o‘zlari goho-goho ikkilanib qolishayotgan emish. Ketaylik deyishsa, bu yerda o‘zlari kashf qilgan, o‘zlari egasi bo‘lgan ajoyibotlarni ko‘zlari qiymas emish, qolaylik deyishsa, ota-onalarini, muzqaymoq sotadigan baqaloq xolani juda-juda sog‘inishgan emish. Qiziq, shu paytda yana bir mo‘jiza yuz beribdi. Samolyotchalarida asta-sekin kengayib, kattalashib borayotganmish, xuddi kimdir puflab shishirayotganga o‘xsharmish.

– Ketamiz, qadrdon uyimizga ketamiz! – baravariga qichqirib yuborishibdi. Nega desangiz, shu paytda ko‘zlariga bu yerdagi barcha mo‘jizalardan, barcha ajoyibotlardan uylari chiroyli bo‘lib ko‘rinib ketibdi.

Ko‘p narsa yig‘ib qo‘yishgan ekan. 21 ming xumda saryog‘, 14 xumda qaymoq, 31 ming donaga yaqin yog‘li qurt, 3 qop quritilgan yovvoyi o‘tlar, 1 qop anvoyi gullarning urug‘i, echki junidan to‘qilgan ko‘rpa-choyshablar, chaqmoq toshlar-u sut berib ularni ochlikdan qutqarib qolgan ona echki-yu, Rasuljon minib yurgan bahaybat taka, o‘rgatilgan sher bola-



si... Hamma-hammasini samolyotga yuklayverishibdi-yuklayverishibdi. Bir kecha-yu bir kunduz yuklashibdi. Oxiri tarillasdan hech to'xtamay, uchishga shay turgan samolyotga chiqishib:

– Xayr, qadrton echkilarimiz!

– Xayr, gullarga to'lgan yaylovlar!

– Xayr, ey toshlardan yasalgan uylarimiz!

– Xayr, ey o'rmondagi daraxtlar! – deyishib, goh yig'lashib, goh kulishib uchib ketishibdi.

Samolyot tarillab, orqasidan ko'm-ko'k tutun chiqarib parvoz qilibdi. Keyin xuddi vertolyotga o'xshab goh tepaga, goh o'ngga, goh chapga uchaveribdi. Samolyotning qirg'iyinikiga o'xshash qayrilma tumshug'idan «qo'rqmading, o'zingni yo'qotmading, dunyo mardlarniki, mana murodingga yetding» degan so'zlar tinmay eshtilaveribdi-eshitilaveribdi.

Osmon vaqti bilan necha oyu necha yil uchganlarini eslay olmabdilarku, lekin Rasuljonning parvoz mahalida 11 marta qorni ochganligini hisobga olishib, shundan parvozda qancha vaqt bo'lganlarini taxmin qilishibdi. Samolyot 12 qavatli uylarning o'rtasiga qurilgan bolalar o'ynaydigan maydonchadan ko'tarilgan ekan. Yana xuddi shu yerga yumshoqqina qo'nibdi. Soraxon, Humoyun, Rasuljon birin-ketin sakrab pastga tushishibdi. Rulni boshqarayotgan Farrux hammadan keyin tushibdi. Qiziq, maydondagi odamlar ular osmonga parvoz qilgan mahalda qanday bahslashayotgan bo'lsa, yana o'shanday bahslashayotgan emish.

– Uchar likopchalar o'g'irlab ketdi ularni.

– Yo'q, bilmaysan. Samolyot to'satdan uchib ketdi, demak, sehrli ekan u.

– Bo'lmagan gap, samolyotning ichida yashirincha motor bo'lgan...

Xullas, mana shunaqa past-u baland gaplar, tortishuvlar hech to'xtamasmish.

Keyin to'satdan hammalari jim bo'lishib, bolalarning osmon sayohatidan sog'-omon qaytganlariga hayrat ichida tikilib jim bo'lib qolishibdi.

Nega jim bo'lib qolishdi ekan, sababiga hech kim tushunmas emish.

## ***HIKOYALAR***



## BIRINCHI DARAXTIM

Kolxozning bosh bogʻboni Abduqodir Nabiyevning hovlisida, sershox olmalar soyasidagi shinam soʻrida suhbatlashib oʻtirardik.

– Yoshligimda juda dangasa edim, – deb gap boshladi uy egasi, – uyquni juda sevardim. Ertalab akam, ukalarim oʻrinlaridan turib ketgach, men koʻrpani boshimga tortib, oʻzimni uxlaganga solib yotardim-u, xayollarga berilib ketardim. «Qani endi yaqin bir doʻsting boʻlsa-yu, betlaringni beozorgina yuvib qoʻysa, keyin momiq sochiq bilan ohista artsa, oyijoning pishirib qoʻygan quymoqni yedirib, sening oʻrningga maktabga borib, oʻqib kelsa! Oʻqiganda ham nuqul «besh»ga oʻqisa! Kechqurun oying, dadang, ukalaring seni maqtab-maqtab qoʻltigʻingdan olib oʻrningga yotqizib, to uxlaguningcha yoningda oʻtirib har xil devlar, pahlavonlar haqida ertak aytib bersa...» – deb yana mizgʻib qolardim.

Shunaqa dangasa edimki, hatto oyim pishirib ketgan tuxumni archigani erinib, ukamga teng sherikka architardim. Archib bergani uchun teng yarmini oʻzi yerd.

Hech qachon yangi tufli kiymasdim, ipini oʻtkazgani erinib, akamning eski botinkasini kiyardim.

Kamdan-kam yuvinardim, hozir yuvinganim bilan birpasdan keyin yana kir boʻladi, deb yaxshisi, yuvinmay qoʻya qolardim.

Ukalarimni yaxshi koʻrardim. Lekin uy vazifamni ishlab ber, deb qiynayverganimdan ular meni yomon koʻrishardi.

Oyijonimni yaxshi koʻrardim. Lekin men tufayli muallimlardan gap eshitavergani uchun oyim ham meni uncha xushlamasdi.

Qaysi sinfda o'qisam ham baribir bolalar meni yoqti-rishmasdi. Hatto o'yinga ham qo'shishmasdi. Qaysi ko-mandaga qo'shilsam, o'sha komanda albatta yutqazib qo'yardi. Bir kuni hadeb iltimos qilaverganim uchun meni darvozabon qilib qo'yishdi. O'yin qizib ketganda: «Qani endi shu to'p tarvuz bo'lib qolsa-yu, so'yib maza qilib yeb olsam! Yoki mana shu to'p tuxum bo'lib qolsa, o'ziyam bir tog'ora quymoq bo'lardi-da...» deb xayolga berilib ketibman. Men qo'riqlab turgan darvozaga ket-ma-ket oltita to'p urib qo'yishibdi.

Men hammani yaxshi ko'rsam-u, lekin biron kishi meni xushlamasa... Baxtinga shahardan yangi mu-allim kelib qoldi. Oti Odil Usmonovich, bo'yi novcha, qovog'i soliq, peshonasi do'ng bir kishi edi. Har kuni to'rt banka qatiq ichardi. Bizning tashqari hovlimizda turadigan bo'ldi. O'zi bolalardek chaqimchisi bo'lmas ekan, mening haqimdagi hamma gapni unga yetka-zishibdi. Payt topib oyim ham zorlanibdi, dadam xafa bo'lib gapiribdi.

– Bo'lmagan gap, – dedi bir kuni muallim, – siz hech ham dangasa emassiz, to'g'rimi?

– To'g'ri aytasiz, men hecham dangasa emasman! – dedim birinchi marta yaxshi gap eshitganim uchun o'zimda yo'q sevinib. Shunaqangi sevindimki, ishon-sangiz, muallimning peshonasidan cho'lpillatib o'pib olgim kelib ketdi.

– Baholaringiz hammasi «uch»mi-a?

– Muallimlar doim «uch» «besh»dan yaxshi deyi-shadi-ku.

– Bo'lmagan gap, – kulib qo'ydi Odil Usmonovich. – Xo'p desangiz endi birga ishlaymiz, baholarni ham «besh»ga chiqaramiz.

– Jon deymen, domlajon!

– Bo‘lmasa turing, bir chelak suv keltiring, birgalashib ovqat qilamiz.

– Suv keltirsam, bolalar yaxshi baho olish uchun shunaqa qilyapti, deb, keyin meni kalaka qilishadi-da.

– Bo‘lmasa ko‘mir olib chiqing.

– Ko‘mir olib chiqsam, qo‘lim qora bo‘lib qoladi-da, keyin yuvsam ham ketmaydi.

– Unda siz piyoz to‘g‘rang, o‘tni o‘zim yoqarman.

– Domla, piyoz to‘g‘rasam ko‘zim achiydi.

Odil Usmonovichning o‘zi ovqatga unnab ketdi. Har xil narsalar to‘g‘risida gapirib ham berdi. Kimki mehnatni xushlamasa baxtsiz, behurmat bo‘larkan. Maqsadsiz kishi juda ojiz, juda nimjon bo‘larkan. Masalan, ko‘chada, asfaltning ostida ko‘kargan giyoh nurga intilgani uchun o‘zidan ming barobar qattiq asfaltni yorib chiqarkan. Keyin odam beqaror bo‘lmasligi, bir maqsad bilan yashashi kerak ekan. Qaror qat’iy bo‘lsa, odam juda zo‘r bo‘larkan. Suv tomchisi o‘zi juda ojiz ekan-u, hech tinmagani uchun toma-toma qattiq toshlarni teshib o‘tarkan...

– Siz giyohdan zo‘rsiz, shundaymi? – deb so‘radi mendan Odil Usmonovich.

– Bo‘lmasam-chi?

– Siz tomchidan zo‘rsiz, shundaymi?

– Xuddi shunday.

– Faqat sizda maqsad yo‘q, shundaymi?

– Xuddi shunday.

O‘qishga kirganimdan buyon hech kim men bilan mana bunaqangi ochiqchasiga gaplashmagan, hech kim «sendan odam chiqadi» deb ko‘nglimni bunchalik ko‘tarmagan. Nuqul dangasa, ishyoqmas, deb uyaltirishgani-uyaltirishgan... Yo‘q, men ham mana shu mehribon odamga bir yaxshilik qilayki, ko‘ngli tog‘dek ko‘tarilsin.

– Qatiq ichasizmi? – deb so‘radim o‘rnimdan turib.  
– Yo‘q.  
– Choy qaynatib chiqaymi?  
– Rahmat. Ertalab barvaqt turamiz, endi siz kirib yoting.

– Men baribir turolmayman.

– Turasiz. Men giyohdan zo‘rman, men tomchidan zo‘rman, yettida turaman, deb yotsangiz, albatta, turib ketasiz. Kelishdikmi?

– Kelishdik.

Ishonsangiz, uyg‘oq yotib-yotib ertalabga yaqin gattiq uxlab qolibman, oyog‘imdan tortib, boshingga suv quyib uyg‘otisholmabdi.

Uyalganimdan yig‘lab yubordim. Muallimga bir yaxshilik qilish niyatim yana kuchaydi. Tashqari hovlimiz qarovsiz edi, sahnini chopib, gul ekib bermoqchi bo‘ldim. Kechasi hovliga suv ochibman-u, ariqning boshida uxlab qolibman. Hovli suvga to‘lib, muallim yotgan uyning karavotiga ko‘tarilib boribdi...

Ertalab muallim ko‘chib ketdi.

Men uch kun yig‘ladim.

Devorning zaxi ketgach, uni qo‘limdan kelganча oqladim, pollarini qayta bo‘yab chiqdim. Keyin hovliga unnadim: gul ekdim, to‘rt tup olma ko‘chati o‘tqazdim. Niyatim Odil Usmonovichni qaytarib kelish edi. Nihoyat oldiga borib, o‘sha kechasi suvni men ochganimni aytdim.

– Yo‘g‘-e! – dedi muallim qoshlarini past-baland qilib.

– Rost aytyapman, men sizga yaxshilik qilmoqchi bo‘luvdim.

– Ochiq aytganingiz uchun xursand bo‘ldim. Ilgari bormasam ham endi boraman. Lekin bitta shartim shuki, eng kamida ikkita fandan «besh» baho olasiz. Olgan kuningiz to‘ppa-to‘g‘ri chamadonimni ko‘tarib

boraveraman... Men buni sizga ishonganimdan ayt-yapman.

– Menga ishonasizmi-a?

– Ishonaman, o‘zimga ishongandek ishonaman. Hatto siz astoydil kirishsangiz, oltinchi «B»ning a‘lochi o‘quvchisi bo‘lib qolishingiz mumkin.

Ochig‘ini aytib qo‘ya qolay, o‘sha yili men biron-ta ham fandan «besh» ololmadim. Muallimlar xuddi o‘chakishgandek nuqul «uch» yoki «to‘rt» qo‘yishadi. Bu orada imtihonlar tugab, yozgi ta‘til ham yaqinlashib qoldi. Odil Usmonovich shaharga jo‘nab ketish oldidan biznikiga keldi. Men ekkan gullarni, unga atab ko‘kartirgan daraxtlarimni ko‘rib:

– Sizdan ajoyib bog‘bon chiqadiganga o‘xshab qoldi-ku! – dedi.

– Rost aytyapsizmi?

– Rost aytyapman...

Mana, oradan yillar o‘tib, men bog‘dorchilik agromi bo‘lib yetishdim. Demak, kishida o‘sha qadrdon muallim aytgandek biron maqsad bo‘lishi kerak ekan. Maqsadli kishi nurga intilgan giyohdek har qanday to‘siqni ham yengib o‘tarkan, yengilmas bo‘larkan...

Abduqodir Nabiyeov suhbatni tugatib:

– Mana shu olmalar o‘sha yili ekilgan edi! – deb qo‘ydi.

## QOCHOQLAR

Adalari juda katta muhandis bo‘lgani uchun chet elga, Afg‘onistongami, Hindistongami – ishqilib olis bir mamlakatga yo‘l qurish uchun jo‘nab ketdi. Oradan yarim yil o‘tgach, to‘satdan oyilariga ham ish chiqib qoldi. Bir oygami, yarim oygami, Moskvaga chaqirib qolishdi. Oyilari: «Bolalarimni yolg‘iz tash-



lab keta olmayman», – deb bormaslikka ko‘p harakat qildi, bo‘lmadi. Bormasa sira-sira ham bo‘lmas emish. Nihoyat, maslahat qila-qila oxiri Baxtiyor bilan Bahromni daryo bo‘yidagi kichkina bir qishloqchadagi xolalarinikiga tashlab ketadigan bo‘lishdi. Ochig‘ini aytganda, shunday qilingani bir jihatdan ham yaxshi bo‘ldi. Negaki, Baxtiyor bilan Bahrom o‘sha qishloqchaga borib besh-o‘n kuncha yashab, iloji bo‘lsa, daryoning sayozroq joyida bir cho‘milib kelishni ko‘pdan orzu qilib yurishardi.

Aka-ukani «Gaz-69» mashinasi to‘qayzor orqali qishloqchaga eltib tashladi. Qishloqcha chinakamiga go‘zal edi. Bir tomon poyonsiz to‘qayzor, bir tomoni tun-u kun shovullab oqadigan azim daryo, to‘qayzorga borib yulg‘un, yantoqlardan terib eshakka ortib kelasan, daryoda baliq ovlaysan, shu yerlik biron odamga ma‘qul tushib qolsang, qayiqqa o‘tqizib, daryoda maza qildirib o‘ynatib keladi, bolalarga qo‘shilib to‘qayzorning ichkarilariga kirib, qopqon qo‘yasan, tulki, quyon ovlaysan. Aka-ukalar ham ikki marta ovga borishdi, qopqon qo‘yishdi. Ammo negadir tulki ham, quyon ham ilinmadi. Shu yerlik Abdufattoh degan bolaning fikricha, hozir quyonlar juda ehtiyotkor bo‘lib ketgan emish. Ammo daryodan baliq tutib kabob qilib yegan kunlari juda maza qilishgan. Abdufattohning fikricha, baliqni qovurib yegandan kabob qilib yegan ming marta yaxshi emish, odamning aqli ko‘payar emish.

Xullas, hammasi ko‘ngildagidek borayotgan edi-yu, to‘satdan ikkovlari ham shaharga, o‘z uylariga qaytish fikriga tushib qolishdi.

– Aka, zerikib ketyapman, – dedi bir kuni Bahrom yig‘lamsirab.

– Men bo'lsam, allaqachon zerikib bo'lganman, – tushuntirdi akasi, – faqat oyimning kelishini kutyapman.

– Bordi-yu, oyim kelgan bo'lsa-chi?

– Sen qayerdan bilding?

– Kechasi tushimga kiribdi. Moskvadan juda katta tort olib kelib, bizga bermay o'zlari yeyishayotgan emish. Bu gapni eshitib, Baxtiyor ham o'ylanib qoldi. Ehtimol, ukasi rost aytayotgandir. Ehtimol, dadasi ham chet eldan allaqachon qaytib kelgandir-u, unga atalgan sovg'alarni boshqa bolalarga berib yuborgandir. Kim biladi, hozir hammalari muyulishdagi ikki qavatli kinoteatrqa borib, maza qilib tomosha ko'rishayotibdimikin?

Xolalari aka-ukaning shaharga ketmoqchi bo'lganini eshitib, bu gapni xayollaringdan chiqarib tashlanglar, bo'lmasa naq quloqlaringni cho'zib qo'yaman, deb andak po'pisa qilib qo'ydi.

Aka-ukalar to'qayda bo'ri, to'ng'iz, tulkilar ko'p bo'lishini eshitishgan edi. Shu sababli ikki metrcha keladigan irg'iy tayoq topishib, uchiga temir qadab, bir sanchganda har qanday yirtqichni o'ldirsa bo'ladigan nayza yasashdi. Oshpichoqni toshga charxlab, shay qilib qo'yishdi. Bo'rilar yorug' nurdan qo'rqadi, deb eshitishgan edi. Baxtiyor olti xonali katta charm papkasini qo'l fonariga, darsliklarini batareyaga almashtirdi. Ukasi Bahrom chetiga kumush qadalgan chiroyli kamarini qalamtaroshga ayirbosh qildi. Abdufattoh bularning yashirincha qochib ketayotganini eshitib, daryodan o'n ikkita baliq tutib, kabob tayyorlab berdi va bo'riga duch kelsanglar darrov o't yoqib yuboringlar, o'shandayam qochmasa nayzani darrov qorniga sanchinglar, deb maslahat berdi. Oxirida uylaringga eson-omon yetib olsalaring, menga bitta avtoruchka jo'natinglar, deb iltimos qildi.

Shanba kuni yotish oldidan aka-uka hamma narsani taxt qilib qo'ydi. Hatto o't yoqishga kerak bo'lar deb yigirmatacha gazeta, to'rt quti gugurt ham olib qo'yishgan edi. Avval pochchalari, ketidan xolalari ham uyquga ketib, basma-basiga xurрак torta boshlashdi.

– Bahrom! – deb shivirladi akasi.

– Nima deysan?

– Uyg'oqmisan?

– Ko'zimni yumib yotibman.

– Jo'nadikmi?

– Men tayyorman.

Birin-ketin o'rinlaridan turib, ovoz chiqarmasdan hovliga chiqishdi, og'ilxonada yo'lga tayyorlab qo'yilgan safar anjomlari bor edi, o'shalarni olib, ko'chaga chiqqach, Baxtiyor: «Bahrom, agar qo'rqayotgan bo'lsang, sen qola qol. Bir o'zim ketaveraman», deb qo'ydi.

– Nima, men qo'rqoqmanmi? – achchig'i chiqib so'radi ukasi.

– Demak, qo'rqmaysan-a?

– Yo'q, sira qo'rqmayman.

– Charchadim deb yig'lamaysanmi?

– Yo'q, g'ing demayman.

Aka-ukalar jadal yurib ketishdi. Endigina ko'tarilib kelayotgan to'lin oy sarg'ish nurlar sochib tun qo'y-nida mudrayotgan qishloqdagi pastqam uylarning tomlarini, daraxtlarning yalang'och novdalarini yoritib turardi. Daryo tinmay shovullaydi, itlar uliydi, buzoqchalar ahyon-ahyonda erkalanib, qisqa-qisqa ma'rab qo'yadi. Qishloq ahli hech narsadan xabarsiz oromli uyquga ketgan, ammo oltinchi sinf o'quvchisi Baxtiyor, ko'cha-ko'yda begona mushukka ko'zi tushsa, arslonga duch keldim deb, orqasiga qochadigan

Bahromboylar kimsasiz qishloq yoʻlidan jadal yurib borishardi. Ular qahramonlik koʻrsatishmoqchi. Kupa-kunduz kuni baʼzan katta odamlar ham yoʻl topolmay adashib qoladigan shafqatsiz toʻqayzordan tunda oʻtib ketishmoqchi.

Qishloqdan chiqib, toʻqayzorga burilishdan oldin toʻxtab, Abdufattoh chizib bergan taxminiy yoʻl rejasiga qoʻl fonarini yoqib qarashdi: hammasi joyida, adashishmabdi. Ammo yoʻl qoʻrqinchli koʻrinardi. Goʻyo har bir tepalik ortidan boʻrimi, yovvoyi toʻngʻizmi yirtqich tishlarini koʻrsatib, koʻzini loʻq qilib tikilib turganga oʻxshardi.

– Aka, aka!

– Nima deysan?

– Yetay deb qoldikmi?

– Endi uch kilometr yurdik, xolos...

– Atrofda hech narsa yoʻqmi?

– Yoʻq, toʻxta! – shunday deb Baxtiyor qadamini beixtiyor sekinlatdi. – Nimadir bizga qarab kelayotganga oʻxshaydi...

Bu gapni eshitib, Bahromning koʻzlari charaqlab ochilib ketdi. Rost, yigirma metrcha narida yoʻlning qoq oʻrtasida bir narsa choʻnqayib oʻtiribdi. Boʻrimikan, ehtimol toʻngʻizdir... Qoʻrqmaslik kerak, Abdufattoh: «Qoʻrqmasang, boʻri senga hamla qila olmaydi», degan edi, xayolidan oʻtkazdi Baxtiyor, – «qoʻrqmayman, qoʻrqmayman, qoʻrqmayman!» Baxtiyor tezlik bilan nayzani qoraga oʻqtaladi.

– Qoʻl fonarini yoq, ikkovini ham yoq! – buyurdi ukasiga. – Qoraga toʻgʻrila, koʻzi qamashib yurolmaydi. Qani, yur, qoʻrqma, orqamdan yuraver!

– Aka, jon aka!

– Ovozingni oʻchir!

Ular chiroqlarning nurini qadab, nayzani o'qталib, qora tomonga bostirib bora boshlashdi. Aka-ukalarining shu paytdagi holatini tasvirlash juda og'ir. Ikkovi ham dag-dag' qaltirar, terga pishib ketishgan edi! Xayriyat, yo'l o'rtasida turgan narsa bo'ri ham emas, to'ng'iz ham emas, shunchaki bir to'p yulg'un ekan – ikkovlari ham xaxolab kulib yuborishdi. Birinchi xavfdan eson-omon o'tganlari uchun o'zlarida yo'q sevinib ketishdi. Shu sevinch ikkovlariga ham kuch-g'ayrat, dadillik baxsh etgandek bo'ldi.

– Aka, sen qo'rqding-a? – ovozini baralla chiqarib so'radi Bahrom.

– Sal-pal... – deb qo'ydi Baxtiyor.

– Men zig'ircha ham qo'rqmadim! – maqtanib qo'ydi ukasi.

Shundan keyin ikkovlari yana ham jadalroq yura boshlashdi. Jadal ham gapmi, o'qdek uchib borishardi. Allaqayerdan tulki chaqaloqdek ingalab yig'lagandek bo'ldi, yaqinginada qandaydir qush qanotlarini patillatib uchib ketdi. Kunbotar tomonda hech tushunib bo'lmaydigan qasir-qusur ovozlari eshitilib qoldi. O'sha tomondan qora bulutlar bostirib kela boshladi.

– Shamol ko'tariyapti, – qo'rqa-pisa dedi Baxtiyor, – qara, chang-to'zon bosib kelyapti. Lekin, qo'rqma!

– Aka, qayta qolaylik, jon aka!

– Orqaga chekinish yo'q! – Baxtiyor gapini tugata olmadi. Kuchli shamol to'lqini cho'p-xas, yantoqlarning uchirindisini yuz-ko'zlariga urdi. U jon-holatda ukasini quchoqlab oldi. Bir-birlarining ko'ksilariga boshini qo'yib jim qolishdi. Qum zarralaridan ko'z ochib bo'lmas, atrofda nima bo'layotganini bilisha olmasdi, «Eng muhimi qo'rqmaslik kerak! – xayolidan o'tkazdi Baxtiyor. – Lekin nima qilsam ekan?»

- Akajon, qo‘rqib ketyapman.
- Dadil bo‘l!
- Qayta qolaylik.
- Chekinish yo‘q, gap bitta.

Asta-sekin shamol pasayib, haligi guldurashlar, har xil vahimali ovozlari tingandek bo‘ldi. Shamol ko‘z ochiltirgani qo‘ymasdi. Baxtiyor yo‘l boshlab bor-yapti. Ukasi chap qo‘li bilan uning etagidan ushlab olgan. Har zamonda ko‘zlarini ochib, yo‘lini chama-lab olishadi. Qo‘l fonarning ojiz nurlari yo‘lni uncha yoritolmasdi. Shunday bo‘lsa ham aka-ukalar jadal yurib borishardi. Endi Bahrom vahima ichida atrofga boqmas, oyijoni olib kelgan tort haqida ham o‘ylamas: «Qo‘limdagi chirog‘im o‘chib qolmasa bo‘ldi, o‘chma chirog‘im, o‘chma chirog‘im, o‘chma chirog‘im», deb pichirlab borardi. Baxtiyor bo‘lsa, bir qo‘lida nayza, ikkinchisida yalang‘ochlangan pichoq, tavakkaliga duch kelgan tomonga qadam tashlab borardi. Shamol goh kuchayib, goh pasayib, hushtaklar chalib, ba‘zan bo‘ridek ulib, aka-ukalarning yuzlariga, yelkalariga qum uchirindilarini keltirib urardi.

– Bahrom! – andek bo‘lmasa qichqirib yubordi Baxtiyor.

- Nima deysan?
- Biz yo‘ldan adashganga o‘xshaymiz.
- Qayoqdan bilding? – o‘zini jo‘rttaga dadillikka olib so‘radi ukasi. – Ehtimol adashmagandirmiz.

Gazeta yoqib atrofga ko‘z tashlashdi, hammayoq qum barxanlari – yo‘ldan chiqib ketishganiga ancha bo‘lganga o‘xshaydi. Orqaga qaytishni ham, to‘g‘riga yuraverishni ham bilishmasdi. Yana gazeta yoqib at-rofni o‘rganishmoqchi bo‘lishdi.

- Akajon!
- Bahrom! – aka-uka baravariga qichqirib yubo-rishdi. Yo‘q, bu galgisi vahima emas, rasmana bo‘ri,

yoʻldan adashgan koʻk boʻri edi. Oʻn besh metr nari-  
da baqrayib turardi. «Qoʻrqmaslik kerak, qoʻrqmaslik  
kerak!» Baxtiyorning boshiga kelgan birinchi fikr shu  
boʻldi. Nayzani oʻqtalgancha, qotib qoldi u. Bahrom  
boʻlsa akasining orqasiga berkinib:

– Gazeta yoqaymi? – deb soʻradi.

– Yoq tezroq!

– Akajon! – Bahrom qattiq qoʻrqib ketgan ekan,  
qoʻli qaltirab gugurt chaqolmadi. Ikki koʻzi boʻrining  
qorongʻida choʻgʻdek yonib turgan koʻzlarida. Choʻgʻlar  
sekin-asta chapga burilgandek boʻldi, keyin butunlay  
oʻchdi.

– Jim.

– Ketib qoldi shekilli?

– Gazetani menga ber.

Yoʻq, ish yana oʻngidan kelmadi. Harchand urinma-  
sin Baxtiyor ham gugurt choʻplarini qoʻllarida ushlab  
tura olmadi. Boʻri, qorni toʻq ekanmi yoki shu ozgʻin  
bolaning goʻshtida qanaqa maza boʻlardi, deb hafsalasi  
pir boʻldimi, har qalay ularga yaqinlashmadi. Chap  
tomondagi qumtepa orqasiga oʻtib ketdi. Oʻsha yerdan  
turib choʻzib bir ulidi-da, jim boʻldi.

– Yana kelyapti, qoch! – shunday deb Bahrom  
orqaga qarab shunaqangi chopib berdiki, qani unga  
yetib boʻlsa.

– Toʻxta deyapman! – deb qichqirardi akasi.

– Toʻxtamayman.

– Orqangga nayza sanchib olaman! – xuddi shu  
paytda Bahrom qoqilib yiqilib tushdi. Akasi ustidan  
bosib: – Tagʻin qochasanmi, qoʻrqoq? – deb soʻradi.

– Kim qoʻrqoq! – Bahrom sekin oʻrnidan turdi. –  
Men joʻrttaga qochgan edim, bildingmi?

Aka-uka maslahatlashib tong otguncha shu yer-  
da turishga qaror qilishdi. Shamol xiyla pasayib, oʻt

yoqsa boʻladigan boʻlib qolgan edi. Yulgʻun shoxlarini, qurigan yantoqlarni toʻplab, kattagina gulxan yoqishdi. Qopqogʻini ochib Abdufattoh tayyorlab bergan baliqdan yeb, shishadagi sovuq choydan bir qultumdan ichib olishdi. Bahrom asta-sekin mudray boshladi. Akasi agar uxlab qolsang, seni tashlab bir oʻzim ketib qolaman degan edi, qoʻrqqanidan koʻzlari ochilib ketdi-yu, injiqlik qila boshladi. Agar menga bir gap boʻlgudek boʻlsa, oyim teringga somon tiqadi, deb akasini qoʻrqitmoqchi ham boʻldi. Bu orada asta-sekin tong ham ota boshladi. Qayerda turganlarini, Abdufattoh chizib bergan yoʻl qayerda ekanligini aniq bilishmasa ham, kunchiqar tomonga qarab dadil boraverishga qaror qilib, oʻrnilaridan turishdi. Nonushta mahalida suvi qurib qolgan anhordan oʻtgach, kichkinagina qishloqchaga kirib borishdi.

- Iye! – deb orqasiga tisarildi Baxtiyor.
- Nima boʻldi, aka?!
- Xolamlarning qishlogʻiga kelib qolibmiz-ku!
- Yoʻgʻ-ye, yaxshilab qara.
- Rost, ana koʻrgin... hovuz boʻyidagi tollardan tanidim...

Baxtiyorning gapi ogʻzida qoldi. Nega desangiz, xuddi shu paytda koʻchada Bahromning chetiga kumush qadalgan kamariga pichoqchasini almashtirgan Zokirjon paydo boʻldi:

- Ana qochqoqlar keldi, ura! Qochqoqlar topildi! – deb suyunchi olish uchun qayoqqadir yugurib ketdi. Keta turib: «Suvi qurigan anhorning ichida berkinib yotishgan ekan, birinchi boʻlib oʻzim koʻrdim...» deya javrab borardi. Bir nafasning ichida hammayoqni odam bosib ketdi, koʻz ochib yumguncha xolalari ham yetib keldi...



Ma'lum bo'lishicha, birinchi bo'lib ularning qochib ketganini pochchalari payqab qolibdi. Yarim kechasi sigirga xashak solish uchun o'rnidan tursa, Baxtiyor bilan Bahrom o'rnida yo'q emish. Shundan keyin butun qishloqqa jar solib, katta-yu kichikni oyoqqa turg'azishib, to'qayzorni, daryo bo'yidagi qamishzorlarni rosa alg'ov-dalg'ov qilishibdi, hatto militsiyaga ham odam yuborishibdi.

– Pochchalaring shaharga ketgan! – to'satdan yig'lab yubordi xolasi. – Axir odamni shuncha ham qo'rqitasizlarmi!

– Xolajon, endi hech ham qochmaymiz, – o'zlari ham yig'lagudek bo'lib deyishdi bolalar, – rosa ta'zirimizni yedik, ikki marta bo'ri ham ko'rdik...

### **BIZNI NEGA AYTMADI?**

Qosimjon ochiq deraza oldida bog' tomonga tikilganicha o'yg'a tolib o'tiribdi. Bog'da esa o'riklar oppoq bo'lib gullagan, asalarilar gul atrofida vizillashadi, qayerdadir qushlar sayraydi, ariqchadagi suvning bir me'yorda jildirab oqishi quloqqa chalinadi.

Qosimjon bo'lsa bularning hech biriga parvo qilmaydi, xafa, ko'ksida allaqanday dard... Axir yoshlikda birga o'sgan, yetti yil birga o'qigan Muhabbat tug'ilgan kuniga butun sinfni taklif etsa-yu, uni lo-aqal yur ham demasa, alam qilmaydimi! To'g'ri, Qosimjon butun o'quvchilar bilan, yaqin sinfdoshi Muhabbat bilan ham arazlashib qolgan.

Bir kuni sinfdagi o'tirgan edi. Tohir hovliqib kirdi:

- Sherik, qani, bir o'ynab yubor-chi.
- Nima gap o'zi? – hayron bo'ldi Qosimjon.
- Avval o'yinga tush, keyin bilasan...

Qosimjon qo'llarini ko'tarib o'ynagan bo'ldi. Do'sti xatni uzatdi... Bundoq o'qib qarashsa, xat Toshkentdan, tahririyatdan ekan. Xatda Qosimjon yozgan «Men ekan nihol» she'ri gazetaning kelgusi sonlarida bosib chiqarilishi, yana she'rlar yozib turishi, ko'p mashq qilishi kerakligi aytilgandi.

Tohir Qosimjonga Toshkentdan mashinkada yozilgan xat kelganini ko'rib, avvalo uni tuzukroq hurmat qilmagani uchun o'zidan-o'zi uyalib ketdi. Uning birdan xat tagiga qo'l qo'ygan tahririyat xodimining familiyasiga ko'zi tushdi.

– O'zi ham juda yaxshi odam bo'lsa kerak-a? – deb so'radi o'rtog'idan, keyin u negadir xat tagidagi familiyani yana cho'zib o'qidi:– Sho-ab-di-karimov...

– Albatta yaxshi-da, – javob qaytardi Qosimjon, – ular sen bilan menga o'xshagan odamlar emas. Bilasanmi ular qanaqa bo'lishadi? Tepasi angishvonaga o'xshagan shlyapa bo'ladi-ku, nuqul ana o'shandan kiyishadi. Undan keyin hech ham piyoda yurishmaydi. Ularni-chi, mashinasi, undan keyin ruschani suvdek biladigan shofyori bo'ladi, bildingmi?

– Sen ham zo'r shoir bo'lib ketsang-a! – dedi yana Tohir.

– Albatta bo'laman, – Qosimjon xatni boshqa o'rtog'lariga ham ko'rsatmoqchi bo'lib tashqariga chiqa boshlagan edi, Tohir uning yo'lini to'sib jiddiy, lekin allaqanday tashvishli bir ohangda, – zo'r shoir bo'lib ketsang, meni o'zingga shofyorlikka olasanmi? – deb so'radi.

– Menga baribir.

– Qani, qo'lni ber, kelishdik, unutmaysan-a?

– Unutgan nomard.

O'sha kuni xatni o'qimagan o'quvchi qolmadi, hatto sinf rahbari Abdullayev ham o'qib, Qosimjon-

ni maqtab qo'ydi. Uning o'zi bo'lsa, bosar joyini bilmay qolgan edi. Darsga quloq solgisi kelmadi. «Zo'r shoir bo'lib ketsam, Tohirni shofyorlikka olaymi yoki olmaymi, shlyapaning qaysi rangidan kiysam ekan», degan o'y-xayollar bilan butun kunni o'tkazdi. Dars tugagach, devoriy gazeta muharriri Muhabbat uning yoniga kelib: «She'rni qachon yozib berasan», deb qistab qoldi.

– Sening devoriy gazetangga she'r yozishga vaqtim yo'q.

– Nega vaqting bo'lmas ekan?

– Yo'q, vassalom, men Toshkentga yozishim kerak. Mendan she'r so'rashyapti... Tushundingmi?

– Voy-bo', shunaqa katta odam bo'lib ketdim degin hali. – Qosimjon javob o'rniga kulib qo'ya qoldi. Muhabbat ertasi she'rni yana qistab, «qo'lingdan kelsa, o'zing yozib ol», degan javob oldi.

«Men ekkan nihol» sarlavhali she'r bosilib chiqqan kuni gazeta maktabda, so'ngra kolxozning o'zida ham qo'lma-qo'l bo'ldi. Hamma: «Bu o'zimizning Qosimjonmi, voy qurmagur-yey. Bundan tuzuk odam chiqadiganga o'xshab qoldi-ku!» degan gaplarni aytishdi. Qosimjon kunbo'yi, hatto darsda o'tirib ham she'r yozdi, o'chirdi, yana yozdi. Tarix darsida qo'lga ham tushib qoldi.

– Barmoqlaring bilan nimani sanayapsan? – so'radi Abdullayev.

– Yetti bo'g'in, – dedi Qosimjon shoshib-pishib. Keyin o'quvchilar «gur» etib kulib yuborishdi, noto'g'ri javob berganini sezib o'zidan-o'zi uyalib ketdi. O'qituvchi uning she'r yozib o'tirganini ko'rib she'rni darsdan so'ng yozasan, deb ogohlantirdi. Qosimjon bo'lsa xuddi eshitmagandek, uning ko'zlariga tikilganча jim turaverdi, – yig'ishtirmayman, – dedi u nihoyat.

– Sen manman bo‘lib ketyapsan, – dedi-da o‘qituvchi darsini davom ettirdi.

Ertasiga devoriy gazeta chiqdi. Unda Qosimjonning rasmini boplab chizishgandi. Yuzi osmonga qaragan! Bo‘yni olmaning sapog‘idek ingichka, burnini shunaqangi uzun chizishbdiki, naq devoriy gazetadan chiqib ketay deb turibdi, rasmning ostiga «yosh shoir» deb yozib qo‘yilgan.

Qosimjon shunaqangi achchiqlandiki, ancha mahalgacha tili so‘zga kelmay duduqlanib qoldi.

– Kim chizdi? – dedi u nihoyat.

– Men, – dedi o‘tirgan o‘rnida Muhabbat.

Qosimjon uning yoniga bordi:

– Nega chizding?

– Chizdim...

– Mana senga! – Qosimjon urmoqchi bo‘lib qo‘l ko‘targan edi, qizning yonida o‘tirgan Odil chaqqonlik bilan ushlab qoldi.

– Hozir kechirim so‘ra! – dedi u qaltirab.

– Sen mening shaxsiy ishimga aralashma! – Qosimjon Odilning qo‘lini siltab tashladi.

Bu voqea bir nafasda sinf rahbarining qulog‘iga bo‘rib yetdi. Darsdan so‘ng Qosimjonni o‘quvchilar o‘rtasida muhokama qiladigan bo‘lishdi. Lekin sinf majlisi endigina boshlanay deb turganda, Qosimjon payt poylab derazadan oshib tushdi-da, Tohirni ergashtirib uyiga jo‘nab qoldi.

– Qani bittasi g‘ing deb ko‘rsin-chi, gazetaga yoza-man! – dedi u achchiqlanib.

– Albatta, sen qayoqda-yu, ular qayoqda, – dedi Tohir. Keyin ikkovlari ham ancha mahalgacha so‘zlashmasdan jim ketdilar. Tohir do‘stining ortidan soyadek ergashib borarkan, eng og‘ir paytda uni yolg‘izlatib

qoʻymaganidan mamnun edi. Qosimjon boʻlsa butun sinfni, oʻrtoqlarini, undan keyin oʻqituvchisini ham aldab, ularning yuziga oyoq bosganiga yuragining allaqayeri achishib turgan boʻlsa-da: «Barcha shoirlar ham qiyinchilik bilan shoir boʻlishgan. Men ham hozir qiynalyapman. Keyinchalik hammasi ham uyalib qoladi», – deb oʻziga-oʻzi tasalli berardi. Ertasiga uni sinf rahbari direktor xonasiga chaqirtirdi.

– Sendan yaxshi yigit chiqadi, deb yurardim, – gap boshladi Abdullayev, – sen boʻlsang, hech kimni hurmat qilmay qoʻyibsang.

Qosimjon boshini solintirganicha jim turaverdi.

– Nega majlisdan qochding? Oʻrtoqlaringni kuttirib qoʻyishga uyalmadingmi?

Qosimjonning koʻzlarida yiltirab yosh tomchilari koʻrindi. Abdullayev «u oʻz qilmishiga pushaymon boʻldi», deb oʻyladi shekilli: «Bor, oʻrtoqlaringdan kechirim soʻra», – dedi-da, ketishga ijozat berdi.

Lekin Qosimjon kechirim soʻramadi. Shu sabab boʻldi-yu, kundan kunga oʻrtoqlaridan uzoqlashib, oxiri Tohirdan boshqa hech kim unga soʻzlamay qoʻydi. Endi sinfdoshlari uni oʻyinga taklif etmas, birgalashib oʻynab-kulmas, sheʼr oʻqib ber, deb qistamas edi. Voleybol oʻyiniga-ku, butunlay qoʻshmay qoʻyishdi. Hammalari ham manmansirab ketgan Qosimjonni yoqtirmay qolishgandi. Avvaliga u bularning hech biriga parvo qilmadi, biroq kunlar oʻtgan sari yolgʻizlanib qolishi unga alam qila boshladi, koʻngli gʻash boʻlib, endi sheʼr ham yozgisi kelmay qolgan edi.

...Kimdir koʻcha eshikni ustma-ust ikki marta qoqqan edi, oʻyga tolgan Qosimjon bir choʻchib tushdi-yu, oʻziga keldi. Keyin chuqur bir xoʻrsindi-da, borib eshikni ochdi. Tohir ekan.

– Muhabbat seni tug‘ilgan kuniga aytdimi? – uning birinchi gapi shu bo‘ldi.

– Aytgani yo‘q... – ma‘yus javob berdi Qosimjon.

Ikkovlari ham jim qoldilar. Qosimjon nimanidir aytmoqchi bo‘lib og‘iz juftladi-yu, lekin «bor-ey» degandek qo‘l siltab qo‘ya qoldi.

– Bizni aytmadi-ya, – xo‘rsinib qo‘ydi Tohir.

Ular uzoq o‘tirishdi. Bir mahal Qosimjon o‘rnidan turib, yuzlarini sovuq suv bilan yuvdi, sochlarini yaxshilab taradi, sovg‘a uchun jildining ichki tomoniga she‘r yozilgan albomni qo‘liga oldi.

– Qani, yur.

– Qayoqqa?!

– Muhabbatlarnikiga...

Tohir hayron bo‘lib qoldi. Qosimjonning hozirgi vazohati e‘tirozni ko‘tara olmasdi.

– Sherik, aytilmagan joyga boryapmiz-da, qalay bo‘larkin? – dedi Tohir asta.

Qosimjon negadir sal yumshadi:

– Qiziq ekansan-da, biz begona joyga boryapmizmi? Sinf rahbarimizning so‘zi yodingdan chiqdimi, xatosini tushunib, kechirim so‘ragan kishini hamma hurmat qiladi, degan edilar-ku... Boraveramiz.

## ORIF CHOLNING O‘RIKZORI

Betobligimni eshitib, qishloqdagi singlim bir xalta oltindek sap-sariq turshak berib yuboribdi. Xat yozib, oxirida: «Aka, turshak «Orif cholning o‘rikzoridan», qaynatib suvini nahorda iching, sal kunda otdek bo‘lib ketasiz...» deb bitibdi. Bir hovuch turshakni qo‘limga oldim-u Orif boboni eslab ketdim... Bizning qishlog‘imiz Pomir – Oloy tog‘i etaklariga joylashgan. Tog‘ bilan qishlog‘imizni Tentaksoy ajratib turadi.

Tentaksoyning o'ng qirg'og'ida adir yoqalab ketgan besh gektarcha o'rikzor bor. Hamma uni «Orif cholning o'rikzori» deydi. U tumanda ham, viloyatda ham shunday nom bilan ataladi. Xaritaga ham shu nom bilan kirgan. Qishlog'imizning dehqonlari bozorga turshak olib borishsa:

– Orif cholning bog'idan bu! – deb maqtab sotishadi. U yoq-bu yoqqa sovg'a-salom jo'natadigan bo'lishsa ham shu o'rikzorning turshagidan jo'natishadi. Keksalar: «Orif cholning turshagini qaynatib ichilsa, ming bir dardga davo», deyishadi.

Lekin Orif cholning o'zi kim, buni ko'pchilik bilmaydi.

Ba'zilar cholning xotini ko'zi yoriyotganda o'lib qolgan, bu bog'larni o'sha suyuqli xotining xotirasiga bag'ishlab qilgan desa, boshqalar, yigitlik mahalida cholning bir chiroyli o'g'li bo'lgan, o'sha yolg'iz o'g'li boyning bog'idan so'ramasdan o'rik olayotganda boy uni tutib olib, kaltaklab o'ldirib qo'ygan. Orif bobo bu o'rikzorni o'sha o'g'lining ruhini shod qilish uchun yaratgan, deyishadi.

Men Orif boboni ko'rganman. O'z qo'li bilan men ga turshaklar bergan. Turshak solib shavla ham pishirardi. Bir marta o'rikning shoxini sindirib bargini qo'ylarimga berayotganimda ushlab olib, qulog'imdan rosa cho'zgan.

Qarang, shunga ham salkam qirq yilcha bo'libdi-ya!

Orif bobo novcha bo'yli, yoshi to'qsondan oshib ketgan bo'lsa ham qomati alpdek tik, sersoqol, keng yuzli, peshonasi do'ng bir kishi edi. Tomirlari bo'rtib chiqqan katta qo'llari xuddi qari tokning zangiga o'xshardi.

O'rikzorning o'rtasidagi toshdan qurilgan kulbada yolg'iz o'zi yashardi.

Ishsiz, bekor o'tirgan vaqtini hech kim ko'rmasdi.

Erta bahordan qorli-qirovli qishgacha bog'da g'imirlab yurardi... Ko'chat ekardi, ekilganlarini parvarish qilardi.

Soyning to'rt joyiga charxpalak qo'ygan. Charxpalak bahor va yoz oylari tinimsiz ishlab, yuqoriga suv chiqarib berardi. Orif bobo kuzda charxpalaklarni tuzatar, o'qini moylar, tunuka chelakchalarini almash-tirardi, chirigan parraklarini olib yangisini qo'yardi.

Keyin qish bo'yi tog'dan cho'qmor bilan toshning urishgan ovozi kelib turardi.

Ba'zan kechalari, ba'zan tong pallasida ham bu ovoz tinmasdi.

– Charq! Charq! Charq!

Orif bobo tog' kesib, xarsanglarni yorib, kuzda ochgan yangi yerlariga suv olib o'tardi.

Soyda suv pasaygan paytlarda, erba bahorda, kech kuzda biz ko'pincha Orif boboning bog'iga borib, mol boqib kelardik. Katta-katta toshlarni terib tuproq ochib, yangi ko'chatlar uchun joy hozirlayotgan Orif bobodan:

– Jon bobo, turshagingizdan bir hovuch bering, – deb iltimos qilardik.

Bobo katta, og'ir ketmonini yerga qo'yib, qaddini rostlardi-da:

– Sen o'zing kimning o'g'lisan? – deb so'rardi.

– To'xtavoy aravakashning o'g'liman.

– Ey, anavi oti olib qochganda yig'lab yuradigan To'xtavoymi?

– Ha, o'sha!

– Bor, uyga kirgin-da, etagingni to'ldirib chiqqin. Sheriklaringga ham berasan.

Orif boboning uyida qalin taxtadan qilingan «tuya sandig'i» bo'lardi. Men engashib turardim. Sheriklarimdan biri yelkamga chiqib turshak olardi...



Goho Orif boboning o'zi bizni chaqirib qolardi.

– Ho', beri kel, kimning o'g'lisan?

– Rahim sartaroshning o'g'liman, – deb javob qaytarardi sherigim.

– E, anavi soqol olaman deb odamlarning betini kesib oladigan sartaroshmi?

– Ha, o'sha.

– Ovqatning pishgan-pishmaganini bilasanmi?

– Bilaman.

– Bor, bizning uyga kirgin, qozonga shavla solib qo'rganman, pishgan bo'lsa meni chaqirasan...

Turshak solingan shavlani ko'plashib pishirib o'rtaga qo'yardik.

Orif boboning hech kim haligacha tushunib yetmagan g'alati bir odati bor edi, u damka o'ynashni juda yaxshi ko'rardi, haftada bir marta damka o'ynash uchun bizning maktabga borar edi. O'ynaganda ham juda astoydil, berilib o'ynar, yutsa, sevinib nursiz ko'zlari chaqnar, yutqazsa, astoydil xafa bo'lib qo'llari qaltirab ketardi.

O'rik pishganda esa o'zi qayoqqadir yo'q bo'lib qolar, kim quritib olyapti, qancha olyapti, bunisi bilan ishi bo'lmas, faqat: «Tuya sandig'imni turshakka to'ldirib qo'yinglar», deb tayinlab ketardi.

Uni birov devona desa, yana allakim avliyo derdi.

O'zi bo'lsa tinim bilmay tosh kesar, suv chiqarar, yangi-yangi ko'chatlar ekardi...

Oradan qancha yillar o'tib ketdi. Men gazetada ishlardim. Bir kun viloyat suv xo'jaligi boshqarmasining muhandisi bilan Orif bobo suv chiqargan tosh ariqlarini tomosha qilgani bordik. Muhandis yoqasini ushlab:

– Bay-bay-bay! – deb uzoq bosh chayqadi. – Odam bolasining qo'li nimalarga qodir-a! Bu toshlarni qanday kesgan ekan?

– Cholning devi bor deyishardi... – deb tushuntirmoqchi bo‘ldim.

– Bo‘lmagan gap! – dedi muhandis yana bosh chayqab, – cholning odamlarga bitmas-tuganmas muhabbati bo‘lgan. Buyuk muhabbat bo‘lmasa, bu toshlarni kesib bo‘lmas edi...

Orif bobo allaqachon olamdan o‘tib ketgan. Ammo uning nomida bog‘ qoldi, «Orif cholning o‘rikzori» qoldi. Inson qo‘li... Ba‘zan o‘z egasiga haykal ham yasab ketarkan.

Men hozir shularni o‘ylab ketdim.

## ZIYOFAT

Shaharning chekkarog‘ida «Qizil partizan» degan bir mahalla bor. Ana shu uncha obod ham, uncha nobod ham bo‘lmagan mahallada uncha novcha ham, uncha pakana ham bo‘lmagan, endigina o‘n uch yoshga to‘lay-to‘lay deb turgan Rashid ismli bola yashaydi.

Rashid hozir maktabdan qaytyapti. O‘yinga tushib, sakrab-sakrab kelyapti. Goho qo‘lidagi eski mahsidek burishib ketgan qora papkasini osmonga otib, engashib bo‘yni yo beli bilan «ilib» oladi, goho kuchuk boladek vovillab, yaxmalak o‘ynab yurgan bolalarni qiyqiratib quvib qoladi.

E, boringki, bir o‘zi bir ko‘cha bo‘lib kelyapti. Nega desangiz, shu paytda uning qalbi quvonch-u shodliklarga limmo-lim to‘la. Axir Rashid bu chorakda biron-ta ham fandan «ikki» olmadi! O‘ziyam nuqul chorak yakunlarida «ikki» olaverib, naq yuragida yurak qolmagan edi-da. Mana bugun bo‘lsa, ikkinchi chorak yakunida, hali aytganimizdek, biron-ta ham ikki chiqmadi... Hozir borib kundaligini avval: «Sendan odam chiqmaydi», deb qo‘lini yuvib qo‘ltig‘iga urgani oyijoni-

ga, keyin ishdan qaytishi bilan dadajoniga ko'rsatadi. Suyunchi berib yuborishlari ham mumkin. Mabodo suyunchi berishsa, elektr payalnik sotib oladi.

Rashid shu xayollar bilan bo'lib, uyiga kelib bunday qarasa, ko'cha eshik berk. Qo'ng'iroqni bosmoqchi bo'lib tepaga intilgan edi, eha, aytganday, qo'ng'iroqni kuni kecha qo'shni mahalladagi Odiljonga bir yo'la to'rt xil rangda yozadigan sharikli ruchkaga almashtirib yuborgan edi-ya... Eshikni do'mbiraga o'xshatib chala boshladi. Xiyol o'tmay ichkaridan singlisi Fari-daning:

– Kim u? – degan ovozi eshitildi.

– A'lochi akang o'qishdan qaytdi, – dedi Rashid tashqarida turib.

– Oyim eshikni ochma deganlar.

– Nega ochmas ekansan?

– Televizorni buzibsang-ku!

– Buzganim yo'q, predoxranitelni olib, Olimlarniki-ga qo'ydik. Ularniki ishlab qoldi, ishonmasang borib ko'rishing mumkin.

– Bor, o'sha Olimlarnikiga borib, televizor ko'rib o'tiraver endi.

– Och deyapman.

– Ochmayman. Oyi, Rashidni qarang, eshikni tep-yapti.

– Qani tepganim, chaqimchi, etigimning qorini qoq-yapman, – dedi jahli chiqib Rashid.

Sanobar opa ishdan qaytsa, televizor yana buzilib qolibdi. Farida bidillab hammasini aytib berdi. Avval bir to'da bolalar to'planishibdi, keyin televizorni o'rtaga olib allaqayerlarini galma-galdan burashibdi, oxirida chuvullashib, bir-birlarini itarishib ko'chaga qarab yugurishibdi. Sanobar opa tutaqib ketdi.

Bu bolaning dastidan uyda na televizor ishlaydi, na radio! Magnitafonni-ku, uch kun o'tar-o'tmas chalajon qilib qo'ydi. Eshiklarning qulfi bormi, go'sht-qiyimalagich bormi, hammasi uning dastidan ishga yaroqsiz bo'lib yotibdi. «Sen, temir jinnisi, shu yerga kelgin, sochingni bittalab yulib olmasammi?» – deb yutindi oyisi.

– Oyi, mana buningizni qarang, tilini chiqarib, meni masxara qilyapti, – o'pkasi to'lib, chinakamiga yig'lamsirab dedi Farida.

– Qani masxara qilganim, og'zimni sovutyapman, – deb bahona qildi yana Rashid.

Sanobar opa qo'lidagi tarashani orqasiga berkitib, ko'cha eshik tomon sekin-asta yurib kela boshladi. Eshikning tirqishidan mo'ralab turgan Rashid:

– Assalomu alaykum, oyijon, ishga eson-omon borib keldingizmi? – deb so'radi.

Oyisi eshikni qiya ochib:

– Juda odobli bo'lib qopsanmi? – dedi.

– Biz hamisha shunaqamiz-da, oyijon! – qo'lini ko'ksiga qo'yganicha xavotirlanib hovliga kirdi Rashid.

Sanobar opa eshikni ichkarisidan qulflab, kalitni cho'ntagiga soldi.

– Oyijon, meni tabriklang! – dedi Rashid quvonchini ichiga sig'dirolmay, – bu gal bitta ham «ikki» olmadim, mana ko'ring, mana!

– Ikki olmadim degin! – deb sekin-asta o'g'liga yaqinlasha boshladi Sanobar opa.

– Hammasi «uch» bo'ldi, oyijon!

– To'rt-po'rt ham oldingmi?

– O'qituvchilar «uch» «to'rt»dan yaxshi deyishyapti.

Sanobar opa quvonchdan entikib turgan o'g'lining yonginasiga kelib to'xtadi. Oyisining avzoyi buzilga-

nini Rashid darrov sezdi. Lablari uchib-uchib turibdi, qisqa-qisqa nafas olyapti. Buning ustiga oyisi berkitib turgan tarashaning uchi ham yonidan sal ko'rinib turibdi... Ish chatoqqa o'xshaydi, har qalay tayyor turish kerak, yo papkani irg'itib qochib qolsinmi? Yo'q, qochishga hali erta. Ehtimol urmas...

– Dazmolni nima qilding?! – g'azabli ovozini tishlarining orasidan chiqarib so'radi oyisi.

– Men unga yangi spiral olib keldim, mana oyijon! Yap-yangi!

– Spiralni qayerdan olding?

– Maktabning qorovulidan.

– Bekorga bermagandir?

– Albatta bekorga bermaydi-da. Men, oyijon, qorovulga dadamning ko'zoynagini olib borib berdim.

– Voy, sho'rim! Anavi oltin halliginimi?

– O'shani, oyijon. Xafa bo'lmang, dadamlarda undan ikkita-ku...

– Mana ikkita! – Sanobar opa qo'lidagi tarasha bilan Rashidning boshiga tushirmoqchi bo'lgan edi, o'g'li chap berib qoldi. Oyisi tutaqib, jig'ibiyroni chiqib, mabodo Rashid qo'lga tushsa, uni tiriklayin ko'mishga qasamyod qilib, qo'lga nima ilinsa Rashidga otib, uni quvlashga tushdi. Rashid bunaqangi quvdi-quvdilar-ni ilgari ham ko'p ko'rganidan tajribasi ortib qolgan ekanmi, hovlini gir aylanib qochar ekan, goho to'xtab oyisi yaqinlashguncha g'alati-g'alati qiliqlar qilar, yaqinlashgach yana qochishga tushar edi. Oxiri, ko'cha eshik berk bo'lgani uchun ustidan oshib, tashqariga chiqib qutulmoqchi bo'ldi. Eshikning ustiga irg'ishi bilan oyisi halloslab kelib ikki oyog'iga baravar tirmashib, pastga jon-jahdi bilan torta boshladi. Rashidning oyog'ida og'ir kerza etigi bor edi, ikkala

poʻyi ham oyisining qoʻlida qoldi. Oʻzi bir sakrab koʻchaga tushdi.

Rashid nima qilishini, qayoqqa borishini bilmay, koʻcha oʻrtasida uzoq turib qoldi. Paypoqdan zax oʻtib, oyogʻi sovuq qota boshladi. Negadir alamdanda yigʻlagisi kelib ketdi. Hammasiga mana shu chaqimchi Farida aybdor. Agar u televizorning predoxranitelini olganini, kecha dazmol «oʻzidan-oʻzi» kuyib qolgani-ni aytmaganda oyisi bunchalik tutaqmagan boʻlardi, ehtimol suyunchi berib yuborishi ham mumkin edi. Suyunchiga u elektr payalnik olgan boʻlar edi... Mana endi boʻlsa, hammasi chappasiga aylanib ketdi. Rashidning shu paytda chaqimchi Faridadan oʻch olgisi, juda boplab oʻch olgisi kelib ketdi. Xoʻsh, nima qilsa ekan? Ertaga oyisi ishga ketganda, Farida supurgan uyga etigi bilan kirib, hammayoqni iflos qilib tashlasinmi? Yoʻq, bu boʻlmaydi, birpasda supuradi qoʻyadi. Farida hammadan ham idish-tovoq yuvishni yomon koʻradi. Ayniqsa, mehmon kelgan kunlari jigʻibiyroni chiqib ketadi... Bordi-yu hozir uylariga mehmon aytib kelsa-chi! Ha-ha, xuddi shunday qiladi! Beshta emas, oʻnta emas, yigirmata aytib keladi, yigirmata! Kamida yigirmata kosa, 40 ta tarelka, qanchadan-qancha qoshigʻu pichoqlar ishga tushadi. Farida yigʻlamsirab ularni yuva boshlaganda Rashid qarshisiga oʻtirib olib, oyoqlarini chalishtirib, hushtak chaladi, muqom qilib oʻyinga tushadi!

U Olim amakinikidan boshladi.

- Xoʻsh, oʻgʻlim, tinchlikmi? – soʻradi Olim amaki.
- Biznikiga... Ziyofatga borarkansizlar, – shoshmasdan tushuntirdi Rashid.
- Ziyofat, qanaqa ziyofat?
- Bilmasam... Oyim orden olganga oʻxshaydi.
- Ishxonadanmi?

– Shunaqa shekilli.  
– Qachon borar ekanmiz?  
– Hozir. Osiyoxonni ham olib borarkansizlar. Fari-  
da bilan o‘ynab kelarkan.

– Shunga shuncha chopdingmi?  
– Oyim orqamdan...qattiq tayinlab qoldilar.

Rashid zudlik bilan yetib borishlarini qayta-qayta tayinlab, Xosiyat kenoyining zinada turgan yap-yangi kalishini bildirmasdan oyog‘iga ilib ko‘chaga chiqdi...

Shu yo‘sin yana to‘qqiz xonadonga kirib taklif qildi. «Er-xotin bormasalar, oyim bilan dadam juda qat-tiq xafa bo‘larkanlar», – deb tayinladi.

Pochtachi xola og‘ir sumkasini yelkasiga osgan cha Rashidning yonidan o‘tib qoldi.

– Xola, menga ham xat bormi? – dedi hazillashib Rashid.

Pochtachi xola yelkasidagi og‘ir sumkasini shosh-masdan yerga qo‘yib, qaddini rosladi:

– Sen birovga xat yozsang, senga xat keladi-da! – deb qo‘ydi. Keyin qo‘lidagi bir dasta konvert ichidan bi-rini tanlab, Rustamlarning pochta qutisiga tashladi.

Pochtachi xola jo‘nab ketgach, Rashid Rustamlar-nikiga kelgan xatga qiziqib qoldi. Qiziq, kimdan keldi ekan? Rustam hech kim bilan xat yozishmasdi, she-killi... Nima bo‘lganda ham ochib ko‘rish kerak...

Xat sal g‘alatiroq, konverti ham boshqa konvert-larga o‘xshamaydi. Tepasiga katta-katta qizil harflar bilan «Gulxan» deb yozib qo‘yilgan. «Eh-he, gapning zo‘ri buyoqda ekan-ku», – negadir sevinib ketdi Ra-shid. Xatni o‘qiy boshladi.

«Hurmatli o‘rtoq Rustam Qodirov!

Siz «Gulxan» jurnali qoshida tashkil etilgan «Qizil izquvarlar» klubiga a‘zolikka qabul qilindingiz. O‘zin-

giz yashab turgan joylardagi urush qatnashchilarini izlab topib, shaxsan suhbatlashsangiz, ular ko'rsatgan jasoratlari haqida bizga yozib yuborsangiz, ma'qul topilganlarini jurnalimiz sahifalarida e'lon qilib boramiz...»

Rashid goh yelkasini qisib, goh boshini qashlab, o'zicha bir qarorga kelolmay o'ylanib qoldi. Ajoyib xat ekan-ku!

Rashid xatni cho'ntagiga solib, boshini shundoq ko'targan ham ediki, yuragi shig' etib ketdi... O'n metr narida bir narsani sezgandek, kulimsiragancha Rustam kelardi. Rashid dovdirab qoldi.

– Ha, Rashid, nimalarni o'qiyapsan? – so'radi Rustam o'rtog'iga yaqinlashgach.

– Men... men... rus tilidan she'r yodlayapman, – duduqlanib dedi Rashid.

– Ta'tilning birinchi kunida-ya?

– Men uchinchi chorakda astoydil o'qimoqchiman-da...

Oqko'ngil Rustam unga ishondi.

Rashid bu sirni ichida saqlagancha uyiga qaytdi. Hovliga shundoq qadam qo'yishi bilan mehmonlarga ko'zi tushdi-yu, bir sevinchiga o'n sevinch qo'shildi: hovli to'la bola, qizlar koptok o'ynashyapti, o'g'il bolalar vodoprovod oldida yaxmalak uchishyapti. Ichkarida erkag-u xotinlar qiyqirishib, o'zaro chaqchaqlashib o'tirishibdi. Oldiga ixchamgina fartuk tutib, o'choq boshida uymalashib yurgan Farida akasining yoniga kelib:

– O'lasan endi! – dedi vahimali bir ohangda.

– Nega o'lar ekanman? – parvosiga ham keltirmay so'radi Rashid.

– Dadam: «Rashidni mana shu qilg'ilig'i uchun terisini shilib, somon tiqaman», deyapti.



– O‘zing ham idish-tovoqlarni ertalabgacha yuvib qo‘ymasang, mehribon oyijoning teringni shilib badingga tuz sepadi...

Rashid ichkariga, mehmonlarning oldiga kirib ketdi.

## KICHKINA RAIS

Aslini olganda-ku, raisning katta-kichigi bo‘lmaydi-ya. Lekin men bir kolxozda ikki rais borligini, katasini «katta rais», kichigini «kichik rais» deb atashlarini o‘z ko‘zim bilan ko‘rganman. O‘sha paytlarda gazetalarning birida sayyor muxbir bo‘lib ishlardim. Bosh muharrir o‘z huzuriga chorlab:

– G‘ozalarni o‘t bosib ketgan deyishyapti, birorta tanqidiy maqola yozsangiz-chi! – deb qoldi. O‘sha kuniy oq rayonga chiqib ketdim.

«Zarbdor» kolxoziga kun tikkaga kelganda yetib keldim. Idorada bosh hisobchidan boshqa hech kim yo‘q.

– Rais bormi? – deb so‘radim o‘zimni tanishtirgach.

– Yo‘q.

– Agronomni qayerdan topsam bo‘larkin?

– Daladan topasiz.

– G‘ozalarning ahvoli haqida gapirib berolmaysizmi? – deb gapga soldim yana bosh hisobchini.

– Mehmon, – dedi y, – bu haqda ma‘lumot kerak bo‘lsa... Men hozir «kichkina rais»ni chaqirib bera-man. Katta rais yo‘g‘ida kichik rais bilan ham ish bitirsa bo‘ladi.

Bosh hisobchi tashqariga chiqib ketdi.

– Marhamat, tanishing! – dedi bosh hisobchi xonaga 13-14 yoshlardagi malla sochli, qo‘yko‘z, bo‘lagina bir bolani boshlab kirib, – Foziljon Ismoilov, kichkina rais bo‘ladilar...

Xoh ishonning, xoh ishonmang, shu paytda kamoli g'azabim oshganidan, sochlarim tikka bo'lib ketdi. Bosh hisobchi nega meni mayna qiladi, nega ko'cha changitib yurgan bir bolani rais deb tanishtiradi?

– Kechirasiz, men hazilni uncha yoqtirmayman!  
– dedim o'zimni arang bosib. So'zim bosh hisobchiga ma'qul tushmadi shekilli, yelkasini qisib:

– Kechirasiz, men ham hazil qilayotganim yo'q, – dedi bir menga, bir Foziljonga qarab. – Kolxozdagi g'ozalarning ahvolini bu yigitdan ko'ra yaxshiroq biladigan kishini topish qiyin...

Foziljon shu kolxozda ikki yildan buyon pochtaiyon bo'lib ishlarkan. Demak, brigada yerlarini yaxshi biladi, deb o'yladim ichimda.

– Qani, ketdik bo'lmasa, – dedim o'rnimdan turib.

– Qaysi uchastkaga boramiz?

– Hurmatli rais qaysi uchastkaga boshlasalar, o'sha uchastkaga ketaveramiz-da! – dedim men kesatib.

– Shunday qilib, sen raisga o'rinbosarmisan-a? – deb so'radim jim ketishdan zerikib.

– Nima dedingiz? – dedi Foziljon yurishdan to'xtab.

– Raisga o'rinbosarmisan?

– O'rinbosar emasman-ku, bilmasam, odamlar o'zi shunaqa deydi-da.

– Nega endi shunaqa deyishar ekan?

– O'tgan yili rais tog'am idoralariga chaqirib, «Foziljon, sen pochtaiyon bo'lib ishlaysan, shundaymi?»

– deb so'radilar. «Shunday», – dedim. «Xat, gazeta, jurnallar olib borganingda brigada dalasini aylanasan, shundaymi?»

«Shunday», – dedim. «Shunda o't bosgan g'ozalarga ko'zing tushadi, albatta, shundaymi?»

«Shunday», – dedim. «Bitta qog'ozga o'sha ko'rganlaringni yozib, kechqurun menga aytib tursang, qalay bo'larkin?»

kelishdik. Raislikni ikkovimiz olib boramiz», – dedilar rais tog‘am.

O‘shandan buyon raislikni ikkovimiz olib boramiz. Men dalalardagi kamchiliklarni ko‘rib darrov ayta-man, rais tog‘am brigadirlarni chaqirib, ta‘zirini bera-dilar. Mana shu velosipedchani rais tog‘am o‘z-o‘zim-ga mukofotga berganlar...

– Rostdan-a? – dedim ishonqiramay.

– Rost. Ishonmasangiz mana bu yozuvni o‘qib ko‘ring, hisobchi amakim pichoq bilan o‘yib yozganlar.

Qishloqdan shundoqqina chiqishimiz bilan yax-lit paxta dalalari boshlandi. Yaqindagina suvdan chiqqan g‘ozalar visolini ko‘z-ko‘z qilib ko‘kka bo‘y cho‘zadi.

– Ikkinchi brigadaning g‘ozalari! – dedi Foziljon xuddi o‘zi yetishtirgandek maqtanib.

– Hosili ham chakki emas, – deb qo‘ydim men ham.

– Muxbir amaki, siz o‘zi maqtab yozmoqchimisiz yoki tanqid qilmoqchimisiz?

«Demak, Foziljon ilgari ham muxbirlar bilan ko‘p dala kezgan ekan», deb o‘yladim va:

– Tanqid qilmoqchiman, – deb ochig‘ini aytdim.

– Bo‘lmasa buyoqqa yuring, – dedi hamrohim chap tomondagi yolg‘izoyoq yo‘lga burilib, – men sizni bosh-qa brigadaning yerlariga olib boraman. Hammayog‘i-ni o‘t o‘rab ketgan...

Foziljon rost aytgan ekan. Bir oz ichkariroqqa ki-rishimiz bilan shunaqangi o‘t bosgan, suvsab jizg‘a-nagi chiqib yotgan g‘ozalarga duch keldikki, ochig‘ini aytib qo‘ya qolay, boshqa biron kishi bilan kelganim-da, bir hafta qidirsam ham bunaqangi «tanqidbop» joyni hech topa olmagan bo‘lardim.

– Ana ko‘rdingizmi! – dedi Foziljon achinib. – O‘zi bo‘lsa doim yallo qilib yuradi...

- Kim yallo qilib yuradi?
- Kim bo'lardi, brigadir Mamajon akam-da! – bat-tarroq qizishib dedi Foziljon. Keyin cho'ntagidan ha-deb ishlataverganidan titilib ketgan, kattaligi sha-paloqdek keladigan yon daftarchasini chiqarib, bir chekkasiga nimalarnidir yozdi. Men ham o'z daftar-chamga ba'zi narsalarni qayd qilib oldim.
- Brigadaning necha gektar yeri bor? – sinamoqchi bo'lib so'radim Foziljondan.
- 96 gektar! – shartta javob berdi kichkina rais.
- Shu g'o'zalar nechanchi ishlovdan chiqqan, bil-maysanmi?
- Bilaman, – dedi Foziljon bloknotini varaqlab, – bu yerlar, bilasizmi, ikkinchi ishlovdan keyin qolib ketgan.

Gaplasha-gaplasha yana katta yo'lga chiqib oldik. Foziljon velosipedini yerga shosha-pisha yotqizib, mening orqamga berkindi. Men halidan buyon uning keng mulohazalari, kattalarga xos teran fikrlarini tinglab, aql-hushli yigitcha deb o'ylasam, qip-qizil bola ekan. Shu qilig'idan o'zim ham uyali ketdim.

- Nima qilyapsan o'zi?
- Shoshmay turing, hu kelayotgan bolani bir qo'lga tushiraylik.
- Nima qildi u senga?
- Keyin aytaman.

Qarshimizdan 11-12 yoshlar chamasidagi qotma-dan kelgan, yoshiga qaraganda bo'yi xiyla novcha bo'l-gan, (dadasiniki bo'lsa kerak) uzun mayka kiyib olgan bir bola kars-kurs bodring chaynab kelardi. Yaqinla-shishi bilan yerda yotgan velosipedga ko'zi tushdi-yu, ura solib qochdi.

«Ha, yog'ochoyoq, yana qochib qolding-a, – dedi Fo-ziljon o'zini ko'rsatib, – sen shoshmay turgin hali.

Bola xatarsiz joyga borib olgach, to‘xtab, tilini chiqarib Foziljonni obdan masxara qildi, keyin mush-tini ko‘tarib o‘dag‘ayladi-da, yana qochishga tushdi.

– Baribir qo‘limga tushasan! – dedi Foziljon ham mushtini ko‘rsatib.

– Bu bola kim o‘zi?

– Juda bezori bola.

– Rostdanmi?

– Rost. Doim bezorilik qiladi. Odamlarning uyiga xat tashlab ketsam, bildirmasdan oladi-da, konvert-ni ochib, birining xatini ikkinchisiga solib qo‘yadi. Tunov kuni Sora xolamning armiyadagi o‘g‘lidan kelgan xatni shunaqa qipti. Ertasiga borsam xolam: «O‘g‘lim, xatni o‘zing o‘qib ber!» – deb qoldilar. O‘qi-sam: «Jonginam, sendan boshqani sevmayman, seni o‘ylab kechalari mijja qoqmayman...» degan gaplar... Xolam: «Hali sen meni mayna qiladigan bo‘ldingmi», deb biqinlarimni chimdib oldilar...Og‘rig‘i hali ham bosilmaydi.

– Juda yomon bola ekan-ku! – dedim xafa bo‘lib.

– Yo‘q, hali shoshmay tursin!..

Gap bilan bo‘lib Mamajon aka boshliq bo‘lgan uchinchi brigadaning dala shiyponiga kelib qolgani-mizni sezmay qolibmiz. Shiypon bahavo ekan. Azim tollar soya tashlab turibdi. Hech kim yo‘q. Hovuz yoni-dagi baland supada Mamajon aka yumshoq yostiqqa yonboshlaganicha, achchiq choyni huzur qilib ichardi. O‘zimni tanitib, nima ish bilan kelganimni aytdim.

– Sen tirranchadan qutuladigan zamon ham bor-mikin-a? – dedi brigadir Foziljonga yarim hazil, yarim chin qilib. – Bugun raisga borib ma‘lumot berasan, er-tasiga muxbir amakingni boshlab kelasan. Sen hali shoshmay turgin, eson-omon rejani bajarib olsam, qu-log‘ingdan cho‘zib, bir alamimdan chiqmasammi!

– Mening qulogʻimdan choʻzguncha, dalangizni oʻtdan tozalang! – dedi Foziljon boʻsh kelmay.

Oʻsha kuni kichik rais bilan yana bir necha brigadalarda boʻldik. Gazetaga tanqidiy maqola yozish uchun nimaiki zarur boʻlsa, hammasini oldik. Foziljon bilan beshinchi brigadaning shiyponida xayrlashishga toʻgʻri keldi. Kechki pochtani olish uchun qishloq sovetiga borishi kerak ekan, velosipediga minib joʻnab ketdi. Idoraga qaytdim. Yana bosh hisobchi yolgʻiz oʻzi ekan.

– Qalay? – dedi menga koʻzi tushishi bilan oʻrnidan turib. – Kichkina rais sizni xafa qilib qoʻymadimi?

– Ajoyib bola ekan!

– Nimasini aytasiz, – dedi bosh hisobchi qaytib joyiga oʻtirar ekan, – lekin bechoraning ota-onasi yoʻq... Onasidan goʻdakligida ayrilgan, otasi qorovul edi, oʻtgan yili u ham vafot etdi. Oʻshandan buyon bola-faqir shu yerda – idorada. Bolalar uyiga joʻnatmoqchi boʻluvдик, kolxozdan nari ketmayman, deb yigʻlab turib oldi. Kolxozni ota-onasi oʻrnida koʻradi bolasi tushmagur.

Bu voqeaga ancha yillar boʻlib ketdi. Qoʻykoʻzlar doim kulib boquvchi, shoʻx, sergʻayrat, kolxoz ishi uchun kuydi-pishdi boʻlgan bu bolani hech unutilmayman. Oʻsib, ulgʻayib katta yigit boʻlgandir. Ehtimol, katta kolxozning katta raisi ham boʻlib olgandir. Axir raislar, aslini olganda, shunaqangi jonkuyar yigitlardan saylanadi-da.

## HAR ISHGA QODIR

Bilmadim, eshitganmisiz, yoʻqmi, zilziladan soʻng Toshkent – Somonbozor mahallasida buzilayotgan uylardan chiqqan eski uskunalarni sotish uchun maxsus bozor tashkil etilgan. Nima boʻldi-yu, men-

ga ham bitta rom kerak bo'lib qoldi. Somonbozorga borib oladiganimni olib, ko'zim to'rt bo'lib transnort axtarayotgan edim, shu payt eshak aravaga ko'zim tushib qoldi. Boshqa shaharlarda qanaqaligini bilmayman-ku, lekin Toshkentda eshak zoti yo'q bo'lib ketgan. Faqat hayvonot bog'ida bir ona-bola eshak qolgan xolos, deyishadi. Qiziq, bu eshak qayoqdan kelib qoldi ekan yoki bechorani hayvonot bog'idan ham quvib yuborishdimikan?

– Ha, nega tikilib qolding, yo tanimayapsanmi?

– deb gap qo'shib qoldi aravakash. Keyin aravadan sakrab tushib, menga qarab chopqillab kela boshladi. Tanidim: Fozil. Maktabdoshim. Quchoqlashib ko'rishdik. Hech erinmay hol-ahvol ham so'rashdik.

– Ha, nima qilib yuribsang? – deb so'radi Fozil oxirida.

– Rom oluvdim. O'zing-chi?

– Men-mi... Vaqtincha... Aravakashlik qilyapman. Qani roming, o'zim eltib tashlayman. Yoki eshak arava bo'lgani uchun mensimayapsanmi? O'zi eshak-ku, lekin otdan zo'r. Anavi kuni poyga qiluvdim, ikkita otni ortda qoldirib ketdi. Qara, quloqlarini dikkaytirishini! Oyoqlari ham baquvvat, xuddi sening oyoqlaringga o'xshaydi... Ketskimi?

– Ketskimi.

Yo'l-yo'lakay eshagini maqtab boryapti u. Men bo'lsam Fozil bilan o'qigan yillarimni eslab ketyapman. Uni o'rganmagan hunari, qatnashmagan to'garagi qolmovdi, shekilli. Yettinchi sinfda adabiyot to'garagiga qatnashar edik. Bir kuni to'satdan:

– Men endi qatnashmayman, – deb yozgan she'rlarini shartta-shartta yirtib tashladi. – Rahbarimizning o'zi she'r yozishni bilmaydi-yu, doim she'rlarimni qayta ishlatgani-ishlatgan. Qayta ishlayverib mana, miyam suyulib, mishig'im oqadigan bo'lib qoldi.

– Mishig‘ing shamollashdan oqayotgandir?

– Hecham-da. She‘r yozishdan. Shoir bo‘laman deb manqa bo‘lib qolsam, unda nima bo‘ladi?!

Radiotexnika to‘garagiga o‘tib ketdi u. Radio-televizor tuzilishini o‘rgana boshladi. Fozil quloqqa tutadigan naushnik yasagan ekan. Maktabda tashkil etilgan mohir qo‘llar ko‘rgazmasida namoyish etilib, hozir juda mashhur bo‘lib ketgan. Bir kuni qo‘shnimiznikidan shovqin eshitilib qoldi. Chiqsam, sakkinizchi «V» sinfda o‘qiydigan Qodir Fozilning yoqasidan qisib olibdi.

– Televizorni rasvo qilding! – der edi u yig‘lagudek bo‘lib. – Endi dadam kelsa nima deyman. Hozir tuzatib berasan!

– O‘zi televizoring tuzalmaydigan xilidan ekan, – deb o‘zini oqlamoqchi bo‘lardi Fozil. – Hozirgi televizorlarning hammasi brak chiqyapti. Hamma ayb zavodda.

Qodirlarning televizori sal xiraroq ko‘rsatayotgan ekan, Fozil, tuzatib beraman, deb butunlay buzib qo‘yibdi.

– Endi uni tezroq tuzatib ber, bo‘lmasa dadam meni uradi, – endi yolvorishga o‘tdi Qodir.

– Urgani bilan o‘lib qolmaysan, – yupata boshladi Fozil. – Anavi kuni dadam, televizorni nega buzding deb meni ham savaladi. Mana, men ham o‘lganim yo‘q-ku. Kamar bilan urmoqchi bo‘lsa, orqangni o‘g‘irib yumshoq joyingni tutib tur...

Bir amallab ikkovini yarashtirib qo‘ygandim o‘shanda. Keyin to‘qqizinchi sinfda o‘qiyotgandik shekilli, Fozilning qo‘lida, dadasiniki bo‘lsa kerak, sadaf-lari ko‘chib ketgan eski tanbur ko‘rib qoldim.

– Iya, ha? – dedim hayron bo‘lib.



– Eshitmadingmi, sherik! – dedi Fozil o‘zida yo‘q xursand bo‘lib. – Men musiqachi bo‘lib ketdim. To‘garak rahbarimiz qunt qilgan har bir boladan Betxoven yoki Shopen chiqishi mumkin deyapti. Betxoven bilan Shopenni bilasanmi? Bilmaysanmi? Ikkovlari xolavachcha bo‘lishgan. Keyin rahbarimiz: «Fozil, se-ning og‘zing katta, qunt qilsang, sendan zo‘r ashula-chi chiqishi mumkin», deyapti.

– Og‘zi katta bo‘lsa nonxo‘r bo‘ladi deyishadi-ku? – deb so‘radim undan.

– Bo‘lmagan gap. Bitta kuy chalib beraymi?

Ayrilishga yetgunimizcha Fozil tanburda «tanovar» kuyini chalib keldi. Ochig‘ini aytsam, yomon chalmadi. Huzur qilib tingladim.

– Tug‘ilgan kuning qachon bo‘ladi? – to‘satdan so‘rab qoldi Fozil. – O‘sha kuni meni ham aytasan. O‘zim kelib o‘tirishingni gullataman. Kuylar chalib beraman. Ana o‘shanda og‘izning kattasi nimaga yarashini ko‘rasan, biram ashulalar aytib berayki...

12-mart kuni barcha sinfdoshlarim qatori Fozilni ham tug‘ilgan kunimga taklif qilmoqchi bo‘lib, uni musiqa to‘garagi xonasida emas, yosh bog‘bonlar to‘garagi a‘zolari orasida uchratdim. Olma daraxtlari shoxini butashayotgan ekan.

– Kechirasan, sherik, men musiqani allaqachon yig‘ishtirganman, – dedi Fozil, keyin qo‘shimcha qilib qo‘ydi, – tanburning qornini yorib, ukalarimga o‘yinchoq qilib berdim. O‘ylab qaragam, ashulachidan bitta ham Mehnat Qahramoni chiqmagan ekan. Yo chiqqanmi?

– Bilmayman.

– Kun bo‘yi diring-diring, shu ham kasb bo‘ldi-yu. Bog‘bonlik boshqa gap. Mevalar ekasan, ko‘m-ko‘k dalalarni aylanib yurasan. Michurinni bilasanmi?

– Bilaman.

– Men Michurin bobom yoʻlidan bormoqchiman. Yana oʻn yillardan soʻng sen roppa-rosa yigirma ol-tiga toʻlganingda, tugʻilgan kuning nishonlanayot-gan goʻzal bir oqshom kechasida Mehnat Qahramoni, mashhur bogʻbon Fozil Ochilovdan qutilarda mevalar keladi... Bolalar, – deb oʻrtoqlariga murojaat qildi Fo-zil, – mendan kelajakda Mehnat Qahramoni chiqadi-mi, yoʻqmi?

– Sen hoziroq qahramon boʻlib qolding-ku! – deb piqirlab kulishdi qizlar.

Fozil yosh bogʻbonlar toʻgaragini nima uchun tash-lab ketganini aniq bilmayman, lekin «yosh zoologlar» toʻgaragidan nima sababdan haydalgani hali-hali esim-da. Toʻgarak aʼzolari pilla qurti boqishayotgan ekan. Fozil navbatchi boʻlibdi. Qurtlarga tut bargi solish oʻr-niga tol bargi solib, hammasini oʻldirib qoʻyibdi. Oʻzi, ilmiy tajriba qilib koʻrmoqchi edim, dedi oʻsha kuni. Sheriklari boʻlsa, ataylab qilgan bu ishni deyishdi.

Xullas, uni toʻgarakdan butunlay haydab yuborishdi.

– Qaytaga yaxshi boʻldi, – dedi Fozil maktabdan qaytayotganimizda. – Oʻzi milliy kurash toʻgaragiga yozilmoqchi boʻlib yuruvdim. Rangi sovuq qurbaqa, zaharli ilon, shilimshiq qurt: shuyam toʻgarak boʻlib-di-yu. Uyalmay-netmay tipratikanga sut berishadi-ya... Kurash boʻlsa boshqa gap! Kuch yigʻasan, sogʻlom boʻlasan... Ivan Poddubniyni eshitganmisan?

– Eshitganman.

– Men Ivan Poddubniy yoʻlidan bormoqchiman.

Hozir eshak aravada oʻtirib ana shularni oʻylab ketdim, bu maktabda necha xil toʻgarak boʻlsa, ham-masiga birma-bir qatnab chiqqan edi. Lekin makta-bimizda eshak arava minishni oʻrgatadigan toʻgarak yoʻq edi shekilli.

Oqko'ngil Fozil tinmay gapirib boryapti. Goh esha-gini maqtar, engashib, yonlaridan silab qo'yadi yo bir-ga o'qigan do'stlarimizni eslab ketadi. Men indamay-man, yuragim negadir achishib boryapti... Har qalay, layoqatli bola edi u. Lekin sabr-u toqat yo'q edi unda... Sabr-toqat bo'lmasa, kishi har qancha layoqatli bo'lsa ham eski-tuskilar bozorida qari eshak, buzuq arava bilan qolib ketishi hech gap emas ekan-da.

– Shu, aravakashlik juda past ish, – dedi Fozil go'yo mening fikrimni sezgandek, – lekin vaqtincha ishlab turibman. Yaqinda shofyorlikka o'qimoqchiman. Bu shunchaki mashq. Yo'l qoidalarini, transport boshqa-rishni o'rganyapman...

Bu orada eshak arava bir tomonga og'a boshladi. Yo'lning qiya joyidan o'tayotgan edik. Shu payt «to'q» etgan tovush eshitildi-yu, ikkimiz bir tomonga qalqib ketdik. Aravamiz to'xtab qoldi. Uning bir g'ildiragi yo'l chetidagi ariqchaga tushib ketgan edi. Eshak ara-va tiqilib qoldi. Eshak quloqlarini chimirib, pishqirib harchand urinsa ham arava g'ildiraklarini ariqcha-dan chiqara olmas edi. Ikkovlashib g'ildiraklaridan itardik, baribir bo'lmadi.

– Otdan zo'r devding-ku! – dedim entikib.

– Zo'rlikka zo'r-a, oyoqlari qaltirab ketyapti-da, – dedi Fozil ham entikib.

– Hozirgina oyog'i filnikidan baquvvat devding-ku!

– Yoshligida baquvvat bo'lgan, bildingmi!

O'sha kuni men romni uyimizga yelkamda ko'tarib ketdim. Fozil orqasiga qaytdi.

– Xafa bo'lma, – dedi u jo'nayotib, – yaqinda shof-yor bo'lsam, seni albatta xursand qilaman. Ko'mir ol-dingmi?

– Yo'q.

– Olmay tur. O'zim mashinada keltirib beraman, Yuragim, negadir g'ash edi, javob qaytarmadim.

## LENTA TAQQAN BIR BOLA

Hoy-hoy, yo'lovchilar, to'xtanglar, to'xtanglar! Cho'n-taklaringizni bir kavlashtirib ko'ringlar. Chipta olishga pulingiz yetarli? Yigirma tiyinlikni kaftingizga siqib, kassa oldida tiqilinch qilmaysizmi? Bo'lmasa, orqangizga qayting. Ha, qayting, ho'v anavi 10-74145 butkadan pulni maydalatib oling, baribir chiptasiz ketolmaysiz, ha, ketolmaysiz! Sunnatvoyning qo'liga tushasiz. Tushdingizmi, uyog'iga.. yo'q, yaxshisi, gapirib bera qolay.

Rostini aytsam, tramvay-trolleybuslarda temir kassalar paydo bo'lgandan beri goho parishonxotirlicim tufayli, goho cho'ntagimda mayda bo'lmaganligidan chiptasiz ham ketaverardim. Nima, cho'ntagimda mayda bo'lmasa ayb mendami?

Ertalab soat o'nga majlis chaqirgan edik. Shoshilib trolleybusga o'tirdim. Cho'ntakni kavlab ko'rsam, chaqa qurmag'urlar yo'q. Qog'oz pullarning ham nuqul yirigidan chiqyapti. Nima, shunga ham ota go'ri qozixonami, yana bir marta chiptasiz ketsak ketibmiz-da. Trolleybusning beli sinib qolarmidi. Shu o'y bilan ko'nglimga tasalli berib gazeta o'qib ketaverdim. Bir mahal kimdir yengimdan tortyapti. Qarasam, 12-13 yoshlardagi bir bola, u bilagiga qizil lenta taqib olgan edi.

– Amaki, nega o'zingizni eshitmaganga solasiz! – dedi u ko'zlarini pirlpiratib.

– Nima?

– Chiptangizni ko'rsatib yuboring-chi?

– Iye... Qanaqa chipta? – dedim nima deyishimni bilmay. Keyin sal past kelmasam tag'in sharmanda qilib qo'ymasin dedim-da, qo'shib qo'ydim: – Uka, kechirasiz, chiptam yo'q...

– Nega endi chiptangiz boʻlmas ekan?  
– Maydam yoʻq edi-da.  
– Trolleybusda chiptasiz yurish man qilingan,  
– dedi bola kipriklarini pirpiratib. – Qani, jarima toʻlang boʻlmasa!

– Kechirasiz, uka, maydam yoʻq.  
– Boʻlmasa tushing, butkaga kiramiz.  
– Endi... juda shoshib turibman, boshqa vaqtda toʻlarman...

– Gap bitta, orqamdan yuring.

Bunday qaragam, trolleybusda nechta odam boʻlsa, hammasi bizga tikilib turibdi, shunaqangi uyalib ketdimki, asti qoʻyaverasiz. Gapni chuvalashtirsam, bola meni battarroq sharmanda qilib qoʻyadigan, sekin oʻrnimdan turib orqasidan ergashdim...

– Kechirasiz uka, otingiz nima edi? – deb soʻradim xiyol engashib.

– Sunnat, – dedi bola betimga qaramay.

– Obbo Sunnatvoy-ey, yaxshi yigit ekansan. Nechanchi sinfda oʻqiysan?

– Oltinchida.

– Yaxshi, juda yaxshi! Demak, oʻqishdan boʻsh vaqtlarida... Obbo siz-ey, mana shunaqangi prinsipi-al boʻlish kerak. Bir tiyin boʻlsa ham davlatning puli-da... Shunday emasmi?

– Shunday.

– Endi uka, meni qoʻyib yubora qoling. Rostini ayt-sam, majlisga kechikypman.

– Yoʻq, avval jarima toʻlaysiz, – hamon menga qaramas edi bola.

– Ishga kechikypman, uka! – dedim ovozimni bir parda yuqorilatib.

– Hammaning ham ishi bor, – dedi Sunnatvoy ham xuddi shu ohangda.

– Lekin men shoshib turibman.  
– Shoshganlar chipta olmasin degan zakon yo‘q!  
– Ho‘ zakonchi, qo‘yvor deyaqman! – do‘q qilishga o‘tdim.

– Do‘q urmang, bo‘lmasa men militsionerni chaqiraman, – mendan baland kela boshladi Sunnatvoy. Kattaroq odam bo‘lganda arz-holingni aytsang, gapga tushunardi, albatta. Lekin bola bolaligini qilar ekan-da! Bir xayolim ko‘zini shamg‘alat qilib, qochib qolay deyman, lekin bu bola anoyilardan emasga o‘xshaydi. Quvadi, albatta quvadi. Yosh bolaning oldiga tushib lapanglab qochishdan xunugi bo‘lmasa kerak, dedim-da, fikrimdan qaytdim.

– Sunnatvoy, bir iltimosim bor, – yana yolvorishga tushdim.

– Ayting-chi?

– Endi, ikkovimiz ancha og‘ayni bo‘lib qoldik... Dandangizni ham taniyman. U kishi ko‘p ajoyib odam-da. Kecha birga edik...

Bola yurishdan to‘xtab menga o‘qrayib qaradi.

– Adam Moskvaga o‘qishga ketganla-yu...

– Obbo siz-ey! – dedim o‘zimni eshitmaganga solib.

– Lekin menga juda yoqib qoldingiz... Endi uka, kel-ing javob berib qo‘ya qoling.

– Jarima to‘laysiz, – achchig‘i kelib ketdi Sunnatvoyni.

Bu orada dispetcherlik punktiga ham kelib qoldik. Iltimos qilib o‘tirishga ham hojat qolmadi. Sunnatvoydan sal kattaroq bir bola (aftidan u ham jamoatchilik asosida kontrolyorlik qilayotqan o‘quvchilardan bo‘lsa kerak) 40 tiyinlik jarima yozdi. Pulini to‘layotganimda:

– Qayerda ishlaysiz? – deb so‘radi.

Ish joyimni aytdim.

– Telefoningiz ham bormi?

Direktorimiz o‘tiradigan xonaning telefon raqamini aytdim. Trolleybusga osib qo‘yish uchun suratimni olmaganlari uchun xursand bo‘lib tashqariga chiqdim. Soat allaqachon 10 bo‘libdi. Ukam tengi bolalar oldida izza bo‘lganim ozlik qilgandek, o‘sha kuni direktorimiz ham rosa mulzam qildi. Majlis oxiray deb qolgan ekan:

– Nega kech qoldingiz? – deb so‘radi direktor.

– Endi... haligi... – deyman-u, hech bahona topa olmayman.

– Uyalish kerak, o‘rtoq Qurbonov! – dedi direktor hammaga eshitarlik qilib. – Majlisga kech qolsangiz, tramvay, trolleybuslarda chiptasiz yursangiz... uyat-ey!

Qani endi, yer yorilsa-yu, erga kirib ketsam.

O‘shandan buyon tramvay, trolleybuslarga o‘tiradigan bo‘lsam avval cho‘ntakni paypaslab ko‘raman. Goho Sunnatvoy bilan ham duch kelishib qolamiz. Qarang, qo‘limda chiptam bo‘lsa ham baribir, ich-ichimdan qaltiroq turadi.

Xullas, cho‘ntagingizda maydangiz bo‘lmasa maydalab oling! Chiptasiz ketolmaysiz, ketsangiz...

## QIZG‘ANCHIQ

Shirin-shakar mevalarga boy Katta Tagob qishlog‘ida Shavkatjon degan bir bola yashardi. U o‘zi esli-hushli, tirishqoqqina edi-yu, ammo qizg‘anchiq edi. O‘qishlari ham chakki emas, hatto ikki marta «5» baho ham oldi. Xullas, hammasi joyida edi-yu, lekin qizg‘anchiq-da!

O‘rtoqlaridan birontasi:

– Shavkatjon, daftaringdan bitta berib tur, – deb qolsa, Shavkatjon darrov qovog‘ini soladi-da:

– Bor-yo‘g‘i 20 ta daftarim qoldi, senga bersam, o‘zim nima qilaman! – deb darrov teskari o‘girilib oladi. Ertasiga orqa partada o‘tirgan do‘sti:

– Shavkat, bitta narsa so‘rasam maylimi? – deb qoladi.

– Nima ekan, avval ayt-chi... – deydi Shavkatjon qo‘rqib ketib.

– Ruchkam sinib qoldi, – deydi haligi do‘sti.

– Yo‘q, yo‘q! – deb do‘stining gapini bo‘ladi Shavkatjon. – O‘zi beshta ruchkam bor. Senga bersam, ado bo‘lib qoladi.

Zarur bo‘lganda undan hech narsa olib bo‘lmaydi. Hatto uyidan olib kelgan non-u mevalarni ham yashirib yeydi. Bir kuni bitta tuxum olib kelgan ekan, birovga ko‘rsatmasdan yeb ola qolay deb, butunicha yutib yuborgan, tiqilib ko‘zlari olayib ketgan.

Shavkatjonning katta qora papkasi ham bor. Qo‘liga nimaiki tushsa, o‘sha papkasiga joylab oladi-yu, qaytib birovga ko‘rsatmaydi. Sheriklari papkasini ochib, ichini bir ko‘rsak bo‘lardi, deb ko‘p urinishgan, lekin baribir ko‘rishga olmagan. Men bir amallab, o‘ziga sezdirmay papkasini ochib ko‘rganman. Voy-bo‘, zanglagan perolar deysizmi, choynakning qopqog‘i, tasmaning taqasi, bog‘cha bolalari o‘ynaydigan qo‘g‘ir-choqlar deysizmi, hamma-hammasi bor ekan-a!

Kunlardan bir kun Shavkatjonning ana shu antiqa papkasi suvga oqib ketdi, ha, oqib ketdi. Shavkatjonlar soyning narigi yuzida yashashardi. Soydan o‘tish uchun yog‘och qo‘yilgan. Qo‘llarini yozib dorbozlardek o‘ynab o‘taman, degan bir xayolga bordi-yu, papkasini beixtiyor tushirib yubordi. Yig‘laganicha soy yoqalab, ancha yergacha bordi, baribir papkasini ololmadi. Yig‘laganicha sinfga kirib bordi.



– Nega yigʻlaysan?! – soʻradi muallim.

– Papkam oqib ketdi, – deb battarroq hoʻngrab yu-bordi Shavkatjon.

– Kap-katta yigit bitta papkaga ham yigʻlarkanmi? – koʻnglini koʻtardi muallim.

– Axir unda daftarlarim bor edi, endi nimaga yo-zaman?

Muallim Shavkatjonni partasiga oʻtqizdi-da, sinfga murojaat qildi:

– Qani, bolalar, kimda ortiqcha daftar bor?

Oʻttiz ikki oʻquvchi baravar qoʻl koʻtardi.

Shavkatjon yana yigʻladi.

– Endi nega yigʻlaysan? – soʻradi muallim.

– Axir... axir ruchkalarim ham oqib ketdi-da!

– Qani, bolalar, – soʻradi muallim, – kimda ortiq-cha ruchka bor?

Yana oʻttiz ikki qoʻl barobar koʻtarildi. Shundan soʻng desangiz, Shavkatjonning partasiga daftar-u ruchkadan tortib, rasm qalamgacha kelib tushaverdi...

Shavkatjon yigʻlashdan toʻxtab, kafti bilan koʻz yoshlarini artib, parta ustidagi narsalarga tikilib qol-di. Bir nafas jim turdi-da, yana hoʻngrab yigʻlab yu-bordi.

– Iye, tagʻin nega yigʻlayapsan? – hayron boʻlib dedi muallim...

– Endi... endi uyalganimdan yigʻlayapman, – deb qoʻllari bilan yuzini berkitib oldi Shavkatjon, – uyalib ketyapman.

## YO'LTO'SAR

Yo'q, kechirasiz, men haligi kitoblarda yoziladigan, soqol qo'ygan, badbashara, katta yo'lto'sarlar haqida hikoya qilmoqchi emasman. Yo'q, men shunchaki o'zimizning qishloqlik Abdufattohning qanday qilib ta'zirini yeganligi haqida gapirib bermoqchiman.

Shunday qilib, Abdufattoh yo'lto'sarlik qilardi. Zerikkanidan, shunchaki ermak uchun qilardi. Kechqurun qorong'i tushishi bilan ko'chaga katta-katta toshlarni ko'ndalangiga qatorlashtirib qo'yardi-da, daraxtning panasiga o'tib, poylab turardi. Ko'cha torgina, dala yo'li bo'lganidan, albatta mashina yoki arava o'tmasdi. Ammo velosiped minganlar daqiqa sayin g'izillab o'tib turishardi. Shulardan biri toshga urilib yiqilib tushsa, Abdufattoh qiqirlab kular, o'zida yo'q shodlanar edi. Yiqilgan kishi orqasidan quvlasa, chakalakzorga berkinib olgan paytlari ham ko'p bo'lgan.

O'tgan chorshanba kuni ham xuddi shunday qildi. Kechki ovqatni yegach, ko'chaga chiqib toshlarni qatorlashtirib terib qo'ydi. Ancha mahal daraxt orqasida poylab o'tirdi. Hech kim toshlarga urilib yiqilmadi. Bir vaqt oyisi chaqirib, buloqdan bir chelak suv keltirib bergin, deb qoldi. Xo'p, deb uyiga kirib velosipedini minib chiqdi. Buloq ancha olis bo'lganidan Abdufattoh suvni velosipedda olib kelardi. Ketayotganida o'zi qo'ygan toshlardan avaylab o'tdi-yu, ammo qaytayotganida turli o'ylarga berilib ketdi shekilli, toshlarni paqqos unutib yubordi. G'izillab kelayotgan velosiped qirrali toshga biram urildiki, asti qo'yaverasiz! Velosiped sapchib ketdi-da, Abdufattoh tagiga tushdi. Xuddi birov ataylab qilgandek suv to'la chelak boshiga qalpoq bo'lib kiyilib qoldi. O'sha paytda Abdufat-

toh nima deganini aniq bilmayman. Yiqilib, yelkasi lat yegan, peshonasi g'urra, kiyim-boshlari shalabbo bo'lgan bola nima desa, u ham shunga o'xshash biron gap aytgandir.

Ammo ertasiga ko'chaga tosh terilmadi.

## MAQTANCHOQ

Xabaringiz bormi-yo'qmi, tog'lar etagida joylashgan qishloqda Baxtiyor degan bir maqtanchoq bola yashaydi. O'sha bola bir kuni daladan qaytayotib, katta chinor tagida qumtaka o'ynab o'tirgan uch-to'rtta yalang'och o'rtog'iga duch kelib qoldi.

– Ha, Baxti, qayoqdan kelyapsan? – deb so'rashdi og'aynilari.

– Menmi?.. Men, fermadan kelyapman, – Baxtiyor bu gal nima deb maqtansam ekan deya o'ylanib qoldi.

– Sut ichgani borgandirsan-da, ana, burningni uchiga qaymoq yopishib qopti.

– Hecham-da, men... Bilasizlarmi, hozir fermaga bitta tirik bo'rini topshirib kelyapman.

– Bo'rini?! – vahima ichida so'radi o'rtoqlari.

– Bo'ri degandan keyin bo'ri-da, nima, quyon bo'lar-midi bo'lmasa?

– To'xta, to'xta, – har tomondan chuvillab qolishdi bolalar, – sen u bo'rini qanday qilib ushlading? Yolg'on gapirayotganga o'xshaysan.

– Yolg'on emas, rost. O'lay agar! Ashula aytib dalaga ketayotsam, changalzor tomondan bitta ona bo'ri halloslab chiqdi-da, yeyman deb, tishlarini takillatib menga tashlanib qoldi. Qo'limdagi behi tayoq bilan mo'ljallab turib, mana bunday qilib miyasiga bir tushirgan edim, shilq etib yerga yiqildi. Darrov belimdagi qiyig'imni yechib, og'zini, ko'zini bog'ladim-da,

bo'yniga qayishimni solib, fermaga qarab yetaklab qoldim.

– To'xta, to'xta. Sen hozir shilq etib yerga yiqildi, deb eding-ku? – gapini bo'lishdi o'rtoqlari.

– Juda qiziq ekansizlar-ku, – dedi Baxtiyor xafa bo'lib, – aytdim-ku, bo'yniga qayishimni boylaganimcha u ham o'rnidan turdi deb... Sudrab fermaga olib boruvdim. Ahmadjon akam: «Barakallo azamat», deb bir piyola limmo-lim sut berdilar. Ertasiga tag'in olib kelsang, ikki piyola beraman, qaymoqlisidan beraman, dedilar. Men-chi ertaga...

Maqtanchoq Baxtiyorning gaplari chala qoldi. Nega desangiz, xuddi shu paytda katta chinorning ortida sichqon poylab yotgan bir qora mushuk kerishmoqchi bo'ldi shekilli, o'rnidan turib, oyoqlarini cho'zib, belini egib, qattiq miyovlab yubordi.

– Bo'ri! – qichqirdi bolalardan biri.

Baxtiyor shunaqangi qochib berdiki, ko'rsangiz, bu bola jahon chempionimi derdingiz. O'rtoqlari: «Hoy, qayt, bo'ri emas, mushuk, Akbarning mushugi», deb shuncha chaqirishsa ham, orqa-o'ngiga qaramasa-ya.

Shundan so'ng Baxtiyor maqtanchoqlikni tashlab yuborgan bo'lsa ham ajab emas.

## TA'ZIR

Endi, men sizlarga o'sha qishloqda yashayotgan, dangasa desa dangasaga, quloqsiz desa quloqsizga o'xshamaydigan, o'zi xiyla o'yinqaroq bo'lgan Bahromboy degan bir bola haqida ham hikoya aytib bermoqchiman. Dadasi, onasi har kuni dalaga ketib, Bahromboy uyda buvijoni bilan yolg'iz qolardi. Buvijoni:

– O'g'lim, narigi uydan ko'zoynagimni olib chiqib ber! – desa, Bahromboy:

– Xo‘p bo‘ladi, – derdi-da, o‘yinchoqlarini o‘ynab o‘tiraverardi.

Bir oz fursatdan so‘ng buvijoni:

– Ko‘zoynak deyaqman senga, – deb qo‘yardi. Bahromboy boshini ham ko‘tarmay:

– Hozir deyaqman-ku, – derdi-da, o‘yinga battarroq berilib ketardi. Oxiri buvijoni o‘rnidan turib, ko‘zoynagini o‘zi olib chiqishga majbur bo‘lardi. Ertasi ham shu, indiniga ham shu – Bahromboyning qulog‘iga hech gap kirmasdi.

– Buvijon! – deb qoldi bir kun Bahromboy, – qor-nim juda ochib ketyapti, non olib bering.

Buvijoni ko‘rpa qaviyotgan edi.

– Xo‘p bo‘ladi, – dedi-yu, o‘rnidan qo‘zg‘almay ishini qilib o‘tiraverdi.

– Non deyaqman, – dedi Bahromboy betoqat bo‘lib.

– Xo‘p deyaqman-ku, – deb qo‘ydi buvijoni juda be-parvo bir ohangda. Bir oz fursatdan so‘ng Bahromboy yer tepinib:

– Non! – deb qichqirdi.

– Hozir! – dedi-yu, buvijoni ko‘rpaning bu etagini tugatib, narigi etagini qavishga tushib ketdi. Yana bir oz fursatdan so‘ng Bahromboy to‘satdan yumshab:

– Buvijon, ignangizga ip o‘tkazib beraymi? – deb qoldi o‘zidan-o‘zi. Nega desangiz, shu paytda Bahromboy: «Buvijonimning aytganini qilmay, xato qilgan ekanman – bilmay yurgan ekanman-da», deb o‘zicha afsuslanayotgan edi. Buni sezgan buvijonisi o‘rnidan turib:

– Tilingdan o‘rgilay, – deb qo‘ydi.

O‘sha kundan boshlab Bahromboy deganlari ham buvijoni aytgan ishni darrov bajaradigan bo‘lib ketdi.

## DADAJON, ILTIMOS YOZMANG!

Mening uchinchi sinfda o'qiydigan Baxtiyor ismli o'g'lim bor. Uning maktabdan qaytganini papkasidan bilaman – papkani derazadan irg'itadi. Bugun ham shunday bo'ldi. Papkani irg'itib:

– Dada! – deb chaqirdi.

– Nima deysan?

– Uydamisiz?

– Uydaman.

– Mening haqimda qachon yozasiz?

– Nega sening haqingda yozar ekanman?

– Ikrom haqida yozibsiz-ku?

– Qanaqa Ikrom? Ha, Ikrom senga o'xshab darsdan so'ng ko'cha changitib yurmaydi. Biron narsa o'rganish payida bo'ladi, samolyotning modelini yasabdi, ko'rdingmi?

– Ko'rdim. O'shayam model bo'libdi-yu, dumi yulingan musichaga o'xshab, tumshug'ini yerdan ko'tara olmaydi.

– Bugun ucholmasa, ertaga uchadi. Albatta uchadi. Undan keyin Ikromning o'qishlariyam doim «besh», sen bo'lsang «uch» dan nariga o'tolmaysan...

– Mening haqimda yozmaysizmi?

– Yo'q.

Oradan kunlar, haftalar o'tib ketdi. Bir kuni Baxtiyor maktabdan yana hovliqib keldi. Qo'lida o'quvchilar gazetasi.

– Papkang qani?

– Bolalar olib kelishyapti. Dada, mana, gazetada tag'in chiqibdi. Malika Usmonova haqida yozibsiz. Dadajon!

– Nima deysan?

– Bir iltimos bor...

- Ayt-chi.
  - Xo‘p desangiz, keyin aytaman.
  - Avval ayt-chi!
  - Dadajon, meniyan gazetada bir yozib chiqing, bolalarga bir ko‘rsatay, o‘qituvchimizga ham o‘qib berardim. Axir, Malika haqida yozibsiz-ku.
  - Malika har kuni oyisiga ko‘maklashadi, darsdan bo‘sh o‘quvchilarga yordamlashib turadi. Men doim yaxshi bolalar haqida yozaman.
  - Men-chi? Men yomonmanmi?
  - Sen oyingga yordamlashmasang...
  - Men oyimning ishini qilsam, oyim nima qiladi?
  - Masalan... kitob o‘qishi mumkin.
  - Yoshligida o‘qimaganmi?
  - O‘qigan, yaxshi o‘qigan.
  - Xo-o, chiroyli yozuvdan «ikki» olar ekanlar, o‘z-lari aytganlar. Dadajon, meni ham bir yozib chiqing.
  - Avval o‘zingni tuzatgin.
  - Keyin tuzalib ketardim-da.
- Oradan kunlar, haftalar o‘tib ketdi. Qahraton qish tugab, iliq, seryomg‘ir bahor boshlandi. Bir kuni Baxtiyor qayerdandir uch tup o‘rik daraxti keltirib ko‘chadagi ariq bo‘yiga qing‘ir-qiyshiq qilib eka boshladi. Ko‘rdim-u, o‘zimni ko‘rmaganga soldim. Ertasiga uch tup terak ekdi. Negadir terak bilan o‘rikni oralatib ekdi. Oxirgi ishlari bitgach, xuddi katta odamlarga o‘xshab, ikki qo‘lini biqiniga tiragancha yana o‘sha katta odamlarga o‘xshatib xayol surib qoldi. Oldiga chiqib:
- Xo‘p yaxshi ish boshlabsan-da, Baxtiyor! – dedim.
  - O‘qituvchimiz aytdiki, har bir o‘quvchi uch tupdan mevali daraxt ekib o‘stirsa, omborlarga meva sig‘may ketar ekan...
  - Sen terak ham ekibsan-ku?

– O‘riklar katta bo‘lib ketsa, uning mevasini terakning ustiga chiqib teraman-da.

Men kuldim, qotib-qotib kuldim.

– Nega kulyapsiz, dada?

– Mana, endi sening haqingda ham yozsa bo‘lar ekan.

– Yo‘q, dadajon, yozmang!

– Nega?

– Daraxtlar ko‘karmay qolsa-chi, bolalar meni kalaka qilishadi. Yozmaysiz-a?

– Xo‘p, yozmayman.

– Chin so‘zingizmi?

– Chin so‘zim.

## KELVORDIM, DADA

Shunday qilib, desangiz, Baxtiyorning o‘sha niholchalari biram yaxshi ko‘kardiki, asti qo‘yaverasiz. Sal kunda barglar chiqazib, gurkirab o‘sa boshladi. O‘ziyam parvarishni zap o‘rniga qo‘ydi-da; tagini chopadi, suv quyadi, o‘g‘it soladi. Ba‘zan, qilgan ishim qalay chiqdi ekan deb, huv nariga borib, ko‘zlarini qisib, nihol tomonga nazar tashlab qo‘yadi. Goho o‘ynagani ketayotib:

– Dada, – deb chaqiradi.

– Nima deysan?

– Daraxtlaringa qarab turing, bolalar sindirib ketmasin.

– Xo‘p bo‘ladi.

– Yo‘q, oldiga chiqib o‘tiring.

– Mana, hozir chiqaman, – deb qo‘yaman men ham.

Yozgi ta‘tilda hech qayoqqa bormadi. Har yili men tug‘ilib o‘sgan qishloqqa buvisi, ammalari oldiga borardi. Bu yil uyoqqa ham bormadi. Daraxtlarimni bolalar sindirib ketadi, deb ko‘nmadi.



Avgustning boshlarida muallima boshqa sinfdosh o'rtog'lar qatori Bo'stonliqdagi, tog'lar orasiga joylashgan oromgohda dam olib kelsin, deb taklif qilib qoldi.

– Bormayman, – deb turib oldi Baxtiyor, – ketsam, daraxtlarim qurib qoladi.

– Men qarab turaman.

– Yo'q, siz quritib qo'yasiz.

– Quritmayman.

– Men ketishim bilan Davron sindiradi uni.

– Sindirmaydi!

Buyoqda men, uyoqda muallima bilan yigirma o'quvchi birgalashib, bir amallab Baxtiyorni ko'ndirdik: oromgohda dam olib kelguncha, men uning nihollariga qarab turadigan bo'ldim, agar birontasi qurib qoladigan bo'lsa yoki shoxini biron sindirib qo'yadigan bo'lsa, men to'lab beradigan bo'ldim.

Oradan to'rt kun o'tgach, to'satdan xat kelib qoldi. Shoshilib o'qib chiqdim.

«Qimmatli dadajon, salomdan so'ng, shuni so'ramoqchimanki, nihollarim qalay o'syapti? Rostini aytib, tagini chopdingizmi, yo'qmi, suv quyyapsizmi? Suvni kunning issig'ida quymang, bargi sarg'ayib qoladi. Shu haqda menga shoshilib xat yozing.

O'g'lingiz Baxtiyor».

Ertasiga yana xat keldi.

«Dadajon, shu kecha yomon tush ko'rdim. Davron terakni kesib, ot qilib minib yurganmish. Abdulla qo'yini mening o'rigimga boylab qo'ygan ekan, qo'y itdan hurkib qochaman deb, o'rikni tomiri bilan yulib ketib, shu biz turgan oromgohning hovlisida sudrab yurganmish. Nima bo'ldi o'zi! Tezroq yozing. Tezroq, tezroq, tezroq!!!

Baxtiyor».

Ikkinchi xatga javob yozib ulgurmasimdan, buyoqdan uchinchi xat ham kelib qoldi.

«Dadajon, siz hozir shahardamisiz yoki xizmat safaridamisiz, nega indamaysiz? Bu yerda bir bogʻbon bobo bilan gaplashdim, yosh niholning tagiga magʻzava toʻkib boʻlmas ekan, darrov qurib qolarkan, oyimga ayting, kir yuvsalar, magʻzavasini mening nihollarim tagiga toʻkib yurmasinlar. Hammasini bir boshdan yozib yuboring. Pochtaxonada kutib oʻtiraman...

Baxtiyor».

Rostini aytsam, shu xatlar rosa jonimga tegdi. Har kuni nihollarni parvarish qilsam, birov sindirib ketmasin deb, uni kunboʻyi poylab oʻtirsam... Bu ham kamlik qilgandek, gohi kunlari ikkitadan javob xati ham yozishim kerak.

Qayoqdan ham oromgohga bora qol, deb qistadim-a!

Bir kuni ertalab Baxtiyorga kechasi bilan yozgan xatimni joʻnatay deb tashqariga chiqib, ishonsangiz, hang-mang boʻlib qoldim. Baxtiyor, yelkasida qopchigʻi, nihollari atrofida gʻimirsilab yuribdi.

– Baxtiyormisan? – dedim koʻzlarimga ishonmay.

– Menman, dada.

– Qayoqdan paydo boʻlib qolding?

– Birinchi reysda keldim, dada.

– Oromgoh-chi?..

– Mana, vojatiyimiz sizga xat yozib berdi.

«Baxtiyorning adasiga, – deb yozilibdi oʻsha xatda, – oromgohni tashlab kelibsan deb oʻgʻlingizni urishmang, oʻzim javob berib yubordim. Nihollarim nima boʻldi ekan deb, tuzukroq oʻynab-kulolmadi. Kelasi yilga kelar...»

– Obbo sen-ey, shunday qilib kelvoribsan-da? – dedim gapning ochigʻi xafa boʻlishimni ham, xursand boʻlishimni ham bilmay.

- Kelvordim, dada! – dedi Baxtiyor xursand bo‘lib,
- hech kim mag‘zava to‘kmadimi?
- Yo‘q, to‘kmadi shekilli...

### VALI BILAN SALIM

- Salim, chiq ko‘chaga, o‘ynaymiz.
- Chiqmayman, – deb javob berdi Salim uyidan turib, – chiqsam tag‘in fokus ko‘rsatasan.
- Vali ertalab fokus ko‘rsataman deb, ko‘zini bog‘lab, yelkasiga bir-ikki mushtlab qochib ketgan edi.

- Endi ko‘rsatmayman. Chiqsang, juda qiziq narsa aytaman, o‘rtoq bo‘lamiz!

Salim chiqdi. Chindan ham Vali fokus ko‘rsatmadi.

Aksincha do‘st bo‘lishdi. Do‘stlik mustahkam bo‘lsin uchun cho‘p sindirib, «qilichmi, to‘qmoq» qilishdi.

- Endi qiziq narsangni ayt! – deb qistadi Salim.
- Xo‘p desang, aytaman.
- Qiziq bo‘lsa, albatta xo‘p deyman.
- Xo‘p desang, xirmonga borib paxta teradigan tarozining ustiga chiqamiz-da, toshni uyoq-buyoqqa surib ko‘ramiz.

- Yaxshisi, bir-birimizni tortish o‘ynaymiz, – dedi Salim qiziqib, – avval meni.

- Mayli.

- Tarozining ustidan turib sakraymiz ham.

- Ha, mayli, – dedi Vali rozi bo‘lib.

- Ey, tezroq bo‘l!

Salim bo‘lajak o‘yinining qiziqligini ko‘z oldiga keltirib, o‘z-o‘zidan sevinar edi. Lekin to‘satdan afti xud-di g‘o‘ra uzum chaynab olgandek burishib ketdi.

- Brigadir urishib bersa nima qilamiz?

- Urishmaydi, – dedi Vali ishonch bilan. – Bilasanmi, biz quruq bormaymiz, ko‘chaga to‘kilgan paxtalarni terib boramiz. Shunday qilsak urishmaydi.

Vali Salimga bundan uch-to'rt kun avval bo'lib o'tgan bir voqeani aytib berdi: u to'kilgan paxtalarni terib bergan ekan, brigadir xursand bo'lib, uni Karim tog'aning mashinasi kabinkasiga o'tqizibdi, o'shanda Vali mashinaning signalini bir-ikki chalib ko'ribdi...

– Baribir bizda etak yo'q-da! – dedi Salim afsuslanib.

– Etak bo'lmasa bo'lmasin, – dedi Vali xuddi o'rtog'ining dalaga borishdan aynib qolishidan qo'rqqan-dek shoshilib, – uyga kiramiz-da, oyimning eski etagini olamiz: bir tomondan sen, bir tomondan men ushlab olamiz, keyin te-ri-b ketaveramiz!

Salim ko'ndi va dalaga jo'nashdi. Ular ko'cha bo'y-lab borishar ekan:

– Nega paxtalar to'kilibdi-a? – dedi Salim.

– Kechasi Karim tog'a mashinasida paxta tashigandir, – deb tushuntirdi Vali va o'zi ham so'rab qo'ydi: – Mashinaga ortilgan paxtalarni qayoqqa olib borishadi?

– Zavodga olib borishadi, – ishonch bilan javob berdi Salim.

– Zavodda nima qiladi?

– Zavodda-chi, chigitni olib, paxtasini fabrikaga yuborisharkan...

– Undan keyin-chi?

– Odamlarga ust-bosh qilinadi. Rahimaning qo'g'irchog'iga ko'rpacha tikiladi, undan keyin qishda sovqotmasin, deb bizga quloqchin tikishadi...

– Sigirlarga kunjara ham tayyorlashadi, – deb qo'shib qo'ydi Vali ham.

Ular bir nafas jim turishdi.

– Etak to'lib qoldi-ku, endi nima qilamiz? – hayron bo'lib so'radi Salim.

– Huv anavi simyog'ochga qadalgan qutiga ag'daramiz, – Vali bu qutiga ilgari ham paxta tashlagan edi.

– Baribir bo‘yimiz yetmaydi.

– Nega yetmasin, sen engashib turasan, men us-tingga chiqib ag‘daraman.

Salim «yo‘q» degandek boshini chayqadi:

– Bo‘lmaydi. Sen ustimda turib, boshimga tepib yuborasan. Agar sening yelkangga men chiqsam, seni tepkim kelsa ham tepmayman.

Ular bir etak paxtani qutiga to‘kib, yana yo‘llarida davom etishdi.

Xirmonda ularni brigadir bilan tabelchi ko‘rib:

– Barakalla, azamatlar! – deyishdi xursand bo‘li- shib, – buni qayerdan terdilaring?

– Ko‘chadan terdik, – dedi Vali.

– Ko‘chadan terdik, – deb tasdiqladi Salim.

– Bir etagini simyog‘ochdagi qutiga ham ag‘dardik, deyishdi bolalar baravariga.

– Endi sizlarni nima bilan xursand qilsak ekan-a? – o‘ylanib qoldi brigadir.

– Bizga hech narsa kerak emas, – deyishdi bolalar, faqat tarozining ustiga chiqib o‘ynasak...

– Buzib qo‘yasizlar.

– Buzmaymiz, – deb turib olishdi Vali bilan Salim, – biz faqat uning ustida o‘zimizni tortib o‘ynamoqchimiz.

– Bo‘lmaydi, – dedi brigadir qiyin ahvolga tushib.

– Biz unda paxta tortib turibmiz. Buzib qo‘ysang- lar butun brigadaning ishi to‘xtab qolishi mumkin. Qani aytinglar-chi, oyilaring paxtalarini tortolmay yursa, yaxshi bo‘ladimi?

Bolalar bir-birlariga qarab olishdi.

– Yomon bo‘ladi! – dedi Vali xuddi allaqachon taro- zini buzib qo‘ygandek cho‘chib.

– Biz o‘zimizni tortmaymizmi? – dedi Salim bo‘sh kelmay.

– Kelinglar-chi, boʻlmasa, – dedi brigadir va yakka-yakka tortib qoʻydi.

– Xursandmisizlar? – soʻradi u bolalarga qarab.

– Ha! – javob berishdi oʻrtoqlar.

Soʻng brigadir ularni xirmondan sal naridagi, oldi panjara qilib ishlangan, oppoq, chiroyli dala shiyponiga boshlab bordi. U yerdagi stollar ustida qanchadan-qancha har xil kitoblar turar edi.

– Voy-boʻ, mana bularni! – dedi Salim qiziqib ketganidan va shoshilganicha kitoblarni qarashga kirishib.

– Qani, shularni bir koʻringlar-chi! – dedi brigadir ularga bir nechta rasmi kitoblar ajratib berar ekan. – Tagʻin yirtib qoʻymanglar, xoʻpmi, – deb brigadir ularga tayinladi.

– Xoʻp, yirtmaymiz, biz aqlimiz! – deyishdi oʻrtoqlar.

Shundan keyin brigadir paxtazorda ashula aytib paxta terayotgan yigit-qizlar tomonga ketdi.

Ikkala doʻstga dala shiyponi, u yerdagi kitoblar, ayniqsa shirinsoʻz brigadir juda yoqib qoldi. Ular anchagacha birga kitoblarni koʻrib oʻtirishdi, hech zerkishmadi.

Shundan keyin bolalar toʻkilgan paxtalarni terib, har kuni bir mahal xirmonga boradigan boʻlishdi.

Xirmonda-chi, agar bilsangiz, ularni har doim brigadir bilan tabelchi: «Yaxshi bolalar kelyapti», deb qarshi oladilar.

## HASSA

Qobil boboning ikki nabirasi Shavkat bilan Shuhrat qo'shni xonada o'ynab o'tirishar edi. Nima bo'ldi-yu ikkovlari bahslashib qolishdi.

Shavkat yugurib bobosining oldiga chiqdi-da:

– Bobo, bobo! Kim odobli, menmi yoki Shuhratmi?  
– deb so'radi.

Qobil bobo hovliga chiqmoqchi bo'lib turgan edi. Uning kumush halqa qadalgan hassasi Shavkat bilan Shuhrat o'ynab o'tirgan uyda edi.

– O'g'lim, avval mening hassamni keltirib ber, keyin men o'ylab javob beraman, – dedi nabirasiga.

– Yo'q, avval aytasiz! – oyoqlari bilan polni tepib turib oldi Shavkat.

– Axir o'ylab ko'rish kerak-da, – dedi Qobil bobo.

– Bo'lmasam hassangizni keltirib bermayman. – Shavkat qaysarlik bilan polga o'tirib oldi. – Keltirib bermayman!

Qobil bobo hassasini keltirish uchun o'rnidan endigina qo'zg'algan edi, shu payt xonaga bobosiga salom berib Shuhrat kirib keldi.

– O'g'lim, hassamni sen keltirib ber! – dedi Shuhratga bobosi.

– Xo'p bo'ladi, bobojon! – dedi Shuhrat bobosining gapi tugamasdan.

U kumush halqa qadalgan hassani darrov keltirib bobosiga berdi. Keyin o'rnidan turayotganda bobosining qo'lidan ushlab, turishiga yordamlashdi.

– Rahmat, o'g'lim, – dedi Qobil bobo nabirasining peshonasini silab, – umring uzoq bo'lsin!

– Bobo, kim odobli? Menmi yoki Shuhratmi, ayting axir! – der edi Shavkat yer tepinib. Qobil bobo kumush halqali hassasini do'qillatganicha hovliga chiqarkan:

– Shuhrat odobli! – deb javob berdi.

## DO'STLIK

Abduqodir Vovaga yozayotgan xatini boshidan o'qib chiqqan edi, o'ziga yoqmadi: nuqul keraksiz so'zlarni yozibdi-yu, muhimlari qolib ketibdi. Yangitdan yozmoqchi bo'lib, «Esingdami, Vova», deb boshladi. Boshladi-yu, yana yoza olmay, derazadan olmazor boqqa tikilganicha xayolidan o'tgan davr kecha boshladi.

...Bir kuni kosadagi sutni to'kib qo'yib, oyisidan qochib ko'chaga chiqqan edi. Ko'chalarda bekor aylanish joniga tegdi. Keyin nima gaplar bo'layotganini bilish uchun maktab hovlisiga kirgan edi, yangi ko'chib kelgan rus tili o'qituvchisining eshigi oldida loy qorib turgan malla sochli bolaga ko'zi tushib qoldi. Abduqodir yaqinroq borib begona bolaning harakatlarini kuzata boshladi. Lekin Vova unga o'girilib qaramadi ham. Bu Abduqodirga alam qildi. Engashib Vovaning chelagi bilan kurakchasini oldi-da, ura qochdi. Bir mahal orqasiga burilib qarasa, Vova uni quvlamabdi, hatto o'rnidan turmabdi ham, orqasiga qaytdi.

– Kerak bo'lsa olaver, – dedi to'satdan o'zbekchalar Vova, – menda ko'p.

O'sha kuni Abduqodir Vova bilan durustgina tanishib oldi. Ma'lum bo'lishicha, Vovaning oyisi rus tili o'qituvchisi, dadasi traktorchi, o'zi esa ikkinchi sinfni o'zbek maktabida bitirgan ekan. Yana shu narsa ham ma'lum bo'ldiki, Vovalar «Katta dovon» qishlog'idan ko'chib kelayotganlarida ularning yettita quyonlari o'sha yerda qolib ketibdi. Bu yerga ona quyonni keltirishibdi, xolos.

– Hozir unga uy quryapman, – dedi Vova. Agar oyisi kelib, sutni to'kkani uchun urishmasligini aytib, olib ketmaganda, Abduqodir kunbo'yi Vovaning yonida o'tirgan bo'lardi.



Hademay o'qishlar ham boshlanib ketdi. Ikkovlari bir sinfda o'qiy boshladilar. Endi ular birga dars tayyorlashar, birga o'ynashar, bo'sh vaqtlarida esa Vovaning quyonlariga o't keltirish uchun dalalarga chiqishar edi. Bir kun ikkovlari adir tomonda adashib ham qolishgan. Bu voqea 4-sinfda o'qiyotganlarida yuz bergan edi. Ular olma keltirish uchun kolxozning olmazoriga borishdi. Erta bahor, daraxtlar kurtak yoza boshlagan, hammayoqda o't-o'lanlar ko'karib, zilol suvli ariqlar bo'yida chuchmomalar ochilgan payt... Ishlari bitib, endigina orqaga qaytamiz deb turganlarida, Vovaning yonginasida bir quyon bolasi sakrab, o'ynoqlab qoldi:

– Quyon, – deya qichqirdi Vova va ortidan quvlay boshladi. Abduqodir ham yugurdi. Quyon bolasi o'ynoqlab, oyoqlarini osmonga otib yugurar edi. Qorong'i tushib, ko'z ko'rmay qolguncha quvlashdi, qancha adir, qancha maydonlar ortda qolib ketdi. Ammo quyon tutqich bermay, yo'qolib qoldi.

– Rasvo quyon ekan, – dedi Vova entikib.

– Esizgina, chiroyli edi-da! – dedi Abduqodir.

Shu payt ikkovlari ham yo'ldan adashganlarini, noma'lum joyga kelib qolganlarini sezib, qo'rqib ketishdi.

– Vova, seningcha bizning uy qaysi tomonda? – tashvishlanib so'radi Abduqodir.

– Menimcha janub tomonda bo'lsa kerak.

– Seningcha janub qaysi tomonda? – yana so'radi Abduqodir.

– Janubmi? – o'ylanib qoldi Vova. – Janub shimolning qarshi tomonida bo'ladi-da.

To'rt tomon adir. Faqat juda olislarda tog' yonbag'riga joylashgan qishloqlarning chiroqlari miltillab ko'rinardi. Dam olgani o'tirdilar.

– O‘sha daraxtlarni kishilar ekanmi yo o‘zi ko‘karib chiqqanmi? – qiziqib so‘radi Vova.

– Albatta kishilar ekan-da, – dedi Abduqodir beparvogina. Jim bo‘lib atrofga quloq sola boshladilar. Dimoqqa gupillab ko‘kat hidi urilardi. Chigirtkalarining chirillashi, to‘satdan osmonga ko‘tarilmoqchi bo‘lgan qushning patirlagani eshilib qoldi. Shu payt yaqinginada chiyabo‘rining chaqaloqning ingalashiga o‘xshash ovozi eshilib, ikkovlarini ham cho‘chitib yubordi...

– Vova, – dedi Abduqodir o‘zidagi qo‘rquvni bosish uchun ataylab qattiq tovush chiqarib, – sen katta bo‘lsang quyonchi bo‘lmoqchimisan?

– Albatta, – dedi Vova tovushini undan ham baland qilib.

– Men bobomga o‘xshab bog‘bon bo‘lsam kerak, bobom qarib qoldim, o‘rnimga seni qoldirmoqchiman, deydilar.

Shodmon bobo qishin-yozin belbog‘ining qatiga mazizmi, o‘rikmi yoki shaftoliqoqimi solib yurar, Vova bordi deguncha, o‘shandan bir qism uning shapkasiga solib berar edi. Shodmon bobo olmadan yuqori hosil yetishtirgani uchun orden ham olgan, lekin uni hech qachon taqmas edi.

– Bog‘bon bo‘lsang, yaxshi-da, – yana gap boshladi Abduqodir. Shu payt uzoqdan Vovaning dadasi, Stepan amakining: «Vova, qayoqdasan, zumrasha. Vova!» – degan tovushi eshilib suhbat bo‘lindi. Ikkovlari o‘sha tomonga qarab yugurib ketdilar.

Ertasiga 13 tup ko‘chat ekishdi. Oradan uch oy o‘tgach, negadir ko‘chatlarning uch tupi qurib qoldi-yu, qolganlari gurkirab o‘sa boshladi. Endi ular birgalashib, nihollarning ostini chopishar, suv quyishar, o‘g‘it solishar, hatto bir xil mahallarda ana shu

nihollar tufayli bahslashib ham qolishardi. Ikki-uch kun arazlashib yurishgach, yana yarashib olishardi.

Bir kun Abduqodir nihollarning bo'yini o'lchash bilan ovora edi, quyonlarini ko'tarib Vova kirib keldi.

– Bular endi senga qolsin, – dedi u yig'lamsirab.

– Nega hafasan? – shoshilib so'radi Abduqodir.

Vovaning gapiga qaraganda, Stepan amaki traktorning ham oldiga, ham orqasiga yuradiganinimi, ishqilib, allaqanday yangi turini topgan ekan. Shuning uchun uni traktor zavodiga ishga chaqirishibdi.

– Shunday qilib, ketib qolar ekansan-da, – dedi Abduqodir ma'yus bo'lib. – Men sen bilan umrbod do'st bo'lmoqchi edim.

– Ketmas edim-u... – Vova so'zlarini tugata olmay ko'zlarida yiltirab ko'ringan yosh tomchilarini arta boshladi. – Men seni hech qachon unutmayman!..

Vovalar ketgach, ikki do'st o'rtasida yozishma to'xtamadi...

Shu yil bahorda Vova: «Shodmon bobomni juda sog'indim, rasmini berib yuborsang, ko'chatlar gulladimi, yo'qmi, shuni ham yozgin», deb so'rabdi. O'sha nihollar qiyg'os gullab, asalarilarga ermak bo'lib qolgan edi. Abduqodir to'satdan sovg'a yuborib, do'stini hayron qoldirmoqchi edi-da, shuning uchun nihol haqida hech narsa yozmadi va oltin kuzning kelishini sabrsizlik bilan kuta boshladi. Kuz kelgach, har kuni ertalab:

– Bobo, endi uzsak bo'lar deyman? – deb so'rar, Shodmon bobo bo'lsa:

– Sabr qilsang, g'oradan halvo bitar, – deya uning yo'lini to'sib kelar edi. Nihoyat, bugun ertalab yetilib pishgan olmalarni uzib, bir qismini posilka qutisiga joyladilar.

...Abduqodir derazadan bog‘ tomonga tikilib, hozir ana shu voqealar to‘g‘risida o‘yladi va sekingina xo‘rsinib qo‘ydi.

Bir nafasdan so‘ng xat ham tayyor bo‘lgan edi. Abduqodir velosipedining orqasiga posilkani mahkam bog‘ladi-da, qishloq sovetining binosi yoniga joylashgan pochta tomon yo‘l oldi.

## YAXSHI-YAXSHI

Birinchi sinf o‘quvchisi Davronjon hovlida qamish chiqindilari-yu, qog‘oz parchalariga ko‘milib, qo‘liyu yuzlariga xamir surtib, varrak yasab o‘tirgan edi, ko‘cha eshikni biron taqillatib qoldi.

– Kiravering, – deb qo‘ydi Davronjon o‘rnidan turgisi kelmay.

– Buyoqqa chiq, – degan ovoz keldi eshik orqasidan.

– Varragim bitgani yo‘q, – dedi Davronjon yana.

– Senga xat bor.

– Xat?! – Davronjon sakrab o‘rnidan turib, ko‘chaga yugurdi, pochta amaki kelgan ekan, – kimdan kelibdi?

– Bolgariyadan.

– Mancho amakidan! Oyi, oyijon, suyunchi bering!

– deb sakrab-sakrab orqasiga qaytdi Davron...

Ha, mayli, hozircha Davronjon sakrab-sakrab oyisini axtarib turaversin; men fursatdan foydalanib, bu xatning tarixini sizga jindakkina tushuntirib beray.

Bundan ikki yilcha oldin hozir xatni ko‘ksiga bosib, hovlini gir-gir aylanib yurgan mana bu Davronjonlarning qishlog‘iga to‘ppa-to‘g‘ri Bolgariyaning o‘zidan yigirma chog‘li yigit paxta terish mashinasini o‘rganishga kelishgan. Davronjonning dadasi ham katta mexanizatorlardan emasmi, Mancho Jekov degan ba-

land bo'yli, sochlari jingalak bir yigitni unga shogird qilib berishdi. Mancho Jekov loydan bulbulga o'xshab sayrab beradigan qo'g'irchoq yasashga, olcha yeb danagi bilan devordagi pashshani mo'ljallab urishga juda usta ekan. Mana shu tomoni Davronjonga juda-juda ham ma'qul tushib qoldi. Mancho amaki uylariga tez-tez mehmon bo'lib kelar, hatto ikki marta-ba yotib qolgan ham edi. Ba'zan Davronjon bilan hech erinmasdan, uzundan-uzoq suhbat qurar edi.

– Bu– Mancho, bu – kim? – deb so'rardi Mancho amaki.

– Bu – Davron, – deb qo'yar edi Davronjon.

– Bu? – deb so'rashda davom etadi Mancho amaki.

– Sigir, – tushuntirishda davom etadi Davronjon ham.

– Bu?

– Qo'y.

– Bu?

– Qatiq.

– Bu?

– Olcha.

– Bu?

– Oyim.

– Bu?

– Dada.

Mana shunaqangi shirin suhbatdan keyin Davronjon o'zida yo'q sevinib, yugurib kirib uydan hovuchini to'ldirib olchanning qurug'idan olib chiqadi, Mancho amaki bo'lsa olcha yeb, danagi bilan pashshalarni qirishga tushadi.

Xullas, mana shunaqa qilib ikkovlari juda qalin o'rtoq bo'lib olishgan edi-da. O'shandan buyon Mancho amakidan tez-tez xat kelib turadi. Davronjonning dadasiga ruschalab, uzundan-uzoq qilib yozadi, Dav-

ronjonga bo'lsa o'zbekchalab, qisqagina qilib yozadi. Mana bugungi xat bo'lsa, to'ppa-to'g'ri Davronjonning nomiga kelibdi, qanday yaxshi, qanday yaxshi-ya! U xatni bag'riga bosib, hamon hovlida irg'ishlab yuribdi. O'zi odam hovliqqanda shunaqa bo'ladi shekilli, bo'l-masa, oyijoni shundoqqina yonida sigir sog'ib o'tiribdi-yu, ko'rmay, chorvoqqacha chiqib keldi-ya.

– Oyi! – baqirib yubordi nihoyat Davronjon quvonchini ichiga sig'dira olmay.

– Voy, oyiginang o'rgilsin, men shu yerdaman-ku, – dedi oyisi, – tinchlikmi, buncha hovliqmasang!

– Xat kelibdi, oyijon!

– Kimdan?

– Mancho amakidan!

– Yaxshi, lekin o'zingni sal bosib ol, o'g'lim.

– Yo'q, oyijon, bosolmayman... Xat mening o'zimga, o'zimga kelibdi. Mana, Davron Qodirovga, eshitdinizmi?

– Qani, o'qi-chi?

Nihoyat Davronjon oyisining maslahatiga amal qildimi yoki o'zi shundoq bo'ldimi, har qalay o'zini bosib oldi. Yurishdan to'xtab, katta-katta harflar bilan o'zbekcha so'zlarni o'qiy boshladi.

«Davron – Salom, oyi – Salom», deb yozibdi Mancho amaki.

– Tushundingizmi, oyi? – dedi Davronjon o'zi tushunayotgani uchun behad xursand bo'lib.

– Tushundim, o'g'lim, qani uyog'ini ham o'qi-chi.

«XASKOVO – YAXSHI, – deb yozibdi Mancho amaki xatning davomida, – BAHOR – YAXSHI, YER – YAXSHI, TRAKTOR – YAXSHI, CHIGIT – YAXSHI, MANCHO – YAXSHI, DO'STIK – YAXSHI...»

– Tushundingizmi, oyi? – deb so'radi Davronjon xat tugashi bilan yana.

– Tushundim, hammasiga tushundim, – dedi oyisi ham sigirni sog‘ib bo‘lib o‘rnidan turar ekan, – endi sen ham javob yozgin...

O‘sha kuni kechasi Davronboy deganlari uxlama-di hisob. Xatni naq o‘n ikki martaba ko‘chirib yozdi desam ishonavering. Nihoyat ertalabga yaqin, yo-zuv darsida muallimlar doskaga yozib beradi-ku, ana o‘shanga o‘xshash juda chiroyli xat tayyor bo‘ldi. Unda taxminan mana bunday so‘zlar bor edi:

«DAVRON – YAXSHI, O‘QISH – YAXSHI, BAHOR – YAXSHI, MAN – YAXSHI, OYI – YAXSHI, DADA – YAXSHI, TRAKTOR – YAXSHI, QISHLOQ – YAXSHI, O‘RTOQ – YAXSHI...»

Ushbu xat ertasiga ertalab ustiga ko‘k kaptarning surati chizilgan konvertga solinib, pochta qutisiga tashlab yuborildi.

Kim biladi deysiz, shu paytda, ya‘ni siz ushbu hiko-yachani o‘qib turgan paytingizda uzoq Bolgariya eli-da Mancho Jekov ham farg‘onalik kichkina do‘stidan borgan xatni o‘qib, oftobchuvoqda olcha yeb, danagi bilan pashshalarga qiron keltirgan paytlarini eslab:

– Yaxshi-yaxshi! – deb qo‘yayotgandir.

## SHOSHQALOQ

Shavkat loydan yasalgan uychasiga mushugi-ni kirgizishga rosa urindi. Mushukcha bo‘lsa: «Men sig‘mayman uychangga», degandek kirgisi kelmay, oyoq tirab turib oldi. Bir ozdan keyin u Shavkatning qo‘lidan qochdi. Oyoqlarini cho‘zib bir kerishdi-da, to‘g‘ri borib eshik tagidagi tuynukdan Komila xola-ning hovlisi tomon kirib yo‘qoldi. O‘sha teshikdan Shavkat ham kirdi.

– Ha, Shavkatvoy? – so‘radi hovli supurayotgan Komila xola.

Shavkat shoshib qoldi:

– Menmi... men... o‘zim shunday.

– Nega tiling tutiladi? Tag‘in kecha mening oshqovoqlarimni yumalatib ketgan sen bo‘lmagin...

– Yo‘q, men emas...

– Nega bo‘lmasa eshikdan kirmaysan? Taqillatganingda ochardim-ku!

– Men... – Shavkat nima deyishini bilmay turganida, birdan ko‘zi o‘choqboshidagi to‘nkaga tushdi, – men sizga o‘tin yorib bergani chiqdim, – dedi jiddiy.

– A? Qani bo‘lmasa yorib bera qolgin. O‘tinim ham tugay devdi, – Komila xola miyig‘ida kulib gapirdi. Shavkat Komila xolaning bunday deyishini kutmagan edi. Gapirishga gapirgandan keyin ishni ham qilish kerak-da. Mayli, nima bo‘lsa bo‘lar. Shavkat boyagi joyga bordi. To‘nkaning yonginasida katta bolta yotibdi. O‘zi ham yomg‘irda qolgan ekanmi, zanglab ketgan ekan. Shavkat boltani ko‘taraman deb urinib, terlab ketdi. Biroq u to‘nka tagida qolganidan hech qimirlatib bo‘lmas edi.

Bu orada Shavkat nima qilmoqchi bo‘lganini ham unutdi. U yon-beriga qaradi-da, to‘nkaning ustiga o‘tirib oldi. Maza ekan! So‘ng oyoqlarini o‘ynatib ashula ayta boshladi:

– Nay, nay, na-nay...

– Ha, yorib bo‘ldingmi? – deb so‘radi Komila xola.

Shavkat nima deyishini bilolmay qoldi. Aytmoqchi, u o‘tin yorib bermoqchi edi-ya. Nega ham va‘da qildi-a? U sir boy bermaslikka harakat qilib:

– O‘tinni-chi, keyin yorib beraman, – dedi. Biroq negadir o‘zi qizarib ketdi.

Ertasiga nima bo‘ldi-yu, Shavkatning mushugi yana kechagi teshikdan Komila xolaning hovlisiga



kirib ketdi-da, Shavkat ham uni tutaman, deb o'sha yoqqa chiqdi.

– Ha, Shavkat, tag'in nimaga kelding? – so'radi xolasi. Shavkat kecha rosa ta'zirini yegani esiga tushdi.

– Mushugimni ushlagani kirdim, – dedi rostiga ko'chib.

– Shunday degin, juda yaxshi... Qani buyoqqa kel-chi. Ana endi katta yigit bo'libsan, mana shunaqa to'g'ri gapirishga odatlan. Ol, mana buni yegin! – deb Komila xola unga yog'li qurt berdi.

Shu-shu bo'ldi-yu, Shavkat sira yolg'on gapirmaydigan bo'ldi.

## TORTINCHOQ

Katta Tagob qishlog'ida Mahmudjon ismli uyatchan bola yashardi. Bir kuni u o'zining uzoqda yashovchi ammasining uyiga mehmon bo'lib bordi. Jiyanini sog'inib qolgan Gavhar xola sevinib, uni mehmon qilish taraddudiga tushdi.

Kechqurun dasturxonni turli noz-u ne'matlarga to'ldirib:

– Qani, o'g'lim, uzumdan, nonlardan yegin, – taklif qildi ammasi, – tortinma!

– Anordan yeng! – deb qistashar edi Gavhar xolaning o'g'il-qizlari.

Mahmudjon esa uyalganidan qizarib o'tirar, hadeb dasturxonning popugini o'ynar edi.

– Qorin to'q, – dedi u, tili so'zga arang kelib.

– Axir yo'lda qorning ochgandir?

– Yo'lda ovqatlanib olgan edim. – Shunday der ekan Mahmudjon, «qani endi ana o'sha anorlardan bittasini yeb olsam», deya orzu qilar edi.

O'ringa och yotgani uchun Mahmudjonning uyqu-si kelmadi. Yangi yopilgan nonning hidi dimog'iga

gup-gup urilib, ishtahasini qitiqlar edi. Mahmudjon oʻrnidan asta turib, nondan bittasini olmoqchi boʻlgan edi, nimadir tokchadan tushib ketdi va Gavhar xolani uygʻotib yubordi.

– Pisht-pisht! – dedi Gavhar xola boshidagi kichik yostiqlik otib.

Mahmudjon oʻzini ochiq derazaga urdi. Gavhar xola oʻrnidan turib, eshik bilan derazani mahkamroq berkitib qoʻydi.

– Mushuk desam tulkiga oʻxshaydi!..

Mahmudjon ertalabgacha sovqotib tashqarida qoldi.

### QUVGʻINDAGI HAYVONLAR

Qadim-qadim zamonlardami, oʻzimiz yashab turgan shu kunlardami, baland-baland togʻlar ortidami, qalin-qalin oʻrmonlar ichidami, olis-olis qishloqlardami qiziq bir voqea boʻlib oʻtgan ekan.

Katta koʻchada oriqligidan 12 ta qovurgʻasi shundoqqina koʻrinib turgan, quvvati yoʻqligidan dumini silkitib pashshasini qoʻrishga ham holi kelmaydigan, ogʻir boshini solintirgancha, darmonsiz oyoqlarini sudrab bosib, bir hoʻkiz borar ekan. U «E shafqatsiz boy. Meni oʻttiz yil ishlatding, qoʻsh haydadim, arava tortdim, bugʻdoy yanchdim. Endi qariganimda soʻyay desam goʻshing yoʻq, oʻt yeyishga tishing yoʻq, aravaga hushing yoʻq, deb koʻchaga haydading-a, qashqirlarga yem qilmoqchi boʻlding-a», deb hasrat qilib borayotgan ekan. Hoʻ narida, pastlik joyda bir qari ot toʻrt oyogʻini barobar uzatib, boshini maysa ustiga qoʻy-gancha choʻzilib yotgan emish.

– Ha, Otvoy, nega yotibsan? – deb koʻngil soʻrabdi Hoʻkizvoy.

– E, Ho‘kizvoy, aslo so‘rama, – deb hasrat qilibdi Otvoy, – bir boyning uyida o‘ttiz yil xizmat qildim, uloq chopdim, arava tortdim, bolalariga ermag-u o‘yinchoq bo‘ldim. Mana endi qarib, o‘rnimdan turolmay qolganimda «So‘yay desam go‘shiting yo‘q, yem yeyishga ti-shing yo‘q, yuk tashishga hushing yo‘q», deb ko‘chaga haydab, meni bo‘rilarga yem qilmoqchi bo‘ldi.

– Xafa bo‘lma, ikkovimiz bir bo‘lsak bo‘rilarga yem bo‘lmaymiz. Yur, yaylovlarga boramiz, o‘rmonlarga boramiz, barra o‘tlardan yeb, zilol suvlardan ichib maza qilib yashaymiz, – debdi Ho‘kizvoy.

Ot bir amallab o‘rnidan turibdi.

Yo‘lga tushibdilar.

Oldinda Ho‘kizvoy, orqada Otvoy borayotganmish.

To‘satdan quloqlariga bemor eshakning «Ia-ia» deb ojizgina hangragani eshilib qolibdi. To‘xtab bunday qarashsa, o‘sgan o‘t-o‘lanlar orasida bir eshak behol yotgan emish.

– Ha, Eshakvoy, nega yig‘layapsan? – deb ko‘ngil so‘rabdi Ho‘kizvoy.

– Qornimga emas, qadrimga yig‘layapman, – deb yig‘labdi Eshakvoy. – Bir boyning uyida rosa o‘ttiz yil xizmat qildim, tegirmonga yuk tashidim, yelkamda xurjun, bozorlarga yuk tashidim, nabiralalar galma-gal minib yelkamni yag‘ir qilishdi. Oxiri qarib qolganimda ko‘chaga haydashdi.

– Yig‘lama, – debdi Ho‘kizvoy, – dashtlarga, o‘rmonlarga ketamiz. O‘sha yoqlarda sen ajriqlardan yeb, biz barra o‘tlardan yeb, maza qilib yashaymiz.

Ho‘kiz eshakning qulog‘idan, ot dumidan tortib bir amallab turg‘azishibdi. Yo‘lga tushibdilar.

Oldinda Ho‘kizvoy, ortida Otvoy, uning ortida Eshakvoy borayotganmish.

To'satdan quloqlariga «vov-vov, vov-vov» degan och qolgan itning ovoziga o'xshash bir ovoz eshitilib qopti. Bunday qarashsa, ho' naridagi katta toshning orqasida qari bir it yotgan emish. Junlari to'kilgan, quloqlarini yara bosgan, o'zi ham o'lay-o'lay deb turgan emish.

– Ha, Itvoy, nima bo'ldi? – deb so'rabdi Ho'kizvoy.

– Men o'layapman, – debdi Itvoy.

– Nima bo'layotganini bizga aytgin, – debdi Ho'kizvoy.

– Bir boyning uyida rosa o'ttiz yil xizmat qildim, – deb gap boshlabdi Itvoy. – Qo'rg'oniga bo'rilar-ni yo'latmadim, ovga chiqsa, quyon ushlab berdim, urishtirishga olib chiqsa, manaman degan arslonlarni tagimga bosdim. Mana endi qarib qoldim, tishim suyakka o'tmaydi, ko'zim xira, sharpalarni sezmayman, qorovullikka yaramayman. Xo'jayinim «bor, noningni topib ye, tekinxo'rni yomon ko'raman», deb kaltak bilan urib haydadi. Iltimos, o'lsam ustingga tuproq tortib qo'yinglar.

Bu gaplarni eshitib Ho'kizvoy, Otvoy bilan Eshakvoylarning bag'ri ezilibdi, achinib yig'lamoqdan beri bo'lishibdi. «Biz bilan ketasan. O'rmonlarga borib har xil parrandalardan tutib yeb, maza qilib yashaysan», deya ko'tarib Eshakvoyning yelkasiga mindirmoqchi bo'lishgan ekan, Itvoy ko'nmay, «yo'q, hali unchamuncha kuchim bor, o'zim yuraman», debdi.

Yo'lga tushibdilar.

Oldinda Ho'kizvoy, ketidan Otvoy, ketidan Eshakvoy, ketidan Itvoy borayotganmish.

Bir mahal orqalariga bunday qarashsa bir baroq mushuk oqsoqlangan cha halloslab kelayotgan emish. Mana shu mushuk Itvoy bilan rosa o'ttiz yil urishib,

talashib yashagan ekan. Shunday bo'lsa ham Itvoy uni ko'rishi bilan sevinib ketibdi.

– Meni ham haydashdi, – debdi Mushukvoy yig'lab, – sichqon tutolmasang, kalamushdan qo'rqsang, kun bo'yi pishillab uxlayversang, tur yo'qol», deb haydashdi.

Mushukvoyning ham ko'nglini ko'tarib, saflariga qo'shib olishibdi.

Oldinda Ho'kizvoy, ketida Otvoy, keyin Eshakvoy, undan keyin Itvoy, eng orqada oqsoqlanib Mushukvoy borayotganmish.

Ko'p yuribdilar, jazirama cho'llardan, sero't yaylovlardan o'tibdilar, suvi chuchuk ko'llar yonida haftalab dam olibdilar. Etlariga et, kuchlariga kuch qo'shilib, xuddi boquvda yotgandek semirib ketibdilar.

Shunaqangi ahil, bir-birlariga shunaqangi mehribon bo'lib qolibdilar, it bilan mushuk uxlaganda ot uzun dumini bilan ularning pashshasini qo'rib turarkan. Eshak kasal bo'lsa, ot dorivor giyohlardan chaynab berarkan, ho'kiz xuddi mehribon otadek barchasining boshini silarkan.

Cho'ponlar tashlab ketgan bir kulbani o'zlariga makon qilib olishibdi.

Bir kuni to'satdan, ha, ha, to'satdan dovul turib, sharillatib yomg'ir yog'a boshlabdi. Bu kulbani oldinroq bir bo'ri, bir tulki, ikki shoqol in qilib olishgan ekan, yomg'irdan qochib o'zlarini shu inga urishibdi. Xayriyat, oqsoq mushuk qorovulda turgan ekan, miyovlab hamxonalarini uyg'otibdi.

Dahshatli olishuv boshlanib ketibdi. It tulki bilan olishayotgan emish, ot orqa oyoqlari bilan chiyabo'rilarni tepayotganmish.

Hammadan ham ho'kizga og'ir bo'пти, kirgan zahotiyoq och bo'rini devorga qisib olgan ekan. Bo'ri «qi-

suvdan tezroq qutulib, ho'kizni yiqitsam, go'shti och qolgan bolalarimga bir hafta ovqat bo'lardi», deb in-tilarkan. Ho'kiz, «men uni siquvdan chiqarsam, mening himoyamda bo'lgan hayvonlarning hammasini bo'g'izlab o'ldiradi. Ularni men boshlab kelganman, men himoya qilishim kerak», deb bo'rini devorga bat-tarroq qisarmish.

Olishuv naq ertalabgacha davom etibdi. Ho'kizvoy, Otvoy, Eshakvoy, Itvoy, Mushukvoylar ahil, inoq-liklari uchun yovuzlar ustidan g'alaba qozonishibdi. Sero't yaylovlar bag'rida bir umr rohat-farog'atda yashashibdi.

### OSMONDAN MUZQAYMOQ YOQQAN KUN

Qadim-qadim zamondami, o'zimiz yashab turgan yorug' kunlardami, baland-baland qorli tog'lar ortida-mi, qalin-qalin o'rmonlar ichidami, sero't yaylovlarda-mi, dasht-u biyobonlardami, olis-olis qishloqlardami, ko'z ko'rmagan, quloq eshitmagan qiziq-qiziq voqealar bo'lib turarkan.

Ana shunday voqealardan biri yaqinda Yangi Ta-gob qishlog'ida bo'libdi. Bo'lganda ham juda qiziq bo'libdi. Hafizaxon degan qiz yoniga ukasini olib, piyoz o'tayotgan ekan. Fermer onalari ham sigirini sog'ish, ham tushlikka ovqat tayyorlash uchun uylariga ket-gan ekan, kun juda-juda issiq ekan. Shunaqangi issiq ekanki, Hafizaxon o'zini xuddi qizdirilgan tandirning ichida o'tirgandek his qilayotgan ekan. Peshonasi-dan, yuzlaridan ter sharillab quyilayotgan ekan. Pi-yoz o'tayotgan fermerlar o'zlarini salqinga urishibdi. Hafizaxon juda rahmdil qiz ekan, yonginasida piyoz o'tayotgan ukasiga achinib, uniyam salqinga chiqarib yuboribdi. O'zim qatorimni chiqarib, keyin dam ola-

man, debdi. Piyoz siyrak chiqib, qalin o‘t bosgan ekan. O‘tlarni olib tashlamasa, piyoz tub ololmas ekan, piyoz tub ololmasa mayda bo‘p qolarkan, mayda piyoz bozorda yaxshi pul bo‘lmas ekan, yaxshi pul bo‘lmasa, ro‘zg‘orlari barakasiz bo‘p qolarkan.

Oyijonisi, «ona qizim, ukalaring hali yosh, sendan boshqa yordamchim yo‘q, yaxshi mehnat qilsak, piyozimiz yaxshi pul bo‘lsa, seni shaharga olib borib, «Shakar septi» gulli ko‘ylak olib beraman, salqin xiyobonlarda ukalaring bilan o‘tirib, to‘ygunimizcha har xil muzqaymoqlardan yeymiz», der ekan.

Kun issiq ekan, haddan tashqari issiq ekan. Badani qizigan sari Hafizaxon «Oyijonim kelguncha, shu qatorni albatta egat boshiga chiqaraman», deb o‘ylab yana ham qattiqroq ishlarkan. Xayolidan nuqul xiyobonda o‘tirib muzqaymoq yeydigan kunlari nari ketmashmish, yeya boshlarmish, yegan sari badani muzlab, butun borlig‘iga rohat kelarmish, voy narigi paykalda piyoz o‘tayotgan o‘rtoqlarimga ham bersam bo‘larkan, deb o‘ylarmish. Bir mahal samodan oppoq tuman paydo bo‘lgandek bo‘libdi. Kengayib, quyuqlashib Hafizaxon tomonga bostirib kela boshlabdi. Tuman ham muzdekkina emish, jon rohat qilarmish. Tuman orasidan novcha bir kampir chiqib kelayotganmish. Kiyim-boshlari ham, sochlari ham oppoq. Xuddi nurdan yaralgandek...

– Horma, qizim! – debdi kampir.

Hafizaxon javob qaytara olmabdi, dovdirab qolibdi.

– Qo‘rqma, qizim, – debdi kampir.

Hafizaxon qo‘rqmas qizlardan ekan, asta-sekin o‘zini o‘nglab ola boshlabdi. Qiziq, kampir bir qarasa, o‘zining olamdan o‘tgan buvijoniga o‘xshab ketarmish, yana bir qarasa, qo‘shnilari Niyoz ammaga juda-juda

o'xshab ketarmish. Kampir yaqin kelib Hafizaxonning qizib turgan boshidan, ter quyilib kelayotgan peshonasidan yumshoq-yumshoq silay boshlabdi:

– Shirin qizim, shakar qizim, muzqaymoq yeging kelyaptimi? – deb so'rabdi.

Yo tavba, ovozi ham olamdan o'tgan buvijonining ovozigaga juda-juda o'xshab ketarmish.

– Ha, yegim kelayapti, – deb javob qaytaribdi Hafizaxon.

– Rost gapirganing uchun sendan xursand bo'ldim, – debdi nuroniy xola.

– Chindan ham yegim kelayotuvdi-da, – debdi Hafizaxon.

– Bir chelak muzqaymoq bersam, hammasini yeb olarmiding? – yana so'rabdi nuroniy xola.

– Yarmini ukalarimga, yarmini u narigi paykalda piyoz o'tayotgan o'rtoqlarimga berardim, – debdi Hafizaxon.

– O'rtoqlaring ko'pmi?

– Juda ko'p.

– Ikki chelak muzqaymoq bersam-chi?

– Qishlog'imizdagi hamma qizlarga ulashardim.

– Qizginam. O'zing saxiy, niyating yaxshi, maqsadning ulug' ekan. Yaxshi niyatlarni Alloh qo'llab-quvvatlaydi. Sen ham niyatingga yetasan.

Hafizaxon endi o'zini butunlay tutib olibdi. Nuroniy xola nimani o'rgatsa, o'shani takrorlay beribdi. Nuroniy xola goh o'ng qo'li bilan, goh chap qo'li bilan g'alati-g'alati ishoralar qilarmish. Osmondan ketma-ket sirli aravacha tushib kela boshlabdi. Aravachaga sirli qutichalar yuklanganmish.

Nuroniy xola yana qo'llari bilan sirli harakatlar qila boshlabdi. «Bu harakatlarni sen ham takrorla», debdi Hafizaxonga. Hafizaxon takrorlabdi.



– Harakatlarni yodingda olib qoldingmi? – deb soʻrabdi nuroniy xola.

– Yodimda olib qoldim, – debdi Hafizaxon.

– Hushyor qiz ekansan, – deb maqtabdi nuroniy xola.

– Xolajon, siz sehgarmisiz? – deb qoʻrqa-pisa soʻrabdi Hafizaxon.

– Men yaxshi qizlarning orzusiman! – debdi nuroniy xola. – Qani men oʻrgatgan harakatlarni takrorla-chi.

Hafizaxon nuroniy xola oʻrgatgan harakatlarni takrorlabdi. Avval osmondan uch gʻildirakli aravacha tushibdi. Aravacha ichidan ikki quti muzqaymoq chiqibdi. Toʻsatdan nuroniy xola gʻoyib boʻlib qolibdi. Hafizaxon qutichalardagi muzqaymoqlardan birini yeb koʻrgan ekan, yo tavba, rasmana muzqaymoqdan hech qolishmasmish. Demak, tush koʻrayotganim yoʻq ekan, hammasi oʻngimda boʻlayotgan ekan-da, deb oʻylabdi Hafizaxon. Muzqaymoqdan yana bitta yeb koʻribdi, voy, bunisi oldingisidan ham mazali-roq emish. Aravachani uchirib, daraxtlar ostida uxlab yotgan ukalarining oldiga olib boribdi. Bir chelak muzqaymoq chiqarib, ukalariga bittadan ulashibdi. Ular muzqaymoqni yeb boʻlishib, «yana, yana» deb soʻrarmish. Hafizaxon, demak, tushim emas, oʻngim ekan, deb oʻzida yoʻq sevinib, gʻildirakli aravachasini uchirib, narigi paykallarda sabzi, piyoz oʻtayotgan oʻrtoqlarining oldiga joʻnabdi. Oʻrtoqlari isib ketgani uchun ishni toʻxtatib, katta tollarning soyasida salqinlashib, bir-birining qoshiga oʻsmalar qoʻyishib, bir-birining biqinidan chimchilashib, qiqirlashib, kulishib dam olishayotgan ekan, Hafizaxonga koʻzlari tushishi bilan:

– Voy, oʻrtoqjon, qayoqdan paydo boʻlding? – deb chuvillashibdi.

– Osmondan tushdim, – debdi Hafizaxon. – Sizlarga muzqaymoq olib keldim.

Qizlar:

– Hammasi bizlargami? – deyishibdi-yu, o’sma siqib o’tirgan piyolalarini har tomonga otishib, chelakdagi muzqaymoqlarga yopishishibdi. Chelak ham sehrli ekanmi, yeyisharmish, tagi ko’rinmasmish, yeyisharmish, tagi hech tugasmish. Tinmay saxiy, saxovatli dugonalarini maqtasharmish. Hatto bittasi: «Hafizaxon, xudo xohlasa, to’yingda tong otguncha childirma chalib, hammani o’ynataman», deb muzqaymoq yuqi lablari bilan betlaridan cho’lpillatib o’pib-o’pib olibdi.

O’sha kuni Hafizaxon qishloqning dasht qismidagi barcha bolalar, qizlarni muzqaymoqqa rosa to’ydiribdi. O’sha kundan boshlab uch g’ildirakli sehrli arava-cha, osmondan tinmay yog’ilib turgan muzqaymoqlar haqidagi ovozarlar, mish-mishlar qishloqdan qishloqqa o’tib, ko’cha beribdi. Har xil taxminlar ham ko’paya beribdi, nima deysan, Hafizaxonning onasi osmonda yashirincha muzqaymoq sexi ochibdi, nima deysan, osmondagi farishtalar Hafizaxonning uyiga chelak-chelak muzqaymoq tashlab ketayotganmish, nima deysan, uchar likopcha odamlari kelib, qishloq bolalarini o’zlariga o’rgatib olish uchun sehrli muzqaymoqlar ulashayotganmish. Xullas, mana shunaqa gaplar ko’paygandan ko’payaveribdi. Tuman ichki ishlar bo’limida g’oyat hushyor, g’oyat ziyrak, g’oyat tadbirkor amakilar ishlar ekan. Ular tezlik bilan ishga kirishib, muzqaymoqlardan namunalar olib, tahlil qildirsa boshlashibdi. Hech kamchilik topisholmabdi. Shahardagi sexlarda tayyorlanadigan muzqaymoqlarga qaraganda qaymog’i ham, shakari ham mo’lroq

emish. Hatto boshliq o'sha muzqaymoqlardan bittasini yeb ham ko'ribdi. Yo'q, kamchilik topolmabdi. Lekin Hafizaxonni so'roq qilib ko'ribdi:

– Sexim yo'q, – deb javob qaytaribdi Hafizaxon.

– Muzqaymoqlarni qayerda tayyorlaysan? – so'rabdi amaki.

– Osmonda tayyorlanadi, – debdi Hafizaxon.

– Yolg'on gapirma, osmonda bulutdan boshqa hech narsa bo'lmaydi.

– Bor, – debdi Hafizaxon. – O'sha yerda menga o'xshagan qizlarning yaxshi niyatlari, pokiza orzulari bo'ladi.

Shu gaplarni aytib, Hafizaxon qo'llari bilan nuroniy xola o'rgatgan g'alati-g'alati harakatlarni takrorlagan ekan, osmondan shokoladli, mevali, sutli muzqaymoqlar shunaqangi yog'ilibdiki, kuzatib turgan odamlar hang-mang bo'lib qolishibdi. Militsioner amaki insofli, adolatli ekan. Hafizaxonning harakatida jinoyat belgisi yo'q, yaxshisi bu ishni «Koinot» ilmiy tekshirish instituti o'rgansin, degan qarorga kelibdi. Hafizaxon hadya qilgan bir chelak muzqaymoqni olib, «ha, mayli, nabiralaringga berarman», deb iliqqina xayrlashib ketibdi.

Odamlarning aytishicha, osmondan muzqaymoq yog'ilishi haligacha to'xtamagan emish. Muzqaymoq qancha ko'p yog'ilsa, dashtda ishlayotgan o'g'il-qizlar shunchalik xursand bo'larmish.

## ONA ALLASI

### *Ona haqida rivoyatlar*

Qadim-qadim zamonlarda baland-baland qorli tog'lar ortidami, yashil yaproqlari hamisha shovullab turadigan qalin-qalin o'rmonlar ichidami, yam-yashil o'tlar bilan qoplangan yaylovlardami, poyonsiz cho'llar ortidagi katta-kichik qishloqlardami hamisha g'alati-g'alati voqealar bo'lib turarkan.

Yurtda boshlangan ocharchilik ana shu qishloqlardan biriga ham yetib kelibdi. Shunaqangi qattiq ocharchilik bo'libdiki, odamlar yeyarga hech narsa topolmaganidan ajriqning tomirini qaynatib ichishibdi, sholining to'ponidan non yopib yeyishibdi. Tinkasi qurigan odamlar birin-ketin omonatini topshira boshlabdi. Xudoning marhamati bilan qishloqqa don bilan savdo qiladigan bir allof kelib qolibdi. Puli bor puliga, puli yo'q moliga don sotib ola boshlabdi. Bu qishloqda bir xarob oila ham bor ekan, otasi olamdan o'tib, nogiron ona besh bolasi bilan qolgan ekan. Ona behol ekan, o'rnidan turolmas ekan. Besh bolasi birdan «non ber», deb yig'lar ekan. Oilaning katta qizi endigina 16 yoshga kirgan ekan, ukalariga o'sha qarab turarkan. Qizgina bir mis choynag-u to'rttagina chinni kosani olib borib, bir qopgina bo'lsa ham yo bug'doy, yo unga almashtirib bering, deya savdogarga murojaat qilibdi. Murojaat qilayotganda epkin bir shamol qizning yuzidagi harir ro'molni uchirib yerga tushiribdi. Savdogar yigit qizning gul yuziga ko'zi tushishi bilan bir daqiqa dovdirab qolibdi. Yana bir shamol turishini Allohdan so'rabdi. Epkin shamol qizning harir ro'molini yana uchiribdi, endi yigitning qalbi yonib ketgandek bo'libdi. Allohning menga buyurgani shu bo'lsa kerak, deb qizga sovchi ustiga sovchi qo'yibdi.

– Dod, – debdi onasi, – axir menga ham, ukalariga ham qarab turgan shu qizgina-ku. Bu ketsa biz xarob bo‘lamiz, – debdi.

Savdogar «Oilangizga besh yilga yetadigan don-dun beraman», debdi. Qiz ham ukalari va onasini ochlikdan qutqarish uchun begona eldan kelgan savdogarga erga berishini so‘rab onasiga yolvoribdi va ko‘ndiribdi. Ona rozi bo‘libdi. «Lekin bir shartim bor», debdi. «Shartingizni ayting», debdi qiz ham yig‘lab.

– Begona ellarga ketyapsan, olis ellarga ketyapsan, qaytishingni xudo biladi. Baxtli bo‘l, saodatli bo‘l. Xudo xohlasa, farzandlar ham ko‘rasan. Agar farzand ko‘rsang, alla aytmagin. Qani, menga alla aytmayman, deb va‘da bergin-chi.

– Alla aytmayman, onajon, – debdi qiz.

– Yana takrorla, – debdi ona.

Qiz «alla aytmayman», – deb uch bora takrorlabdi.

Shunday qilib, qiz begona ellarga kelin bo‘lib ketibdi. Majruh ona savdogar yigit qoldirib ketgan don-dun-u, boshqa boyliklar bilan o‘zi ham oyoqqa turibdi, farzandlarini ham boqib katta qilib olibdi. Begona ellarga kelin bo‘lib ketgan qizgina ham o‘sha yigitning tilini, urf-u odatini o‘rganib, totuv turmush kechira boshlabdi. Alloh ularga ham qo‘sha-qo‘sha farzandlar beribdi. Qiz onaizorining iltimosini yodidan chiqarmabdi, hech biriga alla aytmaabdi, alla aytmay katta qilibdi.

Nihoyat yillar o‘tib, qarib, buvi ham bo‘libdi. Qo‘sha-qo‘sha nabiralar ko‘ribdi. Bir kuni yaxshi ko‘rgan nabirasini tizzasiga olib, to‘lg‘anib, chayqalib alla ayta boshlabdi. Onaizorining so‘nggi so‘zini butunlay unutib, onasi aytgan alla so‘zlarini yodida saqlab qolgan ekan, ana o‘shalarni takrorlab, og‘ir, g‘am-

gin ohangda kuylay boshlabdi. Kuylar emish, yig'lar emish. Kuy ohangi qalbidagi sog'inch hislarini to'qlinlantirib yuboribdi. Majruh onasi, orqasidan yig'lab qolgan ukalari ko'z o'ngidan o'ta boshlabdi. Kuy avjiga chiqqan sari birga o'ynab katta bo'lgan dugonalari, anhorlarda bir-birlariga suv sochib cho'milganlari, hovlilari ortidagi keng yaylovda gurkirab o'sadigan o't-o'lanlar, qishlog'idagi tor ko'chalari, soya-salqin maydonlar, to'ylarga borgani, rahmatli dadasi tirikligida yelkasiga minib bozorga borgani, dadajonisi popukli zar do'ppi olib bergani esiga tushibdi. G'amgin kuy avjiga chiqqan sari buvining bolaligi, butun qishlog'i bor go'zalligi, latofati bilan ko'z o'ngidan to'qlin-to'qlin bo'lib o'ta boshlabdi.

Kuy goh kuchayib, goh pasayib borarmish. Kuy seh-riga mahliyo bo'lgan ona dod solib hovliga chiqib ketib, «Ketaman, qishlog'imga ketaman», deb faryod solibdi.

Boshqa nabirasini ovuntirib o'tirgan bobo gap nimadaligini tushunib kampirini yupatibdi. Ona allasida, uning goh quvonchli, goh g'amgin to'qlinlarida insonning butun borlig'i, ruhiy dunyosi aks etishini tushunibdi. «Onang alla aytsang, meni tashlab ketib qolishingdan qo'rqqan ekan. Yur, kech bo'lsa ham ona yurtingga borib, bolaliging bilan qayta ko'rishib ke-laylik», deb tuyalarga don-dun, sovg'a-salomlar ortib yo'lga tushibdilar.

## TUYAKASHNING DA'VOSI

Qadim zamonlarda bir tuyakash yashagan ekan. Keng sahrolar, poyonsiz cho'llar, o'rkach-o'rkach qum barxanlari uning vatani ekan. Tuyasi karvonlarning yukini tashib berarkan. Bergan pullari ro'zg'origa madad bo'larkan, tuyasi har ikki yilda bir bora tug'ib

berarkan, suti tuyakashning bolalariga ovqat bo'lar-kan. Butun oilaning ovunchog'i ham shu tuya ekan.

Kunlarning birida tuya yo'qolib qopti. Tuyakash iztirob chekib, uni izlab keng sahrolarni, poyonsiz cho'llarni, o'rkach-o'rkach qumlar ortini ho'p axtaribdi. Tuyasidan darak bo'lmabdi. Karvonsaroylarga boribdi, saroybonlardan so'rabdi, «Ko'rganimiz yo'q», deyishibdi. So'roqlab qishloqdan qishloqqa o'tibdi, molbozorlarga boribdi. Qassobxonaga duch kelib qolibdi. Qarasa, har xil go'shtlar ilingan emish. Sinchiklab qarab, to'satdan tuyasining go'shtini tanib qolibdi. Qanoradagi go'shtni yulib olib, bag'riga bosib, «bu mening tuyamning go'shti, meniki, meniki», deya dod solibdi. Qassob uni urib haydamoqchi bo'lgan ekan, battarroq dodlabdi. Olomon to'planibdi, gap-so'z ko'payibdi, birov tuyakashning yonini olibdi, birov qassobning yonini olibdi. Shunda aqlli bir odam «Yaxshisi, yurt qozisiga murojaat qilish kerak» degan gapni aytibdi. Bu fikr ikkiga bo'linib, talashib-tortishayotgan odamlarga ma'qul bo'libdi. Odamlar guril-lab qozining huzuriga jo'nashibdi. Qozi tuyakashdan «Hayvonlarni goho tirikligida tanish qiyin bo'ladi-yu, sen qanday qilib, shu go'shtlar tuyangniki ekanligini bilding. Da'vongni isbotla, bo'lmasa besh darra urish-ga buyuraman», debdi.

– E, taqsiri olam, – debdi tuyakash, – mening tuyam urg'ochi edi. Uch marta bolalagan edi. Suvsiz, yantoqsiz sahroda har bir bolasini yalab-yulqab kat-ta qilguncha adoyi tamom bo'lardi. Jigaridan qonlar oqib teshikcha hosil qilardi. Ana qarang, jigarida uch-ta teshik bor.

Tuyakash jigarni boshi uzra baland ko'tarib, unda-gi teshiklarni ko'rsatibdi.

Yurt qozisi qassobga «Sen tuyani qayerdan, kimdan olgansan. Rost soʻzla, yolgʻon soʻzlasang, besh darra urishga buyuraman», debdi.

– E, taqsiri olam, – deb gap boshlabdi qassob, – kecha kechasi bir kishi eshigimni qoqdi. Ochsam, novcha bir odam tuya yetaklab turibdi. Shuni oling, qancha bersangiz ham roziman, shoshib turibman, dedi. Alloh guvoh, men tuyani yarim bahosiga sotib oldim, – debdi.

Tuyakashning daʼvosi isboti bilan ekanligini aqlli, donishmand qozi darrov fahmlabdi. Ha, onalar bolalarini katta qilguncha goho adoyi tamom boʻladilar, xunob boʻladilar, jigarlariga teshik tushadi, deb oʻylabdi. Qassobga «Goʻshtni sen ol, tuyakashga bir urgʻochi tuya olib berasan», deb buyuribdi.

Toʻplanganlar yurt qozisining hukmidan rozi boʻlishibdi.

## UCH SAYYOHNING SAFARI

Shunday qilib, bir bor ekan, bir yoʻq ekan, qadim-qadim zamonda Arabiston tomonda uch sayyoh keng jahonning tor koʻchalaridan oʻtib, yaxshi-yomonni koʻrish umidida koʻp yaxshi niyatlar bilan safarga chiqqan ekanlar. Yoʻl yuribdilar, yoʻl yursalar ham moʻl yuribdilar. Bir mahal yoʻllari past-u baland adirlar oʻrtasiga toʻgʻri kelib qolibdi. Toʻrt tomonda osmon oʻpar baland-baland togʻlar bor ekan. Bunday qarashsa, ey xudoyim-e, haligi togʻlar oʻrnidan qoʻzgʻalib, qasir-qusur deya vahimali ovozlari chiqarib sayyohlarni toʻrt tomondan oʻrab, qisib kelayotgan emish. Na qochishning, na qutulishning iloji bor emish. Shunda uchovlari ham Allohga xush keladigan ishlarini eslashibdi. Oʻsha saʼy-harakatlarimiz Yaratganga maʼqul



kelsa-yu, ushbu baloni o'zi daf qilsa, deya xotiralaridan o'tgan voqealarni bir-bir eslay boshlashibdi. O'shalarni aytib, taqdirlarini Allohga topshiribdilar.

Birinchi sayyoh ko'p faqir-u haqir ekan. Uch bolasi, xotini va bir qari, kasalmand bo'lib butunlay yotib qolgan otasi bor ekan. Juda kambag'al ham ekan. Bisotlarida bor-yo'g'i bir sog'in echkilar bor ekan. O'shaning sutini ichib kun o'tkazar ekanlar. Xotini har kuni echkini sog'ib, tovoqdagi ko'piklab turgan iliqqina sutni kasalmand otasiga tutib, «Siz iching, rozi bo'lganingizdan so'ng nabiralaringizga bera-man», der ekan va har kuni shunday qilar ekan. Otasining kasali og'irlashib, besh kun behush bo'lib yotib qolibdi. Nihoyat bir kuni ko'zini ochsa, sut to'la tovoqlar tokchada qator terilib turgan emish. «Iya, o'g'lim, nega sutni ichmadilaring? Nega nabiralarimni och olib o'tiribsizlar», desa, o'g'li: «Ey otajon, ey padari buzrukvorim, ota rozi, xudo rozi deganlar. Oldidan bir ho'plamdan bo'lsa ham roziligingizni aytmaguningizcha sutlarni to'xtatib turibman», debdi. Minnatdor otaning xira ko'zlariga marjon-marjon yosh kelibdi. Kosadagi serqaymoq sutlardan bir ho'plamdan ichib, farzandi, nabiralari, ayniqsa, mehribon kelinidan mingdan ming rozi ekanligini takror-takror aytib, qazo muddati yaqinlashib qolgan ekan, o'sha zahotiyoq omonatini topshiribdi.

Sayyoh shu voqeani eslab, «Ey Parvardigor, ey yaratgan Egam, otamni qo'limdan kelganicha rozi qildim, o'zing guvohsan, zero, bu harakatim senga maqbul bo'lib, o'zing yuborgan ushbu ofatni yana o'zing daf qilsang», deya tavallo qilibdi.

Tog'lar vahimali ovozlari chiqarib, qasir-qusuriga olib, siljib kelayotgan emish. Ikkinchi sayyoh nomdor-u qudratli bir bekning yakka-yu yagona o'g'li

ekan. Qoʻl uzatsa, osmonga yetadigan qudrati, behisob imkoniyati bor ekan. Uning bir beva ammasi boʻlib, bevaqt vafot qilgach, undan bir qiz qolgan ekan, yigit ana shu yetimcha qiz bilan tepkilashib katta boʻlgan ekan. Qiz Allohning marhamati bilan asta-sekin kamolga yeta boshlabdi. Oʻn olti yoshga yetganida Alloh unga tengsiz husn, nozik did, beqiyos aql-u latofat ato qilibdiki, uning ovozasini butun poshsholikka tarqalib ketibdi. Manman, degan sultonlardan, xonlarning erkatoy oʻgʻillaridan sovchilar kelarmish, bek yigitning otasi shunday goʻzal parivashni, shunday oqila jiyanini begonaga bergandan koʻra oʻz saroyimning guli, gultoji boʻlib qolsin, deya oʻz oʻgʻliga nikohlab bermoqchi boʻpti. Axir begona emas, oʻz singlimning bolasi-ku, degan gaplarni ham aytibdi. Toʻyni boshlab yuboribdilar. Qirq kecha-yu qirq kunduz kambagʻal-larga osh-non, toʻqlarga toʻn beribdi. Toʻy tugabdi, nikoh oʻqilibdi. Mehmonlar tarqagach, yigit shohona yasatilgan goʻshangaga kirsa, zar-u kimxoblarga oʻralgan qiz tizzasini quchgancha yum-yum yigʻlab oʻtirgan emish. «Ey, dilbarim, – deya murojaat qilibdi kuyov yigit, – bugun ikkimizning eng baxtli, eng saodatli daqiqalarimiz, oʻynab-kulish, xursandchilik qilish oʻrniga nega bu ahvolda yigʻlayapsiz?» «Ha yigʻlayapman, – debdi qiz koʻz yoshlarini artib. – Toʻgʻri, siz mamnunsiz, demak, baxtiyor hamsiz, ota-onalaringiz ham mendek himoyasiz, chorasiz qolgan yetim qizdan bir ogʻiz roziligini soʻramadilar, soʻraganingiz uchun endi ochigʻini aytay. Men oʻzim tengi bir yetim yigitga koʻngil qoʻygan edim, yigit ham menga koʻngil bergan edi. Bir yaylovda birga oʻsganmiz, turmush qurishga ahd-u paymon ham qilgan edik. Hozir oʻsha bechora yigit togʻ-u toshlarga boshini urib, yigʻlab yuribdi. Men nechun yigʻlamay, siz baxtlisiz, men esa dunyo-

dagi eng baxtiqaro qizman. Yig'lab-yig'lab o'tsam kerak bu dunyodan».

Bek yigit ham adolatli, ham mard insonlardan ekan. Qizning ahvolini tushunibdi, unga rahmi kelibdi.

«Dilbarim, hozir sizni taloq qilib, sahrodagi o'sha cho'pon yigitni oldirib kelib, sizni unga nikohlab bersam o'zingizni baxtli hisoblarmidingiz?» deb so'rabdi qizdan. «Ha, ikkimiz umrbod sizning haqqingizga duo qilardik», debdi qiz. Mardlarning so'zi bitta bo'ladi. Sahrodan faryod chekib yurgan yigitni oldirib kelib, ko'pchilik oldida qizga taloq xatini berib, o'sha kuniyoq qiz bilan yigitning nikoh to'ylarini ham o'tkazib beribdi.

Bek yigitning ko'nglidan ana shu gaplar o'tgach, «E xudo, e Parvardigori olam, o'zing bir g'aribning ko'nglini ovlasang, ming savobning xosiyatini beraman degan eding. Mening ushbu qilmishim, zero, senga ma'qul kelgan bo'lsa, ushbu falokatni o'zing daf qilsang», deya iltijo qilibdi.

Tog'larning bostirib kelishi hali to'xtagani yo'q ekan, juda-juda yaqinlashib qolgan ham emish. Shu daqiqalarda uchinchi sayyohning ham ko'nglidan yaxshi bir amali o'tibdi. Bu sayyoh mamlakatning eng katta boylaridan ekan. Qir-u adirlarda lak-lak qo'yu echkilari, yaylovlarda behisob uyurlari boqilarkan. Shaharlarda qator-qator savdo rastalari bor ekan. Olis yurtdan ish axtarib kelgan bir yigitni cho'ponlik xizmatiga olib, yiliga o'n tilla tanga-yu, besh urg'ochi qo'y berishga kelishib olishgan ekan. Yigit halol, xudojo'y, mehnatsevar ham ekan. Besh yil yaxshigina ishlabdi, bir kun boyning yoniga kelib: «Otaxon, endi menga javob bering, yurtimga ketay, tushlarimga otam bilan onam kirib, o'g'ilginam, qayerlarda qolding, seni behad sog'indik, deya yig'lashyapti», debdi. Boy yigitga xursandchilik bilan javob berib,

shartlashgan puli bilan qo'ylarni ham ajratib beribdi. Yigit pulni olib, beliga tugibdi-yu, bu qo'ylarni men sahro-yu biyobonlardan, suvsiz cho'llardan haydab o'tolmayman, baribir nobud bo'ladi, deya hammasini tashlab ketibdi. Kunlardan bir kun boy yigitni olis yurtiga ziyoratga borib, oq tuyasini minib, shahar bozorini aylanib yurgan ekan, hammollikka chiqib, qo'lida arqon, ish so'roqlab xomush o'tirgan bir yigitni ko'rib qolibdi. Yigit o'sha o'zining qo'ylarini boqqan cho'pon ekan. Rangi siniqqan, kiyim-boshlari ham bir ahvolda, boshi g'amgin egilgan holda o'tirganmish. Boy tuyadan tushib, ko'rishib, hol-ahvol so'rabdi.

– Ey, boy ota, – debdi yigit, – huzuringizdan qaytsam, otam bechora olamdan o'tib, qo'li kalta onam uni qarzga ko'mgan ekan. Bergan pullaringizni otamning ruhi, arvohi chirqillamasin deb, onamning qarziga berdim. Ketidan kasalmand onam ham bandalikni bajo keltirdi. Arvohi armonda qolmasin deya, kichikkina kulbamni sotib, marhumning ham dafn marosimlarini el qatori o'tqazdim, mana ko'rib turganingizdek, musofirlikda yashayapman. Kunim baholi qudrat o'tib turibdi.

– Ey, o'g'lim, o'rningdan tur, – debdi boy, – sen bu yurtning eng katta boylaridan hisoblanasan. Esingdami, qaytayotganingda bir necha qo'ylaringni tashlab ketgan ekansan, men buni sen ketganingdan keyin bilib qoldim. Bildim-u, darhol ularni qo'radan ajratib, alohida bir cho'pon tayinlab qo'ydim. Qo'ylaring ko'payib-ko'payib, hozir bir necha mingdan ham oshib ketgan. Hozir men bilan birga borib, ularni qabul qilib olishing kerak. Toki men dunyodan o'tsam, xudoga shukr, yetimning haqqini yemadim-ku, deya mamnun bo'lib ketay.

Shunday deb boy yigitni o'zi bilan birga olib ketibdi. Yigit borsa, chindan ham o'ziga tegishli qo'ylarning hisobi yo'q emish. Bir emas, bir necha cho'pon boqayotgan emish. Yigit ularning haqlarini ajratib beribdi. Yarmini pullab, o'zi yashayotgan shaharda shohona bir hovli sotib olibdi-da, shu yurtning go'zal qizlaridan biriga uylanibdi.

Boyning xotirida shu voqealar jonlangach, ey xudo, ey Yaratgan Egam, o'zing-ku, birovning haqqini yemasang, hamisha diling pok, mushkuling oson bo'ladi, der eding. Zero, mening ham ushbu harakatim senga ma'qul bo'lib, mushkulimni oson qilsang, o'zing yuborgan baloni o'zing daf qilsang, deya Yaratganning o'ziga qayta-qayta tavallo qilibdi va shu asnoda mo'jiza ham yuz bera boshlabdi. Hamma narsa Yaratganning ixtiyorida ekan, vahshat bilan siljib bostirib kelayotgan bahaybat tog'lar to'satdan joyida to'xtab, yana avvalgidek qasir-qusur ovoz chiqarib, asta-sekin orqasiga chekina boshlabdi. Ko'z yumib-ochguncha yana sayyohlar qarshisida avvalgi kenglik, ravon yo'llar, maysalar bilan qoplangan so'lim adirlar paydo bo'libdi. Sayyohlar Yaratganga shukronalar aytishib, yo'llarida davom etishibdi.

## ROSTGO'Y BOLALAR BAHSI

Ozodlik ko'chasida ikkita bola yasharkan. Bittasining ismi Umarjon, boshqasining ismi Samarjon ekan. Ikkovlari bir kunda tug'ilgan ekan. Umarjon ko'chaning o'ng tomonidagi uyda, Samarjon chap tomondagi uyda yashar ekan. Ikkovlariyam beshinchi sinfda o'qishar ekan. 5 «A» dagilar rostgo'ylikda bizning Umarjon o'rtog'imizga teng keladigani yo'q deyishsa, 5 «B» dagilar, bo'lmagan gapni qo'yinglar,

haq gapni soʻzlashda bizning Samarjonning oldiga hech kim tusholmaydi, unaqasi hali tugʻilmagan, tugʻilmaydi ham, deyisharkan. Ikkala sinf toʻxtamay tortishgani-tortishgan ekan. Oxiri boʻlmabdi. Ikkala oʻrtogʻimizga musobaqa uyushtiraylik, qaysi biri rost gapni aytishda gʻolib kelsa, oʻshanga birinchi oʻrinni berib, bir charm koptok bilan 12 ta daftar sovgʻa qilaylik, deyishibdi. Xullas murosaga kelishibdi.

Maktabning hashamatli sport zaliga kirishibdi. «A» dagilar oʻng tomonni, «B» dagilar chap tomonni egallashibdi. Maktab direktori hakam boʻlib, sinf rahbarlari hakamga yordamchi boʻlishibdi. Alfavit tartibiga koʻra «A» harfi «B» harfidan oldin kelgani uchun oldin gap boshlash navbati Umarjonga tegibdi. Hakam hushtak chalibdi, musobaqa boshlanib ketibdi. Oʻrtaga chiqqan Umarjon gap boshlamay, xomush boʻlib turaveribdi.

– Tezroq gapir, – debdi hakam.

– Uyqum kelyapti, – debdi Umarjon.

– Nega uyqing kelaverar ekan? – soʻrabdi yana hakam.

– Kechasi bilan uxlamay Qatron togʻidan Tojikiston tomonga tuynuk ochaman, deb boshimni uraverdim, uraverdim, ertalabga yaqin 18 kilometrlik tuynukni arang ochdim. Shuning uchun uxlayolmadim, – debdi Umarjon.

Endi rost soʻzlash navbati Samarjonga kelibdi.

Uning ham dum-dumaloq boshi egilgan, chiroyli koʻzlari ham yumilib ketayotgan emish.

– Xoʻsh, nega sen gap boshlamayapsan? – soʻrabdi hakam.

– Mening ham uyqum kelyapti, – javob qaytaribdi Samarjon.

– Nega uyqing keladi?

– Amerika qit’asi bilan Afrika qit’asini birlashtirish uchun tuni bilan ovora bo’ldim. Ertalabga yaqin arang birlashtirdim. O’rtadagi Atlantika okeanining suvi toshib, Yevropani bosib ketmasin, deya yarmini Hind okeaniga quydim. Yarmini o’zim ichib qo’ya qoldim. Shuning uchun kechasi bilan uxlaganim yo’q, – deb gapini tugatibdi Samarjon.

5 «B» dagilar rost gap mana bunaqa bo’ladi, deb qarsak chalib yuborishibdi. Gap navbati yana Umarjonga kelibdi.

– Ertalab oyim ishga ketaturib, qozonda shavla bor, o’shani isitib yegin, devdi, uyqusirab shavlaga qo’shib qozonni ham yeb qo’yibman, qornim og’rib turibdi, gapirmay qo’ya qolay, – debdi.

– E, o’rtoq, – deb gapni ilib ketibdi Samarjon, – ikkovimiz bir bo’pmiz, ertalab nonushta qilmoqchi bo’lib muzlatkichni ochsam, hech narsa yo’q ekan, men ham muzlatkichning o’zini yeb qo’ya qoldim, lekin qornim og’rigani yo’q...

– Men dadamdan oldin tug’ilgan ekanman, – deya yana gap boshlabdi Umarjon.

– Men bobom bilan buvimni ko’tarib katta qilgan ekanman, – deb o’rtog’ining gapini bo’libdi Samarjon.

– Ona tili darsligini men yozganman, – deb so’zini davom ettiribdi Umarjon.

– Maktabimizning ilmiy bo’lim mudiri institutda o’qiganida men unga kimyodan hamisha yordam berardim, – deb o’rtog’ini gapirtirgani qo’ymabdi Samarjon.

– Bir marta bog’imizdagi oshqovoqning ichiga tushib ketib, olti kun adashib yurganman, – debdi Umarjon.

– O’sha kuni men ham bog’imizda cho’milayotuvdim, – javob qaytaribdi Samarjon, – qattiq sho’ng’igan

ekanman, suzib ketaverdim, ketaverdim, oxiri borib Orol dengizidan chiqib qolibman. Bunday qarasam, dengizning suvi qurib, baliqlar quyon boladay sakrashib-sakrashib yurishgan ekan. Bir tonnachasini yig'ishtirib, yaqinroqdagi bolalar bog'chasiga topshirib kelganman.

– Bir marta, – shoshilib so'z olibdi Umarjon, – shaharga borganimizda mashinamiz buzilib qoldi. O'shanda «Jiguli»ning ichidagi to'rtta odami bilan uyimizgacha o'zim ko'tarib kelganman.

– O'sha yili, – debdi Samarjon, – dadam traktorchi edi. G'ildiragining o'tkir tishlari ko'chadagi asfaltni buzmasin, deb men traktorni yelkamda ko'tarib, dalaga olib borar edim. Kechqurun yana garajga keltirib qo'yardim. O'sha yili shunday qilganimiz uchun kolxozimiz raisi menga bitta Faxriy yorliq bergan.

– Bir marta men shunday sakraganmanki, uchib borib Tojikistonning Shurob degan qishlog'iga tushganman.

– O'shanda men ham sakrab, balandlab borib-borib boshimni Zuhro yulduziga urib olganman.

– Men, – deb o'rtog'ini to'xtatibdi Umarjon yengilishni istamay, – bir yeganda qirq kilo guruchning oshini yeb qo'yaveraman.

– Men ham, – o'rtog'idan baland kelishga intilibdi Samarjon, – bir ichganda Sirdaryoning suvini ichib quritib qo'yaman.

Musobaqa davom etaveribdi-etaveribdi. Goh «A» tomon, goh «B» tomon gurillatib qarsak ham chala-veribdi, chalaveribdi. Hakamlik qilayotgan maktab direktori bular bir-biriga yutqazadiganga o'xshamaydi, musobaqani endi ertaga davom ettiramiz, degan gapni aytgan ekan, bolalar guvillashib qarsak chali-



shibdi, oyoqlari bilan pollarni tepishib, yo‘q bugun hal qilib ketamiz, deb turib olishibdi.

– Sigirimiz bu yil shunaqa sersut bo‘lib qoldiki, – shovqinni bosib gap boshlab yuboribdi Umarjon, – sut tashiydigan mashina ulgurmay qoldi. Oxiri maslahatlashib sigirimizning yelinlariga shlang ulab, sutni to‘ppa-to‘g‘ri zavodga quyadigan qilib qo‘ydik.

– To‘g‘ri, – deb gapni ilib ketibdi Samarjon, o‘zi bu yil nafaqat sigirlar, balki echkilar ham sersut bo‘lib qolgan. Biz ham echkimizning sutini tuman markaziga tashib ulgurmasimizdan, echkimizning qornida Italiya bilan qo‘shma korxonaga ochib, o‘sha yerda pishloq tayyorlaydigan bo‘ldik. Maktabimiz bufetida sotilayotgan pishloq bilan suzmalar bizning echkimizning qornida tayyorlanyapti.

Xullas, rost so‘zlar aytish musobaqasi o‘sha kuni poyoniga yetmabdi. Ertasiga ham, indinisiga ham qaysi tomon g‘olib ekanligini aniqlashning iloji bo‘lmabdi.

Ushbu ertak yozilgan paytda ham musobaqa davom etayotgan ekan.

## SIGIR SO‘YGAN QASSOBNING QO‘RQINCHLI TUSHI

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, yaqin o‘tgan zamonada Eski shaharning Chorsu dahasida, dorixonaning naryog‘ida Tolibjon degan bir odam yashar ekan-u, hamma uni Tolib qassob deb atar ekan. O‘zi juda yaxshi odam ekan, qizi bitta shokolad so‘rasa, bir qutisini keltirib berarkan. O‘g‘li popukli qand so‘rasa, bir qopini hadya qilarkan. Hamma qassoblar qatori uning ham uzunligi bir quloch keladigan daraxtidan kesilgan kundasi bor ekan. O‘zi qassob ekan-u, lekin novvosdan qo‘rqar ekan. Bitta novvos bir kuni uni

devorga qisib rosa suzgardan buyon bozordan faqat g'unajinmi yoki sutdan qolgan sigirnimi olib kelib, orig'ini semirtirib, semizini to'ppa-to'g'ri so'yib yubor-rar, go'shtini qanoraga osib:

– Kep qoling, yoshgina novvosning go'shti, lahm-gina, seryoqqina, bilqillab turibdi, – deb goho yolg'on ham gapirarkan. Yolg'on gapirmasam, qari molning go'shti ekanligini bilib qolishadi, deb qo'rqarkan.

Bir kuni katta bir sigirni oldin sariq kunjara bilan boqib rosa semirtiribdi. So'ng yerga yotqizib bo'g'zi-ga endi pichoq olib borgan ekan, sigir to'satdan tilga kirib:

– So'yma, qornimda bolam bor, bolam nobud bo'la-di! – deb yolvoribdi.

Tolib qassob boshini ko'tarib u yoq-bu yoqqa qara-sa, hech kim yo'q emish. Oqshom yomon ovqat yev-dim, o'shanga qornim guldiragan bo'lsa kerak, deb o'ylabdi-da, yana so'ymoqchi bo'lgan ekan:

– So'yma deyapman, eson-omon tug'ib olay, keyin bilganingni qilasan, so'yma! – degan ovoz yana eshi-tilibdi.

Qassob sigirning gapirishiga ishonmas ekan, ishonsa ham bitta buzoqchani deb uch yuz kilo go'sh-tdan ayrilib qolaymi, deпти-da, «Bismillahir rahmanir rahim» deb sigirning bo'g'ziga pichoq tortib yuboribdi. Go'shtini qanorga ilib, maqtab-maqtab sotibdi ham. Yaxshigina pul bo'libdi, katta foyda ko'ribdi. Kechasi uxlab yotgan ekan, kunduzi so'yilgan katta ola sigir eshikni sharaqlatib ochib, vahshat bilan kirib kelib-di-da, qassobning pichog'idek o'tkir shoxini uning bo'g'ziga qadab:

– Bolamni to'lab ber, – deb ma'rabdi.

– Bolangning o'ligini axlatxonaga oborib ko'mgan-man, – debdi Tolib qassob.

– Hoziroq uni tiriltirib berasan, – deb ola sigir o‘tkir shoxini qassobning bo‘g‘ziga battarroq qadabdi.

– Shoxingni ol tomog‘imdan, nafasim qisilyapti, – debdi Tolib qassob entikib.

Shu paytda rostdan ham nafas olishi og‘irlashib, qora terga botib borayotgan ekan.

– Oldin bolamni tiriltirib berasan, – shunday deb ola sigir endi oldingi ikki oyog‘ini qassobning qorniga qo‘yibdi.

Tolib qassob o‘lgan buzoqni tiriltirish mening qo‘limdan kelmaydi, deb qutulmoqchi bo‘lgan ekan, ola sigir tiriltirish qo‘lingdan kelmas ekan, nega o‘ldirding bo‘lmasa, deb qassobning bo‘g‘ziga shoxini sanchib olib tashqariga chiqib ketibdi. Hovliga chiqqach, qanot paydo qilib ucha boshlabdi. To‘g‘riga emas, vertolyotga o‘xshab tepaga qarab ucharmish. Avval oppoq, nurdek yumshoq bulutlar orasidan olib o‘tibdi. Keyin qop-qora bulutlar ummoniga sho‘ng‘ibdi. O‘sha yerda yana:

– Bolamni tiriltirib berasan! – dermish.

Tolib qassob gapiray desa endi ovozi ham chiqmas emish. Aytgandek, bo‘g‘zim teshilgan edi-ya. Bo‘g‘zi teshilganda odamning ovozi chiqmaydi-da, deb o‘ylabdi. Shunday bo‘lsa ham yana bir unnagan ekan, tomog‘idan piq-piq-piq degan g‘alati ovozlari chiqibdi, xolos.

Ola sigir endi uni tashlab yuboribdi. Tolib qassob pardek yumshoq oq-qora bulutlar orasidan ipi uzilgan varrakdek salanglab pastlab kelaveribdi-kelaveribdi. Oxiri xuddi suvga sakragan baqadek shaloplab qorni bilan yerga yiqilibdi. Odam bolasi qari chol bo‘lganda ham boshiga biron falokat tushsa, onasini eslarkan. Tolib qassob ham:

– Oyijon! – deya baqirib yuboribdi.

– Nima bo‘ldi? – deb so‘rabdi yonida yotgan xotini.

Tolib qassob yomon tush ko‘rganini aytibdi. Mehribon xotini, odam chap tomoni bilan yotganda shunaqa bo‘ladi, o‘ng tomoningiz bilan yoting, deya foydali maslahat berib, erining yuz-u peshonasidagi sovuq ter tomchilarini artib qo‘yibdi. Eri uyquga ketibdi. Uyquga ketganini xurragidan bilsa bo‘larkan. Chunki qassob «Xum-prr, pluq-pluq» deya hech kimnikiga o‘xshamaydigan g‘oyat chiroyli xurrag tortarkan. Tolib qassob yana tush ko‘ra boshlabdi. Keng yaylov emish, elliktacha sigir-u erta so‘yilgan g‘unajinlar, har birining shoxi xanjardek o‘tkir emish, qassobni mo‘ljalga olib, ma‘rashib baquvvat oyoqlari bilan yerni tepkilashib, bostirib kelayotgan emish. Bizni so‘ymaganingda qanchadan-qancha bola tug‘ardik, bolalarimizni to‘lab ber, deb olamni boshlariga ko‘tarib ma‘rasharmish. Boshqa iloji qolmaganidan qassob qochishga tushibdi. Yoshligida mahalladagi jamiki bolalardan tez yugurarkan, hozir undan ham tezroq yugurarmish, suvga tushsa sigir-u g‘unajinlar ham suvga tusharmish, devordan oshib o‘tsa, quturgan mollar uning oldidan to‘sis chiqisharmish.

– Oyijon! – deya baqirib yana uyg‘onib ketibdi Tolib qassob.

Mehribon xotini peshonasidagi muzdek terni yana artib, yaxna choy berib, ko‘nglini ko‘taribdi. Kalima o‘girishni maslahat beribdi. Kalima o‘giribdi ham, lekin baribir uxlagani yuragi betlamabdi. Tong paytida ko‘zi sal ilingan ekan, uyqu bilan uyg‘oqlik o‘rtasida mudrab o‘tirar ekan, fildek keladigan katta bir ho‘kiz, qo‘lida oyboltasi ham bor emish, lapanglab kirib kelib:

– Xo‘sh, mening xotinlarim bilan qizlarimni nega so‘yding? – deb so‘rarmish.

Tolib qassob sakrab deraza orqali hovliga chiqib ketibdi. Orqasidan, hoy dadasi, sizga nima bo‘ldi, deb mehribon xotini ham yugurib chiqibdi. Uyda ho‘kiz bor, qoch, seni ham suzadi, o‘ldiradi, dermish Tolib qassob. Uch kungacha bechora qassob uxlayolmabdi. Ko‘zi ilindi deguncha, pichoq o‘qtalغان buzoqchalar, goho shoxi o‘tkir sigirlar, oybolta ko‘targan g‘unajinlar paydo bo‘lib, oldiga solib quvlarmish. Qassob dodlab hovliga chiqib ketarmish. Do‘xtirga ko‘rsatishibdi, uyqu dori ichirishibdi, yana bo‘lmabdi. Ko‘zi ilindi deguncha avvalgisidan ham qo‘rqinchliroq tushlar ko‘rarmish. Kuppa-kunduz kuni uyg‘oq paytida ham oldiga to‘ppa-to‘g‘ri sigirlar to‘dasi bos-tirib kelaverarmish. Qassobning xotini ko‘p aqlli, ham tadbirkor ekan. Erini bu balolardan qutqarish uchun duoxon domlaga o‘qitishini maslahat beribdi, duoxonga dam soldirishibdi. Hammasidan ham dahshatliroq tushni o‘sha kechasi ko‘ribdi. Katta bir sigir Tolib qassobning o‘zini so‘yib, go‘shini qanorga solib sotayotgan emish:

– Oyijon! – deb baqirib yuboribdi Tolib qassob. U shu kecha-kunduzda ham voy-voylab ko‘chada chopib yurgan emish.



*RIVOYATLAR*



## OTA TARBIYASI HAQIDA

### *Birinchi rivoyat*

Oilada o'g'il ulg'aya boshlabdi, o'n to'rtga kiribdi, o'n beshga kiribdi, ha ana o'n oltiga ham kiribdi. Lekin o'yindan bosh ko'tarmas emish, uy ishlariga qarashmas emish. Ona ish buyursa, «o'zing qilaver» dermish, ota ish buyursa, «vaqtim yo'q» dermish. Yana tag'in taomning eng lazzatlisini so'rarmish, kiyimning eng tozasini kiyarmish.

Ota-onaning boshi qotib qopti, «nima qilsak, o'g'limizni mehnatga o'rgatamiz-u, nima qilsak halol yeyishni o'rgatamiz», deb o'ylashibdi. O'g'illarini mashhur bir kosibga berishgan ekan, kosibning qo'li-da rosa bir oy ishlagan bo'пти-yu, ammo qo'lini ishga urmabdi, biror narsa o'rganay ham demabdi. Kosib otasining qadrdoni ekan, uyiga quruq bormasin deb qo'lga anchagina pul beribdi. Bola uyiga kelib, «ota, mana ishlab keldim», deb pulni otasiga bergan ekan, hamma gapdan xabardor ota pulni olib olovga tashlabdi. Pul yonayotgan emish-u, bola jimgina tomosha qilib turgan emish.

Ota endi o'g'lini qattiqqo'lroq oshnasining qo'lga topshiribdi. Bir oydan so'ng o'g'il pul olib qaytibdi. Hamma gapdan xabardor bo'lgan ota pulni olib olovga tashlabdi. Pul o'choqda yona boshlabdi. O'g'il pulning yonishini tomosha qilib turganmish.

Ota darg'azab bo'пти. O'g'lini qo'lidan yetaklab yana ham qattiqqo'lroq, yana ham talabchanroq bir oshnasiga olib borib, «suyagi meniki, eti sizniki» dep-ti. O'sha oshnasi chindan ham qattiqqo'l, bir so'zli inson ekan, bolani asta-sekin ishga o'rgatibdi. Loy qilishni o'rgatibdi, g'isht quyishni o'rgatibdi, ustaga



g'isht uzatishni ham o'rgatibdi. Nihoyat, bir oy deganda uyiga qaytayotgan ekan, qo'liga ancha-muncha pul ham beribdi. O'g'il pulni otasiga uzatgan ekan, otasi pulni olib lovillab yonayotgan olovga tashlabdi. O'g'ilning jon-poni chiqib ketibdi, yugurib borib, olovni o'chirib, u yoq-bu yog'i kuygan pullarni puf-puflab, bag'riga bosayotgan emish. «Nega unday qildingiz, nega?» – deb depsinarmish.

– Xayriyat, – dedi ota, – o'g'lim mehnat qilishni, halol pul topishni o'rganibdi.

O'sha kuni ushbu xonadonda xursandchilik bo'libdi.

### *Ikkinchi rivoyat*

Oilada o'g'il katta bo'libdi, voyaga ham yetibdi. Lekin qaysarroq, nopisandroq bo'lib o'sibdi. Otasi biror narsa o'rgatsa, «O'rgatmang, buni sizdan yaxshiroq bilaman» derkan. Onasi nasihat qilmoqchi bo'lsa «E, xotin kishining gapini xushlamayman» derkan. Shunda otasining jahli chiqib, «Sen baribir odam bo'lmaysan» derkan.

Yillar o'tibdi. O'g'ilning ishlari rivojlanib, gurkirab o'sibdi, qo'sha-qo'sha imoratlar ham quribdi, keragidan ortiq boylik ham to'plab olibdi. Bir kuni to'satdan otasining «Baribir odam bo'lmaysan» degan alamli gaplari esiga tushib qolibdi. «Borlaring, otamni olib kelling», deb buyuribdi. Keksayib, munkayib qolgan otasini oyog'ini yerga tegizmay olib kelibdilar. Ota kelib qarasa, o'g'li uyning to'rida bek-u bekozodalarddek savlat to'kib o'tirganmish.

– O'tiring, – debdi otasiga. – Esingizdami, menga doim odam bo'lmaysan, odam bo'lmaysan, derdingiz. Mana, dang'illama uylar, xizmatkorlar, boylik. Demak, odam bo'libman-da, gapingizni qaytib oling.

– Yo‘q, – debdi ota o‘rnidan turib, – sen baribir odam bo‘lmabsan. Odam bo‘lganingda, otangni qarollar orqali olib kelmay, o‘zing oldiga borgan bo‘larding. Ota shunday deb etagini qoqib uydan chiqib ketibdi.

### *Uchinchi rivoyat*

Bir yurt odamlari behad darajada qashshoq, och-u nahor yasharkan. Yer haydarga qo‘shi yo‘q, icharga oshi yo‘q, ishlashga hushi yo‘q ekan. Alloh marhamat qilib, bu yurtga uchta esli-hushli, qo‘lli-oyoqli ham tadbirkor odamlarni yaratib beribdi.

Bu kishilardan biri baliqchilikni, ikkinchisi bog‘bonlikni, uchinchisi chorvadorlikni o‘rganibdi. Har bittasi o‘z sohasida nom chiqaribdi, yurtga yetishtirgan mahsulotlaridan ozmi-ko‘p berib, ularni oyoqqa turg‘iza boshlabdi. Lekin qishloq ahli dangasa va tanbalroq ekan, tilanchilikni yaxshi ko‘rarkan.

Bir odam baliqchining oldiga, ayniqsa, ko‘proq borarkan. «Bolalarim och, yegani hech narsa yo‘q», deb hasrat qilarkan. Baliqchi tutgan balig‘idan bir beribdi, ikki beribdi, uchinchi borganda, «Yo‘q, endi senga baliq bermayman, baliqni qanday tutishni o‘rgataman», debdi. To‘r to‘qishni, to‘r tashlashni, po‘kak bog‘lashni o‘rgatibdi. «O‘rgansang tilab yeyuvchi emas, tutib yeyuvchi bo‘lasan», debdi. Yigit hushyorgina ekan, bir yilda baliq tutishni o‘rganib olibdi. Oilasi ma‘murchilikda yashay boshlabdi.

Bog‘bonning oldiga bir tilanchi «Uzum bering, olma bering», deb ko‘p borarkan. Bir kuni bog‘bon «Yo‘q, endi senga mevamdan bermayman, tilab yeyishni emas, silab yeyishni o‘rgataman», debdi. Har gal borganda yo olmaning, yo shaftolining ko‘chatidan berib, «Yaxshilab ek, silab-siyपालab o‘stir», derkan. Ko‘chat-

larni qanday parvarish qilishni o'rgatib turibdi. Yillar o'tishi bilan nihollar shig'il hosilga kiribdi. Bu yigit ham bola-chaqasi bilan meva-chevalardan yeb, ortganini sotib, ro'zg'orini tiklab olibdi.

Uchinchi kishiga Alloh chorvadorlikni yuqtirgan ekan. Qo'y boqarkan, echki boqarkan, bola-chaqasi bilan sut-qatiqlarni ichib, ortganini sotib turarkan. Ammo ozgina sutmi, qaymoqmi so'rab tilanib boruvchilar tinchlik bermas ekan. Bir berarkan, ikki berarkan, beraverib joniga tegib ketarkan. Bir kuni qatiq so'rab katta tovoqni ko'tarib borgan yigitni to'xtatib, «tilab ichuvchi bo'lma, sog'ib ichuvchi bo'l», debdi. Bir echkning bolasini berib «shuni parvarish qil, suyib yunglaridan sila. Katta bo'lib tug'ib bersa, birovlarining uyiga borib tilanchilik qilib yurmaysan. O'zing sog'ib ichasan» debdi. Echki bolasini parvarishlab, bolasini yaxshi boqibdi. Olti oy deganda echki tug'ib ham beribdi. Echki sutini ichaverib, bola-chaqalari bilan semirib ham ketishibdi.

Shunday qilib, Allohning marhamati bilan uch tadbirkor yigit tufayli och-qashshoq yurtda baliqchilik deysizmi, chorvachilik deysizmi, bog'dorchilik deysizmi, – hamma-hammasi rivojlanib, odamlari ma'murchilikda yashay boshlashibdi.

## TULKI, SHER, FIL HAQIDA RIVOYAT

Qadim-qadim zamonlardami, o'zimiz yashab turgan kunlardami, baland-baland tog'lar ortidami, qalin-qalin o'rmonlar ichidami, uzoq-uzoq qishloqlardami qiziq-qiziq voqealar tez-tez takrorlanib turarkan. Bu voqea esa Hazrati Odam Ato va Momo Havo hali o'zlarining zurriyodlarini yer yuziga tarqatmasdan oldin bo'lgan ekan. O'sha zamonlarda ham goh adolatli,

goh adolatsiz voqealar tez-tez bo'lib turarkan. Adolatlisi shu ekanki, jamiki jonzotlarga shahanshoh saylash barcha jonzotlar ishtirokida, qur'a tashlash yo'li bilan o'tkazilarkan. Qaysiki, jonzotning omadi kelsa, navbatdagi qur'a marosimigacha shahanshohlik qilarkan. Uning so'zi so'z, amri vojib bo'larkan. So'zini ikki qilganlarning boshi kesilarkan, tanasi kuydirilarkan. Shunday bo'libdiki, navbatdagi qur'a tashlash marosimida tulkiga omad kulib boqibdi. O'sha kuni o'rmonlar-u sahrolarda, dasht-u biyobonlarda yangi saylangan shohning sharafiga hisobsiz hamd-u sanolar aytilibdi. Shahanshohga toj kiydirish marosimi esa naqd o'n besh kun davom etibdi. Ketidan saroy lavozimlarini tayinlash boshlanibdi. Chiyabo'ri vaziri a'zam bo'libdi. Bo'ri yasovulboshi bo'libdi. Kalamush xazinabon bo'libdi. Olaqarg'a karnaychilarga bosh bo'libdi. Qarg'a xabarchi bo'libdi. Chumchuqqa esa hech qanday lavozim tegmay qolibdi. Ammo uning shoirlikdan xabari bor ekan. Saroydagi baland bir daraxt shoxiga qo'nib darhol she'r to'qib o'qibdi:

*Oqil-u dono shohimiz,  
Go'zal, barno shohimiz.  
Adolatda tengsiz u,  
Va'z aytishda tengsiz u.  
Tovuq go'shti yemaydi,  
Tutib kelgin, demaydi.  
Saltanat ustuni  
So'zlar doim rostini.*

She'r hammaga ma'qul bo'libdi. Birinchi vaziri a'zam qarsak chalib yuboribdi. Unga boshqalar ham jo'r bo'libdi. Shahanshoh tulki ham shu paytgacha bunaqa chiroyli maqtovlarni eshitmagan ekan. Be-

ixtiyor u ham qarsak chalib yuboribdi. Vaziri a'zam g'oyat hushyor va ziyrak ekan. Hamonki, shohning o'zi ham qarsak chalayotgan ekan, chumchuqqa bir yaxshiroq lavozim berish kerak, deb o'ylabdi. Chumchuqni bosh munshiy qilib tayinlashibdi.

O'sha kundan boshlab shahanshoh tulkinining bir-biridan «mazmunli» farmoni oliylari e'lon qilina boshlabdi. Bir gal, hali shahanshoh bo'lmasdan oldin, tovuqni tutish uchun yer bag'irlab, emaklab borayotganida bir dakang xo'roz bor ovozi bilan qichqirib tovuqlarni ogohlantirib qo'ygan va o'sha kuni tulki och qolgan ekan. O'shandan buyon xo'roz zotini yomon ko'rarkan.

Shahanshoh o'zining «Dunyodagi barcha xo'rozlarni qirib tashlash haqida»gi birinchi farmonini e'lon qilibdi. Ikkinchi muborak farmoni dunyodagi barcha hayvonlarga va jonzotlarga dum qo'ydirish haqida bo'libdi. Ketma-ket yangi farmonlar e'lon qilina boshlabdi. Yana bir farmoni oliyda jamiki jonzotlar gaplashganda dumini o'ynatib gplashsin, deb ko'rsatma berilibdi. Endi saroy a'yonlari shohning huzuriga kirganda goh pusib, goho yer bag'irlab, emaklab kirisharkan. Suhbat davomida tobelik alomati sifatida dumlarini silkitib turisharkan. Goho a'yonlar o'rtasida dum silkitish bo'yicha bahslar, musobaqalar bo'lib turarkan. Dumlarning silkinishlarini ko'rib shoh huzur qilarkan, mast bo'larkan.

Shahanshohning nozik ko'ngli goho sayr-u sayohat qilishni istab qolarkan. Sayohatga chiqqanda uning hashamatli taxtiravonini tog'dek-tog'dek keladigan baquvvat fillar ko'tarib borisharkan. Arslonlar, qoplonlar dastyorlik qilarkan, zaharli ilonlar qorovullik qilib borarkan, olaqarg'alar guruhi kar-nay chalib, popushaklar o'yinga tushib borarkan.

Shahanshohning huzurida qo‘l qovushtirib, ta‘zim bajo keltirmagan biror zot qolmas ekan. Vaziri a‘zam ta‘zim bajo keltirmaganlarni bo‘ysunmagan hisoblab jazolab borarkan.

Bir sahrodan o‘tib borishayotganida oldinda bora-yotgan poyloqchilar bir gala sherlarning kekkayib, mag‘rur turganlarini ko‘rib qolishibdi. «Egilib tur, shahanshoh kelyapti» deyishsa ham ular parvo qilish-masmish. Bu hol avvalo shohning, so‘ng barcha saroy a‘yonlarining hamiyatiga tegibdi, g‘azabini qo‘zg‘atibdi. «O‘h-ho‘, o‘sha sherbachchalar kim bo‘libdi. Menga mana, tog‘dek-tog‘dek keladigan fillar xizmat qilyapti, qudratli ajdarholar huzurimda turibdi. Yo‘q, ular haddidan oshib ketibdi, ushlab kelinglar», deb buyruq beribdi. Bir sherni ushlab kelishibdi. Sher hamon qaddini rostlab, boshini baland ko‘tarib mag‘rur turganmish.

– Egilib salom ber, shahanshohimizga! – deb buyuribdi xizmatkor.

– Kimga salom beraman? – debdi mag‘rur sher.

– Shahanshohga! – debdi xizmatkor.

– U shahanshoh emas, dumi uzun tulki-ku?! – debdi sher.

– Lekin u hozir shoh, unga hamma qulluq qilishi kerak, – deyishibdi lavozimdagilar.

– Men sherman, tulkiga salom berolmayman, – deb o‘kiribdi sher yer-u ko‘kni larzaga solib.

– Egil, salom qil, senga lavozim beramiz, – deyishibdi a‘yonlar.

– Tulkiga ta‘zim qilib lavozim olmayman, – debdi sher avvalgidan ham balandroq ovozda o‘kirib.

Shahanshohga sherning hadeb «tulki, tulki» deya-verishi yoqmabdi. «Qatl qilinsin!» deya farmon beribdi. Ona sher bilan bolalarini ham tutib kelish haqida far-

mon beribdi. Tutib kelibdilar. Ona sher o'g'illarini yoniga olib, erkak sherdan ham mag'rurroq turganmish.

– Shahanshohga ta'zim qil, – deyishibdi unga ham.

– Sherlar hech qachon tulkilarga ta'zim qilgan emas, – debdi u.

– Seni zaharlab o'ldiramiz, – deyishibdi unga.

– Tulkiga ta'zim qilgandan ko'ra, o'lim afzal, – javob beribdi u.

Shahanshohning atrofini o'rab turganlar qo'rqib ketishibdi. Farmonlar ketma-ket bajarilmay qolaversa, bizga gap tegadi, lavozimdan ham olib tashlashlari mumkin, deb o'ylab ona sherni egilishga, salom berishga majburlay boshlashibdi. «Agar shunday qilmasang, o'g'illaringni qatl qilamiz», deb qo'rqitishibdi. Sherbachchalardan birini tutib kelishibdi.

– Shahanshohga ta'zim qil! – deyishibdi.

Sherbachcha bunday qarasa, ona sher hamon mag'rur turganmish, qat'iyatli emish, «O'limga bor, lekin tulkiga ta'zim qilma», deyotganday emish.

– Otam sher, onam sher, men sherbachchaman, tulkiga egilmayman! – deb javob beribdi sherbachcha ham.

– Qatl qilinsin! – deya buyuribdi shahanshoh.

Ikkinchi sherbachcha akasidan ham mag'rurroq ekan. Shahanshohga ta'zim qilmasang, zaharlab o'ldiramiz, deyishsa ham, filning oyog'i ostiga tashlaymiz, deyishsa ham «yo'q, yo'q, biz sher bo'lib tug'ildik, sher bo'lib o'lamiz. Lekin o'zimizdan yuz karra ojiz bo'lgan tulkiga ta'zim qilmaymiz», dermish. Ona sher bo'lsa boshini qimirlatib, bolasining gaplarini ma'qullab turganmish.

Bu sherbachchani ham onasining oldida qatl qilishibdi.

– Endi ta'zim qilasanmi? – so'rashibdi ona sherdan.

– Yo'q! – deb o'kiribdi ona sher.

Ona sherning uchinchi bolasini ham qatl maydoniga olib kirishibdi. Bo'ysundirish, tavba qildirish marosimi ham tantanali, ham vahimali o'tsin, boshqalarga saboq bo'lsin, deb qatl maydoniga barcha hayvonlarni, parrandalarni haydab kelishgan ekan. Shular qatorida o'zining yangi tug'ilgan bolasini er-gashtirib ona fil ham turgan ekan. Ona sherning ko'z oldida bolalarini qatl qilishayotgani uning g'azabini keltirayotgan ekan. Onaning ko'z oldida farzandlarini qatl qilish gunohlarning gunohi deb o'ylayotgan ekan. Sherbachchalarning mag'rur turishlari uning g'ururini oshiribdi. Shu bilan birga shahanshoh va a'yonlarning shafqatsizligi, adolatsizligi g'azabini keltiribdi, quturtirib yuboribdi. Fillar qutursa yomon bo'larkan, yer-u ko'kni ostin-ustun qilib yuborishi hech gap emas ekan. Ona fil o'zining uzun xartumi bilan shahanshohning omonat qurilgan taxtiravonini bir urgan ekan, parcha-parcha bo'lib ketibdi, a'yonlar uzun-kalta dumlarini likillatishib har tomonga qocha boshlashibdi. Shahanshohning xizmatida turgan zaharli ilonlar-u chiyabo'rilar isyonga qo'shilgan boshqa fillarning oyoqlari ostida majaqlanib ketishibdi.

Ertasi kuni qaytadan qur'a tashlanibdi. Adolati bo'lgani uchun fil shahanshoh bo'libdi. O'z qadrini bilgani, g'ururi baland bo'lgani uchun sherbachchalardan biri vaziri a'zam bo'libdi. Hamma tinch-totuv yashay boshlabdi...



**O'ZIM VA O'QUCHILAR  
YIQQAN ERTAKLAR**



**KITOB KELITIRING BIZGA**  
*(Dadasi bozorga ketayotganida  
o'g'lining iltimosi)*

Raysentrga borsangiz,  
Do'konlarga kirsangiz,  
O'g'lim, qizim desangiz,  
Kitob keltiring bizga.  
Suvratlari mo'l bo'lsin,  
Tuya, buzoq, qo'y bo'lsin.  
Sakrab turgan toy bo'lsin,  
Kitob keltiring bizga.  
Kitoblar dunyo emish,  
Bilimi daryo emish,  
Limmo-lim ziyo emish,  
Kitob keltiring bizga.  
Har kun barvaqt turamiz,  
Novvos boqib beramiz,  
Bog'dan olma teramiz,  
Kitob keltiring bizga.  
Muzqaymoq ham yemaymiz,  
Konfet bering, demaymiz,  
Hecham sho'xlik qilmaymiz,  
Kitob keltiring bizga.

**NIHOLLAR TIK TURIB JON BERARKAN**

Nihollarni ekib bo'lishgach odamlardan biri ketmonini asfalt yo'lda daranglatib sudrab, biri belkurakni yelkasiga teskari qo'yib, yana bittasi bo'sh chelakni taka-tumiga chalib, uy-uylariga jo'nab ketishgach, nihollar o'z tillarida so'zlay boshlabdilar. Bittasi yig'lamsirab: «meni qing'ir-qiyshiq qilib ekib ketishdi, debdi. Bittasi «mayda tomirchalarim ostiga faqat qu-

ruq tuproq tashlab ketishdi» deb ux tortibdi. Boshqalariga qaraganda novcharoq, baquvvatroq bir nihol tilga kirib «xo'sh, qolganlarning ahvoli qalay?» – deb so'rabdi.

– Ekishayotganda mening bitta shoximni sindirib qo'yishdi.

– Men yaxshiman.

– Men sal-pal yaxshiman, – degan javoblar qaytarishibdi.

– Hechqisi yo'q, – deb dalda beribdi novcha nihol, hammamiz yaxshi bo'lib ketamiz. Pat tomirlarimizni nam tuproq orasiga eson-omon yoyib olsak gurkirab o'sa boshlaymiz, barglarimiz shabbodada yengil-yengil o'ynab, qarsaklar chalamiz, o'tgan-ketganlar soya-salqinimizda dam olishib huzur qilishib, mamnun bo'lishib, qayta-qayta duolar qilishadi.

Novcha nihol bargi ariq labidagi niholchalarga ham ko'ngilni ko'taradigan, yaxshi-yaxshi so'zlar aytib, so'ng o'z ishiga mashg'ul bo'libdi. Tog' etaklaridagi adirlardan bu yerlarga yetib kelgunlaricha mashinadan mashinaga o'taverib, tanasining ko'p joylari zaxa bo'lgan, bir necha kun oftobda qolib ketib, mayda pat tomirchalari quriy-quriy deb qolgan ekan. Novcha nihol ana shu jarohatlarini tuzatishga, pat tomirchalarini qaytadan jonlantirishga kirishibdi. Lekin atrofda nam tuproqlar juda oz ekan. Tomirchalar harchand urinishmasin, bir tomchi ham suv yig'olmabdilar. Tomirimda ozgina, qishda g'amlab qo'ygan suvim bor edi, deb o'ylabdi novcha nihol, o'shandan yarim tomchigina ichib jarohatini biroz davolagan bo'libdi, o'lay-o'lay deb turgan pat tomirchalar jonlana boshlabdi, ranglariga sarg'ish nurlar yugirib, g'imirlashib qolishibdi, ko'z ilg'amas

mayda-mayda qoʻlchalari bilan tuproqqa yopishib, goʻdak ona koʻksini soʻrgandek tamshanishib, nam tuproqlarni soʻrgʻilay boshlashibdi.

Tong otishi bilan nihollar birin-ketin uygʻonishib, yengil-yengil chayqalishib bir-birlariga salom berishibdi. Soʻng tunlari qanday oʻtganligi haqida oʻzaro suhbatga kirishishibdi:

– Mening tomirchalarim tuni bilan suv axtarib, ti-miskilanib chiqishdi, – debdi nozikkina niholcha.

– Men tanam-u shoxchalarim bilan tungi shabnamni soʻrib mazza qildim, – debdi boshqasi.

– Men bu yoqqa kelayotganimda yiqilib, karaxt boʻlib qolgan ekanman, – debdi uchinchi niholcha.

Novcha nihol bu soʻzlarni eshitib, bobo chinor aytgan rivoyatni eslab ketibdi: niholchalar yangi joylarga koʻchib borganda quyosh nurlari, suv, ozuqalar uchun chinakam janglar boʻladi, ojizlari, chidamsizlari, oʻzini saqlay bilmaganlari nobud boʻlishlari mumkin, degan gaplarni aytgan ekan. Novcha nihol donishmand bobosining shu gaplarini eslab, «Yoʻq, xudo xohlasa, bu yerda unday boʻlmaydi, hoʻ narida sharillab suvlar oqib yotibdi, oʻshalardan ostimizga chelaklab quyishadi, toʻyib-toʻyib ichamiz, gurillab oʻsamiz, deb oʻylabdi. Ehtimol, deb oʻylabdi yana, bizni ekib ketgan maktabning aʻlochi oʻquvchilari suv toʻla chelaklarni koʻtarishib, qiyqirishib, kulishib kelib qolishar, ehtimol, mahallaning maqtov qogʻoz olgan kishilari suv toʻla idishlarni koʻtarishib kelishayotgandir. Ey, xudoyim, tezroq kelisha qolsaydi».

Nihollar sabrli, bardoshlari zoʻr, ancha-muncha qi-yinchiliklarga parvo qilmaydigan, quyosh taftiga-yu suvsizlikka oz-oz oʻrganib katta boʻlgan ekanlar. Hali-beri suv ham, oziqa ham kelmasligiga koʻzlari

yetganidan pat tomirlari bilan namxush tuproqqa yopishib, shoxchalari bilan tunda shabnam soʻrib, ikki-uch haftani bir amallab oʻtkazishibdi. Bu muhatda shoxchalaridan yam-yashil bargchalar chiqarib, tanalaridagi ozgina namlikdan berib, ularga hayot baxsh etishibdi.

Kunlar oʻtgan sari yashil bargchalar kattalashib, koʻproq suv, koʻproq oziq-ovqat soʻrasharkan. Niholchalarning tanasi ham tuproq ichidagi pat tomirchalarga oziqadan moʻlroq joʻnatinglar, deb buyruq berarkan, tomirchalarning jahli chiqarkan: oziq-ovqatlar atrofimizda moʻl-koʻl, ularni yuqoriga uzatish uchun suv kerak, axir oziqalar faqat suv bilan uzatiladi-ku, bizga hadeb buyruq beravergandan koʻra ozgina boʻlsa ham suv topib bersalaring boʻlmaydimi!» – deb har tomondan chugʻurlashib qolisharkan. Bir kuni quyosh haddan tashqari qizdirib yuboribdi. Osmondan toʻkilayotgan jazirama harorat niholchalarning yashil bargchalar-u nozik-nimjon shoxchalaridagi eng soʻnggi namlikni ham soʻrib olib qoʻyibdi. Niholchalar chiday olmay birdaniga: suv, suv, suv deya baqirib yuborishibdi. Novcha nihol bu shovqinni eshitib, qoʻrqib ketibdi. Oʻzi uchun emas, tinmay silkinayotgan ukalariga achinibdi va qoʻrqib ketibdi. Bobolarimiz aytgan suv uchun, oziq-ovqat uchun boʻladigan omonsiz janglarning eng ogʻir palasi boshlanganga oʻxshaydi, deb oʻylabdi. Bunday paytlarda yaxshi odamlar yordamga kelishmasa nobud boʻlamiz-ku, deb qoʻrquvga battarroq berilibdi. Togʻ bagʻridagi sersuv adirlarda, keng serquyosh dalalarda yayrab-yashnab, gurkirab oʻsayotgan edik, oʻz holimizga qoʻyib berishganda, tag-tugimiz bilan sugʻurib bu yerlarga koʻchirib kelishmaganda qan-

day huzur, qanday halovatda yashayotgan edik-a, degan armonlar ham ko'nglidan o'tibdi.

Suv, suv, suv degan alamli, iztirobli faryodlar ham-mayoqni qoplab borayotgan emish. Ukajonlar, chidanglar, odamlar yordamga kelayapti, – deb dalda bermoqchi bo'libdi novcha nihol.

Suv, suv, suv degan mungli ovozlari endi nozik nihollardagi kichik-kichik bargchalardan ham chiqayotgan emish.

Ko'chadan gurillab mashinalar o'tayotganmish, guruh-guruh odamlar o'tib borarmish, kimnidir maqtab, kimnidir yomonlab borisharmish, bu ko'chalar behad jazirama, ozgina bo'lsa ham salqin joy yo'qligidan zorlanib o'tayotganlar ko'p emish, loqal bir tungina bo'lsa ham daraxt ekishmabdi-ya, deb xafa bo'lib g'ijinayotganlar bor emish. Qo'ltiqlashib qizlar, yigitlar o'tishayotganmish.

Niholchalar jim bo'lib qolishibdi.

Novcha nihol bo'lsa hamon ajal bilan olisharmish. «Men yashashim kerak, bevaqt nobud bo'layotgan ukajonlarim uchun yashashim kerak», – vujudidan olov otilib chiqayotgandek bo'larmish. Kimdandir umidvor bo'lgandek atrofga tikilarmish. Ehtimol, ketmonini asfaltda daranglatib sudrab ketgan a'lochilari o'quvchilar kelar, ehtimol, maqtov qog'ozi olgan kishilardan birontasi kelib qolar, deb o'ylarkan. Yo'q! Ulardan darak bo'lmabdi. Endi umidvor ko'zlarini osmonga tikibdi, quyuq bulutlar paydo bo'lar, sharillatib muzdek yomg'ir yog'ib yuborar deb kutibdi. Oh, yoqqanda qanday soz bo'lardi-ya deb chuqur-chuqur xo'rsinibdi.

Bulutlar ham ko'rinmabdi! Ariq bo'yidagi ketma-ket ekilgan nihollar endi butunlay jim bo'lib qoli-

shibdi. «Hayriyat, tik turib jon taslim qilibdilar», deya gʻurur bilan oʻylabdi novcha nihol. Keyin toʻsatdan, ukalari bilan togʻ etaklaridagi poyonsiz adirlarda silkinib-silkinib birga oʻsgan kunlarini, muzdek, salqin havolardan simirib-simirib yayrab, yashnaganlarini eslabdi. Endi boʻlsa... Keyin bor kuchi bilan: – Suv! – deya qichqirib yuboribdi. Asta-sekin oʻzidan keta boshlabdi, allaqanday shirin xayolat nashʼasi mast qilib allalayotganini, sersuv, bahavo vodiya uchib ketayotganini his qilibdi. Keyin tik turgancha jon taslim qilibdi...

*Xudoyberdi TOʻXTABOYEV*

## **HAYOT SHIRINLIGI**

Bir kishi ajdarhoning changalidan qochish uchun jon holatda yuguribdi. Yugura-yugura bir jarning oldiga kelib qolibdi. Pastga tushish uchun egilib qarasa, jarlikning tubi ilon-u chayonlarga toʻla ekan. Ortga qaytay desa ajdarho, pastga tushay desa u yerda ilon-u chayonlar. Shunda jarlikning yoqasidagi ulkan bir daraxtni koʻrib qolibdi. Daraxtning yarim tomiri jarlikning tepasida, yarmi esa jarlikda joylashgan ekan. Pastlikda joylashgan tomirning gʻovakroq qismi bor ekan. Oʻsha kishi tomirdan gʻovak joyga tushib, daraxt tomirlaridan mahkam ushlab olibdi. Shu payt qoʻliga bir narsa tomibdi. Yalab koʻrsa, asal ekan, tepaga qarasa, daraxt shoxida asalari ini boʻlib, undan asal tomayotgan ekan. Asalni yeb, yigit ajdarhodan qutulib qolibdi.

Kishining orqasidan quvgan ajdarho bu – ajal, inson qayerda boʻlmasin, qay mansabga erishmasin, ajal doim u bilan izma-iz va yonma-yon yuradi. Jarlik

ichidagi ilon-u chayonlar qilgan gunohlarimiz jazosi, ya'ni shaytonlar. Jar yoqasidagi daraxtdan tomayotgan asal hayotni bildiradi. Qanchalik qiyinchilikka uchramaylik, hayot asal singari shirin tuyulaveradi va yashashga umidimiz ortaveradi.

*Aytuvchi:*

*Sh.NURMATOVA, 57 yosh, G'allaorol tumani.*

*Yozib oluvchi:*

*I.NURMATOV, 8-sinf o'quvchisi*

### «BOTIR» QUYON

Shoshib ketardi quyon, ayiqpolvon to'yiga,  
Qorong'i tushmasdan qaytish kerak uyiga.  
Birdan so'qmoqda yotgan sherga tushdi-yu ko'zi,  
Juftakni rostlamoqchi bo'ldi qo'rqqandan o'zi.  
Ikkilanib quyonvoy tezlikda ishlatdi bosh.  
Chunki hayvonlar shohi yotardi juda yuvosh.  
Asta ehtiyot bo'lib, o'tmoq bo'ldi yonidan,  
Axir bizning quyonvoy to'ymagandi jonidan.  
Boshqa yo'qdir iloji, o'tmoq kerak amallab,  
So'qmoqni-chi, butunlay yotardi sher egallab.  
– Hoy, sher aka, sher aka, – dedi quyonvoy asta,  
– Maylimi, ustingizdan sakrab o'tsam ohista?  
– Sakrayver, – dedi sher ham horg'in ovozda asta.  
– Nega bunday yotibsiz? – so'radi quyon pastda.  
– Oyoqlarim, – dedi sher, – qopqonga tushib qoldi.  
Mardona sakrar ekan quyonvoy sher ustiga,  
Biqiniga bir tepib, dedi bosti-bostiga:  
– Esli hayvon bo'lsang, men senga teng bo'laymi?  
– Oyoqlarim ostida yotganingga olaymi?!



### ***Xulosa:***

Amalda bo'lsang, xushomadgo'y quyondir,  
Amal ketgach, ahvoling juda-juda yomondir.

## **YOMON XOTIN VA AJDAR**

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Qadim zamonda bir odamning xotini yomon xulqli bo'lib, u erini doim kamsitar ekan. Chol bezor bo'lib, uni cho'ldagi bir quduqqa tashlab yuboribdi. Chol uch kundan keyin quduqning oldiga kelib arqon tashlabdi. Shu payt arqondan ajdar chiqib kelayotgan emish, buni ko'rgan chol arqonni kesmoqchi bo'lib turganda xudoning qudrati bilan ajdar tilga kiribdi va cholga:

– Iltimos, kesma, – debdi. Chol uni chiqarib olgandan keyin ajdardan so'rabdi:

– Nima bo'ldi?

– Men shu quduqda qirq yildan beri tinch yashab kelayotgandim, ammo uch kun avval bir yomon ayol kelib, meni o'limimga rozi qildi, – debdi ajdar.

Oradan besh yil o'tib, o'sha davlatda ajdar katta bir g'orga joylashib olib, oldiga yaqinlashgan odamni domiga tortib yutib yuboraveribdi. Shu davlat shohi farmon beribdi:

– Kimda-kim shu ajdarni o'ldirsa yoki quvib yuborsa, yarim davlatimni va qizimni beraman. Chol o'sha g'orning oldiga borib tursa, ajdar unga:

– Ey odam, men seni tanidim. Sen meni yomon xotindan xalos qilgan eding, – debdi. Shunda cholning xayoliga bir fikr kelibdi. U saroyga borib shohga debdi:

– Shohim, menga uchqur ot va o'tkir qilich bering. Chol qilich bilan g'or oldiga ot choptirib borib baqiribdi:

– Ey ajdarho, qoch yomon xotin kelyapti. Ajdarho orqa-oldiga qaramay qochibdi.

Shunday qilib, yomon ayolning bema’ni qiliqlariga hatto ajdar ham chiday olmagan ekan.

*Aytuvchi:*

*E.XOLIQULOV, 70 yosh, Samarqand viloyati*

*Yozib oluvchi:*

*S.ALIQULOV, 8-sinf o’quvchisi*

## YOV QOCHSA

O’rmonda ikki baroq mushuk tanholikda kun kechirar ekan. Ular ko’p jonivorlarni ko’rishgan bo’lsalar-da, zotlariga mansublarini hech uchratmagan ekanlar. Kunlarning birida nogoh to’qnash kelibdilar-u, bir-birlarini ko’rib dahshatga tushibdilar. Birinchi mushuk vajohatli dushmani qo’rqitmoq uchun dumini asabiy likillatganicha jon-jahdi bilan unga qarshi yuribdi. Biroq bir-birlariga yaqinlashmay turib, qo’rquvdan o’takalari yorilay deb, har tomonga qochib qolishibdi. Ma’lum bir masofani bosib o’tgan birinchi mushuk orqasiga o’girilib qarasa, uni hech kim quvmayotgan emish. Shunda u:

– To’xta, men bu hayvondan qochib yuribman, u esa mendan ham oldin shataloq otib qolibdi-ku. Demak, u ham mendan qo’rqibdi, – deb o’ylab orqasiga qaytibdi. Bu payt ikkinchi mushuk baland changal-zorga ro’para kelib, ilojsizlikdan miyovlab yuboribdi. O’qdek uchib kelayotgan birinchi mushuk bu holatni ko’ribdi-yu, kalovlanib qolibdi va o’zi ham to’xtabdi.

– Qanday dahshat! Men ahmoq, nima qilardim qaytib?! Endi meni bu joyda nobud qilishadi, unga hech narsa xalaqit bermaydi. Vaqt g’animat, juftak-

ni rostlash kerak, – deb o‘ylabdi u. Birinchi mushuk qandoq tez kelgan bo‘lsa, shundoq iziga qaytibdi.

**Xulosa:**

O‘z yaqiningni bilmasang, joning azobda, ko‘zingni kattaroq ochib yasha.

*Aytuvchi:*

*B. KARIMOV, 64 yosh, G‘allaorol tumani.*

*Yozib oluvchi:*

*A.KARIMOV, 5-sinf o‘quvchisi*

## HIMOYA

Olg‘ir nomli bir quyon ilmiy ish yoqlar edi,  
Bu fanda yangilik, deb o‘zini oqlar edi.  
– Himoyaning nomini bilishga bo‘lsa xohish:  
«Hayvonlarning terisini tiriklayin shilish».  
Bo‘ri turdi joyidan: – Bizda savol bor bitta,  
Himoyani amalda «ko‘rsatarsiz» albatta?  
– Xohlasangiz marhamat, anov xonaga o‘ting,  
Sizlar esa shu yerda, natijasini kuting.  
Bo‘ri dedi o‘zicha: – Bir ta‘zirin berayin,  
Hozir zap semiribdi, tiriklayin yeyayin.  
Alohida xonaga ikkisi kirib ketdi,  
Oradan besh daqiqa, chamasi, vaqt ham o‘tdi.  
Quyon chiqdi xonadan, qo‘lida qonli teri.  
Masala hal – bo‘rining, demak, quribdi sho‘ri.  
– Yana xohlaganlar xonaga o‘tsin, – dedi.  
Quyonvoyning o‘ziga ishonchi katta edi.  
– Bu maqtanchiq, menimcha tinchimaydi o‘lguncha,  
Deya ayiqpolvonjon kirib ketdi xonaga.  
Chamasi oradan besh daqiqa vaqt o‘tib,  
Quyon chiqdi qo‘lida ayiq terisin tutib.  
Hamma hayron, hamma lol.

Ne boʻlganin bilmaydi.  
Albatta, boshqalarning oʻlgilari kelmaydi.  
Shu payt oʻsha xonadan chiqib keldi hoqon sher,  
– Bizning jiyanga yana savollardan bormi? – der.

**Xulosa:**

Hayotda bu maʼlumdir, agar togʻang boʻlsa sher,  
Hech ikkilanmay, doʻstim, mansab qoʻlda deyaver.

*Aytuvchi:*

*Y.NASRIDDINOV, 61 yosh, Samarqand viloyati,  
Samarqand shahri.*

*Yozib oluvchi:*

*O.YUSUPOVA, 7-sinf oʻquvchisi*

## AQLLI BOLA

Bir bor ekan, bir yoʻq ekan. Qadim zamonda bir maqtanchoq podsho boʻlgan ekan. Bu podsho «bu yurtida mendan aqlli odam yoʻq», deb yurar ekan. Bir kuni podsho ovga chiqibdi. U tushgacha ov qilib, hech narsa tuta olmabdi. Yoʻlda bir bolani uchratibdi. Podsho bolaga qarab:

– Hoy bola, bizni mehmon qilmaysanmi? – debdi.

Bola unga:

– Jonim bilan, – deb javob beribdi. Podsho:

– Bizlarni nima soʻyib mehmon qilasan? – deb soʻrabdi. Bola esa:

– Topsak birini, topmasak ikkisini soʻyamiz, – deya javob qaytaribdi. Podsho bolaning javobidan hayron boʻlibdi. Vazirlariga:

– Bu bolaning gapida xosiyat bor, buni bir sinab koʻramiz, – debdi. Podsho vazirlari bilan bolaning uyiga boribdi. Bola podsho va uning odamlarini yaxshilab mehmon qilibdi. Podsho undan:

– Ey bola, nechta qoʻy soʻyding, – deb soʻrabdi. Bolakay esa:

– Birini topmadik, shuning uchun ikkini so‘ydik, – deb javob beribdi.

– Birini topmasang, ikkini qayerdan topasan? – debdi shoh. Shunda bola unga qarab:

– Bizning bir bo‘g‘oz qo‘yimiz bor edi. Boshqa qo‘y topolmay, shu qo‘yni so‘ydik. Qo‘yni so‘ygandan keyin bolasi ham o‘ldi. Ikkinini so‘ydik deganning ma‘nosi shu, – debdi.

Bu gaplarni eshitgan shoh bolaning aqliga qoyil qolibdi. Keyin uni o‘z saroyiga olib ketibdi. Bola esa o‘qib, dono bo‘libdi, podsho uni o‘ziga vazir qilib olibdi.

*Aytuvchi:*

*D.Boboqulova, 43 yosh, Do‘stlik tumani.*

*Yozib oluvchi:*

*Q.Julliboyev, 8-sinf o‘quvchisi*

## KULOL YIGIT

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan. Qadim zamonda bir kulol yigit bor ekan. U bola juda ham yaxshi, mehribon va ochiqko‘ngil ekan. U kulolchilikka qiziqar ekan. Uning qo‘lidan ko‘p ishlar kelar ekan. U loydan ko‘za, kosa, tovoq va bundan ham ko‘p narsalarni yasalar ekan. Uning bir do‘sti bor ekan. U ham yaxshi, ammo sal qo‘polroq, kalta o‘ylaydigan va mansabparast ekan.

Oradan ancha vaqt o‘tibdi. Kulol yigit kulolchilik qilib kun kechiraveribdi. Bir kuni kulol bola ish bilan bir joyga tezroq borishi kerak bo‘lib qolibdi. Ishxonasiidagi o‘zi yasagan buyumlarga qarab turishni do‘stidan iltimos qilibdi. Do‘sti kulol bolaning o‘rniga qolibdi va yasalgan narsalarni sota boshlabdi. U yerga har xil sayohatchilar va savdogarlar kelar ekan,

savdo ham yaxshi bo'lgani uchun kulol bola o'sha joyga ko'chib o'tgan ekan. Do'stini kulol ekan, yaxshi narsalar yasar ekan deb o'ylashibdi. Do'sti kulol bolaning ishlarini o'ziniki qilib ko'rsatib, o'zini maqtab elga ko'rsatibdi.

O'sha yurtning shahzodasi saroyning ayrim joylarini kulolchilik buyumlari bilan bezashni xohlabdi va kulol bola yashaydigan qishloqdan yaxshi kulol olib kelishlarini buyuribdi. Kulol bolaning do'stini shahzodaning oldiga olib kelishibdi. Shahzoda unga:

– Mana shu joylarni ko'nglimdagidek bezatsang, seni bosh-oyoq sarpo bilan taqdir layman. Agarda ep-lolmasang, seni qatl ettiraman, – debdi. Haligi bola nima qilishni bilmabdi. Kulol yigit do'konga kelsa, do'sti yo'q ekan. Odamlardan so'rab, saroyga, do'sti-ning oldiga boribdi. Shahzodaga do'sti unga yordam bersa, ishi tezroq tugashini aytibdi. Shahzoda rozi bo'libdi. Do'stiga yordam berayotgan paytda ularning gaplarini bir navkar eshitib qolibdi va shahzodaga yetkazibdi. Bu gaplardan g'azablangan shahzoda kulol yigitning do'stini qatl etishga buyruq beribdi. Kulol yigit shahzodadan do'stini kechirishini so'rabdi. Shahzoda kulol yigitning hurmati uchun uni shahardan badarg'a qilibdi. Kulol yigit esa shahzoda buyrug'ini bajarib, halol kun kechiribdi.

**Aytuvchi:**

*Sh. Islomova, 62 yosh, Jizzax shahri.*

**Yozib oluvchi:**

*A. Islomova, 8-sinf o'quvchisi*

## DUMSIZ TULKI

Bor ekanda, yo‘q ekan. Qadim zamonda bir tulki bo‘lgan ekan. U bir kuni yo‘lda ketayotsa, tog‘dan bir katta xarsang tosh uning dumiga tushib, sapchaday uzib tashlabdi. U juda zorlanib yig‘labdi. Uni do‘stlari «yarim dum» deb mazax qilishibdi. U juda xafa bo‘libdi, kechasi bilan oylabdi va ertasi kuni do‘stlarini chaqirib:

– Hammalaring dumlaringni bir-birinikiga bog‘langlar, – debdi. Ular tulkinging aytganini qilishibdi. Tulki esa:

– Qaranglar, ovchi kelyapti, – deb ularni qo‘rqitibdi. Shunda ular ura qochishibdi. Keyin ularning ham dumlari uzilib ketibdi. Tulki xaxolab kulibdi. U:

– Sen ham yarim dum, men ham yarim dum, – debdi. Shundan keyin ular tulkinging ustidan kulmaydigan bo‘lishibdi.

*Aytuvchi:*

*T.Rasulov, 66 yosh. G‘allaorol tumani.*

*Yozib oluvchi:*

*A.Toshqulov, 5-sinf o‘quvchisi*

## IKKI AKA-UKA

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan. Qadim o‘tgan zamonda ikki aka-uka bo‘lgan ekan. Ular doim bir-biri bilan janjallashib yurishar ekan. Hech qachon bir-biri bilan kelishmas ekan. Ular shu tariqa ulg‘ayishibdi. Ularni bo‘ylari ham yetib qolibdi. Ota-onalarining bellaridan kuch ketib, qarib qolishibdi. Shunda ular o‘g‘illarini oldilariga chaqirib:

– Bolalarim, bo‘ylaring yetib, ulg‘ayib qoldinglar. Biz esa qarib qoldik. Endi o‘zlaring yurt kezib, o‘zla-

ringga mos kelin topinglar. Bir-biring bilan hech ham kelisha olmadinglar. Ikkovlarning bir ayro yashab ko‘ringlar-chi, – deyishibdi.

Ikki aka-uka ota-onasining gaplariga rozi bo‘lishibdi va yurt kezgani ikkalasi ikki tarafga qarab ketishibdi. Kattasi yo‘l yuribdi, yo‘l yursa ham mo‘l yuribdi. Oradan uch kun o‘tgach, katta aka bir kulbaga yetib kelibdi. U eshikni taqillatibdi. Eshikni bir qariya ochibdi. U qariyadan bir kechaga joy berishini so‘rabdi, qariya unga uyidan joy beribdi va yurtidagi yangiliklar to‘g‘risida yigitga so‘zlab beribdi. Yigit bilan dildan suhbat quribdi. Yurtining shohi va uning go‘zal qizi haqida so‘zlab beribdi. Shoh qiziga kelayotgan sovchilarga shart qo‘yganini aytibdi. Yigit bu gapni eshitib, o‘zini sinab ko‘rmoqchi bo‘libdi. Chol yigitning qarorini eshitib o‘ylanib qolibdi va sekin so‘z boshlabdi:

– Shartning eng yomon tomoni bor. Shoh aytgan sinovini bajara olmasangiz, sizni o‘ldirtiradi.

Shunda katta aka choldan bu sinovlarga uni tayyorlashini iltimos qilib so‘rabdi. Chol bunga rozi bo‘libdi.

Ular tayyorgarlikni boshlab yuborishibdi. Bu paytda kichik uka yurt kezar edi. U akasini juda sog‘inibdi. Kichik uka ham yurtni kezib-keziq bir qishloqqa yetib kelibdi. Buni qarangki, bu qishloq akasi yashab yurgan qishloq ekan. Uka ham, aka ham bir qishloqqa kelib qolibdilar. Ikkinchi o‘g‘il ham bir kulbaning eshigini taqillatibdi. Shunda eshikni bir kampir ochibdi, u ham yordam so‘rab shu kampirning uyiga joylashibdi. Uka ham yurt kezib shoh qizi haqida eshitgan ekan. U ham kampirdan iltimos qilib, sinovga tayyorlantirishni so‘rabdi. Kampir rozi bo‘libdi.



Ikki aka-uka bir-birini koʻrmasdan kundan kunga gʻayrati oshib boraveribdi. Ular shohning shartlariga tayyor boʻlishibdi. Oʻzlarini sinash uchun musobaqaga, shoh saroyiga borishibdi. Aka-ukalar shoh saroyida bir-birini uchratishgach, ikkalasi bir malika uchun tortishayotganini bilib qolishdi. Ular bir-birini juda sogʻingan ekan. Koʻrishganidan xursand boʻlib quchoqlasha ketishibdi. Saroyga kelish sababini bir-biridan bilgach, birdaniga ikkalasiga ham bir fikr kelibdi. Kichik uka malikaning shartlarini bajarib, akasi uylanishi kerakligini aytibdi. Akasi chol va kampir, ukasining yordami bilan sinovlardan aʼlo darajada oʻtibdi va shoh qiziga uylanibdi. Ukasi shu qishloqdagi bir qizni bilar ekan. U oʻsha uyidan joy berib yaxshilik qilgan kampirning qizi ekan. Kichik botir kampirning qiziga uylanibdi. U juda ham odobli qiz ekan. Ikki aka-uka musofirlikda bir-birining qad-rini tushunib yetishibdi. Bundan keyin umuman janjallashmaydigan boʻlishibdi. Ular baxtli hayot kechira boshlashibdi. Farzandli boʻlishibdi. Farzandlariga ham faqat ahil-inoq boʻlishlarini uqtirishar ekan.

## QORA PODSHO

Bir bor ekan, bir yoʻq ekan. Qadim-qadim zamonada adolatli podsho boʻlgan ekan. U xalq orasida «Qora podsho» deb atalar ekan. Podshoning goʻzallikda tengi yoʻq Sarvigul degan qizi boʻlgan ekan. Qiz juda ham malohatli va chiroyliligi uchun unga turli mamlakatlardan sovchilar kelishar ekan. Ammo oqkoʻngil ota ularni surishtirmay hech qaysisini qiziga yaqinlashedirmas ekan.

Qiz kanizaklari bilan boʻsh vaqtlarida daryo boʻyiga borar ekan.

Kunlarning birida malika aylanib yurgan bir yigitga duch kelibdi va shunday debdi:

– Ey musofir yigit, malikaning oldida turishingni qanday izohlaysan? Yigit:

– Men musofir emasman, – deb javob qaytaribdi. Malika hayron bo‘lib:

– Unda kimsan? – debdi. Yigit:

– Men Buxoro xoniman, – degan javob bilan kifoyalanibdi u. Bu paytda malikaning otasi ham mamlakatga kelgan Buxoro sultoni Qoraxonni kutib olibdi. Podsho u bilan juda qadrdon tanish edilar. Ular bolalarini unashtirish niyatida ekanlar.

Malika va Buxoro xoni bir-birini ko‘rib yoqtirib qolgan edilar.

Kunlarning birida xon yigit o‘z yurtiga qaytishiga to‘g‘ri kelibdi. Malikasiga qaytib kelishga so‘z berib ketibdi. Qiz xon yigitni uzoq kutibdi, ammo u kelmabdi. Qiz otasining zo‘ri bilan boshqa kishiga turmushga chiqishga rozilik bildiribdi va o‘z taqdiriga tan beribdi.

Ammo to‘y kuni xon yigit oppoq otda kelib, malikani o‘z yurtiga olib ketmoqchi bo‘libdi, chunki yigit Qoraxonning o‘g‘li ekan. Qora podsho qizining baxtini ko‘rib xursand bo‘libdi. Shu-shu malika va Buxoro xoni, Qora podsho va Qoraxon umrlarining oxirigacha murod-maqсадlariga yetib, davlatlarining ravnaqi uchun birga kurashibdilar.

**Aytuvchi:**

*Akromov Bahriddin bobo, Navoiy viloyati,  
Xatirchi tumani.*

**Yozib oluvchi:**

*Yo‘ldoshmurodov Diyorbek, 6-sinf o‘quvchisi*

## AHILLIKDA GAP KO'P

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamonda kuz kunlarining birida qurigan barg, tuproq va daraxt bahslashishibdi.

Daraxt:

– Sizlar mendan quvvat olasizlar, – debdi.

Qurigan barg:

– Yo'q, siz ikkalangiz ham menikisiz, – debdi.

Tuproq:

– Bu gaping yolg'on. Xazon ham, daraxt ham mendan ozuqa oladi, – debdi.

Uchalasi hech kelisholmay oxiri odamzotga murojaat qilishibdi.

Shunda odamzot shunday debdi:

– Xazon, sening gaping to'g'ri, sen kuzda tuproqqa to'kilib o'g'it bo'lasan. Sen esa tuproq, bargdan quvvat olib, daraxtni ko'kartirasan. Daraxt undan quvvatlanib, meva tugadi, biz odamlar esa uni iste'mol qilamiz. Kuzga kelib daraxt barglari yana qurib yerga tushadi.

Tuproq:

– Unday bo'lsa bu yil men o'g'itsiz qolar ekanmanda, daraxtning bargi to'kilib tugasa keyingi yil nima bo'ladi-a?

Odam:

– Yo'q, har yili daraxt bargini to'kkanda o'zida kurtak qoldiradi, kurtakdan yangi barglar o'sib chiqadi.

Bu gapdan xursand bo'lib, daraxt, barg va tuproq uzoq yil bir-biriga quvvat berib, ahil-inoq yashabdilar.

**Qissadan hissa:** har bir jonli mavjudot umri davomida bir-biriga malham bo'lish uchun yaratilgan. Undan har doim samarali foydalanish kerak.

*Aytuvchi:*

*Inoyatov Juma bobo, Navoiy viloyati, Xatirchi tumani.*

*Yozib oluvchi:*

*To'xtapo'latov Diyorjon, 5-sinf o'quvchisi*

## G‘OZCHA

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan. G‘oz karnaychi ekan, o‘rdak surnaychi ekan, qarg‘a qaqimchi ekan, chumchuq chaqimchi ekan, bo‘ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan. Bir kuni bir savdogar parranda bozoridan bir g‘oz sotib olibdi. Uni uyiga olib kelib, katakka qo‘yib yuboribdi. Katakda boshqa parrandalar g‘ozni yoq-tirmay qarshi olibdilar. Bechora g‘ozchaga hech kim do‘st bo‘lmabdi. G‘ozcha katakka kirsam, tovuqlar uni masxara qilib kula boshlarkanlar. Oradan oylar, yillar o‘tibdi. G‘ozcha katta bo‘lib, chiroy ochibdi. G‘ozni uy egasi yaxshi ko‘rardi, bunga tovuq va o‘rdaklarning hasadi kelibdi. G‘ozni cho‘qib, azob bera boshlabdilar, uni kasal qilibdilar. Buni ko‘rib uy egasi tovuqlar va o‘rdaklarni boqib semirtira olmabdi. Semirsa sotib yubormoqchi ekan. Tovular bundan xursand bo‘lib, xo‘jayinimiz endi bizlarga qarayapti, – debdi. Tovular semirgach, uy egasi tovuq va o‘rdaklarni olib bozorga boribdi. Tovularni sotib, o‘rniga g‘oz uchun hamroh g‘ozcha olibdi. G‘ozchani uyga olib kelib, katakka qo‘yib yuboribdi. Bizning qahramonimiz oqko‘ngil ekan, yangi mehmonni yaxshi kutib olib, do‘stlashib ketibdi. Ikki o‘rtoq murod-maqsadiga yetibdi.

**Qissadan hissa:** kimki oqko‘ngil va rahmli bolsa, mehr-muhabbat nuri uni ham siylamay qo‘ymaydi.

**Aytuvchi:**

*Ergasheva Robiya buvi, Navoiy viloyati,  
Xatirchi tumani.*

**Yozib oluvchi:**

*Bo‘ritoshev Barkamol, 6-sinf o‘quvchisi*

## ASRAB OLINGAN QIZ

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Qadim zamonda bir kishi bo'lgan ekan. Uning atigi bittagina o'g'li bor ekan. U farzandi uchun hamma narsani muhayyo qilar ekan. Bir kuni bolasi bilan bozordan kelayotsa, bir qizaloqning adashib qolganini ko'ribdi. Qizaloqning ota-onasi topilmagach, uni ham tarbiyalab voyaga yetkazibdi. Oradan yillar o'tibdi. Ikkita farzand ham katta bo'lib qolibdi.

U kishining o'z farzandi erka, tantiq, qaysar bo'lib o'sibdi. U maktabga bormay, ko'chadagi bolalarni urib-turtib yurar ekan. Tarbiyalab olingan qizaloq esa aqlli, bilimdon bo'lib yetishibdi.

Kunlardan bir kun ota betob bo'lib, yotib qolibdi. Uyga pul topib kela olmabdi. Yaxshi yeb, yaxshi kiyingan tantiq o'g'il bunday ko'rgilikka chiday olmay ota uyini tark etibdi. Qishloqlarni kezibdi, tirikchilik uchun o'ziga eng yengil kasb, deb o'g'rilikni tanlabdi. Har kun qishloq odamlari o'g'rining dastidan aziyat cheka boshlabdi. Darg'azab bo'lgan xalq uni tutib olib, rosa savalashibdi. Qiyinchilik ko'rmagan o'g'il bu holga chiday olmay yorug' dunyodan ko'z yumibdi.

Asrab olingan qiz esa kasal otani yaxshi boqib, kishilarning mehnatini qilib, halol pul topib, otasini oyoqqa turg'azibdi. Akasini izlab, daragini topib, uni izzat-hurmat qilib ko'mdiribdi. Ota bu holni ko'rib, o'g'lini yoshligidan erka, tantiq qilib o'stirganidan afsuslanibdi. Asrab olgan qizi otasiga qarab, umrining oxirigacha duosini olibdi.

**Qissadan hissa:** mehr berish bilan kifoyalansizlik kerak, mehr va muhabbat orqali odob qoidalarini farzand ongiga singdirmoq vojibdir.

*Aytuvchi:*

*Eshonqulova Hamrobibi, Navoiy viloyati,  
Xatirchi tumani.*

*Yozib oluvchi:*

*Tojiyev Muhammad, 6-sinf o'quvchisi*

## OQKO'NGIL O'TINCHI

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Xonlikka qarashli qishloqda bir kambag'al o'tinchi bo'lgan ekan. O'tinchi bir kuni o'rmonga borib daraxt chopmoqchi bo'libdi. Boltasi qayergadir uchib tushibdi. Boltasini topa olmay o'tinchi sarson bo'libdi. Kech tushibdi. O'tinchi nima qilishini bilmay xo'rsinib, xafa bo'lib o'tirsa, bir yoshi katta otaxon unga qarab kela boshlabdi va shunday debdi:

– O'g'lim, nimang yo'qoldi? O'tinchi bor gapni unga aytib beribdi va yig'labdi. Shunda otaxon bir ko'za oltin berib unga xohlagan ishingni qil, debdi. O'tinchi oltinni olmabdi. Bundan xursand bo'lgan chol:

– Sen nimangni yo'qotding? – deb so'rabdi. O'tinchi:

– Mening oddiy boltam bor edi, o'shani topa olmayapman, – deb javob beribdi. Otaxon:

– Sen uyingga boraver, tashvishlanma, xotirjam bo'l, boltangni o'zim topib beraman, – debdi. O'tinchi uyiga borsa, boltasi uyida turgan emish. Ichkaridan bir ko'za oltin, bir ko'za kumush tangalarni olib xotini chiqibdi. O'tinchi va o'tinchining oilasi rostgo'yligi, oqko'ngilligi va halolligi uchun kambag'allikdan qutulibdi. Ular baxtli kun kechira boshlashibdi.

**Qissadan hissa:** oqko'ngil va rostgo'y bo'lsangiz, baxtingiz kulib boqadi.

**Aytuvchi:**

*Turdiyev Arslon bobo, Navoiy viloyati,  
Navbahor tumani.*

**Yozib oluvchi:**

*Aktamov Fozilbek, 6-sinf o'quvchisi*

## BOG‘BON

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan. Qadim zamonda bir bog‘bon bo‘lgan ekan. U juda mehnatkash odam ekan. Bir kuni u o‘ziga-o‘zi:

– Men bir bog‘ yarataman, u dunyodagi hech qaysi bog‘ga o‘xshamaydi, – debdi. Bog‘bon oradan uch kun o‘tib, bozordan ko‘chatlar olib kelibdi. Qirdan yer olib, uni haydatibdi. Yerni tekislab, ko‘chatlarni eka boshlabdi. Bobosiga yordam berish uchun nevarasi kelibdi. Bobo bilan nevara birgalikda ko‘chat ekib, ko‘chatlarga suv quyib chiqibdi. Oradan o‘n yil o‘tgach, ko‘chatlar daraxtga aylanib meva bera boshlabdi. Bobo va nevara mevalarni sotib, asta-sekinlik bilan boyib boshlabdi. Bobo bog‘da nevarasiga shunday debdi:

– Bolam, nimani eksang, o‘shani o‘rasan, – debdi. Nevara bu gapdan juda ham xursand bo‘lib bog‘ ishlarini davom ettiraveribdi va kelajakda buyuk bog‘bon bo‘lib yetishibdi.

**Qissadan hissa:** mehnatdan kelsa boylik, turmush bo‘lar chiroylik.

*Aytuvchi:*

*Abdiyev Fozil bobo, Navoiy viloyati,  
Xatirchi tumani.*

*Yozib oluvchi:*

*Shodiyev Obid, 6-sinf o‘quvchisi*

## XASIS CHOL

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan. Qadim o‘tgan zamonda bir chol bo‘lgan ekan. U juda ham xasis, qizg‘anchiq ekan. Kunlarning birida chol ko‘chada kelayotsa oldidan bir buzoqcha chiqib qolibdi. Chol uni ipidan bo‘shatib, uyiga olib borib bog‘lab qo‘yibdi. Keyingi

kuni qishloqda Hasanboyning buzogʻi yoʻqoldi, degan mish-mish tarqalibdi. Hasanboy boʻlgan voqeani qoziga borib aytibdi. Qozi bilan Hasanboy hamma hovlilarni tekshirib chiqishibdi. Va nihoyat navbat oʻgʻri cholnikiga kelibdi. Buni oldindan bilgan chol eshagini soʻyib terisini shilib olib, buzoqchanning ustiga yopib, tikib qoʻyibdi. Hasanboy uyga kiribdi-yu koʻzi eshakkaga tushibdi va u haqiqiy eshak emasligini bilibdi. Shunda Hasanboy cholga qarab:

– Men buzoqchamni qidirib yurganimni bilasizmi?  
– deb soʻrabdi. Shunda chol:

– Buzoqchangizni endi topa olmaysiz, uni bozordan qancha pulga olgansiz? – debdi. Shunda Hasanboy:

– Buzoq sigirimning bolasi, buzoq kasal edi. Kasali juda yuqumli, uning kasali odamlarga yuqsa, oʻldiradi, kasallik tarqalmasin deb, izlab yurgan edim, – debdi.

Buni eshitgan chol birdaniga qaltiray boshlabdi va:

– Buzogʻingiz mening uyimda, iltimos uni olib keting, – deb hamma ayblarini boʻyniga olib, kechirim soʻrabdi. Hasanboyning buzogʻi topilibdi.

Xasis chol boshqa oʻgʻrilik qilmaydigan boʻlibdi, eshagidan ayrilibdi.

**Qissadan hissa:** aql – foyda kalitidir. Donishmandlik ezgulik sari yoʻl boshlaydi.

*Aytuvchi:*

*Olimov Ali bobo, Navoiy viloyati,  
Xatirchi tumani.*

*Yozib oluvchi:*

*Aʼzamov Otajon, 5-sinf oʻquvchisi*



## QUYONLAR

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan. Qadim zamonda ahil quyonlar oilasi yashagan ekan. Bir kuni quyonlar o‘ynayotgan payt tulki kelib qolibdi. Ular darhol uylariga kirishibdi. Ko‘chada quloqsiz, o‘yinqaroq quyoncha qolib ketgan ekan, tulki sekingina uyiga kirib ketayotgan quyonchani ko‘rib qolibdi va uni quvib ketibdi. Lekin chaqqon quyonchani tuta olmabdi. Quyon uyiga kirib olibdi. Tulki quyonchalarni uzoq poylabdi. Ular chiqishmabdi. Tulki bo‘ri bilan ko‘rishib, quyonlar haqida so‘zlab beribdi. Ular reja tuzishibdi vaertasiga quyonlarga hujum qilishibdi. Tulki bilan bo‘ri ularning uyini buzib, jar yoqasiga quvib ketishibdi. Chunki ularni jarga tashlab, so‘ng tushib yemoqchi bo‘lishibdi. Quyonlarning baxtiga yo‘lda ayiq ko‘ribdi va bo‘ri bilan tulkiga tashlanibdi. Quyonlar qutulganidan xursand bo‘lib ayiqqa rahmat aytibdilar. So‘ng birgalashib uylarini qaytadan ta‘mirlab olibdilar. Hammalari xursand yashab, baxtli hayot kechirishibdi.

**Qissadan hissa:** yaxshilik hech qachon yerda qolmagay.

*Aytuvchi:*

*Norov Bahrom bobo, Navoiy viloyati,  
Navoiy shahri.*

*Yozib oluvchi:*

*G‘aybullayev Ma‘murbek, 5-sinf o‘quvchisi*

## LAQMA BO‘RI

Tog‘da bir bo‘ri bo‘lgan ekan. U juda badjahl, ochko‘z va dangasa ekan. Bir kuni yo‘lda ketayotganida lahm go‘shning hidini sezib qolibdi, garchi uning qorni to‘q bo‘lsa ham uni yemoqchi bo‘libdi. Bo‘ri go‘shni

hididan darhol topib olibdi. Uni endi yemoqchi bo'lib turgan ekan, birdan ayiqpolvon kelibdi. U juda aqlli, o'sha tog'ning donishmandlaridan ekan. Ayiq:

– Bu go'shtni yema, – debdi.

– Nega? – deb so'rabdi bo'ri.

– Chunki bu tuzoq, – debdi u.

– Qani sen yeb ko'rsat-chi, ayiqpolvon, – debdi bo'ri. – Bu tuzoq ekanligini isbot qilib ber. Sen menga yolg'on gapiryapsan.

Ayiq go'shtni jahl ustida yeb ko'rsatmoqchi bo'lgan ekan, birdan tuzoqqa tushibdi. Ayiq bo'rini ishontirish uchun o'zini qurbon qilibdi. Buni ko'rgan bo'ri esa qochib ketibdi. Bo'ri yana ko'p yo'l yuribdi, qarasa sal nariroqda qo'y go'shti turgan emish. U ayiqning holini esdan chiqarib, nafs ustunlik qilib birdan go'shtga tashlanibdi. Bu go'sht ham ovchining tuzog'i ekan. Bo'ri do'stini tuzoqdan qutqarmay qochgani uchun afsuslanibdi. Qancha uvillab yordam so'rasa ham unga hech kim yordam bermabdi. Bo'ri nafsining qurboniga aylanibdi.

**Qissadan hissa:** birovga choh qazisang, o'zing tushasan.

*Aytuvchi:*

*Ayubov Boqi bobo, Navoiy viloyati, Karmana tumani.*

*Yozib oluvchi:*

*To'xtapo'latov Diyorjon, 5-sinf o'quvchisi*

## SHAHZODA

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bo'ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan, g'oz karnaychi ekan, o'rdak surnaychi ekan, chumchuq chaqimchi ekan, qarg'a qaqimchi ekan. Qadim zamonlarda bir podsho bo'lgan ekan.

Shohning o'g'il farzandi yo'q ekan. Bir kuni podshoning kenja xotini homilador bo'libdi. Podsho o'zini qo'yishga joy topolmay juda xursand bo'lib ketibdi. Buni ko'rgan ikki xotining hasadi kelibdi. Bir kuni podsho:

– Men safarga ketayapman, agar xotinim tug'sa, menga xabar yuborasizlar, – debdi va safarga otlanibdi. Oradan to'qqiz oy o'tganidan keyin kenja malika o'g'il tug'ibdi. Chaqaloq shunday chiroyli ekanki, chaqaloqni ko'rgan ikki xotinning kapalagi boshidan uchibdi. Nima qilishini bilmay, o'ylay-o'ylay malikaga dori berib, uni uxlatib qo'yishibdi. Keyin kundoshi qiroлга maktub yozibdi. Kenja malikangiz sizga uch dona toshbaqa tug'di deb, bolani yo'qotib, shohga uchta toshbaqani yuboribdi. Buni ko'rgan qiroл achchig'i kelib saroyga boribdi va malikani uzoq yurtga surgun qilibdi. Oradan o'n olti yil o'tibdi. Shahzodani o'zga yurtdagi bir baliqchi asrab olgan ekan. Shahzoda katta bo'libdi, ilm egallab, savod chiqarib, kasb-korli insonga aylanibdi. Donoligi va ziyrakligi uchun xalq uni o'ziga shoh qilib saylashibdi. Shahzoda o'z davlatini obodonlashtirib, go'zal va boy yurtga aylantiribdi. Yurt dovrug'ini eshitib, ko'pgina davlatlardan mehmonlar kela boshlabdi. Bu xabar shahzodaning otasiga ham yetib boribdi. Shoh o'g'li boshqarayotgan davlatga mehmonga boribdi, bir necha kun mehmon bo'libdi. Shahzoda har bir mehmon bilan suhbatlashar ekan, o'z otasini ham suhbatga chaqiribdi, dildan suhbatlasha turib, baliqchi boqib olgan otasi ekanligini aytibdi. Shoh razm solib, yigitning o'ziga o'xshashligini payqabdi va qo'lidagi uzugini tanibdi, surishtirib o'zining o'g'li ekanligini bilibdi. Shoh o'z malikasini surgundan qaytarib, saroyga olib kelibdi

va qolgan ikki malikani yoniga chaqirtiribdi. Malikalalar yolg'on tuhmat qilganlarini bo'yinlariga olishibdi va ular jazolanibdi. Podsho shahzodani bag'riga bosibdi. O'g'lini va malikani topganligi uchun shoh qirq kecha-yu qirq kunduz to'y-tomoshga qilib murod-maqsadiga yetibdi.

**Qissadan hissa:** yolg'onning umri qisqadir. Yolg'on so'z albatta fosh bo'lib, yolg'onchini uyaltiradi.

*Aytuvchi:*

*Ramazonov Qodir bobo, Navoiy viloyati,  
Xatirchi tumani.*

*Yozib oluvchi:*

*Bo'ritoshev Barkamol, 6-sinf o'quvchisi*

## ODOBSIZ QUYONCHA

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. O'tgan qadim zamonda quyonchalar oilasi yashar ekan. Ularning uylaridan o'n chaqirim narida bo'rivoy yashar ekan. Quyonchalarning oilasidagi yosh quyoncha juda ham odobsiz, sho'x ekan. Bo'rivoy esa odobli, oqko'ngil ekan. Uni hamma yirtqich, qonxo'r deb jig'iga tegar ekan. Bir kuni quyoncha maktabga ketayotganida bo'rivoyga uchrab qolibdi. Shunda quyoncha bo'rivoyning jig'iga tegib, maktabga qochib ketibdi. Bo'rivoy bundan rosa xafa bo'libdi. Quyoncha uyiga qaytib kelayotganida kapalaklarni tutib olib, o'ldirmoqchi bo'libdi. Kapalaklarni tutish uchun ortidan quva boshlabdi. Kapalaklarni quvib-quvib, adashib qolibdi.

Adashib qolgan quyoncha yig'lay boshlabdi. Buni eshitib qolgan bo'rivoy quyonchani oldiga boribdi. Quyoncha bo'rivoyni ko'rib, peshonasidan ter oqa boshlabdi. Bo'rivoy quyonchani yelkasiga ko'tarib olib, uyiga eltib qo'yibdi. Quyoncha bo'rivoyning oldida uyalib qolibdi.

**Qissadan hissa:** birovni kulgi qilsang, o‘zing uyalib qolasan.

*Aytuvchi:*

*Toshev Habib bobo, Navoiy viloyati, Karmana tumani.*

*Yozib oluvchi:*

*Eshonqulov Ibrohimbek, 5-sinf o‘quvchisi*

## UCHTA CHO‘CHQA

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, uchta cho‘chqa bo‘lgan ekan. Ularning dadasi vafot etgan ekan. Katta akasi:

– Kelinglar, o‘zimizga uy quraylik, unga bo‘ri kirolmasin, – debdi-da ishni boshlabdi. Ular jamlanib katta akasining uyini qura boshlashibdi. Bir oydan so‘ng akasining uyi bitibdi. Ular uyda yashayotganida bir bo‘ri kelib, uyni buzmoqchi bo‘libdi. Bo‘ri:

– Eshikni ochinglar, bo‘lmasa uyni buzib, hamman-gizni yeyman, – debdi-da uyni ura boshlabdi. Dag‘dag‘adan qo‘rqqan uchta cho‘chqa nima qilishini bilmabdi. Keyin iktasi bitta qozonning ichiga kirib olibdi, uchin-chisi esa hech qayerga yashirinmabdi. Bo‘ri eshikni buzib kirsas, oldida cho‘chqa turganmish. Cho‘chqa ovoning boricha bir baqirgan ekan, undan ilhom olib ikki akasi yashringan joyidan yugurib chiqib, uchalasi uch tomondan bo‘riga hamla qilishibdi.

Bo‘ri uch cho‘chqaning tashlanishini sira ham kutmagan ekan. Kuchi uch cho‘chqaga yetmasligini anglab qochib qolibdi.

**Qissadan hissa:** birlashgan o‘zar, birlashmagan to‘zar.

*Aytuvchi:*

*Yodgorov Sadi bobo, Navoiy viloyati, Nurota tumani.*

*Yozib oluvchi:*

*Karimov Islombek, 5-sinf o‘quvchisi*

## O'KTAM

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Qadim zamonda bir qashshoq qishloq bo'lgan ekan. O'sha qishloqning chekkasida O'ktamning oilasi yashar ekan. O'ktamning otasi va onasi kasal ekan. Ularni yeyishga noni, kiyishga kiyimi yo'q ekan. Ular juda nochor yashar ekanlar.

Bir kuni O'ktamning qishlog'ini yov bosibdi. O'ktam hamma yigitlar qatori yovni to'xtatmoqchi bo'libdi. U uydan arqon, pichoq va xanjar olibdi. O'ylab-o'ylab bir hiyla topibdi. O'ktam tog' tomon qocha boshlabdi. U tog'ni oldiga borganda ota-onasi esiga tushibdi. O'ktam ota-onasini qutqarmoqchi bo'libdi. Darhol orqaga qaytibdi. Yov qishloqni bosib olguncha, ayollar va bolalarni, ota-onasini tog'ga olib ketibdi. Ular yovdan qutulganlariga shukur qilib, bir qishloqqa yetib boribdilar. Qishloqda dehqonchilik qilib, kun ko'rib, o'zlariga uy qurishibdi. Ular mehnatlari evaziga asta-sekin boyib keta boshlashibdi. Bir kuni yurtini yov bosib olgani esiga tushib, O'ktam bor yiqqan mol-davlatiga qurol-aslaha sotib olib, qo'shin yig'ib, ona qishlog'ini ozod qilish uchun yo'lga otlanibdi. Manzilga yetib kelgach, shiddatli jang boshlanibdi. Mashaqqatlar evaziga O'ktam ona qishlog'ini ozod qilibdi. Xalq uni qishloqqa sardor qilib tayinlabdi. Ota-onasi ham g'alabadan xursand bo'lib, o'g'lini duo qilishibdi. O'ktam aql, farosat bilan ish tutib, tinch va farovon kun kechirib, qishlog'ini gulab-yashnatib, murod-maqsadiga yetibdi.

**Qissadan hissa:** ota-onasini e'zozlagan farzand elda aziz bo'lur.

*Aytuvchi:*

*Qilichev Erkin bobo, Navoiy viloyati, Nurota tumani.*

*Yozib oluvchi:*

*Karimov Islombek, 5-sinf o'quvchisi*

## CHUMCHUQ VA QARG‘A

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan. Qadim zamonda bir qarg‘a va chumchuq bo‘lgan ekan. Bir kuni qarg‘a chumchuqqa:

– Kel, do‘st bo‘laylik, – debdi.

Chumchuq tannoqlik qilib:

– Yo‘q, men senday ko‘rimsiz qush bilan do‘st bo‘lmayman, – deb aytibdi.

Qarg‘a juda xafa bo‘libdi. Chumchuq o‘ziga-o‘zi men hali dunyo kezaman, dala aylanaman, hali ko‘p do‘st topaman deb orzu qilibdi.

Kuz kelibdi. Sovuq boshlanibdi. Kuzgi qattiq shamol chumchuqning uyini buzib ketibdi. Shunda chumchuq:

– Endi nima qilaman? Uyim buzildi, yaqin do‘stim ham yo‘q, qish qattiq, sovuq kelayapti. Do‘stimning uyiga boray desam, do‘st ham tanlay olmadim, – deb afsuslanibdi.

Havo juda ham sovib, qor katta-katta yog‘a boshlabdi. Uysiz chumchuq ko‘chada muzlab qolibdi. Qarg‘a shu yaqin orada, daraxt kovagida yashar ekan. Chumchuqning muzlaganini ko‘rgan qarg‘a oldiga borib, kel do‘st bo‘lamiz, deb aytibdi. So‘ng uyiga olib kirib, unga joy beribdi. Qishni ahil-inoq o‘tkazishibdi. Bahor kelibdi, ikkovi chumchuqqa ham uy qurishibdi.

Shundan so‘ng qarg‘a va chumchuq qalin do‘st bo‘libdi.

**Qissadan hissa:** do‘st boshingga ish tushganda sinalur.

*Aytuvchi:*

*Shukurov Adham bobo, Samarqand viloyati,  
Kattaqo‘rg‘on tumani.*

*Yozib oluvchi:*

*Asrayev Shaxboz, 6-sinf o‘quvchisi*

## OVCHI VA AYIQCHA

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan. Qadim-qadim zamonda bir ovchi bo‘lgan ekan. U juda aqlli ekanki, insonlar tugul, hattoki jonzotlar ham uning aqliga lol qolar ekan.

Kunlarning birida ovchi yashaydigan qishloqda bir tovus paydo bo‘libdi. Bu tovus esa shu davlatning podshosiga tegishli ekan. Ovchi buni eshitib, darhol uni izlashga tushibdi. U yo‘lda ketayotib, bir tulkiga duch kelibdi. Tulki unga qarab:

– Hoy musofir, nimalar qilib yuribsan? Bizning o‘rmon juda ham xavfli, yaxshisi bu yerdan ket, – debdi. Ovchi esa uning gaplariga parvo ham qilmabdi. Chunki o‘rmon sokin, jimjit ekan. Ovchi tovusni ancha izlabdi, kech ham tushibdi. Ketayotib yo‘lda bir kampirni uchratibdi. Kampir:

– O‘g‘lim, menga birozgina non ber, – debdi.

– Berardim-u onajon, ammo o‘zimda ham non yo‘q, qornim juda och qoldi.

– Unda mayli, men seni tushundim, – deya xo‘rsinib kampir ko‘zdan g‘oyib bo‘libdi.

Ovchi bu sirdan hayron bo‘lib qarab qolibdi. Nima qilishini bilmay gulxan yoqib, gulxan yonida uxlabdi. Bir jajji ayiqcha uyqusirab uyidan chiqib, ovchining yoniga kelib qolibdi. Ovchi ertalab turib qarasa, oldida ayiq bolasi g‘ujanak bo‘lib uxlayotgan ekan. Ovchi hayron bo‘lib, ayiqchani silay boshlabdi.

Ayiqcha uyg‘onib, biroz hayratlanib turibdi-da, so‘ng so‘zlay boshlabdi.

– Ey odamzot, sen bu yerda nima qilyapsan?

Ovchi tovus izlab yurganini aytib beribdi. Shunda ayiqcha:



– Sen tovusni o‘rmondagi chinor tagidan topasan, – deb xayrlashib keta boshlabdi.

– Bu gapingga ishonmayman, tovus yo‘q, chunki kuni boyi izlab topa olmadim, – xafa bo‘libdi ovchi.

Ertasi kuni izlab-izlab ovchi bir chinorning tagidan tovusni ushlabdi. Ovchi yigit xursand bo‘lib uni shoh qasriga eltibdi. Shohning askarlari shohga xabar berishibdi. Shoh mamnuniyat bilan ovchini qarshi olib, boshdan-oyoq sarpo berib, uni mukofotlabdi. Shunday qilib ovchi jajji ayiqcha tufayli shohning nazariga tushibdi. Shoh uchun juda ham chiroyli qushlar, hayvonlar tutib kelib, shoh tahsiniga sazovor bo‘libdi. U bir umr jajji ayiqchani eslab yuribdi. Shohning marhamati tufayli oilasi bilan to‘kin-sochinlikda shoh saroyida hayot kechirib, murod-maqsadiga yetibdi.

**Alqissa:** Yaxshiga qilsang yaxshilik, ham aytadi, ham qaytadi,

Yomonga qilsang yaxshilik na aytadi, na qaytadi.

**Aytuvchi:**

*Qosimov Mirzomurod bobo. Navoiy viloyati,  
Xatirchi tumani.*

**Yozib oluvchi:**

*Yo‘ldoshmurodov Diyorbek, 6-sinf o‘quvchisi*

## AQLSIZ BOLA

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan. Qadim zamonda bir bola bo‘lgan ekan. U juda ham badxulq va odobsiz bola ekan. Ovqatni to‘kib yer ekan. Bu ham yetmagandek, ovqatni qo‘li bilan titib yer ekan.

Bir kuni yotoqxonasini juda ham to‘zitib, iflos qilib tashlabdi. Buni ko‘rgan oyisi:

– Voy o‘g‘lim, xonangni nima ahvolga solding? Tezda yig‘ishtirib qo‘y, men bozorga borib kelaman, – debdi-da ketibdi.

Oyisi bozorga ketgach, xudbin bola xonasiga kirib uxlashga yotibdi. Tush ko‘ribdi. Tushida bir chol uni balchiqqa itarib yuboribdi. Qancha harakat qilmasin, u balchiqdan chiqqa olmabdi. Asta razm solib qarasa, balchiq to‘plangan joy o‘z uyi ekan. Shunda chol:

– Agar uyingni iflos qilmaganingda seni balchiq o‘z domiga tortmasdi. Sen quloqsiz, xudbin bolasan, qachon oyingni aytganini qilsang, yengil tortasan, – debdi. Bola yig‘lab-yig‘lab uyg‘onib ketibdi. Qarasa uyi to‘zib ketgan, u oyisini chaqira boshlabdi. So‘ng oyisining bozorga ketgani esiga tushib, apil-tapil o‘rnidan turibdi-da, uyini yig‘ishtira boshlabdi. Uyini tozalagach, o‘zi yuvinib, toza kiyimlarini kiyibdi. Uyiga bir dasta gul qo‘yib, uy havosini almashtiribdi.

Onasi bozordan kelib qarasa, hammayoq orasta qilib qo‘yilgan. Bola toza kiyingan. Oyisini ochiq chehra bilan kutib olibdi. Onasi bu yangilikdan esankirab qolibdi va sekin o‘g‘lidan o‘zgarish sirini so‘rabdi. Bola oyisi bozorga ketgach yotib uxlaganini va tush ko‘rib, qo‘rqib ketganini aytib beribdi. So‘ng oyisini quchoqlab, kechirim so‘rabdi. Qayta bu xatolarini takrorlamaslikka so‘z beribdi. Oyisi o‘g‘liga aql kirib qolgani-dan xursand bo‘lib, Allohga shukronalar aytibdi. Aqlli o‘g‘li bilan baxtli yashab, murod-maqsadiga yetibdi.

**Qissadan hissa:** bir yomonga bir yaxshi, bir yaxshiga bir yomon xislat hamroh bo‘lur.

*Aytuvchi:*

*Boltayev Xayri bobo, Navoiy viloyati, Karmana tumani.*

*Yozib oluvchi:*

*Sheraliyeva Zarifa, 5-sinf o‘quvchisi*

## QO'NG'IZ BEKACH ERTAGI

Bu voqea juda qadimda, hayvonlar, parranda-yu darrandalar, qurt-qumursqalar ham inson tilida so'zlashadigan zamonda bo'lib o'tgan ekan.

Qo'ng'iz bekach ismli qiz bo'lib, u husnda tengsiz, nihoyatda go'zal ekan. Uning husn-u jamoli oldida hatto oy ham xira tortar ekan. Qo'ng'iz bekach voyaga yetibdi va o'ziga munosib yor axtarib yo'lga chiqibdi. Dastlab yo'lda podachiga duch kelibdi. Podachi unga:

– Menga turmushga chiq, – debdi. Shunda qo'ng'iz bekach:

– Agar aytganingni qilmasam nima qilasan? – deb so'rabdi. Podachi unga:

– Qo'limdagi shu kaltagim bilan uraman, – deb javob beribdi. Bu gapni eshitgan Qo'ng'izvoy podachiga rad javobini berib yo'lida davom etibdi.

Ancha yo'l yurgandan so'ng, bir temirchiga duch kelibdi. Temirchi ham undan turmushga chiqishini so'rabdi. Qo'ng'iz bekach temirchidan ham, aytgan ishlaringni qilmasam nima qilasan, deb so'rabdi. Temirchi unga qo'lidagi bolg'asi bilan urishini aytibdi. Bu gapdan keyin Qo'ng'iz bekach temirchiga ham rad javobini berib, yo'lida davom etibdi.

Qo'ng'iz bekach yo'l yursa ham, mo'l yurib, bir gulzordan chiqib qolibdi. Gulzorda u bir Qo'ng'izvoyni ko'ribdi. Qo'ng'izvoy Qo'ng'iz bekachga:

– Menga turmushga chiqqin, – debdi. Qo'ng'iz bekach undan ham:

– Jahlingni chiqarsam nima qilasan? – deb so'rabdi. Qo'ng'izvoy unga:

– Mo'ylovlarim bilan silab qo'yaman, – deb javob beribdi. Shundan so'ng Qo'ng'iz bekach Qo'ng'iz-

voyni turmushga chiqishga rozi bo'libdi. Ular gulzorda to'y-tomosha qilibdi va baxtli hayot kechirib, murod-maqсадlariga yetishibdi.

*Normatova Momoxon*

## **BAXT VA HASAD HAQIDA ERTAK**

Qadim o'tgan zamonda chol va kampir yashagan ekan. Ular yashagan yurt go'zal, obod va insonlari bir-birlari bilan ahil-inoq yashar ekanlar. Chol va kampir ham mana shunday baxtiyor oilalardan biri ekan. Ularning ikki qizi va ikki o'g'illari bo'lib, bir-biridan aqlli va xushmuomala farzandlar ekan. Ularning oilasiga hammaning havasi kelar ekan. Mana shunday go'zal yurtning bir chekka qishlog'ida yovuz yalmog'iz kampir yashar ekan. Jodugar yalmog'iz kampirning qulog'iga shu ahil oila haqidagi gaplar yetib boribdi. U hasad qilib baxtli oilaning shirin kunlariga chang solibdi.

Kunlardan bir kun yalmog'iz kampir qishloqqa kelibdi. Yalmog'iz o'zini och qolgan, bechora qilib ko'rsatib baxtli oilaning eshigini taqillatibdi. Eshikni kampir ochibdi va yalmog'iz kampirga rahmi kelib uyiga kiritibdi. Unga non-choy, ovqat va yangi ko'ylaklar beribdi. Kun kech bo'lib qorong'i tushibdi, chol daladan qaytibdi. Kampirni ko'rib:

– Uyda mehmon bormi? – debdi. Yalmog'iz shum niyatli bo'lgani uchun kechqurun uxlamabdi va tun yorishishidan oldin haligi dehqon cholni sehrlab, o'g'irlab ketibdi. Chunki yalmog'iz cholni qul qilib ishlatib, o'zi ham baxtli oilalarga o'xshashni istabdi. Lekin yalmog'iz kampir xohlaganidek bo'lmabdi.

Dehqon chol bolalarini sogʻinib, kundan kunga kuchdan ketib, kasal boʻlib boraveribdi. Buni koʻrgan yalmogʻiz unga ish buyurar, lekin cholning yaxshi ishlamagani va sogʻaymaganini koʻrib, kimsasiz bir choʻlga tashlab ketibdi. Dehqon cholning kampiri farzandlarini qiyinchilik bilan katta qilibdi. Farzandlari mehnatkash, odobli, esli-xushli boʻlib voyaga yetishibdi. Kampir qizlarini uzatib, oʻgʻillarini uylantiribdi.

Farzandlari otalarini izlashdan toʻxtamabdi. Bir kuni kenja oʻgʻli uzoq safarga chiqibdi. Karvon bilan choʻlda ketishayotganda bir devona cholni uchratishibdi. Karvonboshidan cholni birga olib ketishni iltimos qilibdi. Karvonboshi rozi boʻlibdi. Safar vaqtida kenja oʻgʻil choldan nima uchun yolgʻiz yurganligini soʻrabdi. Chol boshidan oʻtganlarini aytib beribdi. Uning baxtli oilasi borligini aytibdi. Yalmogʻiz kampir uni shu ahvolga solganini aytibdi. Bu hikoyani eshitgan oʻgʻli chol oʻz otasi ekanligini bilibdi. Oʻgʻli ham oʻzini tanishtiribdi. Shu onda ota bolasini topganidan xursand boʻlib, sevinch yoshlarini toʻkibdi. Soʻngra ular birgalikda oʻz yurtiga qaytishibdi va oilasi bilan baxtli hayot kechirishib, murod maqsadiga yetishibdi.

**Aytuvchi:**

*Mirzayeva Muborak buvi.*

**Yozib oluvchi:**

*Abdulhamidova Gavharoy, 5-sinf oʻquvchisi*

## LOCHIN VA KO'RSICHQON HAQIDA ERTAK

Bor ekan, yo'q ekan, och ekan-u to'q ekan, qadim zamonda bir ko'rsichqon yashagan ekan. Kunlardan bir kuni qattiq jala quyibdi. Ariq va soylarda suvlar to'lib oqibdi. Ko'rsichqon soy yoqasiga borib qolibdi. Qarasa suvda lochinning bitta polaponi oqib kelayotgan ekan. Shunda ko'rsichqon polaponni suvdan qutqarib olibdi. Unga juda mehr qo'yibdi. Polaponni oq yuvib, oq tarab tarbiya qila boshlabdi. Ko'rsichqon yolg'iz yashaganligi sababli, polaponga juda o'rganib qolibdi. Kichkina lochincha ham ko'rsichqonni o'z onasiday ko'ribdi. Kunlar ketidan kunlar o'tibdi. Polapon ulg'ayib chiroyli lochinga aylanibdi. Lochin har kuni o'z uyi tepasida charx urib samoda parvoz etarkan. Buni ko'rgan Ko'rsichqon juda quvonar ekan. Kunlardan bir kuni Lochin bilan birgalikda yana bir Lochinning samoda uchayotganini ko'ribdi. Ko'rsichqon bundan taajjublanibdi. Bu hol har kuni takrorlanibdi. Ko'rsichqon lochinning o'z juftini topganini anglabdi. Kunlar o'tib lochin qush o'ziga o'xshagan jajji polapon ochibdi. Buni ko'rgan Ko'rsichqon yanada quvonibdi. Sal o'tgach polaponlar ulg'ayibdi. Ular o'z otasi va onalari bilan samoda parvoz etishibdi-da, Ko'rsichqon uyining tepasida bir necha marta aylanib, unga minnatdorchilik bildirib, uzoqlarga uchib ketibdilar. Ko'rsichqon esa xursand bo'lib, ularning ortidan qarab qolibdi.

*Aytuvchi:*

*70 yoshli Ergasheva Kimsanoy aya.*

*Yozib oluvchi:*

*Najmiddinova Gulshanoy, 7-sinf o'quvchisi*

## ILM AFZAL

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, uzoq qishloqda bir oila bor ekan. Oilada 12 kishi istiqomat qilar ekan. Oila boshi ota-onaning to‘qqiz o‘g‘li, bir qizi bor edi. Farzandlar oila to‘kisligidan dangasa ekan. Ota bir kuni kechqurun farzandlariga shunday savol berdi:

– Farzandlarim, ayting-chi ilm afzalmi yoki mol-u davlatmi? Farzandlar birin-ketin mol-davlat afzalligi, hayotlari farovonligi va ilm olish zarur emasligini aytishibdi. Navbat to‘qqizinchi o‘g‘ilga kelibdi. Bola salmoqlab o‘ylanib:

– Otajon, mol-davlatingiz bori juda yaxshi, hayotimiz farovon, turmushimiz go‘zal, ammo mol-u davlat sarflangan sari tugaydi. Lekin ilm aslo eskirmaydi. Shuning uchun men ilmni afzal ko‘raman, – debdi. Navbat yakka-yu yolg‘iz qizga kelibdi. Qiz kenja akasining gapini ma‘qullabdi.

Ota kenja o‘g‘il va qizini ilm olishi uchun imkoniyat yaratib beribdi. Sakkiz o‘g‘il esa otasining mol-davlatini sarflash bilan ovora ekanlar. Vaqti kelib, ota-ona olamdan o‘tib ketibdilar. Farzandlar esa ota-onasi hayotlik davrida ilm egallagan uka va singlisiga havas bilan qarashar ekan. Chunki ularning hayoti farovon, turmushi chiroyli ekan.

Shuni aytadilarda, «Yeb turganga tog‘ ham turish bermaydi».

«Ilmli ming yashar, ilmsiz bir yashar».

*Aytuvchi:*

*Xoltoji ona.*

*Yozib oluvchi:*

*Jumaboyev Shohijahon, 6-sinf o‘quvchisi*

## CHO'PON YIGIT

Qadim-qadim zamonda bir cho'pon yigit o'tgan ekan. Uning ismi Do'stbek ekan. O'sha zamonda bir burda non topish uchun qishloqdagilar tun-u kun mehnat qilishar ekan. Endigina o'n yoshga to'lgan Do'stbek ota-onasining qiynalayotganini ko'rib, u ham ishlashga ahd qilibdi va uyidan chiqib ketibdi. Do'stbek ko'pgina qishloq va shaharlarni aylanib, bironta ham o'ziga mos ish topa olmabdi. Do'stbek ancha o'ylab, boshqa yurtdan ish izlash uchun yo'lga chiqibdi. Yo'lda ketayotganida cho'lda son-sanoqsiz qo'y boqib yurgan boy cho'ponni ko'ribdi. Boy undan so'rabdi:

– Yo'l bo'lsin, bolam, qayerlarga otlanding? Shunda Do'stbek o'z ahvolini tushuntiribdi.

Boy cho'pon:

– O'g'lim, xohlasang mana mening qo'ylarimni boqishga yordam bersang, xizmatini yerda qoldirmayman, – debdi. Shunda Do'stbek o'z ishini topganidan juda sevinibdi va boyning qo'ylariga cho'ponlikka o'tibdi. Do'stbek shunday mehnat qilibdiki, qo'y-qo'zilarini juda yaxshi parvarish qilib, yildan yilga qo'ylarning soni oshib boraveribdi.

Boy bundan juda xursand ekan. Kunlar, oylar va yillar o'tib, Do'stbek cho'pon boy oldiga boribdi va o'zining maqsadini aytibdi: «Boy ota, endi menga javob bersangiz, ota-onamning oldiga borsam, ular ham keksayib qoldi. Ularning xizmatini qilsam», debdi. Boy o'ylab turib, qancha yil xizmat qilganligini hisoblabdi. Hisoblab qarasa, Do'stbek yigirma yil boy xizmatida cho'ponlik qilganligi ma'lum bo'libdi.

Boy cho'pon Do'stbekka shunday debdi:

– Bu yilgi bahorda tug'iladigan kallasi oq qo'zilarining hammasi seniki bo'ladi. Shu yilgi bahorgi qo'zi-



lar tug'ila boshlabdi. Qo'ylarning yarmidan ko'pi oq boshli qo'zi tug'ibdi. Boy Do'stbekka bu qo'ylarning hammasi sening peshona teringdir, bolam, debdi.

Do'stbek bu qo'ylarning hisobiga yetolmabdi. Qishlog'iga haydab borib, qo'ylardan beva-bechoralarga, kambag'allarga bo'lib beribdi. Shunda ham qo'ylarning soni kamaymasmish. Qishloq ko'chalarini, ko'prik, masjidlarni ta'mirlabdi. Shunda ham Do'stbek qo'ylarni boqishga qiynalibdi. Oqsoqollarni yig'ib, qo'ylarni nima qilishni so'rabdi. Oqsoqollardan biri aziz avliyolar hurmatiga bir katta masjid solishni taklif qilibdi. Bu taklif Do'stbekka ham juda yoqibdi. O'ylay-o'ylay Do'stbek Samarqand shahriga yo'l olibdi. Samarqandni juda ko'p aylanibdi. Keyin u Samarqanddagi mashhur eshon va mullalar oldiga borib, o'z niyatini aytibdi. Do'stbekning cho'pon kiyimida yurganini ko'rib, uning masjid qurishiga ishonmasdan o'zaro maslahat qilib, bir jar yoqasidan joy ko'rsatishibdi. Ulardan bittasi miyig'ida kulib, u joyga hech qachon masjid qurolmaydi. O'zi bir darveshona yursa, qanday qilib u masjid quradi, deb kulibdi.

Do'stbek shaharga tushib, usta va mardikorlar topibdi. Bosh ustaga bir xalta oltin berib, bu oltinga usta va mardikorlar uchun ish kiyimi va asbob-uskunalar olish uchun sarflashni aytibdi. Ustalar uchun oshpaz va bir otar qo'y haydab kelib, mana shu qo'ylarni ustalarning ovqati uchun so'yishni buyuribdi.

Masjid qurilishi jadallashib, tez fursat ichida chiroyli va ko'rkam masjid bunyod etilibdi. Masjid ichida talabalar uchun turar joy hujralari va katta kutubxona ham qurilibdi. Masjid qurib bitkazilib, usta va mardikorlar haqini berishga kelganda mardikorlardan bittasi g'oyibdan yo'qolibdi. Usta va mardikorlar qanchalik izlashmasin, mardikorni topolmay sarson

bo'lishibdi va o'shanda bu masjidning nomini xizir masjid deb atashibdi.

Masjidning jar yoqasida qurilganiga hayron bo'lgan shahar beklari, qozilar, eshon va mullalar Do'stbek cho'pondan bu masjid qurilishiga qancha miqdorda pul harajat qilding deganda: Do'stbek cho'pon bir yillik qo'ylarimning yungi evaziga qurildi deb javob beribdi. Usta va mardikorlarning ovqatiga so'yish uchun haydab kelingan qo'ylar ortib qolganini oshpazlar cho'pon yigitga aytibdi. Cho'pon yigit qolgan qo'ylarni shahar atrofidagi beva-bechoralarga, nogiron odamlarga ajratib beribdi. Shunda ham qo'ylarning soni kamaymabdi. Bu vaziyatni ko'rib turgan bir otaxon Do'stbek cho'ponga: «Sen saxiy ekansan, sening boyliging hech qachon kamaymaydi», deb javob beribdi.

**Qissada hissa:** Odamlarga qanchalik saxiylik qilsang, senga shuncha xudo beradi.

*Aytuvchi: 70 yoshli Po'lat bobo.*

*Yozib oluvchi: Po'latov Isroil, 6- sinf o'quvchisi*

## PODSHOH VA KAMPIR

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Qadim o'tgan zamonda bir podshoh o'tgan ekan. Podshoh har yili bir mudatga o'z vazir va askarlari bilan saroydan tashqariga ov qilish uchun jo'nab ketar ekan. Shunday ovlarning birida podshoh qanchalik harakat qilmasin, bironta ham jonzotni ovlay olmabdi.

Horib tolgan podshoh va uning vazirlari sahro o'rtasida joylashgan bir bog'-u rog'li qo'rg'onchaga nazari tushibdi. Vazirlardan biri: «Podshohim, juda ham ot minib charchadingiz. Ovimiz ham yurishmayпти, keling, mana shu qo'rg'onchada bir oz dam ol-

sak», debdi. Bu taklif podshohga ham ma'qul kelibdi. Qo'rg'oncha darvozasi oldiga borib darvozani taqillatibdi. Qo'rg'oncha ichidan bir xizmatkor yigit darvozani ochibdi va ularni ichkariga taklif etibdi.

Podshoh va vazirlarini yaxshi kutib olib, dasturxon atrofiga o'tirishni taklif etibdi. Dasturxon ustiga qo'rg'oncha atrofidagi bog'dan uzilgan shirin-shakar mevalarni tortiq qilibdi. Ularning oldiga bittadan kosa va bittadan anor qo'yishibdi. Podshoh anorning suvini kosaga siqibdi. Kosa anor suvi bilan to'libdi. Anor sharbatini ichgan podshoh va vazirlari dasturxondan boshqa hech narsa yeyisholmabdi. Yaxshi mehmondorchilikdan so'ng ular yo'lga o'tlanibdi. Haligi xizmatkor yigit ularning xurjiniga boshqa noz-ne'matlardan solib yuboribdi. Yo'lda ketayotganlarida podshohga vazirlaridan biri shunday debdi: «Podshohi olam, sizning martabangiz ulug' bo'lsin, bu qo'rg'oncha sizning hududingizda joylashgan. Qo'rg'oncha atrofi bog' bilan o'ralgan, mana shu qo'rg'oncha egasiga o'lpon solish kerak. O'lponni olsak, saroy xarajatlariga ishlatar edik». Shundan so'ng podshoh qo'rg'oncha egasiga o'lpon solish uchun chopor jo'natibdi. Qo'rg'oncha egasi kampir ekan. Kampir podshoh solgan o'lponni to'labdi. Oradan ancha vaqt o'tibdi. Podshohi olam yana ov qilishga chiqibdi. Kechga tomon yana o'sha qo'rg'onchaga borishibdi. Yana xizmatkor yigit mehmonlarni yaxshi kutib olibdi. Yana shunday dasturxon atrofiga o'tkazib, bog'dagi noz-ne'matlardan qo'yishibdi.

Podshoh va uning vazirlari dasturxonga qo'yilgan anorni qanchalik siqishmasin, kosa ichida bir piyoladan ortiq sharbat chiqmabdi. Shunda dasturxon

atrofidagilarning hammasi hayron bo'libdi. Podshoh qo'rg'oncha egasi kampirni chaqirib so'rabdi:

– Esingizda bo'lsa, biz bir yil oldin sizning mehmoningiz bo'lgan edik. O'shanda bir dona anorning suvi bir kosa bo'lgan edi. Hozir esa bir dona anorning suvi yarim kosani ham to'ldirgani yo'q. Buning siri nimada?

Shunda kampir debdi:

– Podshohimizning xalqiga bo'lgan niyati to'g'ri bo'lmaganligidan.

**Qissadan hissa:** har bir davlat podshosi o'z yurtiga nisbatan xalq qayg'usida bo'lsa, bunday mamlakat gullab-yashnashi tayindir!

*Aytuvchi: 80 yoshli Xolmat ota.*

*Yozib oluvchi: Tursunov Anvar*

## MUNDARIJA

Sehrli qalam yoxud bolaligini qo‘msagan bobo .....3

### QISSA

Aka-uka Omonboy bilan Davronboyning qishloqqa gaz olib kelgani haqida jajji qissa .....	10
Telebola .....	38
Osmondagi hayvonlar. ....	52

### HIKOYALAR

Birinchi daraxtim.....	68
Qochoqlar.....	72
Bizni nega aytmadi? .....	81
Orif cholning o‘rikzori.....	86
Ziyofat.....	90
Kichkina rais.....	97
Har ishga qodir .....	102
Lenta taqqan bir bola .....	108
Qizg‘anchiq .....	111
Yo‘lto‘sar .....	114
Maqtanchoq .....	115
Ta‘zir.....	116
Dadajon, iltimos yozmang! .....	118
Kelvordim, dada.....	120
Vali bilan Salim .....	123
Hassa .....	127
Do‘stlik.....	128
Yaxshi-yaxshi .....	132
Shoshqaloq .....	135
Tortinchoq .....	137
Quvg‘indagi hayvonlar.....	138
Osmondan muzqaymoq yoqqan kun .....	142
Ona allasi ona haqida rivoyatlar.....	148
Tuyakashning da‘vosi .....	150
Uch sayyohning safari .....	152
Rostgo‘y bolalar bahsi.....	157
Sigir so‘ygan qassobning qo‘rqinchli tushi .....	161

## RIVOYATLAR

Ota tarbiyasi haqida .....	168
Tulki, sher, fil haqida rivoyat.....	171

## O'ZIM VA O'QUCHILAR YIQQAN ERTAKLAR

Kitob keltiring bizga .....	178
Nihollar tik turib jon berarkan .....	178
Hayot shirinligi .....	183
«Botir» quyon.....	184
Yomon xotin va ajdar.....	185
Yov qochsa .....	186
Himoya .....	187
Aqlli bola.....	188
Kulol yigit.....	189
Dumsiz tulki.....	191
Ikki aka-uka .....	191
Qora podsho.....	193
Ahillikda gap ko'p .....	195
G'ozcha.....	196
Asrab olingan qiz .....	197
Oqko'ngil o'tinchi .....	198
Bog'bon .....	199
Xasis chol.....	199
Quyonglar .....	201
Laqma bo'ri.....	201
Shahzoda .....	202
Odobsiz quyongcha .....	204
Uchta cho'chqa .....	205
O'ktam .....	206
Chumchuq va qarg'a .....	207
Ovchi va ayiqcha .....	208
Aqlsiz bola .....	209
Qo'ng'iz bekach ertagi.....	211
Baxt va hasad haqida ertak .....	212
Lochin va ko'rsichqon haqida ertak .....	214
Ilm afzal.....	215
Cho'pon yigit.....	216
Podshoh va kampir .....	218

*Adabiy-badiiy nashr*

XUDOYBERDI TO'XTABOYEV

**QAYLARDASAN, BOLALIGIM**

*Qissalar, hikoyalar, ertaklar*

Muharrir

Gavhar MIRZAYEVA

Musahhih

Madina MAHMUDOVA

Badiiy muharrir

Shohruh HOSHIMOV

Texnik muharrir

Umidbek YAXSHIMOV

Kompyuterda sahifalovchi

Dildora JO'RABEKOVA

Litsenziya raqami: AI № 252, 2014-yil 2-oktabrda berilgan.  
Bosishga 2017-yil 15.05 da ruxsat etildi.  
Bichimi 84x108 1\32.  
Bosma tobog'i 6,87. Shartli bosma tobog'i 11,55.  
Garnitura «Bookman Old Style». Ofset qog'oz.  
Adadi 10000 nusxa. Buyurtma № 126.  
Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» NMMda tayyorlandi va chop etildi.  
100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

***Murojaat uchun telefonlar:***

Nashr bo'limi – 147-00-14, 129-09-72.  
Marketing bo'limi – 128-78-43; 397-10-87; faks – 273-00-14;  
e-mail: yangiasravlodi@mail.ru